

NASHR KO'RSATKICI 1404



URGANCH
INNOVATSION
UNIVERSITETI



BOBO'XUN SALIMOV
(1877-1929)

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT



URGANCH INNOVATSION UNIVERSITETI

Ijtimoiy tarmoqlari va manzili



@urganch_iu



@uriu.xz



(91) 436-20-22
(90) 436-20-22
(88) 909-22-20



@uriu



Xorazm viloyati Urganch
shahri "Mustaqillik" MFY
Gurlan ko'chasi, 2-uy



2026 (1.1)

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM**

***INNOVATSIYA
VA
TARAQQIYOT***

INNOVATION AND PROGRESS

***Ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy
JURNAL***

***Scientific-methodological, social, spiritual-educational
JOURNAL***

**2026-yil, 1-son 1-qism
2026, Issue 1, Part 1**

Bosh muharrir:

M.J.Eshmurodov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Bosh muharrir o‘rinbosari:

S. Samandarova – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

Mas’ul kotib:

U.Bekmuhammad – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Tahrir hay’ati:

G.Durdieva – Arxitektura fanlari doktori, professor.

M.Isxoqov – Tarix fanlari doktori, professor.

F.Maqsudov – Tarix fanlari doktori, professor.

A.Ashirov – Tarix fanlari doktori, professor.

G‘.Boboyorov – Tarix fanlari doktori, professor.

S.Hoshimov – Tarix fanlari doktori, professor.

O.Komilov – Tarix fanlari doktori, professor.

D.Jamalova – Tarix fanlari doktori, dotsent.

F.Boboyev – Tarix fanlari doktori, professor.

D.N.Abdullayev – Tarix fanlari doktori, professor.

X.X.Matyaqubov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

O.Radjabov – Tarix fanlari doktori, dotsent.

N.Matyaqubov – Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

T.R.Xamrayeva – Tarix fanlari nomzodi, professor.

M.Alixojiev – Tarix fanlari nomzodi, dotsent.

N.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Z.Do‘simov – Filologiya fanlari doktori, professor.

Ulug‘bek Hamdam – Filologiya fanlari doktori, professor.

Bahodir Karim – Filologiya fanlari doktori, professor.

Jabbor Eshonqul – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Asadov – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Qo‘chqorova – Filologiya fanlari doktori, professor.

Q.Ergashev – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.D.O‘razboyev – Filologiya fanlari doktori, professor.

D.Q.G‘ayipov – Filologiya fanlari doktori, professor.

A.I.Primov – Filologiya fanlari doktori, professor.

N.Hasan – Filologiya fanlari doktori, professor.

M.Pirnazarova – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

D.T.Yuldashev – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

I.Ismoilov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

J.Mahmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

Sh.Norboyeva – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

M.Tillayeva – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.Y.Xudoyberganov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

O‘.X.Rajabov – Filologiya fanlari nomzodi, dotsent.

R.B.Maxmudov – Filologiya fanlari doktori, dotsent.

F. Kenjayev – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Sh.Alimova – Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent.

Qozoqboy Yo‘ldosh – Pedagogika fanlari doktori, professor.
M.Salayeva – Pedagogika fanlari doktori, professor.
F.R.Madrahimova – Pedagogika fanlari doktori, professor.
S.K.Salayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
I.Abdullayev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.M.Sodikov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
S.S.Zokirov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
A.A.Urinov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
U.A.Otajonov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
B.T.Bayxonov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
B.B.Mullaboyev – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
D.Xudayberganov – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor.
M.Xoshimxonov – Falsafa, pedagogika, filologiya fanlari doktori, professor.
M.S.Xajiyeva – Falsafa, pedagogika fanlari doktori, professor.
O.N.Naumenko – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.A.Naumenko – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Y.M.Gancharov – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
K.V.Karpinskiy – Psixologiya fanlari doktori, professor (Belorus).
L.S.Zelensova – Iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Rossiya).
V.A.Barmin – Tarix fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.A.Veryayev – Pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya).
A.G.Abdullin – Psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya).
Almaz Ulviy – Filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon).
Azizullah Aral - Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (AQSH).
H.H.Tadjiyev – Turkologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (Qozog‘iston).

Hamkor tashkilotlar:

Xorazm viloyat turizm boshqarmasi.

Respublika ma’naviyat va ma’rifat markazi Xorazm viloyat bo‘limi.

“Jaloliddin Manguberdi” fondi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 24-sentabrdagi № 375/5 qaroriga ko‘ra “Innovatsiya va taraqqiyot” jurnali Tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

ISSN 3030-3206

Innovatsiya va taraqqiyot: ilmiy-metodik, ijtimoiy, ma’naviy-ma’rifiy jurnal.
 № 1 (36), Urganch innovatsion universiteti, 2026-yil.

MUNDARIJA:**TARIX**

SH.MATYAKUBOVA. Ilk oʻrta asrlarda xorazmning iqtisodiy hayoti: arxeologik manbalar asosida.	6
X.MATYAKUBOV, S.XUDAYNAZAROVA. Qadimgi Xorazm davlatchiligining shakllanishi va siyosiy mustaqilligi: arxeologik va yozma manbalar tahlili.	13
X.MATYAKUBOV, Z.FARXADOV. Qadimgi Xorazm davlatchiligining shakllanishi va hududiy-siyosiy taraqqiyoti.	20
R.ABDIRIMOV, F.ABDIRIMOV. Xiva shahri va savdo markazlarining oʻrgahilishi tarixidan.	27
M.SALIMOV. Jadid Bobooxun Salimovning Xiva xonligi va Xorazm respublikasi davrlaridagi lavozim va vazifalari.	37
S.DAVLETOV, Y.YULDASHEV. XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Buxoro vohasidagi ijtimoiy-madaniy jarayonlar tarixidan.	45
Q.KADAMOVA. Xorazm hunarmandchiligi ilmiy tadqiqotlarining tarixiy-metodologik tahlili.	51
G.BOBOJANOVA. Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Xorazm viloyati matbuotining tiklanishi va uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yoritishdagi roli.	56
I.TISHABAYEVA. 1989-1990-yillarda Oʻzbekistonda maktabgacha taʼlim tizimini kengaytirish siyosati.	63
U.BEKMUHAMMAD. Jadid namoyandasi Islomxoʻja: islohotlar, siyosiy kurashlar va maʼrifiy harakatchilik.	69
SH.AXMADOV. Ilk oʻrta asrlardagi xalqaro munosabatlar tarixshunosligida sugʻd va sugʻdiy savdogarlarning oʻrni.	88
B.BEKIMBETOV. Sovet davrida Qoraqalpogʻistonlik olimlarning tashabbuslarida Orol dengizining taqdiri: xatlar, murojaatlar va ularga munosabat.	98
X.Boboqulova. Oʻzbekiston tarixida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining oʻrganilish tarixi.	105
K.NURULLAYEVA, S.RAXMONOVA. Oʻzbekistonda gender tenglikni taʼminlash va xotin-qizlarning jamiyatdagi roli.	110
A.MUMINOV. Oʻzbekistonda tabiiy obyektlarning tarixiy shakllanishi va ularning turizm rivojlanishidagi oʻrni.	116
S.NURMETOV. Oʻzbekistonning bronza va temir davri qishloq jamoalari: shakllanishi, rivojlanishi va hududiy xususiyatlari.	123
SH.MATYAKUBOV. Rus manbalarida Xiva xonligining davlat va maʼmuriy tuzilishi haqida maʼlumotlar.	127

H.XUDAYBERGENOV. An'anaviy hunarmandchilikning tarixiy evolyutsiyasi va zamonaviy rivojlanish omillari (O'zbekiston misolida).	132
S.MATCHANOVA. "Lazgi" va "Tuxum barak" xorazm aholisining madaniy kodi sifatida.	136
O.SHIXOV. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lini tanlanishi va hayotga tadbiq etilishi.	142
I.RAXIMOV. Yangi O'zbekistonda xavfsiz mahalla tamoyilini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari.	148
I.IBRAGIMOV. Quyi Amudaryo vohasi aholisining hunarmandchilik tarixini arxeologik manbalarda aks etishi.	153
B.ABDIRIMOV. Markaziy Osiyo harbiy modeli va islom dunyosi: chokardan mamlukgacha.	158
N.AXMEDOVA. O'zbekiston siyosiy hayotida gender tenglik masalalari. ...	172
M.XO'JAMOV. O'zbekiston SSRda sovet hukumati yuritgan oziq-ovqat siyosati: ta'minot sharoitida musulmonlarning ijtimoiy - iqtisodiy ahvoli va islomiy qadriyatlarga munosabat.	178
I.ISMAILOVA. Abu Rayhon Beruniyning "tafhim" asaridagi "arismatika" bobi va uning ilmiy ahamiyati.	182
IQTISODIYOT	
S.ZOKIROV. Xizmatlar sohasini rivojlantirishning dolzarb masalalari.	188
R.XAYITOV. Navoiy viloyati iqtisodiyotida paxta-to'qimachilik klasterlari salohiyatidan samarali foydalanish holati.	197
I.YUSUPOVA. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish zarurligi.	202
B.MULLABAYEV. Yashil fiskal transformatsiya: ekologik soliq tizimi va byudjet xarajatlari o'rtasidagi muvozanat modeli.	207
B.BAYXONOV. Innovatsion taraqqiyotni iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sirini baholash.	218
U.QO'ZIBOEV. Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini taraqqiy qildirishning Yaponiya tajribasi.	225

TARIX**ILK O'RTA ASRLARDA XORAZMNING IQTISODIY HAYOTI:
ARXEOLOGIK MANBALAR ASOSIDA**

**Matyakubova
Shaxodat,
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent**

UO'K 907.31

Annotatsiya: Mazkur maqolada ilk o'rta asrlarda Xorazm vohasida dehqonchilik va oziq-ovqat ta'minoti tizimining shakllanishi arxeologik manbalar asosida tahlil qilinadi. Yozma manbalarda ushbu davr iqtisodiy hayoti yetarlicha aks etmaganligi sababli tadqiqotda asosan arxeologik topilmalar – don mahsulotlari urug'lari, sug'orish inshootlari, dalalar tuzilishi, omborxonalar va moddiy madaniyat yodgorliklari ma'lumotlaridan foydalanildi.

Аннотация: В статье на основе археологических источников анализируется система земледелия и продовольственного обеспечения Хорезмского оазиса в раннем средневековье. Поскольку письменные источники практически не отражают экономическое состояние данного периода, основное внимание уделено материалам археологических исследований: остаткам сельскохозяйственных культур, оросительным сооружениям, структуре полей, хранилищам и объектам материальной культуры.

Annotation: This article examines the agricultural system and food supply of the Khorezm Oasis during the Early Middle Ages based on archaeological evidence. Due to the limited representation of economic conditions in written sources of this period, the study primarily relies on archaeological data, including crop remains, irrigation structures, field layouts, storage facilities, and material culture artifacts.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, ilk o'rta asrlar, dehqonchilik, sug'orish tizimi, tariq, qovun, Amudaryo, arxeologik manbalar, oziq-ovqat madaniyati.

Ключевые слова: Хорезмский оазис, раннее средневековье, земледелие, ирригация, просо, дыня, Амударья, археологические источники, продовольственная культура.

Key words: Khorezm Oasis, Early Middle Ages, agriculture, irrigation system, millet, melon, Amu Darya, archaeological evidence, food culture.

Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida murakkab va kam yoritilgan davrlardan biri hisoblanadi. Ushbu davrda mavjud bo'lgan siyosiy tuzilmalar, ijtimoiy munosabatlar va ayniqsa iqtisodiy hayot masalalari yozma manbalarda yetarlicha aks etmagan. Xususan, Xorazm davlati iqtisodiy hayotiga oid aniq va tizimli ma'lumotlar o'rta asr mualliflari asarlarida deyarli uchramaydi. Shu sababli Xorazm vohasining ilk o'rta asrlardagi iqtisodiy ahvolini o'rganishda arxeologik manbalar asosiy ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Xorazm vohasi Amudaryo quyi oqimi hududida joylashgan bo'lib, qadimdan sug'orma dehqonchilik va rivojlangan xo'jalik tizimlari shakllangan mintaqa sifatida tanilgan. Ilk o'rta asrlarda vohaning katta qismi cho'l zonasiga aylanganligi sababli, ushbu davrga oid turar joylar, qo'rg'onlar, sug'orish inshootlari, dalalar va xo'jalik obyektlarining izlari nisbatan yaxshi saqlanib qolgan. Bu holat iqtisodiy hayotni, xususan dehqonchilik, bog'dorchilik, polizchilik va sug'orish tizimlarini arxeologik ma'lumotlar orqali tiklash imkonini beradi.

Ilk o'rta asrlar Xorazm iqtisodiy hayotini o'rganish masalasi tarixshunoslikda asosan arxeologik tadqiqotlar bilan bog'liq holda yoritilgan. Bu borada XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Xorazm arxeologiya-etnografiya ekspeditsiyasi olib borgan tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ekspeditsiya materiallarida sug'orish inshootlari, dalalarning tuzilishi, ekin turlari va qishloq xo'jaligi bilan bog'liq ko'plab daliliy ma'lumotlar qayd etilgan.

Yozma manbalarda esa Xorazm iqtisodiy hayotiga doir ma'lumotlar parcha-parcha holatda uchraydi. Masalan, ayrim arab va fors mualliflari asarlarida Xorazmda yetishtirilgan don mahsulotlari, poliz ekinlari va ichimliklar haqida bilvosita ma'lumotlar uchraydi. Biroq bu ma'lumotlar iqtisodiy tizimni to'liq tasavvur qilish imkonini bermaydi. Shu sababli yozma manbalar ko'proq arxeologik dalillarni tasdiqlovchi yoki umumiy xulosalarni mustahkamlovchi yordamchi manba sifatida qoraladi.

Ilk o'rta asrlar Xorazm vohasining iqtisodiy hayotini o'rganishda umumiy va maxsus tarixiy metodlar kompleks tarzda qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida arxeologik tahlil orqali xo'jalik faoliyati va dehqonchilik tizimlari tiklandi, tarixiy-qiyosiy metod yordamida Xorazm xo'jalik tuzilmalari O'rta Osiyoning boshqa hududlari bilan solishtirildi. Tabiiy-geografik yondashuv asosida Amudaryo havzasi, qayirlar va mikrorelief sharoitlarining sug'orishi va dehqonchilikka ta'siri tahlil qilindi. Ushbu metodologik yondashuvlar asosida

Xorazm davlatining ilk o'rta asrlardagi iqtisodiy hayoti tarixiy jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda ilmiy jihatdan yoritildi.

Ilk o'rta asrlardagi Xorazm davlatining iqtisodiy ahvoli yozma manbalarda o'z aksini topmagan. Davlatning iqtisodiy sharoitini faqat arxeologik tadqiqotlarning natijalarini tahlil qilish orqali yoritish mumkin. Xorazm vohasining ilk o'rta asrlarda o'zlashtirilgan hududlarining aksariyat qismi cho'l zonasiga aylanganligi sababli u davrga oid yodgorliklar, kanallar va dalalarning izlari ham saqlanib qolgan. Shu bilan birga yodgorliklarda tariq, jo'xori, bug'doy, sholi, arpa, qovun, tarvuz, uzum, paxta, olxo'ri, olcha, olma, o'rik, shaftoli kabi don va mevalarning urug'lari topilgan. Tadqiqotchilar topilgan urug'larni tekshirib, ularning ba'zilar bugungi kunda ham yetishtirilayotganligini asoslashgan. Jumladan, o'rikning "ko'rsodiq", "mirsanjali", "qandak", "bobo'i" kabi turlari, shaftolining "anjir shaftoli" navlariga juda yaqin bo'lgan[6,C.92.].

Arxeologik tadqiqotlar natijasida qo'rg'onlarning omborxonalaridan ko'plab tariq topilgan. Ular quritish uchun supalarning oralig'iga ham sochib tashlangan. Omborxonalarda jo'xori va qovunlar ko'p topilgan. Bu esa, ilk o'rta asrlarda aholining shu mahsulotlar eng asosiy ozuqa manbai bo'lgan deb hisoblashga imkon beradi. Ibn Fadlan tariqni xorazmliklar yo'lga ham olib chiqishadi, deb yozib qoldirgan. Tariq O'rta Osiyoda ekiladigan eng qadimiy don mahsulotlaridan bo'lib, undan ozuqa sifatida keng foydalanishgan. Tariq uniga jo'xori unini qo'shib ham non yopishgan. Uning yormasini turli bo'tqalar tayyorlashda ishlatishgan. Donini oqlab, so'k tayyorlashgan. So'k qadimdan tayyorlangan. Uni olish uchun tariq katta qozonda qaynatilgan va yoyib quritilgan. Keyin qozonda qovurilgan, shundan keyin tariq o'g'irda oqlangan. Tayyor bo'lgan mahsulot "so'k" deb atalgan. Uni sutga ivitib yeyish, talqon qilish yoki so'k oshi qilish mumkin bo'lgan. Bunday ozuqa bugungi kunda ham xorazmliklarda saqlanib kelayotir. Tariqning ko'plab topilishi bunday ovqatlar tayyorlangan bo'lishi mumkin, degan fikrga olib keladi. Tariqdan yana bo'za tayyorlagan bo'lishlari mumkin. Bo'za tariq, oqshoq, arpa, sul'i va bug'doy kabi donlardan tayyorlanadigan kayf beruvchi ichimlik hisoblanadi. O'rta Osiyoda qadimdan bo'za tayyorlaganliklarini inobatga olsak, ilk o'rta asrlarda ham shunday ichimlik bo'lgan, degan xulosa bera olamiz. At-Tabariy asarida Qutaybaning Sug'dga yurishini eshitgan Xurzod "ichib, hayotdan bahra ola boshladilar" – deb yozib qoldirgan[3,C.98.]. Bu ma'lumot esa, u davrda ham insonlar kayf beruvchi ichimlikdan foydalanganliklarini ko'rsatadi. Tariqdan bo'za tayyorlanganda dastlab u ivitilib xaltaga solinib, issiq joyga qo'yilgan.

Tariq yaxshi yetilgach, o'g'irda yanchilgan. Keyin xumga solinib achitilgan. Achigach, suzib boshqa idishga solingan. Shu bilan u ichishga tayyor bo'lgan. Bo'za to'yimli va foydali chanqoqbosar ichimlik bo'lgan. Tariqdan ko'plab ozuqa mahsulotlarining olinishi asoslanishining o'zi, nima uchun tariq ilk o'rta asr yodgorliklardan ko'plab topilgan degan savolga ham javob bera oladi. Shu bilan birga, tariq qurg'oqchilikka va sho'rga chidamliligi, tezpisharligi bilan ham dehqonchilikda ko'plab yetishtirishlariga asos bo'lgan bo'lishi mumkin.

Qovun esa, qadimdan hozirgi kungacha xorazmliklarning eng sevimli ozuqasi hisoblanadi. Orolbo'yi va Amudaryoning quyi oqimida yashovchi xalqlar qovun va qovoqni odatiy ovqat deb hisoblaydilar. Shu sababdan uzoq yo'lga chiqqanlarida ham yonlarida iloji boricha ko'proq qovun olishga harakat qiladilar. Xorazmliklar qovunni to'yimli deb hisoblashlari bilan birga uni chanqoqni bosuvchi deb hisoblashgan. Qovun qair yerlarda yuqori hosil olish imkonini bergan. Xorazmlik dehqonlar daryo bo'yidagi qairlarning o'ziga xos xususiyatlarini yaxshi bilganliklari uchun dehqonchilikni ham shu vaziyatga mos holda tashkil qilganlar. Daryo qirg'oqlariga yaqin qairlarda ekin ekilmagan, buning asosiy sababi daryo toshqin paytida suv barcha ekinlarni payhon qilish ehtimoli yuqori bo'lgan. Daryoning qirg'oqlari to'qayzorlarga aylangan. Xorazmliklar yashash joylarini toshqindan himoya qilish uchun qishloqlari va ekin dalalarini daryoning qirg'og'idan uzoqroq bo'lgan hududlarda qurganlar. Daryo qairlari daryo toshqinlari sababli tuprog'i yumshoq bo'lib qolgan. Yumshoq tuproqqa damba qurish va u yerda dehqonchilik qilish imkoni bo'lmagan. Bunday joylarga g'alla ekinlari ekishning imkoni bo'lmagan, chunki g'allaga suv zarur bo'lgan paytda, ya'ni mayning ikkinchi yarmidan boshlanadigan jaziramada bug'doy, arpa va boshqa g'alla o'simliklariga suv berilmasa, hosil nobud bo'lgan. Shuning uchun bunday qairlarda poliz ekinlari, asosan, qovun, tarvuz, qovoq yetishtirganlar. Qairlarda poliz ekinlarini yetishtirish dehqonlardan ko'p mehnat ham talab qilmagan. Poliz ekinlari ekib ketilgach, faqat hosil yig'ish uchun kelingan. Bunday dehqonchilikdan katta samara olish imkoni mavjud bo'lgan. Xorazm qovunlari o'zining shirinligi, xushbo'yiligi jihatidan yuqori bo'lganligi sababli qadimgi davrdan hozirgi kungacha o'zining dunyo miqyosida mashhurligini yo'qotmagan. Xorazm qovunlari maxsus qog'ozlarga o'ralib, Bog'dodga arab xalifaligiga ham olib borilgan[2,Б.67.]. XIV asrning boshida Xorazmga kelgan sayyoh Ibn Batuta asarida Xorazm qovunlari maxsus bobda yoritilgan.

Qovunlar Chorjo'y vohasidan Orol dengizigacha bo'lgan hududlarda Amudaryo havzasi va o'zanlari bo'ylab ekilgan. Qairlar aholi turar joyidan uzoqda bo'lganligi sababli, xorazmliklarning shahar va qishloqda yashovchi aholisida qovun pishig'ida saylga chiqishgan. Bu "daryo qidirishmasi (daryo sayli)" deb atalgan. Saylga chiquvchilar non, yog', choy olib, qovun yetishtiruvchi dehqonning chaylasida bir necha kun mehmon bo'lib, qovun va baliq iste'mol qilib yurganlar. "Daryoga chiqish, qayr qovuni va qovurilgan baliq bilan siylanish har bir shaharlikning orzusi bo'lgan", – deb yozib qoldirgan Ya.G'ulomov.

Xorazmliklar dehqonchilikni Amudaryo va uning o'zanlari qirg'oqlarida emas, balki Qoraqum, Qizilqum cho'llarining oralig'ida amalga oshirganlar. G'alla ekinlari eski daryo o'zanlari, qurigan ko'llarda, ya'ni pastak joylarda ekilgan. Bunday joylarda yer osti suvi baland bo'lganligi uchun ekinlarni sug'orish qiyinchilik tug'dirmagan. Bug'doyni yetishtirish ko'p suv talab qilgan. Shu sababdan bug'doyni faqat, hatto XIX asrda ham, o'ziga to'q bo'lgan zodagonlar yetishtirish imkoniga ega bo'lgan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida ham ilk o'rta asrlarga oid yodgorliklardan tariq va jo'xoriga nisbatan bug'doy kam topilgan. Gurunch faqat Teshikqal'aning donjon qismidan topilgan[5,C.93.]. Shu sababdan tadqiqotchilar guruch ilk o'rta asrlarda qanday ahamiyatga ega bo'lgan bo'lishi mumkin degan savolni ochiq qoldirishgan.

Burgutqal'a vohasidan ingichka tolali paxta yetishtirilgan. Undan yuqori sifatga ega bo'lgan kiyimlar tayyorlangan. Ilk o'rta asrlarda Xorazm vohasida bog'dorchilik rivojlangan. Mevali daraxtlar o'stirilgan, ayniqsa, uzumchilik rivojlangan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida uzumzor dalalarning izlari, musallas ishlab chiqarish uchun mo'ljallangan maxsus inshootlar va saqlash uchun katta xumlar aniqlangan. Uzum tasvirlar arxeologik moddiy buyumlardan ham topilgan. Suvdonda uzumzor oralab meva va uzum terib yurgan ayol, erkakning tasviri tushirilgan. Bunday tasvirlar ham o'sha davrdagi insonlarning turmush tarzini o'zida namoyon qilgan. Mehnat jarayonlari va bog'dorchilik mavzusi ifodalangan.

Amudaryo va uning o'zanlaridan chiqarilgan kanallarning suv bilan ta'minlanishi muhim bo'lganligi sababli, dastlab kanallarni qurishda daryoning past-balandligi inobatga olingan. Dehqonlar suvni dalaga yuborish uchun dalalarni pastqam yerlarda bo'lishiga alohida e'tibor qaratishgan. Ular bunday pastqam yerlarning chekka joylarini tuzatish orqali osonroq daryodan suv olish imkoniga ega bo'lishgan. Shuning uchun dehqonchilik qilishda joyning

mikrorelefida hududning barcha sharoitlariga ahamiyat berish lozim bo'lgan. Quyi Amudaryobo'yi hududlaridagi bo'lib turadigan suv toshqinlariga ham katta ahamiyat qaratilgan. Suv toshqinlaridan ekin ekishda unumli foydalanish ko'nikmasi, ilmi shakllangan. Bu xorazmlik dehqonlarning eng katta yutug'i hisoblangan. Shu uchun ilk temir davrida qurilgan dastlabki kanallar keng va sayoz tarzda bunyod etilgan, chunki kanal keng bo'lmasa, unga barcha toshqin suvlari sig'may qolishi mumkin bo'lgan. Sayozligi esa suvning tezda bug'lanib ketish ehtimolini ko'paytirgan. Toshqin davrida iste'moldan ortiqcha kelgan suv pastliklarga oqizib yuborilgan. Xorazmning ilk temir davridan boshlangan dehqonchilik madaniyatida hududlarni Amudaryo suvi qanday ta'minlashiga qarab, sun'iy sug'orish tizimi shakllantirilgan. G'arbiy Xorazmda ikkita irmoqni birlashtirgan yirik magistral kanallar qurilgan bo'lsa, sharqiy Xorazmda shodasimon kanallar sistemasi bunyod etilgan[1,C.158.].

Ilk o'rta asrlarda Xorazm vohasining o'ng qirg'oq hududi keng rivojlanish kuzatiladi. Bu tomonda Xorazmning poytaxt shahri Kat shahri ham bunyod etilgan. Bu qal'a qurilgan joyga Kat kanali bunyod etilib, voha va uning atroflari bunyod etilgan. Qo'rg'onlar atrofida dalalarning izlari aniqlangan. Dalalarga ekilgan ekinning turiga qarab, ularning shakli shakllantirilgan. Dala to'g'riburchak yoki kvadrat tarzda ishlanib, u qator-qator egatlarga ajratilib chiqilgan bo'lsa, bunday joylarga poliz ekinlari yoki uzum ekilgan bo'ladi. Ikkinchi turida dala turli hajmdagi to'g'rito'rtburchak shaklida bo'lib, yuzasi tekis bo'lsa, bunday dalalarga ko'pincha donli ekinlarni ekishgan.

Ye.E.Nezarik tomonidan Burgutqal'a vohasidagi № 13, 60 va 66-raqam bilan belgilangan qo'rg'onlar atrofidagi dalalarning tadqiqoti olib borilgan. Bu yerda dalalar ham turli hajmda bo'lib, ularda poliz, uzum va don yetishtirilgan degan xulosani bergan[4,C.95.]. Dalalarning markazida tepalik aniqlangan. U paxsa va xom g'ishtdan qurilgan bir xonali uycha bo'lib, uning 1 -1,5 metr balandlikda devori saqlanib qolgan. Devorining tashqi qismida xumcha va suv olib kelishga mo'ljallangan ikkita ko'za topilgan. Ichkari qismida hech qanday qurilma aniqlanmagan. Tadqiqotchilar fikricha, bu dalaga qarovchi qo'riqchi uchun vaqtinchalik turar-joy sifatida bunyod etilgan bo'lishi mumkin. Hozirgi kunda katta dalalarda shunday kichik uychalar quriladi. Bunday uychalardan dalada ishlash paytida va hosilni qo'riqlashda foydalanadilar. Dalalarni tadqiq qilish orqali ular qanday sug'orilgan degan savolga ham javob topish mumkin, chunki dalalarning qurilishi bugungi kun bilan deyarli bir xil.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Андрианов Б.В. Древние оросельные системы Приаралья. в связи с историей возникновения и развития орошаемого земледелия). – Москва: “Наука”, 1969. – С. 158.
2. Гуломов Я.Ғ. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. – Тошкент: “Ўзбекистон”. 1959. – Б.67.
3. История ат-Табари. – С. 98.
4. Неразик Е. Е. Сельские поселения Афригидского Хорезма... – С.95.
5. Неразик Е.Е. Сельские поселения Афригидского Хорезма. – М.: “Наука”. 1966. – С. 93.
6. Неразик Е.Е. Сельские поселения Афригидского Хорезма... – С.92.

TARIX

QADIMGI XORAZM DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA SIYOSIY MUSTAQILLIGI: ARXEOLOGIK VA YOZMA MANBALAR TAHLILI

UO‘K 907.31



Matyakubov Xamdami,
Urganch davlat
universiteti dotsenti,
tarix fanlari doktori
(DSc).



Xudaynazarova Sevara,
Yangiariq tumani
15-son maktabning
tarix fani o‘qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadimgi Xorazm davlatchiligining shakllanish jarayoni, uning siyosiy mustaqilligi va hududiy-ma'muriy tuzilish masalalari arxeologik hamda yozma manbalar asosida tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье рассматриваются процессы формирования древней хорезмской государственности, её политическая самостоятельность и особенности территориально-административного устройства на основе археологических и письменных источников.

Annotation: This article examines the formation of ancient Khorezmian statehood, its political independence, and territorial-administrative structure based on archaeological and written sources.

Kalit so‘zlar: qadimgi Xorazm, davlatchilik, siyosiy mustaqillik, Qal'aliqir, Ahamoniylar, arxeologik manbalar, tarixshunoslik.

Ключевые слова: древний Хорезм, государственность, политическая независимость, Калаликыр, Ахемениды, археологические источники, историография.

Key words: Ancient Khorezm, statehood, political independence, Qalaliky, Achaemenid Empire, archaeological sources, historiography.

Qadimgi Xorazm Markaziy Osiyodagi eng qadimiy tarixiy-madaniy hududlardan biri bo‘lib, uning davlatchilik an‘analari, siyosiy mustaqilligi va hududiy-ma‘muriy tuzilishi masalalari tarix fanida muhim ilmiy muammolardan hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlar natijasida Xorazm hududida miloddan avvalgi I ming yillikning o‘rtalariga oid rivojlangan shaharsozlik, mudofaa inshootlari, irrigatsiya tizimlari hamda markazlashgan boshqaruv unsurlari

mavjud bo'lganligi aniqlangan. Shu asosda ilmiy adabiyotlarda “Xorazm sivilizatsiyasi” tushunchasi shakllangan.

Shunga qaramay, qadimgi Xorazmning Ahamoniylar davlati bilan siyosiy munosabatlari, uning ushbu imperiya tarkibidan chiqish jarayoni va mustaqil davlat sifatida shakllanish xronologiyasi masalalari hozirga qadar ilmiy bahs-munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda.

Qadimgi Xorazm tarixini o'rganish XX asrning birinchi yarmidan boshlab izchil ilmiy yo'nalishga aylandi. Dastlabki bosqichda, asosan, arxeologik tadqiqotlar ustuvor bo'lib, Sergey Pavlovich Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik-etnografik ekspeditsiyasi natijalari asosida Xorazmda miloddan avvalgi I ming yillikda rivojlangan shaharsozlik, irrigatsiya va boshqaruv tizimi mavjudligi ilmiy jihatdan asoslab berildi. Keyingi davr tadqiqotlarida (XX asr o'rtalari) Xorazmning Ahamoniylar davlati bilan aloqalari masalasi muhokama markaziga chiqdi va Qal'aliqir yodgorligi ushbu munosabatlarning arxeologik dalili sifatida talqin qilindi.

Mazkur tadqiqot tarix fanida qabul qilingan ilmiy-metodologik tamoyillar asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va xolislik prinsiplari yetakchi metodologik mezon sifatida qo'llanilib, qadimgi Xorazm davlatchiligi muayyan tarixiy davr, tabiiy-geografik muhit va siyosiy sharoit bilan uzviy bog'liqlikda tahlil qilindi. Ishda tarixiy-taqqoslash, arxeologik tahlil, manbashunoslik va tarixshunoslik usullaridan kompleks tarzda foydalanildi. Xususan, arxeologik yodgorliklar materiallari yozma manbalar bilan qiyosiy o'rganildi hamda ilmiy adabiyotlarda mavjud qarashlar tanqidiy baholandi. Shuningdek, fanlararo yondashuv asosida tarix, arxeologiya va geografiya fanlari yutuqlari uyg'unlashtirilib, tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligi ta'minlandi.

Antik davri Xorazm (mil. avv. IV – milodiy III asrlar) arxeologik jihatdan, jumladan, moddiy va ma'naviy, madaniyat, shaharsozlik, me'morchilik va binokorlik usullari, hunarmandchilik va xo'jalik sohalariga tegishli mavzular bo'yicha o'rganilgan bo'lib, xususan, shu davrga oid yodgorliklarda olib borilgan tadqiqotlar va qo'lga kiritilgan ma'lumotlar asosida “Xorazm sivilizatsiyasi” tushunchasi tarix faniga joriy qilindi.

Shu bilan birga, Xorazmda qadimgi davlatchilik va hududiy-ma'muriy tuzilish, boshqaruv va siyosiy tarix masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganligi tufayli, bu yo'nalishda tarix fani sohasida munozarali holatlar saqlanib qolgan.

Markaziy Osiyoning boshqa tarixiy-madaniy viloyatlariga nisbatan, Xorazm Ahamoniylar davlati tarkibidan oldinroq chiqib, mustaqil davlat sifatida rivoj topganligi yozma manbalardan ma'lum. Lekin, bu voqeaning yuzaga kelishi va uning xronologiyasi masalalari bahs-munozaralarga aylandi.

Bu masalalarni aniqlash uchun avval Sariqamishbo'yi Davdon o'zanining o'rta qismida tekshirilgan Qal'aliqir 1 dan topilgan arxeologik ma'lumotlar jalb etildi. E'tiborli jihati shuki, to'g'ri to'rtburchak me'moriy tarxiga ega ushbu qal'a 60 gektar joyni egallab, qalinligi 15 metr ga teng mudofaa devorlari bilan o'rab olingan, ammo, taxminan mil.avv. V-IV asrlarda qurilish ishlari oxiriga yetkazilmay, to'xtab qolgan. Qal'a ichida pardoz berish ishlarigacha barpo etilgan, to'rtburchak shakldagi katta saroy yagona inshoot bo'lgan[7].

S.P.Tolstov bunday katta qal'a qurilishini Ahamoniylar sulolasi podsholarning irrigatsiya siyosatidan kelib chiqqan holda, ya'ni Xorazmning g'arbiy qismidagi qo'riq yerlarini o'zlashtirishi va yirik dehqonchilik vohasiga aylantirish maqsadi sifatida izohlab, bu ishlarning yakunlanmaganligi sababini Xorazmning Ahamoniylar davlati tarkibidan chiqishi bilan bog'lab talqin qilgan.

I.V.Pyankov yozma manbalar tahlili asosida bu mavzuni davom ettirgan. Tadqiqotchining xulosasiga ko'ra, fors shohi Artakserks II (mil. avv. 404-359 yillar) hukmronligi davrida Xorazm alohida satrapiyalikka aylangan va shu sababdan Qal'aliqirda Artakserks II ning noibi - satrap uchun yangi qarorgoh – saroy qurilgan. Biroq, mil. avv. V-IV asrlar chegarasida Xorazmning Fors davlati tarkibidan chiqishi natijasida saroy qurilishi to'xtab qolgan[5,C.746.].

XX asrning oxirlari – XXI asr boshlarida qadimgi Xorazm davlatchiligi tarixini qayta ko'rib chiqish va baholash zarurati vujudga kelib, yuqorida qayd etilgan masalalar o'z dolzarbligi bilan ajrala boshladi.

Yu.A.Rapoport qadimgi forslarning Xorazmdan ketib qolishini Qal'aliqir misolida arxeologik isbot sifatida yana bir bor izohlab, shuningdek, antik davr boshlanishida Xorazm tarixiga oid yozma manbalardan quyidagi ma'lumotlarni keltirgan:

Makedoniyalik Aleksandr bilan mil. avv. 334-331-yillarda kurashgan Doro III ning qo'shinlari tarkibida xorazmlik jangchilarning yo'qligi;

Yunon-Makedoniyaliklarning Sug'diyona va Ustrushonadagi harbiy harakatlari paytida dushmanga qarshi kurash olib borgan mahalliy aholi vakillarini Xorazm quvvatlab turishi va sug'diylar yo'lboshchisi Spitamenning

Xorazmda bekinishi; mil. avv. 328-yilning bahorida Xorazm shohi Farasman elchilarining Aleksandr huzuriga kelishi.

Yu.A.Rapoportdan avval S.P.Tolstov asarida huddi shunday ma'lumotlar quyidagicha yoritilib, Doro IIIning qo'shinlari tarkibida xorazmliklarning mavjud emasligi qayd etilgan. Bundan keyin asarda Aleksandrning Marokanddagi "muvaqqat qarorgohiga" 1500 chavandoz bilan birga xorasmiylar shohi Farasmaning kelishi haqida hamda Xorazm Spitamen boshchiligidagi Aleksandrga qarshi chiqqan qo'shinlarini sak-massagetlar kuchi bilan qo'llab-quvvatlashi va Spitamenning o'ziga boshpana berishi to'g'risida so'z yuritildi.

Bu bilan S.P.Tolstov mil. avv. IV asrda Xorazm mustaqil davlat sifatida tarixiy sahnada paydo bo'lib, Markaziy Osiyodagi Baqtriya va Sug'diyona kabi o'lkalarida g'olib chiqqan makedoniyaliklarga nisbatan ham mustaqil mavqeda turganligini qayd etgan. Ammo, Xorazm tomonidan saklar kuchi orqali makedoniyaliklar bilan kurashgan sug'diylarga yordam va ularning sardoriga boshpana berilganligi xususida xulosa bahslidir. Yozma manbalarda bu haqida ma'lumotlar mavjud emas. Masalan, Aleksandrning harbiy yurishlariga oid asosiy manba hisoblangan yunon tarixchisi Arrian asarida "skif-chorvadorlari" (asarda saklar "skiflar" deb atalgan), "skif otliqlari va Spitamen jangchilari", "skiflar-massagetlarning yurti", "massagetlarning otliq qo'shini", "skif chavandozlari" kabi tushunchalar hamda Spitamenning skiflar-massagetlarning yerlarida yoki sahrosida bekinishi haqida ma'lumot bor[1]. Ko'chmanchilar yunon-makedoniyaliklarga qarshi janglarda o'z hohish – irodasi bilan mustaqil ishtirok etishgan, shuningdek, saklar Xorazm davlati tarkibiga kirmagan.

B.I.Vaynberg fikricha, (mil. avv. IV asrda) Xorazm mustaqil davlatga aylanib, boshqaruv institutlarini Ahamoniylardan meros qilib olgan, chunki bu davrda davlat qurilishida mahalliy an'analari shakllanmagan va podsho hokimiyatining instituti mavjud emas edi, shuningdek, Xorazm shohi Farasman xususida ma'lumot shubhalidir, aslida Farasman degan ismga Kavkaz ortidagi Iberiya shohi ega bo'lgan va u Xorazm hukmdori sifatida Arrianning asariga noto'g'ri tushib qolgan, shuning uchun ham Xorazmda podshoh boshqaruvi ahamoniylar davridan so'ng shakllana boshlagan[2,C.237.].

B.I.Vaynberg ko'p yillar davomida Xorazm arxeologik ekspeditsiyasi izlanishlari va kashfiyotlarida ishtirok etgan bo'lsa-da, lekin tadqiqotchining yuqorida keltirilgan qarashlari va xulosalariga rozi bo'lib, ishonish qiyin. XXI asr boshida namoyon bo'lgan bunday yondashuvga sobiq sovet davri tarixshunosligida Markaziy Osiyo xalqlari tarixida Ahamoniylar davriga alohida

ahamiyat berib, uning muhimligini oshirish bilan bog‘liq holda talqin qilish an‘analari ta’sir qilgan. Misol tariqasida, Ahamoniylar saltanatining siyosiy tarixiga bag‘ishlangan monografiya muallifi M.A.Dandamayevning xulosasiga ko‘ra, Ahamoniylar davriga qadar Markaziy (O‘rta) Osiyoda shaharsozlik madaniyati rivojlanmagan, hattoki hunarmandchilik dehqonchilikdan ajralmagan ekan. Bu joyda urug‘chilik tizimidan davlatchilik tizimiga o‘tish bosqichi nazarda tutilgan, shu bois tadqiqotchining fikri bo‘yicha, mintaqada shaharlar mil. avv I ming yillikning o‘rtalarida shakllana boshladi.

Mil.avv. I ming yillikning o‘rtalari deganda, mil.avv. VI-V asrlar, ya’ni Ahamoniylar davri nazarda tutilmoqda. Biroq, yuqorida tilga olingan asar nashr etilgan chog‘ida Markaziy Osiyoning janubida, Ahamoniylardan ancha avval qadimiy shaharsozlik madaniyatining shakllanganligi tarix fanida ma’lum edi. Mazkur holat M.A.Dandamayevning e’tiboridan chetda qolganligi g‘alati tuyuladi.

Muammoning muhokamasiga oid boshqa namunaviy misolni keltirish mumkin. M.A.Dandamayev va V.G.Lukoninning hammualliflikda yaratilgan monografiyasida bayon etilishicha, qadimgi forslar zabt etilgan mamlakatlarning ustidan nazorat qilish va boshqaruv tizimini yaratish paytida ancha qiyinchiliklarga duch kelishgan. Buning sababi shuki, Ahamoniylar davlati tarkibiga iqtisodiy rivojlangan, o‘z davlat tuzumi va boshqaruviga qadimdan ega bo‘lgan Elam, Bobil, Misr kabi mamlakatlar qatorida, “urug‘chilik tuzumining yemirilishi bosqichida kun kechirgan, yovvoyi mevalarni terib yurgan, matriarxat munosabatlari an‘analarini saqlab turgan massagetlar va boshqa qabilalar kirgan” ekan[4,C.108.]. Ko‘rinib turibdiki, ushbu yondashuv qadimiy mamlakatlar hamda xalqlar va qabilalarni “rivojlangan” va “qoloq” etnoslarga ajratuvchi g‘oyasining yorqin namunasidir.

Aslida qanday bo‘lgan, degan savolga Ahamoniylar davrigacha Orolbo‘yi sak qabilalari va qadimgi Xorazm tarixi misolida tadqiqotning oldingi bobida javob berilgan. Muammo yuzasidan qisqacha xulosa shundan iboratki, Ahamoniylar davlatining tashkil topishidan ancha ilgari Orolbo‘yida va Uzboy o‘zani hududlarida yashovchi saklar, massagetlar moddiy madaniyat, harbiy ish va chorvachilik sohalarida muvaffaqiyatlarga erishgan. Ular ko‘chmanchilik turmush tarziga xos boshqaruv tizimini yaratib, qabilalar uyushmalariga birlashgan.

Gerodotning “Tarix” asarida skiflar hamda massagetlarning yo‘lboshchilari “shoh” deb atalgan[3,C.205.]. Behistun bitiklarida saklar sardori “Skunxa” deb uqtirilgan.

Ahamoniylar davlatiga asos solgan shoh Kir II boshchiligidagi Fors qo‘shinlari massagetlarning piyoda jangchilari, yengil va og‘ir qurollangan otliq suvoriylari taktikasiga duch kelib, o‘zaro jangda mag‘lubiyatga uchrangani, qadimgi harbiy ish va san‘at, harbiy taktika va strategiya tarixida keng ma‘lum bo‘lganligi, massagetlarni “yovvoyi mevalarni terib yuruvchilar”, ya‘ni qoloq qabilalar deb tasvirlash va baholashni butunlay inkor etadi. Gerodotning asarida qayd etilishicha, Kir II ning Sharqdagi mamlakatlar va xalqlarni bo‘ysundirish rejasida saklar ham qayd etilgan.

Bu birinchidan, iqtisodiy jihatdan taraqqiy topgan va o‘z davlatchiligi qadimiy an‘analariga ega bo‘lgan Bobil va Misr qatorida saklar harbiy ahamiyatining muhimligini ko‘rsatib beradi. Shu sababdan saklar va massagetlarni “urug‘chilik tuzumining yemirilish bosqichida kun kechirgan” qabilalar deb ta’riflash haqiqatga to‘g‘ri kelmaydi. Yozma manbalar ma’lumotlari bunday qarashlarni inkor etadi[6,B.189.].

Yuqorida tilga olingan B.I.Vaynberg qarashlariga nisbatan shuni ta’kidlash lozimki, Xorazmning hududiy-ma’muriy tuzilishi va markazlashgan boshqaruv tizimi Ahamoniylardan avval shakllana boshladi, hududiy chegaralariga ega muayyan yerlar va shu joylarda yashovchilar Xorazm va xorasmiylar deb atala boshladi. Ammo bu “Xorazm” toponimining kelib chiqishi mavzusiga oid qarashlar XXI asr boshlarida biroz o‘zgarib, E.V.Rtveladze tomonidan mil. avv. VI asrning ikkinchi yarmida Quyi Amudaryo havzasiga Baqtriyaning shimoli-g‘arbiy qismidan ko‘chib kelgan “xorasmiylar” bilan bog‘liq holda talqin qilindi. Ehtimol, shu xorasmiylardan “Farasman sulolasi” chiqib, bu sulola vakili mil. avv. V asr boshlarida yoki mil. avv. IV asrning ikkinchi yarmida “Xorazmning ilk davlatchiligi boshlanishiga” asos solgan, deb faraz qilindi.

“Mil. avv. V asr boshlarida” deganda bu joyda shubhasiz, texnik xatoga yo‘l qo‘yilgan, aslida “mil. avv. IV asr boshlarida” bo‘lishi kerak. Biroq, “Xorazm” toponimini guyoki Baqtriyadan ko‘chib kelgan “xorasmiylar” etnonimi bilan bog‘lash maqsadga muvofiq emas, sababki, Xorazm “mamlakat” ma’nosida yunon tarixchilari Gekatey va Gerodot asarlarida tilga olingan “xorasmiylar”ga nisbatan ancha avval “Avesto”ning Yasht kitobida Xarayva (yunon shaklida-Areyya), Mouru (Marg‘iyona), Gava Sug‘da (Sug‘diyona) kabi tarixiy-madaniy viloyatlari bilan bir qatorda qayd etilgan.

E.V.Rtveladzening yondashuvi bo'yicha, "Xorazm" atamasining etimologiyasi – kelib chiqishida etnik omil, go'yo ko'chib kelgan xalqning nomi, uning yashash yerlarining nomlanishini belgilab bergan. Bu taxmin ham ehtimoldan holi emas, lekin ko'p holatlarda qadimgi dehqonchilik viloyatlarning nomlanishida geografik omil katta ahamiyat kasb etgan. Masalan, yunon tarixchilari va geograflarining yozishicha, Baqtr degan daryosidan shahar, viloyat va xalqning nomi kelib chiqqan, (Baqtra shahri, Baqtriya va baqtriyaliklar). Ariya – Herirud daryosi havzasidagi viloyat, Marg'iyonaning etimologiyasi esa bevosita Murg'ob daryosi bilan bog'liq bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Арриан. Поход Александра // Перевод М.Е. Сергеенко. – М. – Л., 1962. Кн. IV. 5,6,7,16.
2. Вайнберг Б.И. Заключение // Калалы-гыр 2. Культовый центр в Древнем Хорезме IV-II вв. до.н.э. – М.: ИВЛ, 2004. – С. 237.
3. Геродот. Кн. I. – С. 205.
4. Дандамаев М.А., Луконин В.Г. Культура и экономика древнего Ирана. – М.: Наука, 1980. – С.108.
5. Литвинский Б.А., Пьянков И.В. Средняя Азия в ахеменидское время // История древнего Востока: от ранних государственных образований до древних империй. – М.: 2004. – С.746.
6. Матякубов Х. Хоразм воҳаси бронза асри ва илк темир даври тарихи. – Б. 189.
7. Толстов С. П. По следам древнехорезмийской цивилизации. – М.: – Л.:АН СССР, 1948. – С. 93-94.; Рапопорт Ю. А, Лапиров-Скобло М. С. Раскопки дворцового здания на городище Калалыгыр 1 // МХЭ. – М.: 1963. Вып 6. – С. 142-155.

TARIX**QADIMGI XORAZM DAVLATCHILIGINING SHAKLLANISHI VA HUDUDIY-SIYOSIY TARAQQIYOTI****(mil. avv. IV – milodiy III asrlar): arxeologik va yozma manbalar asosida****UO‘K 907.31**

Matyakubov Xamdami,
Urganch davlat
universiteti dotsenti,
tarix fanlari doktori
(DSc).



Farxadov Zoyir,
Urganch davlat
universiteti magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada qadimgi Xorazm davlatchiligining shakllanish jarayoni va uning hududiy-siyosiy taraqqiyoti miloddan avvalgi IV asrdan milodiy III asrgacha bo‘lgan davr doirasida arxeologik va yozma manbalar asosida tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье рассматриваются процессы формирования древнехорезмийской государственности и её территориально-политического развития в хронологических рамках IV в. до н.э. – III в. н.э. на основе археологических и письменных источников.

Annotation: This article examines the formation of ancient Khorezmian statehood and its territorial-political development from the 4th century BC to the 3rd century AD based on archaeological and written sources.

Kalit so‘zlar: qadimgi Xorazm, davlatchilik, hududiy-siyosiy taraqqiyot, Qal’aliqir, Uzboy havzasi, Ahamoniylar, arxeologik manbalar.

Ключевые слова: древний Хорезм, государственность, территориально-политическое развитие, Калаликыр, бассейн Узбоя, Ахемениды, археологические источники.

Key words: Ancient Khorezm, statehood, territorial-political development, Qalalikyir, Uzboy basin, Achaemenid Empire, archaeological sources.

Qadimgi Xorazm Markaziy Osiyodagi eng qadimiy tarixiy-madaniy hududlardan biri bo‘lib, uning davlatchilik an‘analari, hududiy-siyosiy taraqqiyoti va mustaqil siyosiy subyekt sifatida shakllanish jarayoni tarix fanining muhim ilmiy muammolaridan hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalari Xorazm hududida miloddan avvalgi I ming yillikning o‘rtalaridan boshlab rivojlangan irrigatsiya tizimlari, shaharsozlik madaniyati, mudofaa inshootlari va boshqaruv unsurlari mavjud bo‘lganligini ko‘rsatadi. Bu holat Xorazmda markazlashgan davlatchilik institutlarining erta shakllanganidan dalolat beradi.

Shu bilan birga, Xorazmning Ahamoniylar davlati bilan siyosiy munosabatlari, ushbu imperiya tarkibidan chiqish jarayoni va mustaqil davlat

sifatida rivojlanish bosqichlari masalalari tarixshunoslikda hanuzgacha bahsli bo‘lib qolmoqda.

Qadimgi Xorazm tarixini o‘rganish XX asrning birinchi yarmidan boshlab tizimli ilmiy yo‘nalishga aylandi. Dastlabki bosqichda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida Xorazm hududida qadimgi shaharlar, qal’alar va sug‘orish tizimlari aniqlanib, Xorazmda rivojlangan xo‘jalik va siyosiy tuzilma mavjud bo‘lganligi ilmiy jihatdan asoslandi. Ushbu tadqiqotlarda Xorazmning irrigatsiya siyosati va hududiy tashkiloti muhim ilmiy masala sifatida talqin qilindi.

Keyingi davr tarixshunosligida Xorazmning Ahamoniylar davlati bilan munosabatlari alohida muhokama markaziga chiqdi. Ayrim tadqiqotlarda Qal’aliqir kabi yirik inshootlar Ahamoniylar siyosati bilan bog‘langan bo‘lsa, boshqa ishlarda Xorazmning miloddan avvalgi V–IV asrlar chegarasida mustaqil siyosiy tuzilma sifatida shakllangani ta’kidlandi. XX asr oxiri va XXI asr boshlarida esa antik yozma manbalar va arxeologik materiallar qiyosiy tahlil qilingan.

Mazkur tadqiqot tarix fanida qabul qilingan ilmiy-metodologik tamoyillar asosida olib borildi. Tadqiqot jarayonida tarixiylik va xolislik prinsiplari yetakchi metodologik mezon sifatida qo‘llanilib, qadimgi Xorazm davlatchiligi muayyan tarixiy davr, tabiiy-geografik muhit va siyosiy sharoit bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilindi. Ishda tarixiy-taqqoslash, arxeologik tahlil, manbashunoslik va tarixshunoslik usullaridan kompleks tarzda foydalanildi.

“Xorazm” so‘zining etimologiyasi hozirgacha aniqlanmagan. Uning mazmuniga ham geografik sharoit (bepoyon dashtlar o‘rtasida viloyat va Amudaryo) ta’sir qilishi mumkin edi, shuningdek, bu atama ma’nosiga tegishli tadqiqotchilar tomonidan taklif etilgan. “chorva uchun yaxshi istehkomlarga ega o‘lka” tushunchasida mil.avv. VII-VI asrlar Xorazm tarixiga xos xo‘jalik-madaniy belgilar o‘z aksini topgan. Bizning fikrimizcha, xorazmliklarning o‘ziga nom berishi, ular joylashgan hudud nomi bilan bog‘langan. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlar, Xorazmda davlatchilik institutlari, boshqaruv tizimi, me’morchilik va shaharsozlik madaniyati asoslarining yuzaga kelishini faqat Ahamoniylar davri bilan bog‘lab, haqqoniy tarixiy jarayon deb yoritishning noto‘g‘ri jihatlarini ochib berdi. Shu qatorda ko‘chib kelgan xorasmiylarga mansub sulola tomonidan “Xorazmning ilk davlatchiligi boshlanishiga asos solinishi xususida aytilgan fikr yanglishdir. Shuningdek, saklar - massagetlarning ijtimoiy tuzumi va madaniyati darajasi haqidagi salbiy xulosalarning haqiqatga mos kelishi dargumon. Ilmiy

adabiyotlarda mavjud xulosalarga ko'ra, urug'chilik aloqalari, urug' va qabilalarga bo'linishi tamoyili ko'chmanchilarda tarixning turli davrlarida uzoq vaqt davomida saqlanib qolgan, lekin bu mutlaqo ularning o'z ijtimoiy va davlatchilik institutlariga ega bo'lmaganini ko'rsatib bermaydi[6,C.91.].

Shuni ta'kidlash kerakki, deyarli 200 yil vaqt davomida Markaziy Osiyo viloyatlari hozirgi Toshkent vohasi va Markaziy Farg'ona vodiysidan tashqari Ahamoniylar davlati tarkibiga kirgan. O'troq aholining hududiy tashkil etilishi ma'muriy birliklar: dehqonchilik voha-tumanlar, viloyat hududlarga bo'linishi tamoyili bo'yicha amalga oshirilardi. Mazkur tizim va etnik hududlar Markaziy Osiyoda hali ahamoniylargacha ajralib turardi, keyinroq Doro I davrida zabt etilgan hududlar to'laydigan alohida harbiy – ma'muriy satrapiyalarga bo'lingan bo'lib, bu ma'muriy birliklar ichida saklarga ancha erkinlik berilgan, ko'chmanchilarni o'z qabilalarining yo'lboshchilari boshqarib turishgan.

Lekin bunday o'lgan saltanatni, harbiy kuchlarga asoslanib, idora qilishi nihoyatda og'ir vazifaga aylanib borgan, fitnalar, taxt uchun kurash, satrapiyalarda markaziy hokimiyatga qarshi qo'zg'olonlar ohir-oqibatda Ahamoniylar davlatini zaiflashtirdi. Mil. avv. V asrning oxirlariga kelib turli xalqlar va qabilalar forslardan ozod bo'la boshladi.

Ayrim fikrlarga ko'ra, fors shohi Artakserks II ning hukmronligi oxirida (mil. avv. 359-yilgacha) Xorazm, Sug'd va sak qabilalari qaramlik mavqedan Fors podshohlikning ittifoqchilariga aylanishgan[4]. Bu masalani mahsus tahlil qilgan A.S.Balaxvansev, Xorazm Ahamoniylar davlati tarkibidan mil. avv. 410-360-yillari orasida yoki mil.avv. V asrning oxirida chiqib, mustaqil rivojlangan deb yozgan[1]. Shu joyda noaniq, bir-biriga zid sana keltirilgan.

E.V.Rtveladze ham mazkur muammoga diqqatini jalb etib, masala yuzasidan o'z fikrlarini bayon etdi. Olimning aytishicha, Xorazm qisqa vaqtli ozodlikka erishgan, chunki podshoh Artakserks III davrida (mil. avv. 359-338-yillari) siyosiy vaziyat tubdan o'zgarib Xorazm boshqa mamlakatlar va isyon ko'targan qabilalar singari Ahamoniylar davlati tarkibiga qaytarilgan[5,C.61.].

Yozma manbalar guvohlik berishicha, Artaserks III Kichik Osiyo, Suriya va Finikiyada isyonlarni bostirib, Misrni qaytadan zabt etgan. Podshoh yollangan yunon jangchilari kuchiga tayanib, qo'zg'olonchilarga qarshi haddan tashqari shafqatsiz usullarini ishlatgan va Fors davlatining talaygina qismi oxirgi marta qayta tiklangan.

E.V.Rtveladzening yozishicha, Fors shohi Doro III ning hukmronligi yillarida (mil. avv. 338-330) Xorazm mustaqil davlat bo'lgan. Bu borada, mil.

avv. 328-yilda Makedoniyalik Aleksandrning huzuriga Xorazm hukmdori Farasmanning kelishi haqida Arrian asaridagi ma'lumot alohida ahamiyat kasb etgan.

Yunon tarixchisi shunday yozadi: Aleksandrning huzuriga o'z otliq qo'shini bilan xorasmiylar podshohi Farasman yetib keladi. Ushbu qisqa axborotda Xorazm hukmdori, xorazmliklarning "podshohi" deb atalgan, ikkinchidan, Xorazm g'arbda Kavkazortidagi Kolxidaga chegaradosh bo'lgani e'lon qilingan. O'z paytida bu axborotni inobatga olgan V.V.Bartold, Xorazmning hukmronligi Sharqiy Yevropaning janubi-sharqiy qismigacha (Volgabo'yiga qadar) yetgan, deb hisobladi[2,C.28.].

Bu fikrni rivojlantirgan S.P.Tolstovning nuqtai nazari bo'yicha, arxeologik va tarixiy ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, Orolbo'yi sarmat qabilalarning Volgabo'yi dashtlariga tomon kuchli harakati – migratsiyalari ayni mil. avv. IV asrga to'g'ri keladi, o'sha davrda xorazmliklar o'z siyosati ta'sirini Volgabo'yi hududlarigacha o'tkazgan. Shu bilan S.P.Tolstov mil.avv. IV asrda Xorazm podshohligining hududiy chegaralari va siyosiy ta'siriga oid masalani ilgari surgan.

Arxeologik ma'lumotlar guvohlik berishicha, mil.avv. IV asrda sarmatlar, Janubiy Ural, Shimoliy Kaspiybo'yi va Quyi Don daryosi o'rtasidagi yerlarda yashab, katta qabilalar uyushmasiga birlashgan[7,C.76.]. Shu sababdan, ular xorazmshohlarning hukmronligi ostida yoki hokimiyatining siyosiy ta'sirida bo'lganligini tasavvur qilish mushkul.

Ayrim tadqiqotchilar, sarmatlarning moddiy madaniyati ashyolarini, ayniqsa, qurol-yarog'larini, Sharqiy Orolbo'yi saklarining buyumlari, qurol-yarog'leri va ot anjomlari bilan solishtirib, sarmatlarning hiyla qismining kelib chiqishni Orolbo'yi dashtlarida yashagan ilk ko'chmanchilar bilan bog'laydilar. Ushbu yondashuv keyin arxeologik tekshirishlar natijasida o'z isbotini topdi. Ustyurtning janubi-sharqiy qismida mil.avv. V-IV asrning boshlariga oid sarmatlarning mozor qo'rg'onlari kashf etilib o'rganildi. Qo'rg'onlardan temirdan ishlangan qilichlar, uzun pichoqlar, o'q uchlari va qadimgi Xorazm kulollari yasagan sopol idishlari topildi. Ustyurtda, Xorazm chegaralaridagi sarmatlarning qishliqlari joylashib, xorazmliklar va sarmatlar o'rtasida iqtisodiy ayirboshlash tashkil etilgan ekan. Ustyurt hududlari Xorazm chegaralarida joylashgan.

Xorazm G'arbiy Gruziyadagi Kolxida va kolxlarga hech qachon qo'shni bo'lmagan, albatta. Arrian Farasmanning hikoyasini badiiylashtirib, uni

qo'shimchalar bilan boyitgani bo'lishi mumkin. Hikoyada kolxlar qatorida, yunonlar afsonalarida mashhur bo'lgan qurollangan botir ayollar- amazonkalar tilga olingan.

Lekin bu masalani boshqa nuqtai nazardan ko'rib chiqish mumkin. Mil. avv. IV asrda Amudaryo Uzboy o'zani orqali Kaspiy dengiziga quyilgan. Shu tufayli Xorazmning Uzboy o'zani va Kaspiy dengizi suv yo'lidan Kavkaz orti mamlakatlari bilan bog'lanish va savdo-sotiqni rivojlantirish imkoni paydo bo'ldi[3]. Bu davrda yuqori va O'rta Uzboy o'zani atroflarini ko'chmanchi chorvador qabilalari keng o'zlashtirila boshlashdi.

Xorazmliklarning ko'chmanchilar bilan munosabatlari ko'p holatlarda osoyishta, o'zaro iqtisodiy aloqalar asosida rivojlangan bo'lsada, ammo Uzboydagi suv yo'lidan foydalanish, kemachilikni rivojlantirish kabi vazifalari bu yo'lni nazorat qilishni amalga oshirish talab etgan. Shuning uchun Sariqal'a kabi harbiy istehkomlari barpo etildi hamda mudofaa devorlari bilan o'rab olingan Qal'aliqir 2 ibodatxonasi va dehqonchilik uy-qo'rg'onlari qurildi. Bu ishlar Uzboy suv yo'li orqali uzoq masofadagi iqtisodiy aloqalarni olib borishi maqsadi bilan bog'langan edi.

Mil.avv. V-IV asrlarda Kolxida Janubiy Kavkazdagi eng qudratli davlatga aylanib, Midiya bilan o'zaro aloqalarni yo'lga qo'ygan, Midiya esa Janubiy Kaspiybo'yi hududlarini o'z ichiga olgan. Shu sababli, Xorazmning Uzboy o'zani va Kaspiy dengizi suv yo'lidan Midiyaga yetib borishi va keyin Kolxida bilan ham bog'lanishga imkoni bo'lgan.

E.V. Rtveladzening fikriga ko'ra, Xorazm shohi Farasman yuqorida tasvirlangan siyosiy vaziyatdan xabardor bo'lib, o'z obro'sini uqtirib o'tish uchun qudratli davlatga qo'shni bo'lishini aytgan. Shu bilan birga tadqiqotchining yozishicha, Farasman davrida qadimgi Xorazm davlati shimolda va shimoli-g'arbda sarmatlar joylashgan hududlar bilan chegaradosh bo'lgan, janubiy chegaralari esa O'rta Amudaryo sarhadlaridan o'tgan, g'arbda Xorazmning siyosiy ta'siri doirasiga Kaspiybo'yi yerlari kirgan, podshohlikning markazini Quyi Amudaryoning so'l va o'ng sohil hududlari tashkil etib, davlatning poytaxti Hazorasp qal'asida joylashganligi ehtimoldan holi emas.

Mazkur tadqiqotning oldingi qismida, xorazmliklarning hududiy joylashish chegaralarining shakllanishi va Xorazmning alohida hududiy-ma'muriy birliklarga bo'linishi jarayonlari Ahamoniylar davridan ilgari, Amudaryoning so'l sohil yerlarida namoyon bo'lganligi ko'rsatib berildi. Mil.avv. V asrda Amudaryoning o'ng sohildagi Ko'hna Oqchadaryo deltasida Dingilja

dehqonchilik voha-tumanining vujudga kelishi va o'troq aholini hududiy joylashishining kengayib borishi oqibatida, Janubiy Orolbo'yidan O'rta Amudaryo havzasiga qadar yerlarni o'z ichiga olgan Xorazm hududi geografik va siyosiy jihatdan shakllandi.

Mamlakat hududi avval shimoli-g'arbda Ustyurt, janubda O'ngizorti Qoraqumi va O'rta Amudaryo havzasi, sharqda Qizilqum va g'arbda Sariqamish ko'li va Yuqori Uzboy havzasi kabi tabiiy-geografik joylar bilan cheklandi. Tabiiy sharoit, geografik muhit, Amudaryo tarmoqlarining faoliyati, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, aholining hayoti, xo'jalik sohasi va turmush tarziga ta'sir qilib, tarixiy jarayonlar, dastavval, mil. avv. IV asrdan boshlab, yangi davlatchilik tizimi rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Shu sababdan tadqiqotlarda, Xorazm tarixidagi mil.avv. IV – milodiy III asrlarni “Qadimgi Xorazm podsholigi” davri deb atash taklif qilinib, uning taraqqiyotida madaniy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni arxeologik ma'lumotlar asosida o'rganishning muhim jihatlari ko'rsatib berildi. Tadqiqotning ushbu bandida tahlil etilgan ma'lumotlar Xorazmda markazlashgan davlat mil.avv. IV asrning boshlaridan shakllana borganidan darak beradi.

Mil.avv. V-IV asrlarda, Xorazm vohasi chegaralaridagi hududlar (Quyi Sirdaryo, Ustyurt, Uzboy havzasi) ko'chmanchi chorvador qabilalarga tegishli bo'lgan. O'rta Amudaryo havzasida Ko'zaliqir madaniyatiga oid Qo'shqal'a va Baqtriyaning harbiy istehkomi Odoytepaning topografik joylashishi e'tiborga molik. Bu yerdan Amudaryo so'l sohili bo'ylab, Marg'iyona va Baqtriyadan Xorazmga olib boruvchi qadimiy yo'l o'tib, shu joy Xorazmning janubiy chegarasi bo'lgan. Shuning uchun ham, antik davrda Xorazm davlati ko'chmanchilar va mintaqadagi janubiy sivilizatsiyalari bilan o'zaro madaniy-iqtisodiy ta'sir va aloqalar sharoitida taraqqiy topgan.

Xorazm mamlakat sifatida ilk yozma manbalarda tilga olinib, uning aholisi yunon tarixchilarning asarlarida “xorasmiylar” deb atalgan. Mil. avv. IV asrda xorazmliklar o'z dini, san'ati va yozuviga, yuqori darajada taraqqiy etgan me'morchilik va shaharsozlik madaniyatiga ega bo'lgan.

Ushbu holat qadimgi Xorazm davlatchiligi tuzumiga xos xususiyatlarini ochib berish, uning rivojlanishida aholining hududiy tashkil etilishi va ma'muriy birliklar, qadimiy urbanizatsiya jarayonlari, iqtisodiy va madaniy hayot, ichki va tashqi aloqalar kabi dolzarb masalalarni ko'rib chiqish va umumlashtirish taqozo etadi.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Балахванцев А.С. Отделение Хорезма от государства Ахеменидов // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Тошкент: 2013. – С.58, 60.
2. Бартольд В.В. Сведения об Аральском море и низовьях Амударьи с древнейших времен до XVII века // Сочинения. – М. Наука, 1965. Т. III. – С.28.
3. Вайнберг Б.И. Водный торговый путь по Амударье и культовые центры вблизи него // Проблемы истории филологии, культуры. – Магнитогорск, 2005. – С.15.; Мавлонов Ў. Марказий Осиёнинг қадимги йўллари. – Тошкент: Akademiy. 2008. – Б. 234-236.
4. Дандамаев М.А. Политическая история... С. 248.
5. Ртвеладзе Э.В. Формирование первого независимого государства на территории Хорезма. Границы государства при царе Фарасмане // Хорезм в истории государственности Узбекистана. – Ташкент: 2013. – С. 61.
6. Сагдуллаев А.С. Среднеазиатское Двуречье в системе государства Ахеменидов // История государственности Узбекистана. Т. I. – Ташкент: Узбекистан, 2009. – С.91.
7. Смирнов К.Ф. Кочевники Северного Прикаспия и Южного Приуралья скифского времени // Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979. – С.76.

TARIX

XIVA SHAHRI VA SAVDO MARKAZLARINING O'RGAHILISHI TARIXIDAN

UO'K 907.31



**Abdirimov
Razzoqberdi,
Urganch innovatsion
universiteti professori.**



**Abdirimov Feruzjon,
Urganch innovatsion
universiteti magistri.**

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xiva shahrida qadimgi va o'rta asrlarga oid arxeologik tadqiqot natijalari, yozma manbalardagi ma'lumotlar yoritib berilgan.

Аннотация: В статье представлены результаты археологических исследований в древнем и средневековом городе Хиве, сведения из письменных источников.

Annotation: This article presents the results of archaeological research in the ancient and medieval city of Khiva, information from written sources, and stages of development.

Kalit so'zlar: Xiva, Xeva, Xevaqa, Xeykanik, Polvonyor, Makdusiy, Istaxriy, Yaqut, Mirxond, Y.G'ulomov, A.Askarov, M.Mambetullayev, G'.Xodjaniyozov.

Ключевые слова: Хива, Хева, Хевак, Хейканик, Полвонйор, Макдусий, Истахрий, Якут, Мирханд, Ы.Гуломов, А.Аскарлов, М.Мамбетуллаев, Г.Ходжаниезов.

Key words: Khiva, Kheva, Khevaqa, Heikanik, Polvonyor, Makdusiy, Istakhriy, Yakut, Mirkhand, Y.Gulomov, A.Askarov, M.Mambetullayev, G.Khodjaniyozov.

Xiva — Xorazm vohasining eng qadimiy va betakror shaharlardan biri bo'lib, uning shakllanishi va taraqqiyoti Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi tarixida alohida o'rin tutadi. Arxeologik tadqiqotlar, yozma manbalar va tarixiy rivoyatlar shaharning ildizlari miloddan avvalgi VI–V asrlarga borib taqalishini ko'rsatadi. Ichan qal'a hududida olib borilgan qazishmalar Xivaning qadimgi davrlardan oq yirik mudofaa tizimiga ega bo'lgan shahar sifatida shakllanganini tasdiqlaydi. O'rta asr arab geograflari, mahalliy tarixchilar va sayyohlar shaharni yirik savdo va madaniy markaz sifatida tilga olganlar.

Xiva shahrining shakllanishi, rivojlanishi va tarixiy topografiyasini o'rganishda boy yozma manbalar, arxeologik tadqiqotlar va zamonaviy tarixshunoslik ishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Mazkur tadqiqotda dastlab X asrdan boshlab shakllangan arab va fors geograflarining ma'lumotlari tahlil qilindi. Makdusiy, Istaxriy va Yoqut Hamaviy kabi mualliflarning asarlarida Xiva "sahro chegarasidagi katta shahar", "Xeykanik sug'orish tizimi bilan bog'langan markaz" sifatida tilga olinadi. Ushbu manbalar Xivaning IX–XI asrlar oralig'ida yirik savdo va diniy markaz sifatida shakllanganini ko'rsatadi.

Keyingi davrlarga oid manbalarda — XIII–XV asr tarixnavislaridan Nizomiddin Shomiy, Abdurazzoq Samarqandiy, Mirxond hamda tarixchi Abulg'ozzi Bahodirxon asarlarida Xivaning siyosiy hayoti, shaharsozlik an'analari hamda u bilan bog'liq afsonaviy rivoyatlar yoritilgan. Bu yozma manbalar shahar tarixining o'rta asrlardagi o'zgarishlarini kuzatish imkonini beradi.

Arxeologik tadqiqotlarga oid adabiyotlar Xivaning eng qadimgi qatlamlarini ilmiy asosda yoritishda asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. M.Mambetullayev, V.Yagodin, Sh.Matrasulovlarning stratigrafik izlanishlari natijasida Ichan qal'a hududida miloddan avvalgi VI–V asrlarga oid madaniy qatlamlar, mudofaa devorlari, paxsadan qurilgan qo'sh devor tizimi va xom g'ishtlardan bunyod etilgan ilk qurilish bosqichlari aniqlangan. Bu natijalar Xivaning 2500 yillik tarixga ega ekanligini arxeologik dalillar orqali tasdiqlaydi.

A.Asqarov, G'.Xodjaniyozov va K.Sobirovlarning ilmiy izlanishlari Xorazmning antik va o'rta asr mudofaa inshootlari, xom g'isht me'morchilik an'analari, qo'sh devor tizimlari va burjlar rekonstruktsiyasini tahlil qilib, Xivaning mudofaa arxitekturasini kompleks yoritadi. Ushbu tadqiqotlar Xivaning shaharsozlik madaniyati Xorazm vohasining umumiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq bo'lganini ko'rsatadi.

Shuningdek, Y.G'ulomovning sug'orish tizimlari haqidagi fundamental tadqiqotlari Xeykanik – Polvonyop kanali orqali Xivaning qadimiy irrigatsion ta'minoti haqida muhim ma'lumot beradi. Sug'orish tizimining mavjudligi shaharning iqtisodiy hayoti va o'ziga xos o'troq dehqonchilik an'analari rivojida asosiy omil bo'lgan.

So'nggi yillarda chop etilgan R.Abdirimov, N.Yusupov, B.Sa'dullayev, R.Anyozov va boshqalarning ilmiy ishlari Xivaning savdo yo'llaridagi o'rni, karvon yo'llari infratuzilmasi, shahar iqtisodiy va madaniy hayotining yuksalishi kabi masalalarni zamonaviy ilmiy usullar asosida yoritadi. Bu tadqiqotlar

Xivaning Markaziy Osiyo mintaqasidagi geostrategik ahamiyatini ham ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqot Xiva shahrining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlarini aniqlashda tarixiy, arxeologik hamda manbashunoslik yondashuvlariga tayangan holda amalga oshirildi. Avvalo, X asrdan XIX asrgacha bo'lgan arab, fors va mahalliy mualliflarning yozma manbalari (Makdusiy, Istaxriy, Yoqut Hamaviy, Mirxond, Abulg'oz Bahodirxon va boshqalar) tahlil qilinib, ulardagi Xiva haqidagi ma'lumotlar qiyosiy o'rganildi.

Shuningdek, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Xiva — Ichan qal'a hududida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijalari, jumladan M.Mambetullayev, V.Yagodin, Sh.Matrasulov va boshqa tadqiqotchilar tomonidan olingan stratigrafik ma'lumotlar tahlil qilindi. Qazish jarayonida aniqlangan madaniy qatlamlar, qurilish sathlari, mudofaa devorlari, xom g'ishtlar o'lchamlari hamda kulolchilik buyumlari tipologik usulda sinflandi va ularning xronologiyasi S.P.Tolstov ishlab chiqqan Xorazm arxeologik davriy shkala bilan solishtirildi.

Tadqiqot davomida tarixiy-geografik tahlil usuli ham qo'llanib, Xeykanik – Polvonyop sug'orish tizimi, qadimgi savdo yo'llari hamda shahar rivojiga ta'sir ko'rsatgan tabiiy va iqtisodiy omillar o'rganildi. Qiyosiy-tahliliy yondashuv orqali arxeologik ma'lumotlar yozma manbalar bilan solishtirilib, Xivaning qadimgi davrlaridan to o'rta asrlargacha bo'lgan uzluksiz urbanistik rivojlanish jarayoni ilmiy asosda yoritildi.

Xiva Janubiy Xorazmning qadimiy shaharlari qatoriga kiradi. "Ichan qal'a" shaharning eng qadimiy mustahkamlangan qismi hisoblanadi.

Xiva - Xeykanik hozirgi Polvonyop kanali oxirida joylashgan bo'lib, bu kanal orqali Xivagacha kemalar qatnagan. Shu hudud atrofidagi yerlar ushbu kanal orqali suv bilan ta'minlangan.

"Xiva – deb yozadi Makdusiy, - sahro chegarasida bo'lib, katta shahardir, undan daryodan chiquvchi kanal oqadi, obod Jome masjidi bor. Xiva so'zi birinchi marta X asr arab geograflari asarlarida ishlatilgan. Yoqutning yozishicha, bu shaharni "Xevak" deb yozganlar; xalq uni XIX asrda "Xeva" deb yuritgan¹.

Xiva – Sharq gavhari hisoblanib, u haqidagi ma'lumotlar X asr manbalarida uchraydi. X asrning birinchi yarmida Istaxriy o'sha davrdagi Xorazmning o'n

¹ Y.G'.G'ulomov. Xorazmning sug'orilish tarixi. Toshkent – 1959, 150-b.

uchta yirik shaharlari qatori Xiva haqida ham aytib o'tgan. Xiva shahri va uning atroflari o'sha davrda juda ham obod bo'lib, Amudaryodan chiqarilgan Xeykanik (hozirgi Polvonyop) kanalidan sug'orilganligini ta'kidlaydi. Sal keyinroq Yoqut Hamaviy (XIII asr) asarida ham Xiva tilga olinadi, XIV asr Nizomiddin Shomiy, XV asrda Xiva haqida Abdurazzoq Samarqandiy hamda Mirxond yozib qoldirganlar.

XVII asrda ijod qilgan Mahmud ibn Vali Xiva shahri haqida “Xiva ozoda, iqlimi toza Shayx Najmiddin Kubroning Vatani”, deb yozadi. Xiva xoni Abulg'azi Bahodirxonning ham Xiva haqidagi ma'lumotlari shu davrlarga oiddir (“Shajarayi turk” asari).

Xiva shahrining yoshini aniqlash maqsadida 1984 – 1985-yillarda UzR FA Qoraqalpog'iston filiali arxeologiya bo'limi xodimlari M.Mambetullayev, V.Yagodin va xivalik arxeolog Sh.Matrasulovlar tomonidan Ko'hna Arkning shimoliy-g'arbiy burchagida Oq Shayx bobo tepaligi yonida arxeologik tadqiqotlar olib borilgan.

Arxeologlar tomonidan 577 m² maydonda amalga oshirilgan qazish ishlari bu yerda 10 ta tarixiy davrga oid qurilish sathini aniqlash imkonini berdi. Natijada birinchi qurilish sathida qum materik ustiga barpo etilgan eng qadimiy mudofaa devori qoldig'i ochib o'rganilgan. Paxsa poydevor ustiga yirik hajmdagi xom g'ishtlardan terilgan ikki qatorli, ya'ni tashqi va ichki devorlardan tashkil topgan mudofaa devori barpo etilgani ma'lum bo'ldi. Tashqi va ichki devorlarni navkarlarning harakatlanishi uchun mo'ljallangan 2 metrlik yo'lak ajratib turgan. G'ishtlarning aksariyatida tamg'alar tushirilgan. Pol sathidan topilgan sopol xum, xumcha va qizil rangli ko'zalar qoldiqlari va kosachalardagi belgilar mil.avv. V – IV asrlarga taalluqli bo'lib, devor ham aynan shu sana bilan belgilanadi¹.

Eng qadimgi devor qoldiqlari Toshdarvozadan 30 metr g'arbda hamda qal'aning janubiy-g'arbiy burchagidan 105 metr shimoldagi devorlarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlarda ham aniqlangan. 1985 – 1995-yillar davomida Xivaning eng qadimgi qismi – Ichan qal'a devorining 7 joyida qazish va o'rganish ishlari olib borildi. Natijada arxeologlar madaniy qatlam 7 metr chuqurlikda yotganini aniqlashdi. Demak, Ichan qal'aning hozirgi devorlari eng qadimgi devorlar o'rnida barpo etilgan bo'lib, eng qadimgi shahar hududini qamrab oladi.

Xiva – Ichan qal'a hududida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlarga eng quyi qatlamdan shahar hayotining boshlanish davriga tegishli bo'lgan arxeologik

¹ М.Мамбетуллаев, Р.Абдиримов. Основные этапы развития города Хивы. ОНУ. вып. 7 -9. Ташкент, 1997. стр. 3-9.

materiallarning yil sanasi taniqli elshunos, tarixchi olim S.P.Tolstov tomonidan ishlab, aniqlangan arxeologik davriy shkalaga ko'ra, miloddan avvalgi VI – V asrlarga to'g'ri keladi. Topilgan sopol buyumlarning aksariyati kulolchilik charxida ishlangan bo'lib, eng dastlabki davrga oid paxsadan qurilgan devor qoldiqlari aniqlandi. Xiva shahar tarixining arxaiik bosqichida uning atrofida bir necha dehqon jamoalari qishloqlari paydo bo'lgan. Keyingi rivojlanish bosqichida Ichan qal'a hududi to'la o'zgartirilib, paxsadan qilingan eng qadimgi devor ustida qo'sh devor paydo bo'ldi. Qo'sh devor miloddan avvalgi IV – III asrlarga oid bo'lib, xom g'ishtdan qurilganligi aniqlandi. Kvadrat shaklidagi xom g'ishtlar Xorazm tarixida antik davrning ilk bosqichiga tegishli deb tan olingan. Qo'sh devor oralig'i ikki metr kenglikda qurilgan koridordan iborat bo'lib, devor tashqi tomonidan kuzatuv minoralari bilan mustahkamlangan, ular odatda to'rtburchak hamda kvadrat shaklida bo'lgan¹.

Xiva Ichan qal'asi 26 gektardan iborat, balandligi 7-8 metrga, poydevorning qalinligi esa 5-6 metrga teng. Ichan qal'a to'g'ri to'rtburchak shaklida qurilgan. Uning asosiy vazifasi shaharni tashqi dushmandan muhofaza qilish uchun barpo etilgan. Qal'a devorlari paxsa (loy)dan qurilgan bo'lib, o'ziga xos Xorazm me'morchilik uslubida barpo qilingan.

Ichan qal'a devori Xiva shahar markazida joylashgan bo'lib, ilk bor eramizdan avvalgi VI – V asrlarda barpo etilgan va davrlar o'tishi bilan bir necha bor ta'mirlangan. Ichan qal'a devorining uzunligi 2200 metr bo'lib, dunyoning to't tomoniga qarata qurilgan darvozalari bor.

Xiva shahrida 1957 – 1960-yillarda V.A.Bulatova, 1984 – 1990-yillarda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi (M.Mambetullayev rahbarligida Narimon Yusupov va boshqalar) va Xiva "Ichan qal'a" muzey-qo'riqxonasi ilmiy xodimlari jamoasi (Sh.Matrasulov rahbarligida) keng miqyosda arxeologik qazish ishlarini olib borganlar.

M.Mambetullayev, V.Yagodin, N.Yusupov, Sh.Matrasulovlar tomonidan 6 ta joyda qazishma va 7 ta shurf amalga oshirildi. Qazishmalarning umumiy maydoni 1213kv.metrni tashkil etib, qazish ishlari asosan mudofaa devorlari va unga tutash hududlarda olib borildi. Natijada qal'aning mil.avv V – III asrlarga

¹ A.Asqarov. Xiva shahar madaniyatining shakllanishi va uning asosiy bosqichlari. Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi – uchinchi ming yillikka. Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag'ishlangan xalqaro simpozium tezislari. Toshkent, 1997. 165- 168 betlar. O'sha muallif. Xivaning 2500 yilligi oldidan "Ko'hna madaniyat jilolari". "Xorazm haqiqati" gazetasi, 1997-yil, 4-iyun hamda 7-iyun sonlari.

taalluqli mudofaa devori qoldiqlari aniqlandi. Devor bevosita qum materik ustiga barpo etilgan. Devor asosan paxsadan qurilgan bo'lib, uning ustidan 40-42x41-44x10-13 cm.hajmdagi xom g'ishtlardan terilgan devor ko'tarilgan. Devorlar orasidan ikki qatorli yo'lak eni 2m. Qal'a burchaklari kvadrat shakldagi mudofaa minoralari bilan mustahkamlangan. Madaniy qatlamlarda qo'lga kiritilgan moddiy madaniyat namunalari Xiva shahrida mill.avv. V asrdan to hozirgi kungacha hayot davom etganligini ko'rsatadi¹.

XIII – XIV asrlarda qadimgi devorlar tekislanib, uning o'rnida paxsadan yangi devor barpo etilgan. So'nggi o'rta asrlardagi ta'mirlash ishlarida paxsa bilan birgalikda xom g'ishtlardan ham foydalanilgan. Xom g'ishtlar ham gorizantal, ham vertikal holatda terilgan. Devorning ichkari tomonidan dushmanga o't ochish uchun shinaklar quyilgan. Har 30 – 50 metrdan esa burjlar yarim aylanali mudofaa minoralari qad rostlagan bo'lib, ular asosiy devordan 6 – 8 metr oldinda turtib chiqqan. Ularning sahnidan himoya davrida to'plar o'rnatib, dushmanga o'q otilgan. Devorning balandligi 7-8 metr, qalinligi pastida 8-10 metr, yuqori qismida 2-3 metrni tashkil qiladi. Dushmandan himoyalanish chog'ida qal'a devori ustida aravada yurish imkoni bo'lgan.

O'tgan asrlarda Ichan qal'a devorining atrofida chuqur zovur bo'lib, bu zovur qal'a qurilishi uchun olingan tuproq o'rnida paydo bo'lgan. Hosil qilingan chuqurlik suv bilan to'ldirilib, qal'a devorigacha yana bir himoya vositasi paydo qilingan.

Rivoyatlarga qaraganda, Xiva shahrining ko'hna qismi o'rnida (hozirgi Ichan qal'a hududida) sahro bo'lgan. Marvdan Jurjoniya (Ko'hna Urganch) tomon o'tadigan "Ipak yo'li"ning shimoliy sahobchasi bo'ylab karvonlar yurgan. Ana shu karvon yo'lida ichimlik suvi toza holatda saqlanadigan "Xiva qudug'i" bo'lgan. Bo'lg'usi shaharning nomi ham ana shundan kelib chiqqan degan rivoyatlar mavjud.

Ko'plab tarixiy qo'lyozmalarda Xiva nomi Xivak deya ataladi. Xudoyberdi ibn Qo'shmuhammadning "Dili g'aroib" asarida " Xivak – Xivaning qadimgi nomi Ramul. Muni bino qilgan Som bilan Nuhkim, otasining kemasiga o'xshatib solg'on va kemanding andozasiga barobar va xolo Xivakg'a nisbat berurlar..." deya Nuh payg'ambarning o'g'li Som bilan bog'liq rivoyat keltiriladi va g'oyoki, Som bu yerlarga kelganida shu joyda chashma qazib suv chiqargan emish va shu

¹ М.Мамбетуллаев. Изучение стратиграфии г.Хивы (ВКФ. АН Р.Уз. №3 Нукус, 1983).

chashmadan suv ichganlar lazzatlanib, ‘Evoh’, “Xey-vaq” xitob qilgan emishlar, bundan esa “Xey-vak-Xivak-Xiva” toponimi kelib chiqqan emish.

Tarixdan ayonki, Xorazm-Xiva muhim savdo yo‘lida joylashib, bu yerdan o‘tgan savdo karvonlari, ularda esa turli millat kishilari u yoqdan bu yoqqa turmush tashvishlari bilan oldi-sotdi ishlari bilan borib kelishgan.

Xalq orasida tarqalgan afsonalarda va Xudoyberdi ibn Qo‘shmuhammadning “Dili g‘aroyib” asarida esa Xiva qudug‘i Nuh payg‘ambarning o‘g‘li Som tomonidan qurilganligi haqida ta’kidlanadi. Shunga asoslanib, tarixchi va o‘lkashunoslar orasida mazkur quduq shahar paydo bo‘lgan davrdayoq mavjud bo‘lgan degan fikrlar yuradi¹.

Xiva Ichan qal’asi cho‘ziq to‘rtburchak shaklda. Paxsa asos ustiga g‘ishtdan qo‘sh devor ko‘tarilgan. Devor burjlari to‘rtburchak shaklda, qal’a burchaklari esa kvadrat shaklida bo‘lgan. Qal’a devori tizimi butun perimetri bo‘ylab asosiy devordan 4,30 – 8,50 m qochib turgan proteyxizma bilan o‘ralgan. Shahar atrofidan keng xandaq qazilgan. Ko‘hna qal’a mill.avv. V – IV asrlar oxiri, IV – III asrlarda shunday ko‘rinishga ega bo‘lgan².

1985-yilda shahristonning sharqiy burchagida qazish ishlari olib borildi va Xiva shahri devori hamda burjning qadimgi bo‘lagi topildi. Qal’a devori tarxi to‘g‘riburchak shaklda, bir-biridan 22 – 27 m masofada joylashgan burjlar bilan kuchaytirilgan. Stratigrafiya ma’lumotlariga ko‘ra, burjlar I – III asrlarda rekonstruksiya qilingan, xona qum ustiga terilgan 6 qator xom g‘isht (41-43x41-43x10-13cm) bilan to‘ldirilgan. Bu g‘ishtlarning deyarli hammasiga tamg‘a bosilgan³.

Xiva Ichan qal’asi ham boshqa Xorazm qal’alari kabi qadimda ikki qator mudofaa devori bilan o‘rab olingan, g‘arbiy devor markazida ark joylashgan, uning maydoni 170x120m, yana ikki gektar yer bo‘lib, alohida kirish darvozasiga ega⁴.

¹ R.Abdirimov, U.Bekmuhammad. Qadimiy Xorazm qal’alari va ulardagi arxeologik tadqiqotlar. Xiva – 2021. 16 – 21-betlar.

² М.Мамбетуллаев. Раскопки оборонительных сооружений Хивы. Вестник ККР, "ФАН" Уз. 1992. №4 7 -8- бетлар.

³ G‘. Xodjaniyozov. “Qadimgi Xorazm mudofaa iunshootlari (mill.avv. VI asrdan mil. IV asrgacha) Toshkent – “O‘zbekiston” 2007. 45 – 46-betlar.

⁴ K.Sobirov “Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari”. T.: “Fan” nashriyoti, 2009-yil, 40 – 42-betlar.

Xivada XII-XIII asrlarda madaniy hayot ravnaq topgan. O'rta asrlarga oid madaniy qatlam o'rganilgan. Shahar iqtisodiy, madaniy-diniy markaz bo'lgan. Shahar devorida ta'mirlash ishlari olib borilgan.

Xiva Sharq gavharidan biri sanalib, Xiva shahri va uning atroflari o'sha davrda juda obod bo'lgan. IX asrning ikkinchi yarmi – XI asrlarda Xorazm aholisi yangi iqtisodiy va madaniy taraqqiyot darajasiga ko'tarilgan. Xiva shahrida hunarmandlar mahallalari, ko'plab masjidlar faoliyat yuritgan. Xiva shahrida o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar uning Xorazmshohlar davrida ham (XII – XIII asr boshlarida) gullab-yashnaganligini ko'rsatadi. "Obod" Jome masjidi bor. Yog'och eshiklari va xandagi bo'lgan Kardaranxos (Qal'ajiq) va Hazorasp ham xuddi shu shaharga o'xshaydi. Xiva so'zi birinchi marta X asr arab geograflari asarlarida ishlatilgan¹.

Movaraunnahr va Xurosonning savdo shaharlaridan mintaqa shimolidagi dashtlarga, Volga bo'yi shaharlari va Sharqiy Yevropaga o'tgan yo'llar chorrahasida joylashgan Xorazm vohasining qulay geografik holati mintaqamizning ichki va tashqi iqtisodiy-madaniy jabhalarida muhim ahamiyatga ega edi. Xorazmning qo'shni ko'chmanchi qabilalar bilan aloqalari ayniqsa X – XV asrlarda yana ham kuchayganligi kuzatiladi. Bu davrda Xorazm vohasi hududidan o'tgan karvon yo'llari Xorazm, Xuroson va Movaraunnahrning barcha yirik shaharlari va qishloqlarini bir-biri bilan bog'laydigan mahalliy ahamiyatiga ega bo'lgan savdo yo'llari bo'lganligi, o'z navbatida Buyuk Ipak yo'lining Xalqaro tranzit tarmoqlari sifatida ham katta ahamiyatga ega edi².

Umuman olganda, 2500 yillik qadimgi tarixga ega Xiva Xeykanik irrigatsiya tarmog'ida yuksalib, Xorazming antik davrida ham yirik shaharlardan biri bo'lgan. Arxeologlar tomonidan qazish jarayonida qo'lga kiritilgan ashyoviy dalilllar Xivada eng qadimiy davrlardan boshlab hozirgi kunimizgacha ko'p asrlar mobaynida to'xtovsiz hayot davom etganligini ko'rsatadi.

Xiva shahrining shakllanishi va taraqqiyotiga bag'ishlangan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur shahar Markaziy Osiyoning eng qadimiy urbanistik markazlaridan biri sanaladi. Arxeologik izlanishlar, yozma manbalar va tarixiy-topografik tadqiqotlarning taqqoslanishi natijasida Xivaning miloddan avvalgi VI–V asrlarda paydo bo'lgan ilk shaharlardan biri ekani ilmiy asosda tasdiqlandi.

¹ R.Abdirimov, B.Sa'dullayev, Sh.Raximov "Uyg'onish davri Xorazm shaharlari". Xalqaro ilmiy konferensiyasi materiallari. Xiva 2023-yil 4-may, 145 – 147-betlar.

² R.B.Anyozov. "Markaziy Osiyo karvon yo'llari infratuzilmalari va xizmat ko'rsatish sohalari". Urganch – 2023, 31 – 32 betlar.

Ichan qal'a hududidagi ko'p qatlamli madaniy qatlamlar, tamg'ali xom g'ishtlar, qo'sh mudofaa devorlari, sopol buyumlar va irrigatsiya tizimiga oid izlar shahar hayotining uzluksiz davom etganini ko'rsatadi.

Yozma manbalar esa Xivaning IX–XV asrlarda savdo, hunarmandchilik va diniy hayotning yirik markazi sifatida shakllanganini, Ipak yo'li chorrahasidagi qulay geografik mavqei uning iqtisodiy va madaniy yuksalishida muhim omil bo'lganini tasdiqlaydi. O'rta asrlardagi ta'mirlash va qayta qurilish ishlarida mudofaa devorlarining mustahkamlanib borishi shahar aholisining ko'payib, uning siyosiy ahamiyatining ortganidan dalolat beradi.

Umuman olganda, Xiva shahrining 2500 yillik tarixiy taraqqiyoti Xorazm vohasining ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy va me'moriy rivojlanishida alohida o'rin tutgan. Arxeologik, tarixiy va manbashunoslik dalillari Xiva mintaqasi sivilizatsiyasining tarkibiy qismi sifatida shakllanganini va bugungi kunda ham o'z tarixiy qiyofasini saqlab qolgan noyob shahar ekanini ko'rsatadi.

Takliflar:

1. **Arxeologik tadqiqotlarni davom ettirish va kengaytirish.** Xivaning qadimgi hududlaridagi hali to'liq o'rganilmagan qatlamlarda qo'shimcha qazishmalar olib borilishi shahar tarixining yanada chuqurroq o'rganilishiga imkon beradi. Bu — Xiva urbanizatsiyasining ilk bosqichlarini yanada aniqroq aniqlash imkonini yaratadi.

2. **Ichan qal'a hududidagi arxeologik topilmalarni raqamlashtirish.** Topilmalarni 3D formatda qayd qilish, fotogrammetriya va GIS texnologiyalar asosida kataloglashtirish xalqaro miqyosda tadqiqotlar olib borish uchun imkoniyat yaratadi.

3. **Xivaning irrigatsiya tizimiga oid ilmiy loyihalarni kengaytirish.** Xeykanik – Polvonyop kanalining qadimgi yo'nalishlari, suv olish inshootlari va sug'orish texnologiyasini qayta tiklash vohadagi dehqonchilik madaniyati tarixini yaxshiroq o'rganishga xizmat qiladi.

4. **Tarixiy manbalarni yangi ilmiy yondashuvlar asosida qayta tadqiq qilish.** Makdusiy, Istaxriy, Yoqut Hamaviy kabi mualliflarning ma'lumotlari qiyosiy-lingvistik va tarixiy-geografik tahlil asosida qayta o'rganilishi Xiva tarixining yozma manbalardagi aksini yanada aniqroq yoritish imkonini beradi.

5. **Xiva tarixini o‘quv dasturlariga keng joriy etish.** Maktab va oliygohlar uchun Xivaning urbanistik, irrigatsion va madaniy tarixi bo‘yicha maxsus darsliklar yaratish mahalliy tarixga qiziqishni oshiradi.

6. **Turizmni ilmiy asosda rivojlantirish.** Arxeologik obidalar atrofida maxsus ilmiy turizm yo‘nalishlarini tashkil etish, zamonaviy eksponatsiyalar yaratish Xivaning turistlar uchun jozibadorligini yanada oshiradi.

7. **Moddiy madaniyat namunalari asosida muzey ekspozitsiyalarini kengaytirish.** Qadimgi sopol buyumlar, g‘ishtlar, tamg‘alar hamda shahar mudofaa qurilmalari maketlarini jamoatchilikka taqdim etish orqali Xivaning tarixiy merosi keng targ‘ib etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Y.G‘.G‘ulomov. Xorazmning sug‘orilish tarixi. Toshkent – 1959, 150-b.
2. М.Мамбетуллаев, Р.Абдиримов. Основные этапы развития города Хивы. ОНУ. вып. 7 -9. Ташкент, 1997. стр. 3-9.
3. A.Asqarov. Xiva shahar madaniyatining shakllanishi va uning asosiy bosqichlari. Insoniyatning ilmiy va madaniy merosi – uchinchi ming yillikka. Buxoro va Xiva shaharlarining 2500 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro simpozium tezislari. Toshkent, 1997. 165-168 betlar. O‘sha muallif. Xivaning 2500 yilligi oldidan. “Ko‘hna madaniyat jilolari” “Xorazm haqiqati” gazetasi, 1997-yil, 4-iyun hamda 7-iyun sonlari.
4. М.Мамбетуллаев. Изучение стратиграфии г.Хивы (ВКФ. АН Р.Уз. №3 Нукус, 1983).
5. R.Abdirimov, U.Bekmuhammad. Qadimiy Xorazm qal‘alari va ulardagi arxeologik tadqiqotlar. Xiva – 2021. 16 -21-betlar.
6. М.Мамбетуллаев. Раскопки оборонительных сооружений Хивы. Вестник ККР, "ФАН" Уз. 1992. №4 7 -8-бетлар.
7. G‘. Xodjaniyozov “Qadimgi Xorazm mudofaa iunshootlari (mill.avv. VI asrdan mil. IV asrgacha) Toshkent – “O‘zbekiston” 2007. 45 – 46-betlar.
8. K.Sobirov. “Xorazmning qishloq va shaharlari mudofaa inshootlari” . T.: “Fan” nashriyoti, 2009-yil, 40 – 42-betlar.
9. R.Abdirimov, B.Sa’dullayev, Sh.Raximov. “Uyg‘onish davri Xorazm shaharlari”. Xalqaro ilmiy konferensiya materiallari. Xiva 2023-yil 4-may, 145 – 147-betlar.
10. R.B.Anyozov. “Markaziy Osiyo karvon yo‘llari infratuzilmalari va xizmat ko‘rsatish sohalari”. Urganch – 2023, 31-32-betlar.

TARIX

JADID BOBOOXUN SALIMOVNING XIVA XONLIGI VA XORAZM RESPUBLIKASI DAVRLARIDAGI LAVOZIM VA VAZIFALARI



Salimov Matyusuf,
Urganch davlat
pedagogika instituti
mustaqil tadqiqotchisi.

UO‘K 907.31

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadid Bobooxun Salimovning Xiva xonligi va Xorazm Respublikasi davrlarida lavozim va vazifalarga tayinlashini davlat arxiv hujjatlari va avlodlariga tegishli tarixiy hujjatlar asosida yoritilib berildi.

Аннотация: В данной статье освещено назначение Джадида Бобоахуна Салимова на должности и посты в период Хивинского ханства и Хорезмской Республики на основе государственных архивных документов и родовых исторических свидетельств.

Annotation: This article highlights the appointment of Jadid Boboakhun Salimov to various positions and posts during the period of the Khiva Khanate and the Khorezm Republic, based on state archival documents and family historical evidence.

Kalit so‘zlar: Xiva, muftiy, qozikalon, nozirlik, adliya, vaqf, oxun, mudarris, madrasa, eshon, muhr, guvohnoma, pasport, mandat.

Ключевые слова: Хива, муфтий, главный судья, министр, юстиция, благотворительный фонд, ахунд, преподаватель медресе, медресе, эшан, печать, свидетельство, паспорт, мандат.

Key words: Khiva, mufti, chief judge, minister, justice, waqf, akhund, madrasa teacher, madrasa, eshan, seal, certificate, passport, mandate.

Bobooxun Salimov o‘zining dastlabki faoliyatini xonlikda mudarrislikdan boshlagan bo‘lsa, keyinchalik qozi noyibi va muftiy lavozimlariga tayinlandi. Otasi qozikalon Muhammad Salim oxun vafotidan keyin, Qozikalon madrasasiga mutavalli bo‘lib, Muhammad Aminxon madrasasida mudarris bo‘lib faoliyat olib bordi. “Yosh xivaliklar” taraqqiyparvar jadidlar lideri sifatida 1917-yil uch-to‘rt oy faoliyat ko‘rsatgan “Idorayi mashrutiya” tashkil qilinishida asosiy o‘rin egalladi. Shuningdek, 1920-1924-yillar Xorazm Respublikasi davrida bir qancha davlat lovozimlariga tayinlanib, demokratik tamoyillar asosida mamlakat taraqqiyoti uchun faol kurash olib bordi.

Mavzuni yoritishda tarixchi olimlar Jumaboy Rahimov, Bahrom Irzayev, Umid Bekmuhammad, Sayyora Samandar va Sharqiya Eshjonovalarning maqola va kitoblaridan, O‘zbekiston Milliy arxivi va Xorazm viloyat davlat arxivi fondlarida saqlanayotgan tarixiy hujjatlardan, shuningdek, qozikalon Muhammad Salim oxun avlodlariga tegishli shaxsiy arxivida saqlanayotgan tarixiy qo‘lyozma hujjatlardan foydalanildi.

Bobo oxun Salimov 1977-yil Xiva xonligida qozikalon Muhammad Salim oxun oilasida to‘ng‘ich farzand bo‘lib dunyoga keldi. Unga bobolarining ismi-Muhammad Karim deb ism qo‘yishganligi sababli dastlab oilada, keyinchalik xalq orasida Bobojon (shevada Buvajon) ismi bilan atala boshlagan. Dastlab boshlangich saboqni oilada, otasi Muhammad Salim oxundan (bu davrda otasi Muhammad Salim oxun muftiy lavozimida bo‘lgan) olgan bo‘lsa, keyinchalik Xiva madrasalarida tahsil oldi va bolalik davridan madrasalarda dars berib, oxunlik qildi. Bu haqda otasining xotira kundaligida: “Hijriy 1307-yilda (milodiy 1890-yil) “Madrasa oliy”dan mudarris haqi uchun yigirma olti botmon bug‘doy olduq, yana o‘n botmon bug‘doy olduq, yana Bobo uchun o‘n botmon bug‘doy olduq, va Jumaniyoz uchun o‘n botmon bug‘doy olduq, yana o‘zimiz qirq besh botmon bug‘doy olduq”, -deb keltirilgan. Shu sababli yoshligidan ismiga oxun so‘zini qo‘shib, Bobo oxun ismi bilan atala boshlagan. O‘zining xotira kundaligida: “Hijriy 1327-yil (milodiy 1909-yil) tarixinda yasovulboshi “oqo”ning madrasasidin mudarris haqi uchun o‘n olti yarim bug‘doy oldik”, -deb qayd qilingan. Keyinchalik, Qozikalon va Muhammad Aminxon madrasalarida ham mudarrislik qilgan.

Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori Umib Bekmuhammadning “Xorazmlik jadidlar. Bobo oxun Salimov” nomli 2022-yilda chop qilingan ilmiy-ommabop risolasida: “Rossiyalik sharqshunos olim Samoylovich Xorazmga 1902-yil va 1908-yillar tashrifi chog‘ida Bobo oxun Xivada talabalarga saboq berayotgan mudarris edi va bu paytda ular uchrashgani to‘g‘risida ma‘lumot saqlanib qolmagan”, -deb keltirilgan.

Bobo oxun Salimov otasi Muhammad Salim oxun qozikalonlik davrida (1900-1916-yillar) mudarrislik bilan birga qozikalonga kotib, noyib bo‘lib faoliyat olib borgan. Otasi vafotidan keyin qozikalonlik lavozimiga Xudoybergan oxun Nizomiddin xatib o‘g‘li tayinlangan. Bu davrda Bobo oxun Salimov otasi tomonidan barpo qilingan Ichan qal‘adagi “Qozikalon” madrasasida mutavallilik qilgan va Muhammad Aminxon madrasasiga mudarris va muftiy lavozimiga tayinlangan.

Xiva xonligida yuqori diniy lavozimlarda 12 nafar muftiy, a'lam, qozi-urda, qozi askar va qozikalon faoliyat olib borgan bo'lsa, Shayx ul-islom lavozimi XIX asrning so'ngi yillaridan boshlab xonlikda joriy qilinmagan. Shayx ul-islom lavozimi "A'lam-eshon" yoki "Qozikalon" lavozimlariga yuklatilgan.

1917-yil 5-aprel kuni "Yosh xivaliklar" harakati (partiyasi) tomonidan "Idorai mashruta" majlisi (parlamenti) tuzildi. Bunda xonlikda davlat boshqaruvi feodal monarxiyaga asoslangan demokratik parlament boshqaruviga asoslangan edi. P.Yusupovning "Yosh xivaliklar tarixi" nomli 2000-yilda chop qilingan xotira kitobida, Boboovun Salimovni qozi va ulamolar tarafidan vakil qilib tayinlanganligi, uning maslahati bilan Xorazm vohasining boshqa hududlariga vakil saylab kelish uchun xat yuborilganligi va bu majlis raisligiga Boboovun Salimovni saylaganligi keltirilgan.

Boboovun Salimovning Rossiya davlatiga elchilik safarida "Butun Rusiya mamlakatining xalq komissarlariga doklad" deb nomlangan ma'ruza matnida: "Asfandiyorxon o'z dushmani xon Junayid bilan ham do'stlashib, toza barpo bo'lg'on hurriyat va "Idorai mashruta"ni buzub, xarob etmak uchun kecha va kunduz tinmay ishlab, oqibat uch, to'rt oy ichida mustahkam bo'la olmag'on yosh hurriyatni yiqib, "Majlisi mabuson"ni tarqatib, "Yosh xivalilar" va "Majlisi mabuson" vakillarining hamma mol va asbob va yerlarini talon va taroj etib, bir qanchasini o'ldirdi. Shul vaqtda Asfandiyorxon bila xon Junayidning o'rtalarida xalqdin talab olgan mollarining taqsimi vajidin ixtilof paydo bo'lib, xon Junayid Asfandiyorxonni o'ldirib, oning o'rniga akasi Sayyid Abdulloh to'rani Xorazmga xon qildi",- deb keltirilgan.

1920-yil 1-fevralda xonlik tugatilib, Muvaqqat Xiva hukumati tuzildi. I Butunxorazm qurultoyigacha davlat ishlarini yuritishda Muvaqqat Xiva hukumati tomonidan, hukumat raisligiga mullo Jumaniyoz Sultonmuradov tayinlangan bo'lsa, "Yosh xivaliklar" partiyasining qolgan a'zolari ham davlat lavozimlariga tayinlanadi. Shu jumladan, Boboovun Salimov ham Muvaqqat Xiva hukumatining mart va aprel oylaridagi qo'shma majlisining qaroriga ko'ra bir qancha davlat lavozimlariga tayinlangan bo'lib, bular to'g'risida mandat berilgan.

43-raqamli mandatda: "Ushbuni ko'rsatuvchi birodar Boboovun Muhammad Salim oxun o'g'li Xiva Muvaqqat hukumatining ushbu yil 8-mart kuni favqulodda yig'ilish bo'lib, 12-raqamli yasag'on protokoliga muvofiq Muvaqqat Xiva hukumati qoshida Daxliya Adliya noziri qilib saylandi"-deb, 10-mart 1920-yil sanasi bilan Xiva Muvaqqat hukumati raisi Sultonmurodov, rais

muovini Ortiq o'g'li va sarkotib Ro'ziboyevlar imzolab, Muvaqqat Xiva hukumati muhri bilan rasmiylashtirilgan.

1070-raqamli mandatda: “Ushbunu ko'rsatuvchi Bobooxun Salim o'g'li, Muvaqqat Xiva hukumatining qo'shma majlisining ushbu yil 8-aprelda yasag'on 22-raqamli protokoliga muvofiq Adliya nazorati noziriligiga tayin etildi, 13-aprel, 1920-yil”, deb Xiva Muvaqqat hukumati raisi Sultonmuradov, sarkotib Ro'ziboyevlar imzo chekib, Xiva Muvaqqat hukumatining muhri bosilgan.

1180-raqamli mandatda: “Ushbu mazkurni ko'rsatuvchi Bobooxun Salimov Muvaqqat Xiva hukumatining qo'shma majlisining ushbu yil 8-aprelda yasag'on 22-raqamli protokolig'a muvofiq Inqilob Odillar hakam mahkamasi a'zolicig'a tasdiq etildi deb, 13-aprel 1920-yil”, deb keltirilgan. Xiva Muvaqqat hukumati raisi Sultonmuradov imzo qo'ygan va muhr bilan rasmiylashtirilgan.

1102-raqamli mandatda: “Ushbunu ko'rsatuvchi Bobooxun Salimov Muvaqqat Xiva hukumatining qo'shma majlisining ushbu yil 9-aprelda yasag'on 23-nomerli protokolig'a muvofiq Muvaqqat Xiva hukumati raisi muovinligiga saylandi deb, 15-aprel 1920-yil”, deb Muvaqqat Xiva Hukumati raisi Sultonmuradov bilan sarkotib Ro'ziboyevlar imzolagan va Xiva Muvaqqat hukumati muhri bosilgan.

1105-raqamli mandatda: “Ushbunu ko'rsatuvchi Bobooxun Salimov Muvaqqat Xiva Hukumatining qo'shma majlisining ushbu yil 9-aprelda yasag'on 23-raqamli protokolig'a muvofiq Rusiya sho'ralar mehnatkashlarining Xiva inqilobchi xalqlari bilan sadoqatli suratda birlashganlari munosabatlari birla afvu umumiy e'lon etib va hozirgi saqlanib turg'on mahbuslarni tahqiqlab, gunohlari sudsizlarini xalos etib, gunohlarin subutlilarin kafilg'a berib, uzoq hibsg'a hukum bo'lg'onlarin hibs va'dasin anglashtirmoqg'a komissiya etildi, deb 15-aprel 1920-yil”, deb keltirilgan. Xiva Muvaqqat hukumati raisi Sultonmuratov imzolab, Xiva Muvaqqat hukumati muhri bosilgan.

1099-raqamli mandatda: “Ushbuni ko'rsatuvchi Bobooxun Salimov Muvaqqat Xiva hukumatining qo'shma majlisining ushbu yil 9-aprelda yasag'on 23-nomerli protokolig'a muvofiq Muvaqqat Xiva hukumati a'zolicig'a saylandi, deb 15-aprel 1920-yil”, deb, Muvaqqat Xiva Hukumati raisi Sultonmuratov va sarkotib Ro'ziboyev imzolab, Xiva Muvaqqat hukumati muhri bosilgan.

Bundan tashqari bosma shaklidagi 1-raqamli “Shahodatnoma” ham berilgan bo'lib, bunda: “Ushbu shahodatnoma beriladur Gurlan rayon vakili Bobooxun Salimov o'rtoqg'a, shuning uchun kim, mazkur o'rtoq Xiva mamlakati

qurultoyining tovushg'a molik haqiqiy a'zosidur",-deb 1920-yil 25-aprel sanasi bilan, Saylov komissiyasi raisi Akchurin va sarkotiblar imzolaganlar.

I-Butun Xorazm qurultoyi 1920-yilning 27-30 aprel kunlari bo'lib o'tadi. Bunda Boboovun Salimov Adliya Nazorati noziri etib saylanadi. Adliya nozirlik guvohnomasida: "1339-yil Xorazm Adliya noziri Muhammad Karim Boboovun ibn qozi Muhammad Salim marhumi al-Xorazmiy",- deb keltirilgan. Pasport muqovasida: "Xorazm Jumhuriyati Adliya noziri Muhammad Karim Boboovung'a maxsusdur",- deb yozilgan. Adliya noziri sifatida konstitutsiya tamoyillariga asosan ish olib borgan bo'lsa, diniy tomondan shariat qonunlari bo'yicha, "Qozikalon" sifatida ham faoliyat olib borgan. Boboovun Salimovning qozikalonlik muhrida: "Aqza al-quzot qozi Muhammad Karim Boboovun ibn qozi Muhammad Salim marhumi, Xivaq",-deb qayd qilingan.

Xorazm viloyat davlat arxivining 123-fond, 1-ro'yxat, 5-ish, 12-varaqda, 1920-yil Xiva madrasalari oxunlarining (mudarrislarining) 10 ta fan yo'nalishidan sinov-imtihon topshirganlari ro'yxati keltirilgan. Hijriy 1339-yil 12-ramazon, 1920-yil 29-may kuni Muhammad Aminxon madrasasi oxunlari ro'yxatida 6-o'rinda Boboovun Salimovni: "Boboovun oxun, Qozikalon oxun",-deb qayd qilingan.

1920-yil 26-30-aprel kunlari I-Butun Xorazm qurultoyida, Polvonniyoz hoji Yusupov boshchiligidagi nozirlar Xorazm Respublikasi nomidan Rossiya Respublikasiga borib, bolsheviklar rahbarlari bilan muzokara olib borish uchun davlat delegatsiyasi tashkil qilishga qaror qabul qilinadi. Bu delegatsiya raisi qilib Adliya noziri Boboovun Salimov tayinlanadi. Boboovun Salimovga 1920-yil 29-may kunida 538-raqam bilan qayd qilingan vaqtinchalik "Pasport xat" berilgan. Bu pasportda: "Ushbu xatni ko'rsatuvchi Xiva mamlakatining fuqarosi Boboovun Muhammad Salim o'g'lig'a, mazkur bo'lg'on tarixdin to muddat olti oyg'acha. Barcha Rusiya mamlakatlarig'a borib o'z ishlarini saranjom qilib kelmoqg'a ruxsat berildi. Ushbu sababli Rusiya hukumatdorlaridin tavqa shulkim, mazkurg'a yo'l berub, hohlag'on joylarig'a bormoqni man qilmasalar deb, Xorazm Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining pasport devonxonasida muhr bosildi",-deb, "Xorazm Jumhuriyatining Xorijiya nazorati" muhri bosilgan bo'lib, Xorazm Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining Xorijiya nazorati uchun P.Yusupov va sarkotib Mullobek Devonovlar imzo qo'yganlar. Pasportning "Nishonalari" bandida: "Yoshi-44, bo'yi-o'rta, ko'zi- qo'y ko'z, qoshi-ochuq, yuzi-be ayb, saqoli-oq tushgan, yuzi-bo'g'oy rang, toifasi-o'zbek, qavmi-Nurullobek, qaysi qal'a va

mahallasi-Xiva qal'asidan",- deb qayd qilingan. Bu pasport orqa tomonida Turkiston ishlari bo'yicha konsul mudiri va Turkiston tashqi ishlar komissiyasi bo'limi tomonidan 23-iyun 1920-yilda imzo va muhr bilan tasdiqlangan. Hamda o'zbek va rus tillarida yozilgan "Shahodatnoma"lar berilgan.

1920-yil 3-iyun kunda Bobooxun Salimov rahbarligidagi elchilik delegatsiya Xiva shahridan jo'nab, Rossiya davlati rahbarlari Lenin, Chicherin va Karaxanlar bilan uchrashib, 13-sentabrda Xorazm Respublikasi uchun manfaatli bo'lgan shartnomalarni imzolashga erishadi, 19-oktabrda To'rtko'l shahriga, keyin Xiva shahriga keladi. Bobooxun Salimovning bu diplomat-elchilik faoliyatiga mashhur Anvar poshsho va Afg'on vakili Muhammad Valixonlar: "Necha yuz ming askar kuchi bilan qilib bo'lmagan ishni, yolg'iz til va qalam kuchi birlan bitkazdingiz",- deb yuksak baho berganlar.

1921-yilning 6- martida Xorazm hukumatining rahbarlari o'zgarishi, "Yosh xivaliklar" a'zolarining vazifalaridan olinib, ta'qibga olinishiga olib keldi. Natijada "Yosh xivaliklar" Xorazm vohasidan ketib, yashirin hayot kechirishga majbur bo'ldilar. 1921-yilning sentabrida XXR MIK raisi Otamaxsum Muhammadrahimovning tayinlanishi Xorazm Respublikasi faoliyatiga o'zgarish yasaydi. Otamaxsum Madrahimovning taklifi bilan "Yosh xivaliklar" a'zolarini yana Xorazm hukumati vazifalariga tayinlanadi. 1921-yil 24-noyabr kunidagi Xorazm Respublikasining MIK yig'ilishida Afg'oniston davlatiga elchi tayinlash masalasi ko'riladi. Bu yig'ilishda bosh elchi qilib Bobooxun Salimov, muovini Mirza To'rayev, kotib Abdullo xo'ja Abdurahimxo'ayevlar tayinlanadi. Bu yig'ilish bayonnomasini MIK raisi Otamaxsum va sarkotib Abdurahim xo'jalar imzolaydilar. Biroq, 1922-yil 5- fevraldan Xorazm Respublikasi tashqi siyosatining Rossiya hukumati orqali olib borilishi munosabati bilan Bobooxun Salimov chaqirib olinadi. Xorazmga kelib Maorif va madaniyat nozirligida faoliyatini boshlaydi. Mullo Bekchon Rahmonov bilan birgalikda jadid maktablari uchun "Alifbe" va "O'qish" nomli darslik kitoblar yaratadilar. U madrasalarda mudarris bo'lib faoliyat olib boradi. "Ojiz" tahallusi bilan o'zbek va fors tillarida she'rlar yozadi. Bu ta'lim tizimidagi faoliyati ham "qizil" bol'sheviklarning Xorazmdagi vakillari olib borgan siyosati sababli uzoq davom qilmaydi. Yana faoliyatini to'xtatib ketishiga majbur bo'ladi.

1924-yilda Rossiyaning komil huquqli vakalotli vakili G. I. Braydoning Xorazmga kelishi Bobooxun Salimovning davlat ishlariga qaytishiga sabab bo'ladi. 7-aprel kuni G. I. Braydo tomonidan Bobooxun Salimov Xiva shahriga chaqirtirilib daxlsizlik haqidagi guvohnoma berib, davlat ishlariga taklif etiladi va

17-apreldagi Ruhoniylarning I qurultoyi chaqirishiga va o'tkazilishiga rahbarlik qilishga tayinlaydi.

1924-yil 24-apreldagi Xorazm Markaziy Ijro qo'mitasi yig'ilishi qaroriga muvofiq Nazorat nozirlari va muovinlarini qaytadan tayinlaydilar. Bunda Adliya nozirligiga Olloquli Atayevni va muovini qilib Boboovun Salimovni tayinlaganlar. Bu qarorga Ijroqo'm raisi Sulton qori va sarkotib Davlatovlar imzo qo'yganlar. Bu qaror XSSR markaziy ijro qo'mitasining ijro sho'basidan 24-aprel 1924-yil sanada 78-raqam bilan qayd qilingan bo'lib: "Birodar Boboovun Salimovga, ma'lumot va amal qilmog'ingiz uchun",-deb, Ijroya sho'ba boshlig'i va ish boshqaruvchisi Husan o'g'li imzo qo'yib rasmiylashtirilgan.

Jumaboy Rahimovning 1988-yilda chop qilingan "U Lenin bilan uchrashgan edi" nomli kitobida, Umid Bekmuhammad va Sayyora Samandarning hammualliflik ostida 2024-yilda chop qilingan "Boboovun Salimov-jadid, davlat arbobi va shoir" nomli monografiyasida, Sharqiya Eshjonovanning 2024-yil chop qilingan "Xorazmda jadidchilik: siyosat, adabiyot, san'at va ma'rifatda" nomli kitobida Boboovun Salimov 1924-yilning mart oyidan Adliya noziri vazifasida faoliyat ko'rsatganligi keltirilgan.

1924-yilning 30-avgust kuni Boboovun Salimov Adliya nazorati nozirligi "Faqihlar hay'ati" raisi muhri bilan Sherimbet qoziga berilgan "Shahodatnoma"sini rasmiylashtirgan bo'lsa, Qozikalon sifatida hijriy 1343-yilning 3-safarida, melodiy 1924-yilning 3-sentyabr kunida "da'voni qaytarib olish" qozilik xatini va Abdurahmon Jomiyning devonini (fors tilidagi qo'lyozma kitobi) hijriy 1343-yilda (1924-1925-yillar) o'zining shaxsiy mulki ekanligini qozikalonlik muhri bilan rasmiylashtirgan.

Boboovun Salimov Adliya nozirligidagi faoliyatini 22-noyabrdagi milliy davlat chegaralanishigacha olib boradi. Xorazm Respublikasi tugatilgandan keyin siyosiy faoliyatini butunlay tugatib Gurlanga qaytadi. Bol'sheviklarning "qatag'on" siyosatining kuchayishi sababli, ona tomondan bobosining "Eshon qal'a" qishlog'iga (hozirgi Amudaryo tumanida) ketishiga majbur bo'ladi. Boboovun Salimovning yashirin hayot kechirishi 1929-yilning may oyigacha davom qildi. Boboovunning shahid kunini yoshi kattalar quyidagicha xotirlaydi: "Shu kuni quyosh botishga yaqin "Eshon qal'a" qishlog'i chetida 5-6 nafar otliqlar kelib, otlarini beda dalada o'tlatib, o'zlari dala chetida dam olishar edi. Ular orasida ikki nafari komissarlar kiyimida edi, qolganlari turkmanlar kiyimida

edi. Ertalab Bobooxun eshonni otib ketganligini eshitdik va kechagi otliqlarni taxmin qildik”.

Bobooxunning shahid bo‘lgan kunini Bobooxunning ukasi Nizomiddin oxun xotiralarida quyidagicha qayd qilgan: “Tarix hijriy 1347-yil, mohi zulhijjaning 4-kuni, burj surning 26-kuni, yakshanba kuni, subhi sodiq vaqti, ilmi ulamo Muhammad Karim maxdum, Bobooxun eshon ismi bilan mashhur edi, shahid bo‘ldi, Iso tarixi 1929-yilning 10-may kunida”. Bobooxun Salimovning qabri Amudaryo tumanidagi Jumurtog‘ etagidagi Salomatbobo qabristonida sulolasi maqbarasida joylashgan.

Qozikalon, shoir, xattot, mudarris, davlat arbobi, diplomat, huquqshunos, “Yosh xivaliklar”ning faol a‘zosi, Xorazm farzandi - jadid Bobooxun Salimov 52 yoshida (1877-1929-yillar) shahid bo‘lgan bo‘lsa-da, o‘zidan yorqin iz qoldirib yashab o‘tdi. Jumaboy Rahimov yozganidek, “Chaqmoq kabi chaqnab o‘tdi. U g‘oyat mushkul bir paytda haq va haqiqat uchun kurash yo‘lida yashab o‘tdi”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Yusupov P. “Yosh xivaliklar tarixi”. Urganch, 2000-yil.
2. Umid Bekmuhammad .“Xorazmlik jadidlar. Bobooxund Salimov”. Ilmiy-ommabop risola. “Durdona” nashriyoti. Buxoro, 2022-yil.
3. Eshjonova Sh., va boshqalar.Xorazmda jadidchilik: siyosat, adabiyot, san’at va ma’rifatda. Toshkent: “Ilm-ziyo-zakovat”, 2024.-228-b.
- 4.Raximov J. “U Lenin bilan uchrashgan edi”. Toshkent:“O‘zbekiston”, 1988.
5. А. Уринбаев, Т. Хорикова ,Т. Файзиев, Г. Джураева, К. Исогай. “Каталог Хивинских казийских документов XIX начала XX вв.”, Тошкент – Киото, 2001.
6. O‘zMA. 71-fond, 1-ro‘yxat, 3-ish, 214-varaq.
7. O‘zMA. 72-fond, 1-ro‘yxat, 8-ish, 36 varaq.
8. XVDA. 123-fond, 1-ro‘yxat, 5-ish, 18-varaq.
9. Nizomiddin oxun Salimovning xotira kundaligi. Qo‘lyozma. Avlodlari shaxsiy arxivi.
10. B. Irzayev. “Tahqir va qiynoqlar, konslagerga hukm, vahshiylarcha o‘lim-Xorazm qozilari tarixidan”. <https://oyina.uz/uz/article/2088>

TARIX

XIX ASR OXIRI VA XX ASR BOSHLARIDA BUXORO VOHASIDAGI IJTIMOY-MADANIY JARAYONLAR TARIXIDAN



**Davletov Sanjarbek
Rajabovich,
Tarix fanlari doktori
(DSc), professor.**



**Yuldashev Yuldash
Xandurdiyevich,
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori.**

UO'K 94(575.171)

Annotatsiya: Maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Buxoro amirligida yuz bergan ijtimoiy-madaniy jarayonlar tahlil qilingan. Unda Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi ta'siri ostidagi ijtimoiy-siyosiy holati, islohotchilik g'oyalari, xorijda ta'lim olish imkoniyatlarining kengayishi, BXSR davrida hudud aholisi hayotiga kirib kelgan ilmiy-texnik yangiliklarning ayrim masalalari manbalar asosida yoritilgan.

Аннотация: В статье анализируются социокультурные процессы, происходившие в Бухарском эмирате в конце XIX и начале XX веков. На основе источников рассматривается социально-политическая ситуация в Бухарском эмирате под влиянием Российской империи, реформаторские идеи, расширение возможностей для получения образования за рубежом, а также некоторые вопросы научно-технических инноваций, вошедших в жизнь населения региона в период существования СССР.

Annotation: The article analyzes the socio-cultural processes that took place in the Bukhara Emirate in the late 19th and early 20th centuries. It covers the socio-political situation of the Bukhara Emirate under the influence of the Russian Empire, reformist ideas, the expansion of opportunities for education abroad, and some issues of scientific and technical innovations that entered the lives of the region's population during the USSR, based on sources.

Kalit so'zlar: Buxoro amirligi, BXSR, jadidchilik, islohotlar, maorif, xayriya jamiyatlari, transport, infratuzilma.

Ключевые слова: Бухарский эмират, БСР, джадидизм, реформы, образование, благотворительные общества, транспорт, инфраструктура.

Key words: Bukhara Emirate, BSR, jadidism, reforms, education, charitable societies, transport, infrastructure.

Rossiya imperiyasining Turkiston o'lkasiga bosqini natijasida Qo'qon xonligi tugatildi, Buxoro amirligi va Xiva xonligi esa vassal davlatlarga

aylantirildi. Mustamlakachilik siyosati tufayli mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli tanazzulga yuz tutdi, madaniy hayotda turg'unlik hukm surdi. Jahonning ilg'or mamlakatlarida ilm-fan va texnika taraqqiyotga erishgan bir paytda, Turkiston mintaqasi islohotlarsiz qolib, rivojda ortda qola boshladi.

Darhaqiqat, XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligining Rossiya imperiyasi ta'siri ostiga o'tishi oqibatida davlat tashqi siyosat sohasida to'liq qaram bo'lib, ichki boshqaruvda ma'lum darajada mustaqillikni saqlab qoldi. Biroq amirlikning ijtimoiy va madaniy hayoti jahon taraqqiyotidan ancha orqada edi. Bu orqada qolishning asosiy omillaridan biri - Rossiyaning mustamlakachilik siyosati, ikkinchisi esa mamlakatda diniy doiralar ta'sirining kuchli bo'lishi edi. Mazkur ikki omil ilm-fan taraqqiyotini, maorif islohotlarini va madaniy yangilanish jarayonlarini sezilarli darajada cheklab qo'ydi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzu bo'yicha Ahmad Donish, Amir Said Olimxon, Fayzulla Xo'jayev kabi mualliflarning asarlari muhim manbalar sanaladi.

Mustaqillik yillarida jadidchilik harakati namoyandalarining ijtimoiy, siyosiy va madaniy faoliyati hamda yoshlarning xorijiy ta'lim masalasi doirasida ko'plab tadqiqotlar olib borildi. Ularga tarixchilar D. Alimova, S. Agzamxo'jayev, R. Shamsutdinov, Q. Rajabov, D. Jamolova kabi olimlarning tadqiqotlarini keltirib o'tish mumkin.

Tarixchi olimlaridan Sh.Haitov, A.Yo'ldoshev, M.Hamrayev, M.Yusupova, H.Hasanova tadqiqotlarida Buxoro amirligidagi ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy jarayonlar, madaniy hayot, islohotlar, hududga texnik yangiliklarning joriy etilishi kabi masalalar ilmiy asosda yoritilgan.

Materiallar va metodlar. Tadqiqotda O'zbekiston Milliy arxiviga tegishli jamg'arma hujjatlari, zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning natijalari, memuar adabiyotlar tahlil qilindi. Tarixiy-tahliliy yondashuv, tarixiy tizimlashtirish, qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Jadidlar Buxoro vohasida ma'rifat, ilm-fan va ijtimoiy islohotlar tarafdori bo'lib, ijtimoiy ongni uyg'otishda katta rol o'ynadi. Zamonaviy fanlar (aniq va tabiiy fanlar, xususan matematika, geografiya va b.) faqat ayrim yirik madrasalarda bo'lgan. Yozma manbalarga ko'ra 1900-yilga kelib Buxoroda 365 ta madrasa faoliyat yuritgan, bu esa shaharning har kuni uchun bitta madrasa to'g'ri kelishini anglatadi.

XIX asrda Buxoro amirligida islohotchilik g'oyalarini ilgari surganlar qatorida Abu Nasr al-Kursaviy, Shahobiddin Marjoniy va Ahmad Donish kabi

ma'rifatparvarlar muhim o'rin tutdi. Ular maktab va madrasalarda ta'lim usullarini yangilash zarurligini ta'kidladilar¹. Ahmad Donish mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy hayotini chuqur tahlil qilib, jamiyat taraqqiyoti uchun islohotlarning zarurligini ilgari surdi.

XIX asrning 80-yillaridan boshlab islohotchilik harakatlari jonlandi. Bu jarayonga qo'shni musulmon mamlakatlaridagi uyg'onish harakatlari, savdo aloqalari, haj ziyoratlari va xorij matbuotining kirib kelishi ta'sir ko'rsatdi. Amir Said Abdulahadxon (1885–1910) davrida jadid maktablari tashkil etila boshladi². Masalan, Mulla Jo'raboy "Pustun duzon" guzarida jadid maktabi ochdi. 1893–1896-yillarda amirning o'g'li Olimxon Peterburgda harbiy va dunyoviy bilim oldi.

Buxoro savdogarlari Sharq mamlakatlari bilan birga Yevropa bozorlarida ham savdo qildilar. Bu ularga madaniy va texnik yangiliklarni o'rganish imkonini berdi. Mirzo Sirojiiy, Fayzulla Xo'jayev, Ahmad Naim kabi ziyolilar shu imkoniyatdan foydalandilar. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonning ko'plab yoshlari xorijda tahsil oldi. Jadid ziyolilari yangi usul maktablarini tashkil etish va muallimlar tayyorlash maqsadida yoshlarni isloh qilingan madrasalar va xorijiy o'quv yurtlariga yuborishni muhim deb bildilar. Mahmudxo'ja Behbudiy dunyoviy fanlarni o'qitish va jahon xalqlari bilan yaqinlashish g'oyasini targ'ib qildi. U Samarqandda dastlabki yangi usul (jadid) maktablari ochilishiga rahbarlik qildi, bu maktablar uchun turli darsliklar yozdi.

1910-yilga oid Rossiya imperiyasi ma'muriyatiga tegishli hisobotlarida Istanbulda turkistonlik talabalar ham borligi, ularning yarmi buxorolik ekanligi qayd etilgan: "Hozirgi vaqtda Istanbulda 100 ga yaqin turkistonlik o'quvchi bor, ularning yarmi buxorolik, qolgan yarmi esa Qoshg'ardan kelgan. Bu talabalarga fanlardan dars berish bilan birga umumiy dasturi panislomchilik va turkchilik g'oyalari ham singdirilmoqda"³.

Buxoro amirligidagi Rossiya imperiyasining siyosiy agentligi va ulamolarning nazorati hamda qarshiligiga qaramay, jadidlar maqsadlarini amalga oshirish yo'lida davom etdi. Ular o'z g'oyalarini targ'ib etib, yarim maxfiy

¹ Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое / Форс-тожикчадан А. Ҳамроев, А. Шокиров таржимаси. – Тошкент: Фан, 1964. – Б. 274.

² Жамолова Д. Бухоро амирлигида жади́дчи́лик ва қадимчи́лар фаоли́яти (XIX охири – XX аср бошлари). – Тошкент, 2021. – Б.37-50.

³ О'zMA, I-461- jamg'arma, 1-ro'yxat, 1260-yig'majild, 18-varaq.

jamiyatlar tashkil qilib, faoliyatlarini olib bordilar¹. Xususan, 1909-yilda “Tarbiyai atfol” jamiyati tuzilib, Termiz, Karki, Yangi Buxoro, G‘ijduvonda 28 ta bo‘limi faoliyat yuritdi. Jamiyat orqali 50 dan ortiq buxorolik yoshlar Istanbulda, 1914-yilga kelib esa 250 dan ziyod yoshlar Turkiyada o‘qidi. Shu davrda Istanbulda “Buxoro maorif jamiyati” va Ufada “Turkistonlik o‘quvchilar jamiyati” tuzildi².

XX asr boshlarida Buxoro amirligida o‘zbek, tojik, qirg‘iz, qozoq, turkman, qoraqalpoqlar bilan bir qatorda fors, yahudiy, hind, lo‘li, afg‘on, qalmoq va tatarlar ham istiqomat qilgan. Qalmoqlar Buxoro shahrida, qoraqalpoqlar esa Zarafshon, Amudaryo va Sirdaryoning quyi oqimlarida, qozoqlar esa Buxoro amirligining shimoli-sharqida, oz miqdorda Rossiya fuqaroligiga mansub bo‘lgan, asosan savdo ishlari bilan mashg‘ul bo‘lgan tatarlar ham istiqomat qilganlar³.

Qarshi va Karmana shaharlari ijtimoiy-siyosiy va madaniy jihatdan muhim markazlar bo‘lgan. Karmana amir Abdulahadxon davrida ikkinchi poytaxt sifatida rivojlangan. 1910-yilda Olimxon taxtga o‘tirgach, ayrim islohotlar amalga oshirdi. Bu haqida Amir Said Olimxonning o‘zi shunday deydi: “Taxtga o‘tirganimdan so‘ng bu banda dargohi oliyda mamlakatimning bir yillik xiroj to‘lashdan ozod qilish farmoyishini berdim. Buxoro minorasining past tomonida bozorning ichki tomonida o‘z nomimdan Dorul-ulum – Bilim uyi bo‘lgan bir madrasa qurdirdim; har xil ilmdan dars beruvchi muallimlar tayin ettirdim. Mazkur madrasada istiqomat qiladigan talabalar sarf-xarajatlari, maosh va kiyim-kechagi ham o‘z tarafimdan belgilanib, unga bir nafar nozir tayin etdim; ularning yemak-ichmak, maosh va kiyim-kechaklarini muayyan bir vaqtda yetkaztirardim. Bozor va yo‘l obodligiga ko‘p harakat qildim, uch yil ichida Buxoro mamlakati ancha obod bo‘ldi, unga zeb-ziynat va tartib-intizom o‘rnatdim”⁴.

Qarshi vohasida Amir Said Olimxon tomonidan bir qancha binolar, inshootlar ta‘mirlangan bo‘lib, bulardan Qashqadaryo ko‘prigi, Qarshi qal‘asi, Abdullaxon madrasasi qatorida Odina masjidida ham qayta ta‘mirlash ishlari olib borilgan. Ammo ta‘mirlash davomida vayron bo‘lgan masjidning gumbazi va

¹ Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 1-Том. – Тошкент: Фан, 1976. – Б. 98.

² Йўлдошев А. XIX аср охири - XX асрнинг 20-йилларида Туркистон ёшларининг хорижда таълим олиш масалалари: Тарих фан. фалсафа докт... (PhD) дис. автореф. – Тошкент, 2022. – 24 б.

³ Yusupova M. XX asr II yarmi - XXI asr boshlarida Buxoro shahri o‘zbek va tojiklari an‘anaviy sayllari, bayramlari va tomoshalarining etnohududiy xususiyatlaridagi transformatsiya jarayonlari (tarixiy-etnologik tahlil). Tarix fan. falsafa dokt... (PhD) dis. avtoref. – Nukus, 2025. – B.12.

⁴ Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Тошкент: Фан, 1991. – Б. 5.

minoralarini tiklashning iloji bo'lmagan. Shu tariqa Buxoro amirligida Karmana va Qarshi shaharlari katta ijtimoiy-madaniy o'rin tutgan. Amir Olimxon Yevropa va Osiyoning rivojlangan davlatlaridan mamlakat hududiga kirib kelayotgan ta'lim tizimiga oid o'zgarishlarga ijobiy munosabatda bo'lib, dunyoviy fanlarning o'qitilishiga qarshilik qilmagan. Biroq qadimchilar qarshiligi sabab Said Olimxonning ko'pgina islohotlari to'liq amalga oshmadi¹.

XX asr boshlarida Buxoroga velosiped, mototsikl, yengil avtomobillar va zamonaviy qishloq xo'jaligi texnikalari kirib keldi. 1922-yildan shahar ko'chalarida avtomobil harakati boshlandi. 1923-yilda "Ford" rusumli ikki avtomobil mavjud bo'lgani va yangilariga buyurtma berilgani ma'lum². 1923-yilda Buxoro, Dushanbe, Xiva va Olmaota yo'nalishlarida "Yunkers" samolyotlari qatnovini yo'lga qo'yish bo'yicha shartnomalar imzolandi. Samolyotlar 6 nafar yo'lovchi va 32 pudcha yuk olish imkoniyatiga ega bo'lgan.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida Buxoro vohasining ijtimoiy-siyosiy hayoti o'ziga xos feodal-diniy tuzumga asoslangan bo'lsa-da, tashqi ta'sirlar, jumladan Rossiya imperiyasining siyosiy va iqtisodiy bosimi natijasida asta-sekin modernizatsiya boshlangan. Bu davrda Buxoro amirligida islohotchilik harakatlari va jadidchilik rivojlanishi orqali xorijda ta'lim olish imkoniyatlari kengaydi. Xayriya jamiyatlari yordamida yoshlar Turkiya va Yevropa davlatlarida tahsil oldilar. Buxoroda keyingi davrlardagi shahar infratuzilmasi va transport sohasidagi yangiliklar vohaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Аҳмад Дониш. Наводир ул-вақое / Форс-тожикчадан А. Ҳамроев, А. Шокиров таржимаси. – Тошкент: Фан, 1964.
2. Жамолова Д. Бухоро амирлигида жади́дчи́лик ва қадимчи́лар фаоли́яти (XIX охири – XX аср бошлари). – Тошкент, 2021. – Б. 37-50.
3. О'зМА, I-461- jamg'arma, 1-ro'yxat, 1260-yig'majild, 18-varaq.
4. Хўжаев Ф. Танланган асарлар. 1-Том. – Тошкент: Фан, 1976.

¹ Hamrayev M. Amir Said Olimxonning siyosiy faoliyati va muhojirlikdagi hayoti. Tarix fan. falsafa dokt... (PhD) dis. avtoref. – Urganch, 2025. – B.22.

² Hasanova H. Turkistonda texnika sohasidagi yangiliklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri (1917-1924 yy). Tarix fan. falsafa dokt... (PhD) dis. avtoref. – Urganch, 2025. – B.16.



5. Ёўлдошев А. XIX аср охири - XX асрнинг 20-йилларида Туркистон ёшларининг хорижда таълим олиш масалалари. Тарих фан. фалсафа докт... (PhD) дис. автореф. – Тошкент, 2022.
6. Yusupova M. XX asr II yarmi - XXI asr boshlarida Buxoro shahri o'zbek va tojiklari an'anaviy sayllari, bayramlari va tomoshalarining etnohududiy xususiyatlaridagi transformatsiya jarayonlari (tarixiy-etnologik tahlil). Tarix fan. falsafa dokt... (PhD) dis. avtoref. – Nukus, 2025.
7. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Тошкент: Фан, 1991.
8. Hamrayev M. Amir Said Olimxonning siyosiy faoliyati va muhojirlikdagi hayoti. Tarix fan. falsafa dokt... (PhD) dis. avtoref. – Urganch, 2025.
9. Hasanova H. Turkistonda texnika sohasidagi yangiliklarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotga ta'siri (1917-1924 yy). Tarix fan. falsafa dokt... (PhD) dis. avtoref. – Urganch, 2025.

TARIX

XORAZM HUNARMANDCHILIGI ILMIY TADQIQOTLARINING TARIXIY-METODOLOGIK TAHLILI (XX ASRNING 30-YILLARI – XXI ASR BOSHLARI)



Kadamova Qizlarxon,
UrDU magistranti.

UO‘K 907.31

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asrning 30-yillaridan XXI asr boshlariga qadar Xorazm hunarmandchiligi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning tarixiy-metodologik rivoji tahlil qilinadi. Tadqiqotlarda dastlab arxeologik va tavsifiy yondashuvlar ustuvor bo'lgan bo'lsa, keyingi bosqichlarda qiyosiy-tarixiy, fanlararo hamda kompleks metodlar keng qo'llanila boshlagan.

Аннотация: В статье представлен историко-методологический анализ исследований хорезмского ремесленничества с 30-х годов XX века до начала XXI века. Показана эволюция научных подходов — от преимущественно описательных и археологических методов к комплексным и междисциплинарным исследованиям.

Annotation: This article presents a historical and methodological analysis of scholarly research on Khorezm craftsmanship from the 1930s to the early 21st century. The study traces the evolution of research approaches from primarily descriptive and archaeological methods to comprehensive interdisciplinary investigations.

Kalit so'zlar: Xorazm hunarmandchiligi, tarixiy-metodologik tahlil, moddiy madaniyat, arxeologik tadqiqotlar, kulolchilik, fanlararo yondashuv, Oltin O'rda shaharlari, madaniy aloqalar, ilmiy tadqiqotlar tarixi.

Ключевые слова: Хорезмское ремесленничество, историко-методологический анализ, материальная культура, археология, гончарное производство, междисциплинарный подход, города Золотой Орды, культурные связи, история научных исследований.

Key words: Khorezm craftsmanship, historical and methodological analysis, material culture, archaeology, pottery production, interdisciplinary approach, Golden Horde cities, cultural interactions, history of research.

XX asrning o‘ttizinchi yillaridan XXI asr avvaligacha bo‘lgan davrda Xorazm hunarmandchiligini tadqiq etishning tarixiy-uslubiy ko‘rib chiqilishi mintaqaning moddiy sivilizatsiyasiga nisbatan qo‘llanilgan yondashuvlar taraqqiyotini, ya’ni dastlabki yakka tartibdagi kuzatishlardan keng qamrovli, fanlararo izlanishlarga o‘tish jarayonini yaqqol ko‘rsatib beradi.

Bu davrdagi asosiy ilmiy strategiyalar quyidagilardan iborat bo‘ldi: arxeologik qazishmalar natijalarini chuqur o‘rganish, mavjud yozma manbalarni tizimli tahlil qilish hamda iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlarni qayta tiklash maqsadida ma’lumotlar sintezi (birlashtirilishi)ni amalga oshirish..

Dastlabki davr (1930-yillar,1950-yillar): 1930-yillarda Xorazm hunarmandchiligi bo‘yicha tadqiqotlar endigina boshlangan edi. Masalan, A.Y.Yakubovskiy 1933-yilgi ishida Xorazm ko‘chmanchilar (paxta matolari ishlab chiqarish) va butun aholi ehtiyojlariga yo‘naltirilgan hunarmandchilikni rivojlantirganini ta’kidlagan (sopol idishlar — tugallanmagan va sirlangan). A.Yu.Yakubovskiyning “Saroy Berkaning hunarmandchilik sanoati” asaridagi “Saroy kulolchiligida Xorazm” deb nomlanuvchi bo‘limida Volga bo‘yidagi Oltin O‘rda shaharlariga Xorazm kulolchilik ana’analarining ta’siri alohida ta’kidlab o‘tiladi[1]. Saroy Berka me’morchiligida qo‘llanilgan sirkor koshinlarning ishlanish texnikasi va sifati jihatidan Urganchdan ko‘chirib keltirilgan xorazmlik ustalarning ishlari batomom takrorlangan va davom ettirilganligini ko‘rsatadi [2].

1950-yillarda G.A.Fedorov-Davidov Ko‘hna Urganchda (tosh-qala) qazish ishlarini olib bordi, u yerda mis quyish va suyak kesish ustaxonalari, shuningdek, shisha, bronza, temir va keramika buyumlari topildi. Ushbu materiallar XIV-XVII asrlarda Urganchdagi hunarmandchilik holatini tavsiflashga imkon berdi. Bu davrda N.S.Grajdankina, E.V.Rtveladze, G.A.Fedorov-Davidov, M-Sh.Qdyirniyazov asarlarida ham Xorazm kulolchilik ana’analarining Oltin O‘rda shaharlaridagi kulolchilik hunarmandchiligiga kuchli ta’sir ko‘rsatganligi qayd qilingan [3].

Ushbu davr metodologiyasi asosan arxeologik bo‘lib, topilmalarni chuqur tizimlashtirish va talqin qilmasdan tavsiflashga qaratilgan.

1960-1970-yillar: 1960-yillarda tadqiqotlar faollashdi. O.G.Bolshakovning “VIII asr oxiri — XIII asr boshidagi shahar” monografiyasi muhim hissa bo‘ldi, bu O‘rta Osiyo shaharlari va uning hunarmandchiligi, shu jumladan Xorazm tarixi bo‘yicha fundamental asar bo‘ldi.

N.N.Vakturskaya tadqiqotlari natijasida “Xronologicheskaya klassifikatsiya srednevekovoy keramiki Xorezma (IX-XVII vv.)” [4] va “O

srednevekovyix gorodax Xorezma” [5] deb nomlangan kitoblari nashr qilingan. Ushbu davrda qiyosiy-tarixiy usul qo‘llanila boshlandi, mintaqaning madaniy va iqtisodiy aloqalariga e‘tibor kuchaydi.

1980-2000-yillar: Tadqiqotlar yanada tizimlashtirildi. Olimlar arxeologik ma‘lumotlar va yozma manbalarning kombinatsiyasidan foydalandilar. Masalan, XII–XV asrlarda Xorazm hunarmandchiligiga bag‘ishlangan dissertatsiyada tarixiy ma‘lumotlarni tizimlashtirish, tahlil qilish va umumlashtirish usullari, xronologik va qiyosiy-tarixiy yondashuvlar qo‘llanilgan. Ish hunarmandchilikning genezisini va ularning iqtisodiy va madaniy aloqalardagi rolini o‘rganishga hissa qo‘shdi.

Bu davr tadqiqotlariga N.Ibrohimovning “Ibn Batuta va uning O‘rta Osiyoga sayohati” [6], M.Sh.Kdyirniyazovning “Kulturniye svyazi zolotoordiyinskix gorodov Xorezma// Srednevekovaya gorodskaya kultura Kazaxstana i Sredney Azii” [7] va “Materialnaya kultura gorodov Xorezma XIII–XIV vv.” [8] kiritish mumkin.

1990-yillarda Janubiy Xorazmda (masalan, Xumbuz tepada) olib borilgan arxeologik ishlar qadimgi kulolchilik texnologiyalari haqidagi tushunchalarni kengaytirdi. Tadqiqotlar mintaqada keramika ishlab chiqarishni rivojlantirishga tashqi omillarning ta‘sirini ko‘rsatdi.

2000-yillarda Xorazm hunarmandchilik tarixi bo‘yicha qilingan ilmiy tadqiqotlarga M.T.Turebekovning “Raskopki jilogo massiva goncharov srednevekovogo Mizdaxkana” [9], M.T.Turebekov va N.Saparov “Talkovyyiy osvetitelniy pribor iz gorodisha Bograxan” [10], B.Turganovning “Xorazmning o‘rta asrlardagi metallsozlik hunarmandchiligi (VIII–XIV asrlar arxeologik materiallari asosida) // Tarix fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi [11], G.A. Fedorov-Davidovning “Zolotoordiyinskiye goroda Povolj’ya. Keramika. Torgovlya. Byit” [12] nomli tadqiqotlarini kiritishimiz mumkin.

Tavsifdan tahlilgacha. Agar 1930-1950-yillarda topilmalarni qayd etishga e‘tibor qaratilgan bo‘lsa, keyinchalik tadqiqotchilar ma‘lumotlarni talqin qilish, qonuniyatlar va munosabatlarni aniqlashga intilishni boshladilar.

Fanlararo yondashuv. Arxeologiya, tarix, san‘atshunoslik, iqtisodiyot birlashtirilgan. Masalan, keramikani o‘rganish texnologik tahlil va tarixiy-madaniy kontekstni o‘z ichiga oladi.

Zamonaviy usullardan foydalanish. XXI asrda arxeologiyada raqamli texnologiyalar qo'llanilishni boshladi, bu esa tadqiqotlarning aniqligini oshirdi.

Xulosa: XX asrning 30-yillaridan XXI asr boshlarigacha bo'lgan davrda Xorazm hunarmandchiligini o'rganishga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlar mazmuni va metodologiyasida sezilarli evolyutsiya yuz berdi. Dastlabki bosqichda tadqiqotlar asosan arxeologik topilmalarni aniqlash, tavsiflash va umumiy qayd etish bilan cheklanib, hunarmandchilik jarayonlari va ularning ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni yetarli darajada tahlil qilinmagan. Ushbu davr ilmiy izlanishlari ko'proq empirik xarakterga ega bo'lib, Xorazm moddiy madaniyatining alohida unsurlarini yoritishga xizmat qilgan.

Umuman olganda, Xorazm hunarmandchiligini o'rganish jarayoni parcha-parcha tavsifiy tadqiqotlardan kompleks, nazariy jihatdan asoslangan va fanlararo ilmiy izlanishlar bosqichiga ko'tarilgan bo'lib, bu holat mintaqaning boy madaniy merosini ilmiy asosda saqlash va kelajak avlodlarga yetkazishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Якубовский А.Ю. К вопросу о происхождении ремесленной промышленности Сарая Берке// Известия ГАИМК. –Л.,1931.Т.8. Вып.2–3. – С.28–48.
2. Греков Б.Д., Якубовский А.Ю. Олтин Ўрда ва унинг кулаши. – Тошкент: 1956. -370-бет.
3. Гражданкина Н.С., Ртвеладзе Э.В. Влияние Хорезма на керамическое производство золотоордынского города Маджара// СА. 1971, №1. –С.128–132.
4. Вактурская Н.Н. Хронологическая классификация средневековой керамики Хорезма (IX-XVII вв.) // ТХАЭЭ. -М., АН СССР, 1959. Т. IV. –С. 261–342.
5. Вактурская Н.Н. О средневековых городах Хорезма // МХЭ. -М., 1963, вып. 7.–С.41-54.
6. Иброҳимов Н. Ибн Батута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. – Тошкент, 1993. -103-бет.
7. Кдырнязов М.Ш. Культурные связи золотоордынских городов Хорезма// Средневековая городская культура Казахстана и Средней Азии. – Алма-Ата: Наука, 1983. –С. 102–105.

8. Кдырниязов М-Ш. Материальная культура городов Хорезма XIII–XIV вв. –Нукус: Каракалпакстан, 1989. -176 с.
9. Туребеков М.Т. Раскопки жилого массива гончаров средневекового Миздахкана // АП. –Нукус, 2003. Вып.VI. –С.67–85.
10. Туребеков М. Сапаров Н. Тальковый осветительный прибор из городища Бограхан // Вестник МИЦАИ. –Самарканд,2007, № 6. –С. 62–66.
11. Турганов Б. Хоразмнинг ўрта асрлардаги металлсозлик хунармандчилиги (VIII–XIV асрлар археологик материаллари асосида) // Диссертация иши. -Самарканд. 2009. -170 бет.
12. Федоров-Давыдов Г.А. Золотоордынские города Поволжья. Керамика. Торговля. Быт. –М., 2001. 389 с.

TARIX**IKKINCHI JAHON URUSHIDAN KEYINGI YILLARDA XORAZM VILOYATI MATBUOTINING TIKLANISHI VA UNING IJTIMOIIY-IQTISODIY HAYOTNI YORITISHDAGI ROLI**

Bobojanova Gulhayo,
Urganch davlat
universiteti
mustaqil tadqiqotchisi.

UO‘K 907.31

Annotatsiya: Mazkur maqolada Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda Xorazm viloyati matbuotining tiklanish jarayoni hamda uning ijtimoiy-iqtisodiy hayotni yoritishdagi roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda arxiv hujjatlari va davriy nashrlar asosida matbuotning qishloq xo‘jaligi, sanoat, madaniy-ma‘rifiy hayot hamda mafkuraviy siyosatni targ‘ib etishdagi funksiyalari yoritiladi.

Аннотация: В данной статье анализируется процесс восстановления прессы Хорезмской области в послевоенные годы после Второй мировой войны, а также её роль в освещении социально-экономической жизни региона. На основе архивных документов и периодических изданий в исследовании рассматриваются функции прессы в освещении сельского хозяйства, промышленности, культурно-просветительской жизни и пропаганде идеологической политики.

Annotationl This article analyzes the process of restoring the press of the Khorezm region in the post-war years following the Second World War, as well as its role in covering the socio-economic life of the region. Based on archival documents and periodical publications, the study examines the functions of the press in reporting on agriculture, industry, cultural and educational life, and the promotion of ideological policy.

Kalit so‘zlar: Xorazm matbuoti, urushdan keyingi tiklanish, sovet mafkurasi, radiogazeta, qishloq xo‘jaligi, ijtimoiy hayot, kommunistik targ‘ibot.

Ключевые слова: Хорезмская пресса, послевоенное восстановление, советская идеология, радиогазета, сельское хозяйство, общественная жизнь, коммунистическая пропаганда.

Key words: Khorezm press, post-war reconstruction, Soviet ideology, radio newspaper, agriculture, social life, communist propaganda.

Ikkinchi jahon urushi oqibatida xalq xo‘jaligining barcha sohalari kabi matbuot tizimi ham inqirozga uchradi. Moddiy-texnik resurslarning kamayishi,

bosmaxonalarning qisman faoliyatdan to'xtashi, malakali jurnalist kadrlarning frontga safarbar etilishi natijasida matbuot sifati pasaydi, ayrim nashrlar esa vaqtincha faoliyatini to'xtatdi.

Urush yakunlangach, Xorazm viloyatida matbuotni tiklash va uni ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy hayotni yoritishning muhim vositasiga aylantirish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylandi. Bu jarayon sovet hukumatining umumittifoq miqyosidagi mafkuraviy va tashkiliy qarorlari bilan uzviy bog'liq holda amalga oshirildi.

Sovet hukumatining 1945-1948-yillardagi qarorlarida matbuot "kommunistik qurilishning mafkuraviy fronti" sifatida belgilandi. "Matbuot xalqni safarbar qiluvchi qudratli qurol bo'lishi kerak", degan g'oya markaziy nashrlarda muntazam targ'ib qilindi [1]. Mazkur mafkuraviy yondashuv viloyat matbuotining tiklanish jarayonini ham belgilab berdi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi (O'R MDA) hujjatlarida 1946-yil byudjetidan viloyat matbuotini tiklash uchun alohida mablag' ajratilgani qayd etilgan [2]. Shu bilan birga, arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1946-yilda Xorazm tahririyatlarida ishlovchilarning atigi 28 foizi urushdan oldingi malakali kadrlar bo'lgan [3]. Viloyat bosmaxonasining urushdan keyingi holati esa 1946-yil hisobotida "qoniqarsiz" deb baholangan [5]. Ushbu manbalar urushdan keyingi matbuot faoliyatining real holatini yoritishda muhim ahamiyatga ega.

Metodologik yondashuv. Maqolada tarixiy-tahliliy va manbashunoslik usullari qo'llanildi. Tadqiqotning asosiy manbalarini O'R MDA hujjatlari, Xorazm viloyatida chop etilgan gazeta va jurnallar ("Xorazm haqiqati", "Xorezmskaya pravda", "Leninchi", "Yosh kommunist", "Qizil Xorazm") hamda davriy matbuotda e'lon qilingan maqolalar va fotomateriallar tashkil etadi. Radiogazetalar faoliyati sovet axborot siyosatining mahalliy darajadagi ko'rinishi sifatida tahlil qilindi.

Ikkinchi jahon urushi yillarida Xorazm viloyati matbuoti tizimi jiddiy inqirozga yuz tutdi. Moddiy-texnik resurslarning keskin kamayishi, bosmaxonalarning qisman faoliyatdan to'xtashi, malakali jurnalist kadrlarning katta qismining frontga safarbar etilishi natijasida matbuot nashrlarining sifati pasaydi, ayrim gazetalar esa vaqtincha chiqmay qoldi. Urush tugashi bilan respublikaning boshqa hududlarida bo'lgani kabi Xorazm viloyatida ham matbuotni tiklash va uni ijtimoiy-siyosiy hamda iqtisodiy hayotni yoritishning asosiy vositasiga aylantirish siyosati boshlab yuborildi.

Sovet hukumatining 1945–1948-yillardagi qarorlarida matbuot “kommunistik qurilishning mafkuraviy fronti” sifatida belgilandi. Markaziy nashrlarda “matbuot xalqni safarbar qiluvchi qudratli qurol bo‘lishi kerak” degan g‘oya muntazam takrorlab borildi [1]. Ushbu mafkuraviy yondashuv Xorazm viloyati matbuotining urushdan keyingi tiklanish jarayonini ham belgilab berdi va uning mazmuniy-g‘oyaviy yo‘nalishlariga ta’sir ko‘rsatdi.

1945-yil oxiriga kelib Xorazm viloyati rahbariyati huzurida maxsus “Matbuot bo‘limi” faoliyati qayta tiklandi. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy davlat arxivi hujjatlarida qayd etilishicha, viloyat matbuoti faoliyatini yo‘lga qo‘yish uchun

1946-yil byudjetidan alohida mablag‘ ajratilgan [2]. Biroq matbuotni tiklash jarayonida qator muammolar saqlanib qoldi. Jumladan, kadrlar yetishmovchiligi, qog‘oz ta’minotidagi uzilishlar, bosmaxona jihozlarining eskirganligi va tahririyat binolarining yaroqsiz holga kelgani ustuvor muammolar sifatida namoyon bo‘ldi. Arxiv hujjatlarida 1946-yilda Xorazm tahririyatlarida ishlagan xodimlarning atigi 28 foizi urushdan oldingi malakali kadrlar bo‘lgani qayd etilgan [3].

Mazkur holat kadrlar masalasini tezkor hal etishni taqozo qildi. Shu sababli Toshkent Davlat Universiteti jurnalistika bo‘limiga Xorazmdan maxsus kvotalar ajratildi, 2-3 oylik tezkor jurnalistika kurslari tashkil qilindi hamda “Xorazm haqiqati” tahririyatida yangi muxbirlar maktabi ochildi. 1946-1947-yillarda viloyat bosmaxonasiga yangi linotip mashinalari olib kelinib, Toshkentdan qog‘oz fondi ajratildi, tahririyatlar uchun alohida transport vositalari belgilandi. Natijada “Xorazm haqiqati” gazetasining tiraji 1947-yilga kelib urush oldi darajasining 70 foiziga yetkazildi. Arxiv hujjatlarida bu jarayon “qayta tiklash ishlari tezlashtirildi, gazeta chiqishida uzilishlarga yo‘l qo‘ymaslik birinchi navbatdagi vazifa etib belgilandi”, deya qayd etilgan [4]. Shunga qaramay, 1946-yil hisobotida viloyat bosmaxonasining urushdan keyingi holati “qoniqarsiz” deb baholangan [5].

1950-yillarga kelib Xorazm viloyati matbuoti faoliyatida barqarorlik kuzatila boshladi. “Xorezmskaya pravda”, “Xorazm haqiqati”, “Leninchi”, “Yosh kommunist”, “Qizil Xorazm” kabi gazeta va jurnallar xalq xo‘jaligini tiklash, paxtachilik, sanoat va madaniyatni rivojlantirish masalalariga keng o‘rin bera boshladi. Urushdan keyingi davrda viloyatda iqtisodiy hayotni tiklash, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish va xalq xo‘jaligini qayta qurish ishlari keng ko‘lamda olib borildi.

Xorazm viloyati agrar hudud bo'lgani sababli matbuotda qishloq xo'jaligi, ayniqsa paxtachilik masalalari yetakchi o'rin egalladi. Gazeta sahifalarida paxtachilikda rejalar bajarilishi, melioratsiya inshootlarining ta'miri, yangi yerlarning o'zlashtirilishi, kolxoz va sovxoz faollarining mehnat namunasi keng yoritildi. "Xonqa kanali bo'yida tiklanish ishlari" nomli maqolada sug'orish tizimining qayta tiklanishi yoritilgan [6]. "Paxta hosilini oshirish - burchimiz" sarlavhali materialda paxtachilikdagi rejaviy vazifalar targ'ib qilingan [7]. "Mehnat qahramonlari safiga qo'shiling!" rukni ostida esa ilg'or kolxozchilar faoliyati namuna sifatida ko'rsatib berilgan [8]. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, 1949-yilga kelib Xorazm viloyatida sug'orish tarmoqlarining 60 foizi, beshta paxta tozalash korxonasi va 40 dan ortiq nasos stansiyalari tiklangan [9].

Sanoat sohasi ham matbuot e'tiboridan chetda qolmadi. Urushdan oldin cheklangan bo'lgan sanoat tarmoqlari 1945-1950-yillarda qayta tiklandi. "Sanoat tiklanmoqda" sarlavhali maqolada viloyatdagi sanoat korxonalarida olib borilgan ishlar yoritilgan [10]. "Gurlandagi mexanizatsiya stansiyasida yangi traktorlar ishga tushdi" nomli maqolada esa mexanizatsiya jarayonlari orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari targ'ib qilingan [11].

Matbuotning muhim siyosiy vazifalaridan biri aholining kommunistik e'tiqodini mustahkamlashdan iborat bo'ldi. Bu borada "yangi odam" konsepsiyasi, mehnat intizomi, hushyorlik va ahloqiy barkamollik mavzulari muntazam ko'tarildi. Tahririyatlar har oyda "ideologik ishlar bo'yicha hisobot" topshirib borgan [12]. Tanqidiy maqolalar ham uchragan bo'lsa-da, ular asosan mehnat intizomi va reja bajarilmasligi masalalari bilan cheklangan.

1950-yillarda radio va radiogazetalar matbuot tizimining muhim tarkibiy qismiga aylandi. "Xorazm haqiqati" gazetasining 1954-yil 12-mart sonida chop etilgan "Paxtakorlar yangi yutuqlar sari" maqolasida Gurlan tumanidagi ilg'or kolxozlar faoliyati yoritilgan [13]. Shu davr nashrlarida Yangibozor tumanidagi paxtakorlar tajribasi alohida tahlil qilingan [14], Xiva va Urganch tumanlaridagi ilg'or xo'jaliklar faoliyati esa boshqa maqolalarda targ'ib etilgan [15]. "Sovet kishisi - mehnat frontining qahramoni" mavzusidagi materiallar orqali mehnatsevarlik va ijtimoiy faollik g'oyasi mustahkamlangan [14].

R. Qo'chqorovning "Hayot bilan hamnafas" maqolasi radio vositasining sovet jamiyatidagi ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi [16]. Unda radio kommunistik g'oyalarni targ'ib qilishning eng qulay shakllaridan biri sifatida baholangan [18]. Maqolada radio orqali agronomik ko'rsatmalar berilishi, ishlab chiqarish

jarayonining boshqarilishi, sotsialistik musobaqaning kuchaytirilgani misollar bilan yoritilgan [21]. Brigada a'zolarining belgilangan muddatlarda chigit ekishni yakunlagani haqidagi ma'lumotlar radio orqali berilgan ko'rsatmalarning amaliy ahamiyatini ko'rsatadi [22]. Radio orqali "sotsialistik musobaqani avj oldirib yuborish" g'oyasi targ'ib qilingan [23], bu esa mehnat unumdorligini oshirishda mafkuraviy rag'bat vositasi sifatida xizmat qilgan [24]. "Radio orqali o'tkazilayotgan suhbatlar kolxozda umumiy ko'tarilishga sabab bo'lyapti" degan ibora radio orqali jamoaviy ong shakllantirilganini ko'rsatadi [25]. 1950-1980-yillarda har bir kolxozda klub, kutubxona va radio tuguni bo'lishi talab etilgani ham radio tarmog'ining ahamiyatini oshirdi [26].

1960-yillarga kelib Xorazm viloyati matbuotida madaniy-ma'rifiy masalalarning yoritilishi kuchaydi. "Xorazm haqiqati", "Kommunist Xorezma", "Leninchi" gazetalarida xalq maorifi, teatr, kutubxonalar va tarixiy meros masalalari muntazam e'lon qilindi [27]. "Frontchilar oilalariga yordam qo'li cho'zildi" maqolasida ijtimoiy yordam masalalari yoritilgan [28]. "Yangi maktab - yangi avlodga" nomli materialda ta'lim muassasalarining tiklanishi targ'ib qilingan [29]. "Xonqa tumanida yangi shifoxona ochildi" sarlavhali maqolada sog'liqni saqlash sohasidagi o'zgarishlar aks ettirilgan [30].

1962-yilgi gazeta sonlarida radio faoliyatini aks ettiruvchi ko'plab fotomateriallar e'lon qilindi. "Xorazm haqiqati" gazetasining 1962-yil 18-iyuldagi sonida injener Elza Pak va texnik Rustam Abdullayevlarning radio uskunalarini tekshirayotgani tasvirlangan surat chop etilgan [31]. Shu sonlarda rejissyor G'oyibjon Iskandarovning efir jarayonini boshqarayotgani aks ettirilgan rasm berilgan [32]. 1962-yil 6-maydagi sonda Shovot tumanidagi Chkalov nomli kolxoz agitatori K. Norboyevning kolxoz radiosi orqali yangiliklarni o'qib eshittirayotgani tasvirlangan [33]. Qo'shko'pir tumanidagi Xrushchev nomli kolxozning eng yaxshi radiotexnigi sifatida Qodir Karimov faoliyati yoritilgan [34]. Urganch tumanidagi Oxunboboyev nomli kolxozning sobiq a'zosi, pensioner Ollabergan ota Rajabovning oila a'zolari bilan radio tinglayotgani aks ettirilgan surat ham e'lon qilingan [35].

Mazkur materiallar Xorazm viloyatida radio va matbuotning kundalik hayotga chuqur singib borgani, ularning nafaqat axborot, balki mafkuraviy, iqtisodiy va madaniy vosita sifatida ham faoliyat yuritganini ko'rsatadi.

Urushdan keyingi yillarda Xorazm viloyati matbuoti sovet axborot siyosatining muhim tarkibiy qismiga aylandi. Gazeta va radiogazetalar orqali iqtisodiy tiklanish, qishloq xo'jaligi va sanoatni rivojlantirish, shuningdek,

mafkuraviy barqarorlikni ta'minlashga xizmat qilindi. Matbuot jamiyatni safarbar etish va kommunistik qadriyatlarni singdirishning asosiy vositalaridan biri sifatida faoliyat yuritdi. Ushbu manbalar Xorazm viloyatining urushdan keyingi ijtimoiy-iqtisodiy tarixini o'rganishda muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. "Pravda" gazetasi, 1945-yil, 12-may.
2. O'R MDA, f.837, r.4, y.71.
3. O'R MDA, f.837, r.11, y.345
4. O'R MDA, f.837, r.4, y.70.
5. O'sha manba.
6. "Xorazm haqiqati" gazetasining 1948-yil sonlari.
7. "Xorazm haqiqati" gazetasining 1948-yil sonlari.
8. "Xorazm haqiqati" gazetasining 1948-yil sonlari.
9. O'R MDA, f.2965, y.402
10. "Xorazm haqiqati" gazetasining 1948-yil sonlari.
11. "Xorazm haqiqati" gazetasi, 1948-yil, 17-iyun.
12. O'R MDA, f.837, r.9, y.52.
13. "Xorazm haqiqati" gazetasi, 1954-yil, 12-mart.
14. "Kommunist Xorezma" gazetasi, 1955-yil, 18-fevral.
15. "Xorazm haqiqati" gazetasining 1954-yil, 12-mart soni.
16. "Xorazm haqiqati" gazetasi. 1962-yil, 6-may.
17. O'sha manba.
18. "Xorazm haqiqati" gazetasi. 1962-yil, 6-may.
19. Qarang: RGASPI, f.17, op. 3, d. 246.
20. "Xorazm haqiqati" gazetasi. 1962-yil, 6-may.
21. Qarang: O'zMA, f.837, op. 12, d. 56.
22. "Xorazm haqiqati" gazetasi. 1962-yil, 6-may.
23. O'sha manba.
24. O'zMA, f. 837, op. 18, d. 143).
25. "Xorazm haqiqati" gazetasi. 1962 йил. 6-май, №89 (9295).
26. Qarang: KPSS Markaziy Qo'mitasi qarori, 1954-yil.
27. Хоразм ҳақиқати газетаси. 1965-yil. №15-25.
28. Хоразм ҳақиқати газетаси. 1965-yil. №15-25.
29. O'sha manba.



30. O'sha manba.
31. "Xorazm haqiqati" gazetasi. 1962-yil, 18-iyul.
32. O'sha manba.
33. "Xorazm haqiqati" gazetasi. 1962-yil, 6-may.
34. O'sha manba.
35. O'sha manba.

TARIX

1989-1990-YILLARDA O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM TIZIMINI KENGAYTIRISH SIYOSATI



Iroda Tishabayeva,
Farg‘ona davlat texnika
universiteti
“Ijtimoiy fanlar va
sport” kafedrası
dotsenti

UO‘K 907.31

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1989–1991-yillarda O‘zbekistonda aholini maktabgacha ta’lim muassasalari bilan qamrab olish masalalari va ushbu jarayonda uy bog‘chalari (xonadon bog‘chalari) tizimini joriy etish tajribasi tahlil qilinadi. Farg‘ona vodiysi, Samarqand, Xorazm, Namangan, Andijon va boshqa hududlar misolida uy bog‘chalarining ochilishi, ularning bolalarni maktabgacha ta’lim bilan qamrab olishdagi o‘rni statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье анализируются вопросы охвата населения дошкольными учреждениями в Узбекской ССР в 1989–1991 годах, а также опыт внедрения системы домашних детских садов. На примере Ферганской долины, Самаркандской, Хорезмской, Наманганской, Андижанской и других областей на основе статистических данных рассматривается роль домашних детских садов в расширении охвата детей дошкольным воспитанием.

Annotation: This article examines the issues of population coverage by preschool institutions in the Uzbek SSR during 1989–1991 and analyzes the experience of introducing the system of home-based kindergartens. Based on statistical data from the Fergana Valley, Samarkand, Khorezm, Namangan, Andijan, and other regions, the article analyzes the role of home-based kindergartens in expanding access to preschool education.

Kalit so‘zlar: uy bog‘chalari, maktabgacha ta’lim, ta’lim, davlat siyosati, ijtimoiy ehtiyoj, hududiy rivojlanish, qamrov, tashabbus.

Ключевые слова: домашние детские сады, дошкольное воспитание, образование, государственная политика, социальная потребность, территориальное развитие, охват, инициатива.

Key words: home-based kindergartens, preschool education, education, state policy, social needs, regional development, coverage, initiative.

Bugungi kunda O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish va bolalarni ushbu tizim bilan to‘liq qamrab olish masalasi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasida maktabgacha tarbiya muassasalari tarmog‘ini kengaytirish, ta’lim xizmatlarining muqobilligi va inklyuzivligini ta’minlash, shuningdek, ushbu sohada faoliyat yuritayotgan xodimlarning mehnatini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev o‘z nutqlarida maktabgacha ta’lim bolalarning intellektual, ma’naviy va jismoniy rivojlanishida hal qiluvchi bosqich ekanini ta’kidlab, aynan ushbu davrda sifatli ta’lim muhitini yaratish jamiyat taraqqiyotining muhim omili ekanini qayd etib kelmoqda [6].

Mazkur yondashuv tarixiy tajribani qayta ko‘rib chiqish, sovet davrining so‘nggi yillarida maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan siyosat va amaliy choralarni ilmiy tahlil etish zaruratini yuzaga keltiradi. Ayniqsa, 1989–1991-yillarda O‘zbekiston SSRda maktabgacha ta’lim muassasalariga bo‘lgan ehtiyojning keskin ortishi, mavjud bog‘chalar quvvatining yetishmasligi va minglab bolalarning navbatda qolishi davlatni yangi tashkiliy shakllarni joriy etishga undagan muhim omillardan biri bo‘ldi.

Shu sharoitda uy bog‘chalari (xonadon bog‘chalari) tizimini joriy etish maktabgacha ta’lim tarmog‘ini tezkor kengaytirishning muqobil va nisbatan moslashuvchan shakli sifatida namoyon bo‘ldi. Ushbu tajriba aholini maktabgacha ta’lim bilan qamrab olish darajasini oshirish, ayniqsa qishloq va chekka hududlarda mavjud muammoni yumshatish imkonini berdi.

Mazkur maqolada O‘zbekistonda 1989–1991-yillarda maktabgacha ta’lim tizimini kengaytirish siyosati doirasida uy bog‘chalari tajribasi tarixiy manbalar va statistik ma’lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot sovet davrining so‘nggi bosqichida amalga oshirilgan mazkur ijtimoiy tashabbusning imkoniyatlari va cheklovlarini aniqlash, shuningdek, bugungi kunda Prezidentimiz tomonidan ilgari surilayotgan maktabgacha ta’limni rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bilan tarixiy qiyoslash imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqotda tarix faniga xos ilmiy metodlar majmui qo‘llanildi. Tarixiylik va xronologik metodlar asosida 1989–1991-yillarda O‘zbekiston SSRda maktabgacha ta’lim tizimini kengaytirish siyosati va uy bog‘chalari tizimining joriy etilishi tahlil qilindi. Manbashunoslik yondashuvi orqali arxiv hujjatlari hamda davriy matbuot materiallari tanqidiy o‘rganildi.

Shuningdek, tizimli va taqqoslash metodlari yordamida uy bog‘chalari faoliyati davlat siyosati va hududiy xususiyatlar bilan bog‘liqlikda ko‘rib chiqildi.

Statistik va muammoli-tahliliy metodlar asosida maktabgacha ta'lim bilan qamrov ko'rsatkichlari hamda mavjud muammolar aniqlanib, umumiy xulosalar chiqarildi.

O'zbekiston SSRda sovet davrining so'nggi yillarida maktabgacha ta'lim tizimini kengaytirish va aholini ushbu tizim bilan qamrab olish masalalari tarixshunoslikda nisbatan kam o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, 1989–1991-yillarda uy bog'chalari (xonadon bog'chalari)ni tashkil etish tajribasi alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan.

Mazkur mavzuni o'rganishda arxiv hujjatlari muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Namangan viloyat davlat arxivida saqlanayotgan hujjatlar uy bog'chalari ochish bo'yicha mahalliy tashabbuslar, ruxsat berish tartibi va hududiy ijro organlarining faoliyati haqida muhim ma'lumotlar beradi. O'zbekiston Milliy arxivi materiallarida esa maktabgacha ta'lim tizimini kengaytirish bo'yicha respublika miqyosida ishlab chiqilgan rejalar, hisobotlar va tahliliy ma'lumotlar jamlangan.

Shuningdek, N. To'xliyevning "O'zbekiston iqtisodiyoti" asarida sovet iqtisodiy tizimining inqiroz sharoitida ijtimoiy soha, jumladan, ta'lim va maktabgacha tarbiya muassasalarining moliyalashtirilish holati umumiy iqtisodiy jarayonlar bilan bog'liq holda yoritilgan.

Umuman olganda, mavjud arxiv hujjatlari va davriy matbuot materiallari uy bog'chalari tizimining shakllanishi va amaliy faoliyatini yoritishda boy manbaviy asosni tashkil etsa-da, mazkur mavzu tarixshunoslikda hali ham kompleks va tizimli tarzda o'rganilmagan.

O'zbekiston SSR Ministrlar Sovetining 1989-yil 4-dekabrda qabul qilingan "1990-yilda O'zbekiston SSRning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish davlat rejasiga to'g'risida"gi qarori aholini maktabgacha tarbiya muassasalariga bo'lgan ehtiyojini qondirish va maktabgacha tarbiya muassasalariga bo'lgan 73,3 mingdan ortiq navbatni bartaraf etishga qaratildi [4]. Qarorga ko'ra, maktabgacha tarbiya muassasalari yetishmayotgan hududlarda uy bog'chalari ochishga ruxsat berildi. Shahar va rayon uy bog'chalarini ochish va ular faoliyatini nazorat qilish uchun xalq ta'limi, sanitariya-epidemiologiya xizmati, umumiy ovqatlanish, agrosanoat uyushmasi tashkilotlari vakillaridan iborat maxsus komissiya tuzilgan. 1990-yilda Maorif ministrligi rejasiga ko'ra, respublika bo'yicha jami 1500 ta yangi bog'chalarning faoliyat yuritishi ko'zda tutilgan bo'lsa, ularning 100 tasi

xonadonlarda ochilishi mo'ljallangan edi. Shundan, Andijon oblastida 145 ta, Namanganda 145 ta, Farg'onada 185 ta ochilishi rejalashtirilgan [5].

O'zbekiston SSR Xalq ta'limi Ministrligi, Sog'liqni saqlash Ministrligi, mahalliy ijroiya komitetlarining topshirig'iga binoan Respublika bolalarni ijtimoiy tarbiyalash ilmiy-tadqiqot instituti tomonidan maktabgacha tarbiya muassasalari ishini takomillashtirish, bolani zarur e'tibor bilan ta'minlash, hozirgi zamon talablariga javob beradigan bolalar bog'chalarini tashkil etish borasida bir qancha ishlar amalga oshirildi. Xususan, 1990-yilda mutaxassislar tomonidan maktabgacha tarbiya muassasasi ochishni istagan fermer-xo'jalik egalari, ishbilarmon xotin-qizlar bilan suhbatlar uyushtirildi. Ana shunday suhbatlar Xiva, Bog'ot, Samarqand, Qo'shko'pir tumanlarida bo'lib o'tdi. Masalan, Bog'otlik Q.Ne'matova maktabgacha ta'lim sohasida bir necha yillik tajribaga ega bo'lib, xonadon bolalar bog'chasi ochdi. U tomonidan namunaviy bog'cha ochilishi uchun barcha shart-sharoitlar, mebel, xona va metodik vositalar tayyorlangan. Dastlabki uy bog'chalari Toshkent, Xorazm, Samarqand va Namangan oblastlarida faoliyat olib bordi. Toshkent oblastida esa dehqon xo'jaliklari negizida bolalar bog'chalari ochish tajribasi yo'lga qo'yildi. Jumladan, Yangiyo'l rayonidagi "Kommunizm" kolxozi tomonidan ochilgan bog'chada 50 dan ortiq bolalar tarbiyalandi [2].

1990-yilga mo'ljallangan O'zbekiston SSR Maorif Ministrligining dasturida umumrespublika bo'yicha jami 1500 ta yangi maktabgacha tarbiya muassasasini ishga tushirish rejalashtirilgan bo'lib, ulardan 100 tasi xonadonlar negizida tashkil etilishi ko'zda tutilgan edi. Xususan, o'sha yilning o'zidayoq 700 nafar bolani qamrab olgan 80 ta uy bog'chasi ochilib, ushbu tashabbus amaliyotda keng quvvat oldi. Uy bog'chalari tashkil etilishi uchun davlat byudjetidan 6 million so'mdan ortiq mablag' ajratilgan bo'lib, bu muhim ijtimoiy loyiha sifatida qo'llab-quvvatlangan [2]. 1990-yil 1-sentabr holatiga kelib, Xalq ta'limi Ministrligiga qarashli 614 ta uy bog'chasi orqali 5128 nafar bola maktabgacha ta'lim bilan qamrab olingan. Bundan tashqari, O'zbekiston SSR Xalq Ministrligi davlat teleradiokompaniyasi bilan hamkorlikda aholi orasida uy bog'chalari tarmog'ini kengaytirish maqsadida targ'ibot-tashviqot ko'rsatuvlarini tayyorlagan [4]. Shu faoliyat doirasida 1990-yil 15-avgust holatiga kelib, respublikada 635 ta uy bog'chasi faoliyat yuritgan bo'lib, ular orqali 5,2 ming nafardan ortiq bola maktabgacha ta'lim tizimiga jalb etilgan. Bundan, Farg'ona oblastida 137 ta, Namangan oblastida 120 ta, Samarqand oblastida 119 ta,

Sirdaryoda 3 ta, Qashqadaryoda 12 ta, Toshkentda 19 ta, Qoraqalpog‘istonda 19 ta uy bog‘chalari ochildi [4].

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi davlat kooperativ komiteti olib borgan harakatlari tufayli Farg‘ona oblastida 585 o‘rinli 65 ta uy bog‘chalari ochildi, Samarqand va Buxoro oblastlarida 25 tadan uy bog‘cha-yaslilari ochilib, 230 va 257 nafar bolalarni o‘z tarbiyasiga oldi, Namangan oblastida 46 ta uy bog‘chalar tashkil etildi va 524 o‘rin yaratildi. Qoraqalpog‘iston, Qashqadaryo va Toshkent oblastlarida sanitar-gigiyena normalariga javob beradigan moddiy bazaga ega joy bo‘lmaganligi sababli bu yerlarda uy bog‘chalar ochish harakatlari juda sust ketgan [4].

1990-yilning 9 oyi davomida Farg‘ona oblastida jami 218 ta uy bog‘chalar ochildi va 2508 nafar bolalarni qamrab oldi. Ulardan xalq ta’limi tizimiga qarashli 137 ta uy bog‘chalar 1209 nafar, “Agropromsoyuz”ga qarashli 81 ta bog‘chalar 1299 nafar bolalarni o‘z tarbiyasiga oldi. Bundan tashqari, yana 630 o‘rinli 63 ta uy bog‘chalari 414 ming rubl moliyalashtirish uchun tayyorlandi. “Agropromsoyuz” tashkilotiga qarashli uy bog‘chalari o‘z hisobiga moliyalashtirilganligi sababli ularga mablag‘ ajratilmadi [4].

Tarbiyachilar yuklamasining og‘irligi, ish haqi pastligi va moddiy rag‘batlantirish tizimining zaifligi ularning kasbiy faoliyatiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shuningdek, paxta yig‘im-terim mavsumlarida bolalar bog‘chalarining holatini yaxshilash, xonalarni toza saqlash va ovqat sifatini oshirish masalalari ko‘tarilgan bo‘lsa-da, ularning ijrosi sust bo‘lgan [3].

1991-yil oxiriga kelib, O‘zbekistonda 10 mingga yaqin doimiy maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyat ko‘rsatdi. Ularda 1,5 millionga yaqin bolalar tarbiyalandi. 1990-yilda har bir tarbiyalanuvchi uchun yiliga 558 rubl sarflangan bo‘lsa, shundan 92,7 foizi davlat hisobidan ketgan. Bolalarni maktabgacha tarbiya muassasalariga jalb qilish respublika bo‘yicha 35 foizni tashkil etgan. Bu ko‘rsatkich shahar joylarda 51,3 foizni, qishloqlarda 27 foizni tashkil etgan [1].

1989–1991-yillarda O‘zbekiston SSRda maktabgacha ta’lim tizimini kengaytirish siyosati doirasida uy bog‘chalari (xonadon bog‘chalari) tizimini joriy etish aholini maktabgacha tarbiya muassasalari bilan qamrab olish muammosini qisqa muddatda yumshatishga qaratilgan muhim ijtimoiy tashabbus bo‘lgan. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sovet davrining so‘nggi yillarida mavjud davlat bolalar bog‘chalari quvvatining yetishmasligi, minglab bolalarning

navbatda qolishi va hududlar o'rtasidagi tafovutlar uy bog'chalarini tashkil etishni muqobil yechim sifatida kun tartibiga olib chiqqan. Biroq tadqiqot davomida uy bog'chalari faoliyatida qator tizimli muammolar mavjud bo'lgani aniqlandi. Xususan, tarbiyachilar mehnat yuklamasining ortiqqligi, ish haqi va moddiy rag'batlantirish tizimining zaifligi, ayrim hududlarda sanitariya-gigiyena talablariga mos moddiy baza yetishmasligi mazkur tashabbus samaradorligini cheklagan.

Umuman olganda, O'zbekistonda 1989–1991-yillarda uy bog'chalari tajribasi sovet davrining so'nggi bosqichida maktabgacha ta'lim tizimini moslashuvchan shakllar orqali rivojlantirishga qaratilgan muhim ijtimoiy tajriba sifatida baholanishi mumkin. Ushbu tarixiy tajriba bugungi kunda O'zbekistonda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahnamoligida amalga oshirilayotgan maktabgacha ta'lim tizimini kengaytirish, muqobil ta'lim shakllarini joriy etish va bolalarni to'liq qamrab olishga qaratilgan islohotlar uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyot va manbalar:

1. Тўхлиев Н. Ўзбекистон иқтисодиёти. – Тошкент: “Ўқитувчи”, 1991. – Б. 63.
2. Болалар боғчаси очишни хоҳлайман // “Ўқитувчилар газетаси”, 1990 йил, 25 апрель.
3. Bog'cha: talab ham bo'lsin, sharoit ham. / “O'qituvchilar gazetasi”. 1990 yil, 28-sentabr.
4. O'z MA, R.837-fond, 41-ro'yxat, 7858-ish, 20, 22, 26, 28-varaqlar.
5. Namangan VDA, 266-fond, 6-ro'yxat, 663-ish, 7-varaq.
6. <https://president.uz/oz/lists/view/8471>

TARIX

JADID NAMOYANDASI ISLOM XO‘JA: ISLOHOTLAR, SIYOSIY KURASHLAR VA MA‘RIFIY HARAKATCHILIK



**Umid
BEKMUHAMMAD,**
Tarix fanlari bo'yicha
falsafa doktori, dotsent

UO‘K 94(575.171)“1900/1924”

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Yosh xivaliklar” harakati (partiyasi)ning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faoliyati va mustamlakachilarga qarshi siyosiy kurashlari yoritib berilgan. Shuningdek, partiya faollarining hayoti, faoliyati va ularning jamiyatga ko‘rsatgan ta’siri arxiv hujjatlari, namoyandalarning memuarlari va ilmiy adabiyotlar, o‘sha davr matbuoti materiallari asosida tahlil qilinadi.

Аннотация: В данной статье рассматривается деятельность движения «Молодые Хивинцы» (партии) в социально-политических процессах и политической борьбе против колонизаторов. Также анализируются жизнь и деятельность активистов партии, а также их влияние на общество на основе архивных документов, мемуаров деятелей, научной литературы и материалов прессы того времени.

Annotation: This article covers the activities of the "Young Khivans" movement (party) in socio-political processes and political struggles against the colonialists. The life, activities of the party activists and their impact on society are also analyzed based on archival documents, memoirs of figures and scientific literature, and materials from the press of that time.

Kalit so‘zlar: Xonlik, mustamlakachilik, imperiya, siyosat, harakat, partiya, manifest, jamiyat, respublika, gazeta, islohot, iqtisod, dastur.

Ключевые слова: Ханство, колониализм, империя, политика, движение, партия, манифест, общество, республика, газета, реформа, экономика, программа.

Key words: Khanate, colonialism, empire, politics, movement, party, manifesto, society, republic, newspaper, reform, economy, program.

Mustamlakachilik sharoitida ham Xiva xonligida islohotlar o‘tkazish orqali Xorazmni taraqqiy qildirishga intilgan va jadidlarning lideri sifatida faoliyat olib

borgan bosh vazir Islomxo‘ja edi. Islomxo‘ja Xorazmda eng nufuzli bo‘lgan Said Otoy xo‘jalardan Said Muhammadxo‘ja mutavallining nabirasi bo‘lib, asli Xonqa bekligidan bo‘lib, 1872-yilda tug‘ilgan. Otasi Ibrohimxo‘ja Xiva xoni Feruzxonning tog‘asi, qolaversa, Xonqa hokimi, keyinchalik bosh vazir lavozimida faoliyat ko‘rsatgan nufuzli shaxs edi.

Aytish mumkinki, oliynasab sulola vakili bo‘lgan Islomxo‘ja o‘sha davrdagi hayot tarzi va davr manzarasida an‘anadan chiqolmaydigan aristokrat bo‘lib qolishi tabiiy edi. Ammo u botinidagi, siyratidagi taraqqiyparvarlik bois an‘analar, odatiy sulola tarzidagi hayot, turmush tarzini rad etdi va davr zarurati, dunyo o‘zgarishlarini erta anglagani bois tarixda islohotchi shaxs sifatida qoldi. Islomxo‘janing islohotlari o‘z davri uchun qarama-qarshiliklar, bosimlar, tazyiqlar bilan kechsa-da, u ortga chekinmadi va jamiyatda, xonlik boshqaruvida keskin o‘zgarishlar qildi.

Bu o‘zgarishlar esa jadidchilik g‘oyalariga asoslangan edi va unga umidni, matonatni Ismoil Gaspralining daldasi, fikrlari berdi.

“Islohotchining faoliyatiga nazar solsak, Xivadagi maktab va madrasa tahsilini olgan Islomxo‘ja oldiniga xon saroyida zakotchi sifatida ishlaydi. 1889-yilda esa 17 yoshli Islomxo‘jani Feruzxon Xivadan keyin ikkinchi o‘rinda turuvchi Hazoraspdek muhim strategik, savdo shahriga hokim qilib tayinlaydi. Oradan vaqt o‘tib, davlat boshqaruvida ma‘lum bir tajribaga ega bo‘lgan Islomxo‘ja 26 yoshida Feruzxonning bosh vaziri sifatida yana Xivada faoliyatini davom ettiradi.

Xonlikdagi tamoyilga ko‘ra, otasi Ibrohimxo‘ja vafotidan so‘ng taraqqiyparvar va ma‘rifatparvar Islomxo‘jani bosh vazir lavozimiga tayinlagandi. Garchi, u xonning yaqin maslakdoshi bo‘lsa-da, Podsho Rossiyasi mustamlakasi bo‘lgan xonlikda o‘z islohotlarini faqatgina Feruzxon vafotidan keyin amalga oshirishga kirishdi” (1).

1910-yilda Feruzxon vafot etgach, taxtga uning o‘g‘li Asfandiyorxon chiqdi. Asfandiyorxon bosh vazir Islomxo‘janing kuyovi edi. Avvalo, shuni aytish kerakki, Islomxo‘ja bosh vazir bo‘lgani uchun o‘z kuyovini taxtga o‘tqazmagan. Negaki, 1891-yil 4-sentabrda Feruzxonning Rossiya imperatoriga Asfandiyorni valiahd etib tayinlash haqida yo‘llagan iltimosi aynan xonning boshqa o‘g‘illari qolib, uni xon qilib ko‘tarishga asos bo‘lgandi.

Xullas, Islomxo‘ja o‘z kuyovi Asfandiyorxon bilan mustamlaka davrida islohotlar o‘tkazishga kirishdi. Avvalo, qaynota Islomxo‘ja va kuyov

Asfandiyorxonlar tengdosh edi. Bu esa o'sha davrdagi real sharoitda tabiiy hodisa sifatida qaralardi.

Agar Ismoil Gaspralining "Tarjimon" gazetasidagi Asfandiyorxon maqolalariga asoslanadigan bo'lsak, u hali valiahdlilik davridayoq jadidchilik g'oyalariga hayrihohlik bilan qaragan. Hatto Xorazmdagi dastlabki jadid maktablari ham aynan Feruzxon va Asfandiyorxonlar sa'y-harakati bilan tashkil etilgan. Shuningdek, Asfandiyor otasi bilan birga Moskva, Sankt-Peterburg va Nijniy Novgorod shaharlari hamda Turkiston general-gubernatorligining poytaxti Toshkentda o'tkazilgan turli ko'rgazmalarda ishtirok ham qilgan.

Bundan tashqari u Xorazmdagi jadid maktablari faoliyatiga ham qiziqib, ta'lim jarayonini nazorat ham qilib borgan. Shu bois ham Islomxo'ja kuyovi Asfandiyorning otasi singari saltanatni odilona boshqarishiga ishonar, negaki, kuyovi otasi kabi shoir, qolaversa soatsoz va qilichboz usta, el kezgan savdogar, rus tuzem maktabida yaxshi o'qigan ziyoli edi. Geografiyani yaxshi bilgani, Petro-Aleksandrovsk va Toshkentdagi ko'plab ilmiy seminarlarda faol qatnashgani uchun Asfandiyorxon Rossiya geografiya jamiyatining a'zosi etib ham saylangan edi.

Asfandiyorxonning aynan 1910-yil ramazon oyining birinchi kunida chiqargan farmonida "bozorlar tartibga solinsin, ko'priklar qurilsin, yo'llar obod qilinsin, vaqf yerlar qayta hisoblansin, fuqarolarimizning bundan keyingi osoyishta va faravon turmush kechirishi bilan bog'liq masalalar o'rganilib, tez fursatda hal qilinsin. Biz tomonimizdan amalga oshirilishi lozim bo'lgan bu ishlarga hech kim to'sqinlik qilmasligi shart. Ushbu ishlarni amalga oshirishni hurmatlik Islomxo'ja Ibrohimxo'ja o'g'liga topshirdik", deyiladi. Asfandiyorxon farmoni kuchga kirib, soliqlar birmuncha kamaytirilgan, obodonchilik ishlari olib borilgan.

Bosh vazir Islomxo'ja kuyovining hokimiyatga kelganidan jamiyatda keskin o'zgarishlar yasaydigan quyidagi uchta yo'nalishda islohot o'tkazishni tavsiya qilgan edi:

1. Xazinadagi daromadning bir qismini mamlakatning umum foydali ishlariga-yer tuzish, yo'l qurilishi, pochta aloqasi, tibbiy va agronomiya xizmatiga sarflash;

2. Mahbuslarni o'rta asr uslubida jazolashni bekor qilish;

3. Xonlikka qarashli yerlarni turli toifadagi odamlarga taqsimlash, tarqatish, ularni yer solig'idan ozod qilish, irrigatsiya ishlariga e'tiborni kuchaytirish hamda natural majburiyatlarni bekor qilish (2).

O'sha yilning o'zida Islomxo'ja xonlikda amalga oshirish zarur bo'lgan islohot rejasini ishlab chiqadi. Islohot dasturi 10 banddan iborat bo'lib, o'sha vaqt uchun taraqqiyparvarlik mezonlariga asoslangan. Asfandiyorxon islohotchilik dasturini ko'zdan kechirib, 10 bandni ham tasdiqlaydi:

1.Xonlikdagi barcha mansabdor shaxslar davlat tomonidan maosh bilan ta'minlanadilar. Oldingi qoida bo'yicha, soliqlardan tushgan daromadning bir qismini maosh tariqasida xarajat qilish bekor qilinsin.

2.Dehqonlardan olinadigan yer solig'i, qazuv puli, yiliga begor qazuvda davlat hisobiga 12 kun tekin ishlab berish bekor qilinadi. Soliq to'lovchilarning toifasi qat'iy belgilab qo'yiladi.

3.Zakot, boj va xiroj soliqlari qayta ko'rib chiqiladi, savdo-sotiq soliqlari muvofiqlashtiriladi.

4.Suvdan foydalanish tartibga solinadi. U miroblar yordamida hukumat nazorati ostiga olinadi.

5. Bozor to'lovlari tartibga solinadi.

6.Yo'l qurilishi va ariqlardagi ko'priklarni yaxshilashga kirishiladi.

7. Barcha shahar va noibliklarda bemorlarni davolash uchun zamonaviy kasalxonalar quriladi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish yaxshilanadi.

8. Barcha turdagi vaqf yerlar qayta hisob-kitob qilinadi va ulardan tushgan daromadlar madaniyat va maorifni rivojlantirishga sarflanadi.

9. Barcha maktablarda o'qitish dasturiga, shuningdek, yangi usuldagi jadid maktablarida rus tili, geografiya, tarix darslik sifatida kiritiladi.

10.Xon xazinasida hisob-kitob qattiq nazorat qilinib, alohida kirim-chiqim daftarlari yuritiladi.

Shu kabi islohotlar Xorazmga jadidlar orzu qilgan taraqqiy etgan davlatlarning ilm-fan texnika yutuqlarini olib kirishga imkon yaratar, xizmat qilardi.

Islohot xon tomonidan tasdiqlangach, hayotga joriy qilina boshlandi. Oldinlari saroydagi va bekliklardagi soliq undiruvchilarining xalqdan yig'ib olgan soliqning ma'lum bir foizini o'ziga olib qolishi kabi talon-tarojlikka chek qo'yildi. Soliq to'lashning qattiq nazorat ostiga olinishi turkman va qoraqalpoqlarning doimiy ravishda bo'lib turadigan isyonlarining oldini oldi.

Davlat yer egaligi, mulk yer egaligi, vaqf yer egaligining aniq hisob-kitobini qilishga kirishildi. Rossiyadan quruvchi-muhandislar olib kelinib, bu ishga jalb qilindi. Ular bilan birgalikda xonlikdagi kanallarga temir ko‘prik o‘rnatish loyihasi tuzildi, mavjud barcha maydonlarni o‘lchab chiqishga kirishildi.

Ayni paytda poytaxt Xiva shahrining yangi loyihasi tuzilib, unga ko‘ra shahar eniga uch barobar kengayishi kerak edi. 1910-1913-yillar oralig‘ida Xivaning o‘zida islohot dasturiga ko‘ra pochta-telegraf binosi, Nurillaboyda qishki saroy, zamonaviy kasalxona, yangidan yana uchta jadid maktabi barpo etildi.

Islomxo‘ja bosh vazir sifatida Rossiyaga qilgan safarlarida Moskva shahri gubernatori N.I.Guchkov bilan uchrashib, uning yordamida bir qator qurilish loyihalarini ishlatib olgan va shu tarzda, pochta, telegraf, shifoxonaning loyihalarini bevosita Islomxo‘ja o‘zi Moskvalik me‘morlarga ishlatib kelgan, shu bo‘yicha barpo ettirgan edi.

Shuningdek, 1910-1913-yillar oralig‘ida Islomxo‘janing tashabbusi va bevosita mablag‘i hisobiga Xivadan tashqari Yangi Urganch, Shovot, Gurlan, Qo‘ng‘irot, Qo‘shko‘pir, Xonqa va Mo‘ynoq shaharlarida ham jadid maktablari tashkil etildi. Yangi Urganchda esa Islomxo‘ja o‘g‘il va qiz bolalar uchun alohida jadid maktablari tashkil etdi va ularga 60 dan ortiq o‘g‘il-qizlar qabul etildi.

Barpo etilgan ana shu maktablarda o‘quvchilarga ta‘lim berish uchun Orenburg, Qozon, Toshkent, Astraxan singari shaharlardan muallimlar taklif qilindi. Bu boradagi vaziyatni o‘rgangan Amudaryo bo‘limi boshlig‘i Turkiston general-gubernatoriga yo‘llagan ma‘lumotida, “Xiva xonligidagi jadid maktablari muallimlarining qariyb yarmini tatarlar tashkil etadi. Ular xonlikda o‘qituvchilik faoliyati bilan bir qatorda siyosiy tashviqot ishlarini ham olib bormoqdalar” deb yozgandi. (3).

Islomxo‘ja va Qrimlik Ismoil Gaspralining maktub orqali muloqotlarida jadidchilik g‘oyasining mohiyati, jamiyatga ko‘rsatayotgan ta‘siri haqidagi fikrlashuvlardan tashqari, Gaspralining bosh vazirga nasihatlarini ham aks etgan. Ya‘ni, Gasprali Islomxo‘jaga Qozon, Orenburg va boshqa hududlardan o‘qituvchilarni Xorazmga oldirish vaqtinchalik jarayon bo‘lishi, bevosita Xorazm yoshlarini pedagoglik va boshqa mutaxassislikka xorijda tayyorlash, o‘qitishni maslahat beradi.

Rus tuzem va jadid maktablarida eski maktabdan farqli ravishda parta, doska kabi jihozlar bo'lib, rus tili, chizmachilik, tarix, geografiya, matematika, adabiyot va boshqa fanlar o'qitilardi.

Ushbu maktablarda Agayev, Abdurashidov, Ramazon Saydashev, Husayin Qo'shayev, Fotima Qo'shayeva, K.Batirov, A.Sazonov, S.So'fijonov, Yu.Ahmedov, M.So'fizoda kabi o'z davrining ilg'or pedagoglari faoliyat ko'rsatishgan.

Ular qo'lida yaxshi ta'lim olgan yoshlar Gaspralining maslahatlari asosida Islomxo'janing qo'llab-quvvatlashi bilan Orenburg, Toshkent, Peterburg shaharlariga, hatto Bekchon Rahmon Istanbulga o'qishga yuboriladi.

Islomxo'janing o'zi ham shu zamonning eng old ziyolisi bo'lib, 1908-yili Xivaga kelgan rus sharqshunosi A.N.Samoylovich yozganidek, "bosh vazir Islomxo'ja rus tilini yaxshi biladi, rus va musulmon tillarida nashr qilingan gazetalarni olib, ularni mutoala qilib boradi". 1909-yilning sentabr-oktabr oylarida Xivada bo'lgan Rossiya tashqi ishlar vazirligining vakili Minorskiy ham o'z hisobotida, "Islomxo'ja rus tilida bimalol so'zlashadi. U musulmon mamlakatlarida chiqadigan adabiyotlarni sinchkovlik bilan kuzatib boradi", deyiladi.

Darhaqiqat, Islomxo'ja "Tarjimon" (Qrim), "Taraqqiy", "Najot", "Turkestankiy kurer", "Turkestanskiye vedomosti", "Turkiston viloyatining gazetasi" (Toshkent), "Vaqt" (Orenburg), "Iqtisod va taraqqiyot", "Ixdam" (Turkiya), "Xabl ul-Matin" (Hindiston) kabi nashrlarni o'qib borar, ularni jadid maktablarida ham o'qitishni muallimlarga tavsiya etardi.

O'rta Osiyoga foto va kinoning kirib kelishi, bu borada shu sohaning kashshofi bo'lgan Xudoybergan Devonovni qo'llab-quvvatlagan ham bevosita Islomxo'ja edi. U Devonovni o'zi bilan 1907-yili Peterburgga olib ketadi va "Pate" rusumli kinoapparatini Xorazmga olib kelishiga yordam beradi.

Bundan tashqari, "Islomxo'janing islohot dasturida Xorazmni markaziy shaharlar bilan bog'laydigan temir yo'l qurilishiga alohida ahamiyat berilgandi. Islohotchining loyihasiga ko'ra, 1912-1913-yillari xonlik hududiga temir yo'l keltirish bilan aloqador tadqiqot ishlari o'tkaziladi. Unga ko'ra, temir yo'l tarmog'i Chorjo'ydan xonlikning shimolidagi Qo'ng'iro't shahrigacha tortilishi va keyinchalik u davom qilinib, O'rol-To'rg'ay guberniyasi orqali Aleksandrov-Gay bilan bog'lanishi kerak edi. Temir yo'lning uzunligi 700 vyorstga yetardi. Uning

qurilishini rus sanoatchilaridan A.O.Brikelmeyker va K.Ye.Nikolayevlar sheriklikda o‘z zimmasiga olgan edilar” (4).

Shuningdek, 1910-1912-yillarda bosh vazirning topshirig‘iga ko‘ra tajribali miroblardan iborat guruh tashkil etilib, xonlikdagi barcha kanal va ichki ariqlarni nazoratdan o‘tkazishadi. Guruh loyqalardan tozalanadigan, ta’mirlanadigan va yangidan chiqariladigan ariqlarning aniq rejasini ishlab chiqadi va Polvon, G‘ozovot, Qilich Niyozboy, Shovot kanallariga mustahkam temir ko‘priklar qurishning loyihasini ishlab chiqishadi. Ichki oraliq yo‘llar hamda ichki ariq-yoplarga quriladigan inshootlar va ko‘priklar mahalliy hokim va oqsoqollar zimmasiga yuklanadi. 1911-yilning bahor va kuzida Xorazmdagi barcha kanal hamda daryo qirg‘og‘idagi ixota dambalarda tuproq ishlari, tozalash va ta’mirlash o‘tkaziladi, to‘g‘onlar va ko‘priklar qurishga kirishiladi.

1911-yili Rossiyadan Polvon, G‘ozovot, Qilich Niyozboy va Shovot kanallariga qurish uchun 4 ta ko‘priikka yetadigan temir konstruksiyalar olib kelinadi. Ushbu temir ko‘priklardan ikkitasi Polvonyop va G‘azavot kanallariga qurilgan edi.

Shu tarzda islohot dasturining bajarilishi asta-sekin bo‘lsa-da, amalga osha boshlaydi. Xorazmdagi islohotlar Qrimdagi “Tarjimon”, Orenburgdagi “Vaqt”, Istanbuldagi “Yosh turklar”ning “Tanin” gazetalarida e’tirof etilib, taraqqiyparvarlik namunasi sifatida ko‘rsatiladi.

“Turkestanskiy kurer” gazetasi 1911-yil 17-aprel sonida Xorazmda amalga oshirilayotgan islohotlarni eng zamonaviy reformalar deya baholab, Islomxo‘jani buyuk reformator deya ataydi.

Shu gazetaning 1913-yil avgustidagi sonida Islomxo‘ja muxbirga intervyu berib, “endilikda xonlik butun kuchini mamlakat ichki taraqqiyotiga qaratmog‘i lozim. Birinchi navbatda ma’rifatga, so‘ngra savdo-sanoatga. Xiva xonligini Osiyoning qoloq davlatlari qatoridan chiqarish vaqti keldi. Xalq erkin nafas olmog‘i kerak” deydi. Biroq, Islomxo‘janing 1913-yil avgustidagi fojiali o‘limi bu islohotlarning to‘xtab qolishiga sabab bo‘ldi.

Ma’lumki, davlat arbobi bo‘lgan Islomxo‘ja bosh vazir sifatida tansoqchiga ega edi. Tansoqchisi Bobojon qatag‘on faytun otda yurganicha doimo Islomxo‘jaga hamrohlik qilardi. Biroq o‘sha kun, 1913-yil 9-avgustda u xon saroyi Nurullaboydan uyiga tansoqchisiz qaytadi. “Chunki, Abdukarim mahram Islomxo‘ja uyiga ketmoqchi bo‘lganida, tansoqchisini iftorlikka so‘rab olib

qoladi. Qandaydir bahona bilan izvoshchi ham o'sha fojiali kuni o'zgartirilgandi. Bosh vazir kechqurun soat 9 larda foytun aravada Rofanik bog'i kun chiqar tomonidan "O'g'lon aziz bobo" qabristoni yaqinidan o'tib borardi. Izvoshchining keyinchalik eslashiga ko'ra, mozoristondan ikki kishi otilib chiqib, ularga hujum qilishadi. Dastlab ular ko'zga tashlanib qolmaslik uchun foytundagi fonuschiroqlarni o'chirishadi. Islomxo'ja yonidagi to'pponchasini olishga ham ulgurmay qoladi. Niqob kiygan qotillar qo'llaridagi cho'qmor tayoq bilan otning manglayiga urib, unga ham shikast yetkazishadi. Izvoshchi yaqin atrofda hujum qilgan ikki kishidan boshqa yana o'ntacha kishi turganligini eslaydi. To'satdan yuz bergan dahshatdan va tanasiga urilgan qilich zarbidan izvoshchi hushidan ketadi"(5).

Suidqasdchilar bosh vazir Islomxo'jani chavaqlab ketishgandi. Qotillar, tabiiyki, ko'zdan g'oyib bo'lishdi. Mirshablar kelib ko'rishsa, qotillik vahshiylarcha amalga oshirilib, Islomxo'janing bo'g'ziga tortilgan keskir tig' zarbidan uning boshi tanasidan deyarli ajralib, boshi bo'yin terisiga zo'rg'a ilinib qolgan edi; tanasini qo'zg'atish bilan u ham uzilib ketadi. Bosh vazirning yonidan 750 rubllik kredit bileti, 10 rubllik 3 ta tillasi va boshqa mayda pullari, bahosi 10 ming rubl turadigan brilliant qadalgan tilla portsigari, bahosi 2500 rubllik qahrabodan qilingan brilliant ko'zli mundshtugi va bahosi 900 rubllik tilla soati topiladi.

Qotillar qimmatbaho buyum va pullarga tegmasdan, faqatgina bosh vazirning oliy navli barra terisidan tikilgan cho'girmasini olib ketgandilar. Bu irim uchun qilingan bo'lib, o'sha vaqt xivaliklarda agar qatl qilingan kishining cho'girmasidan bir parcha kuydirilsa, jinoyatchining o'zi kelib qotilligini tan oladi, degan irim mavjud bo'lgan.

Tabiiyki, pul va qimmatbaho buyumlarga tegilmagani qotillikni o'g'irlik uchun qilingan degan farazni o'z-o'zidan yo'qqa chiqarardi. Bosh vazirning sirli ravishda o'ldirilishi siyosiy maqsadlarni ko'zlab amalga oshirilgan fitna ekanligi o'sha paytdayoq ayon bo'lgandi.

O'sha qotillik ro'y bergan 1913-yil 9-avgust kuniyoq Petro-Aleksandrovskdagi Amudaryo bo'limi boshlig'i Turkiston general gubernatoriga 791-sonli telegramma yubordi. Unda "vaziri Akbar Islomxo'janing fojiaviy o'limi saroy va xalq o'rtasida katta shov-shuvga sabab bo'ldi", deyilgan. Qotillik yuz bergandan to shu kunlargacha Islomxo'jani o'z kuyovi, Xiva xoni Asfandiyorxon o'ldirtirgan, degan taxmin qat'iy xulosa sifatida ta'kidlanib kelinardi. Ammo, keyingi davrda topilgan manbalar bosh vazirning o'limi izlari

Xiva xoni saroyiga emas, boshqa bir hashamatli saroyga borib taqalishini ko'rsatuvchi taxminlarni yuzaga keltirdi.

Mudhish voqea ro'y bergan 9-avgust kuni bosh vazirning uyiga xonning tarjimoni Kornilov kuzatib borishi kerak edi. Ammo negadir u o'sha kuni qandaydir hujjatni axtarib, saroyda ushlanib qoladi. Kornilov devonxona boshlig'i Abdullajon bilan birga ma'lum bir vaqtdan keyingina saroydan yo'lga chiqib, Islomxo'ja izidan borishadi. "O'g'lon aziz bobo" qabristoniga kelganlarida esa bosh vazirning qonga belanib yotganligi ustidan chiqadilar. Kornilov shu yerda qolib, devonxona boshlig'i Abdullajonga voqea haqida xabar berish uchun xon saroyiga ketadi.

Fojianing ertasiga o'ziga kelgan yagona guvoh-izvoshchi Shayxnazarboy yasovulboshining xizmatchilaridan uchtasini qotillik sodir qilingan joyda ko'rganligini aytadi. Ular darhol hibsga olinadilar. Tergovda Islomxo'jani Shayxnazarboy yasovulboshining navkarlari, toshhovuzlik Qurbonboy bo'zchi bo'g'izlagani aniqlanib, ertasi kuni hibsga olingach, u aybini tan oladi. Unga bu maxfiy buyruqni Abdurahim mahram berganligi, bosh vazirni o'ldirish Matvafo Baqqolov, Ashur va Ro'zmat mahramlar tomonidan pinhoni kengashda rejalashtirilgani ta'kidlanadi. Garchi qotil va buyurtmachilar aniq bo'lsa-da, faqatgina Islomxo'jani o'ldirgan Qurbonboy bo'zchi hibsdan saqlanib, qolganlar qo'yib yuboriladi.

Xalq o'rtasida qotil Qurbonboyini jazolash Ko'hna Arkda o'tkaziladi. Ko'hna ark oldiga ko'p olomon to'planadi. Qurbonboy bo'zchini zindondan qo'llarini bog'lab maydonga olib chiqishadi. Yasovulboshi Qurbonboyga qarata: "Xo'jamizning o'lgan voqeasini aytib ber, taningga tayoq tegmasdan burun ayt", deydi. Bo'zchi yasovulboshiga qarab, "Og'a, man bu voqeani hech bilmayman", deya javob qiladi. Shunda yasovulboshi "Agar aytmasang, o'zingdan ko'r" deb mirshablarga uni urishni buyuradi. Mirshablar qotilning yalang'och yelkasiga bor kuchlari bilan qamchi tushiradilarki, yalang'och badandan qon sachrab chiqadi. Yana shunday zarbalardan so'ng, qotil, "agar meni shunday azoblab o'ldirmoqchi bo'lsangiz, men ishni buzaman" deb baqirib yuboradi. Qurbonboy bo'zchining bu qichqirigidan so'ng, Abdukarim mahram, Matvafo karvonboshilar, unga ichi achingan bo'lib, aslida esa sir ochilib qolishidan qo'rqqan holda qotilni arkka olib ketishadi va alohida xonada saqlashadi.

Qotilga o'lim jazosi berilmagani va qotillik tashkilotchilari sifatida gumonlanayotgan Abdukarim mahram - Yasovulboshi, Matvafo Baqqolov - bosh vazir, Ashur mahram - bosh mahram lavozimini egallashi xalq orasida mish-mishni keltirib chiqaradi. Ya'ni, bu holat Islomxo'janing o'limida gumondorlar ma'lum bo'lsa-da, ularga chora ko'rilmagani, jazolanmagani "o'z kuyovi Asfandiyorxonning qo'li bo'lishi kerak", degan shov-shuvga sabab bo'ladi.

Islomxo'janing o'limida Asfandiyorxonning qo'li borligi haqidagi o'sha davrdagi mish-mishlar vaqt o'tib, xonlik tarixiga doir ba'zi kitob va maqolalarda ham aytib o'tilishi an'anaga aylandi. Jumladan, D.Rahim va Sh.Matrasul Feruz haqidagi "Shoh va shoir qismati" nomli kitobida "Asfandiyorxon Islomxo'jani xazinadagi pullarni behuda qurilish ishlariga sarfladi va rus imperatori bilan kelishgan holda meni bir kunmas-bir kun taxtdan chetlatadi, deb o'ylagan" (6), deb yozishadi.

Professor O.Sobirov ham 1993-yil "Xiva" jurnalining 2-3-sonidagi maqolasida "Islomxo'janing yuksalib borayotgan obro'si Asfandiyorxonni tashvishlantirib qo'ydi", deb qayd etgandi. Shuningdek, R.Hasan, A.Abdurasulov va N. Egamberdiyevlarning 1994-yil "Vatan" gazetasining 32-sonidagi, Otamurod Kushjonovning "Ma'rifat yog'dusi" jurnalining 2001-yil 1-4-sonlaridagi maqolalarida ham aynan xazinani Islomxo'ja qurilish ishlariga sarflab bo'shatgani, Islomxo'janing xalq o'rtasida obro'si oshgani, Peterburgda imperator va amaldorlar bilan yaxshi tanishligi bois, xon o'z taxti qo'ldan ketishidan xavfsirab, bosh vazirni yo'q qilgani ta'kidlanadi.

Shuningdek, o'sha davrda yashagan "Yosh xivaliklar" ning yo'lboshchilaridan Polvonniyoz hoji Yusupovning hamda naqqosh, tarixchi Abdulla Boltayevning qo'lyozma asarida ham Asfandiyorxon o'z qaynotasi Islomxo'jani o'ldirtirgani qayta-qayta ta'kidlab o'tiladi. Polvonniyozhoji Asfandiyorxonga muxolif bo'lgani uchun u haqda salbiy fikrda bo'lgan. Abdulla Boltayev esa o'sha paytlari yosh bola ediki, uning ko'rgan, eshitganlari murg'ak qalbda Asfandiyorxon zolim xon bo'lgan degan sovet davri mafkuraviy adabiyoti ta'siridan kelib chiqqan.

Ya'ni, sovet hukumati davrida, yaqin o'tmish -1910-18-yillarda hokimiyatga bolsheviklar kelgan va g'oyatda ziddiyatli davrda hukmdorlik qilgan Asfandiyorxon eng aniq nishon edi.

Avvalo, shuni aytish kerakki, Asfandiyorxonning "bosh vazir meni taxtdan tushiradi", deb o'ylashi uchun hech qanday asos yo'q edi. Zero, u otasi

Feruzning 1891-yil 4-sentabrda Rossiya imperatoriga qilgan iltimosidan so'ng valiahd qilib tayinlangan, 1910-yil avgustda otasi o'limidan so'ng taxtga chiqqan edi. Qolaversa, o'sha davrda Xorazmda toju taxt vorisligi avloddan-avlodga o'tgan. Garchi Islomxo'ja saidlardan bo'lsa-da, o'zini xon deb e'lon qilolmasdi. Negaki, u valiahd imperator tomonidan tasdiqlangan edi. Imperiya qonunlarini buzish esa, u kim bo'lishidan qa'tiy nazar, o'lim bilan barobar edi.

Rossiya hukumati imperiya qonunlariga yot bo'lgan bunday harakatni ayovsiz bostirishi aniq edi. Buni xalq ham, Islomxo'ja ham yaxshi bilardi. Zotan, Xiva xonligi chorizmning vassali edi. Qolaversa, bosh vazirning islohot dasturini xonning o'zi tasdiqlagan, hayotda qo'llanilayotgan taraqqiyparvarlikni Asfandiyorning o'zi qo'llab turgan.

Faqatgina Rossiya imperiyasi tomonidan yarim mustamlaka bo'lgan, ayrim sohalarda o'rta asrchilik illatlari davom etayotgan ikkala hudud - Buxoro amirligi va Xiva xonligini ham xuddi Qo'qon xonligidek tugatib, Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilganidek, Buxoro, Xorazm gubernatorligi ta'sis qilinsagina, rahbarlikka nomzodlar ko'rib chiqilardi. Buxoroda esa general Jo'rabek Buxoro gubernatorligiga yagona nomzod bo'lishi aniq edi.

O'zbekiston Milliy arxivi (2-I-fond, 1-ro'yxat, 305-ish, 88-varaq)dagi ma'lumotlar Xiva xonligini guberniyaga aylantirish masalasi ko'rib chiqilganligini isbotlovchi faktdir. Amudaryo bo'limi boshlig'i polkovnik Likoshin 1912-yil noyabrida Turkiston general-gubernatoriga jo'natgan telegrammasida "Xivani guberniyaga aylantirish vaqti yetmadimikin? Bu menga Xivada ko'zlangan islohotning o'tkazilishi to'g'risida mulohaza qilish uchun muhimdir. Hozircha xondagi mustaqillikning ma'lum bir qismi saqlana qolsin. Rus tartib-tizginini xonlikka asta-sekin kiritish uchun harakat qilinsa arziydi"(7) deyilgan.

Xon chor hukumati va xalq o'rtasida Islomxo'janing obro'si oshdi, deya o'z qaynotasiga g'araz ko'zi bilan qarashi mumkin emas edi. Shu bois bosh vazir o'limida uning qo'li borligi shubhalidir.

Xazinani behuda qurilishlarga sarflab bo'shatdi, degan da'vo ham asossiz. Zero, Xivada bunyod bo'lgan pochta-telegraf binosi, jadid maktablari, saroy, shifoxona va boshqa inshootlar xonning o'zi tasdiqlagan islohot dasturiga ko'ra xazinadagi pullar hisobiga qurilgan.

Laffasiy va Bayoniy kabi muarrixlarning yozishiga ko'ra, Asfandiyor yoshligidan yuvosh tabiatli, g'oyat iqtidorli kishi bo'lib, "Farrux" taxallusi bilan she'rlar bitgan. Kasb-hunarga qiziqqanidan soatsoz va qilich yasovchi usta sifatida ham mashhur bo'lgan. Tijoratchi sifatida Rossiya va sharq davlatlarini ham kezib chiqqan. Hatto rus tili, dunyo geografiyasini mukammal bilgani bois, oldingi sahifalarda ta'kidlaganimizdek, Rossiya geografiya jamiyatining a'zosi ham edi.

Avvalo, shuni esdan chiqarmaslik kerakki, Asfandiyorxon Islomxo'janing islohot dasturini qo'llab tursa-da, u Rossiya imperiyasining vassali edi. Qolaversa, xon saroyida Islomxo'jaga muxolifatda bo'lgan amaldorlar guruhi ham mavjud bo'lgan. Shunday guruhlardan biri og'a-ini podpolkovnik Husayinbek, yasovulboshi Shayxnazarboy va Omongeldi Matmurodovlar edi. Har bir og'a-ini xonlikda hisobsiz yer, kattagina molu-mulkka ega edilar. Mabodo Islomxo'janing yerlarni o'lchash, soliqlarni tartibga solish, davlat amaldorlariga maosh to'lashdek islohotlari to'la amalga oshsa, ular ko'p narsadan ajralib qolardilar.

Shu bois, og'a-ini Matmurodovlar imkoni boricha Islomxo'janing shaxsiyati va islohotini badnom etishga harakat qilishgan. Asfandiyorxon yuvosh va ko'ngilchan bo'lganligi bois chor imperiyasi bilan urush davrida qahramonlik ko'rsatib, xalq o'rtasida katta shuhrat qozongan Matmurod devonbeganing o'g'illarini saroydan to'la chetlashtira olmas edi.

To'g'ri, u dastlab 1911-yilda Islomxo'jani quvvatlab, Matmurodovlarning molu-mulkini musodara qildirishga jur'at qiladi va ularni saroydan chetlashtiradi. Ammo og'a-ini Matmurodovlar chor amaldorlari bilan yaxshi aloqa o'rnatgani bois, 1913-yilda rus ma'murlari ta'sirida yana saroyga ishga tiklanib, mol-mulkini qaytarib olishadi. Biroq, shundan keyin ham og'a-ini Matmurodovlar rus ma'murlariga Islomxo'jani ig'vo qilishda davom etishadi.

Jumladan, Husayinbek 1913-yil yanvarida Amudaryo bo'limi boshlig'i Likoshin huzurida bo'lib, unga bergan axborotida o'zining 1911-yil xon g'azabiga uchrab, og'ir kulfatlarga duchor bo'lishi va 1913-yil yanvarida yovmudlarning chorizmga qarshi ko'targan isyoni sababchisi Islomxo'janing siyosati ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, u musodara qilingan, qiymati bir million rubldan ortiq bo'lgan mol-mulkining atigi 150 ming rublini qaytarib berilganini ham aytib, uning qolgan qismini Islomxo'ja o'zlashtirgan, deya da'vo qiladi. Qolaversa, og'a-ini Matmurodovlar Islomxo'janing islohotlaridan norozi bo'lib, bu haqda xonga ariza ham yozganlar.

E'tiborli jihati, og'a-inilarning kattasi bo'lgan Husayinbek Matmurodov ham taraqqiyparvar shaxs bo'lib, u jadidchilik g'oyalarini qo'llab-quvvatlardi. Hatto Xorazm jadidlarining "Yosh xivaliklar" harakati lideri, 1917-yil aprelidagi manifest muallifi, namoyish tashkilotchisi edi.

Ammo uning bu harakatlari 1913-yil avgustidagi Islomxo'janing o'limidan keyin boshlandi. Ya'ni, Islomxo'jadek islohotchining siyosat maydonidagi nufuzi 1914-yildan keyin Husayinbekka tegishli bo'ldi. Og'a-ini Matmurodovlar va Islomxo'ja o'rtasidagi ziddiyatlar esa yer, mulklarning tortib olinishidan boshlandi. Bu paytda chor hukumati, ayniqsa, daryoning narigi tarafidagi Amudaryo bo'limi xonga ta'sir o'tkazib, Xivaning ichki ishlariga muntazam aralashib kelar, zero, ular uchun Asfandiyorxon qo'g'irchoq hukmdor edi. Bundan tashqari, Islomxo'jaga raqib bo'lgan yana bir og'a-inilar - Matvafo, Abdurahmon va Sharif Baqqolovlar muxolifatda bo'lgan ikkinchi guruh vakillari edi. Og'a-ini Baqqolovlar ko'plab yer, mol-mulk sohibi bo'lib, ular ham o'tkazilayotgan yer, soliq islohoti bois anchagina mol-mulkidan ajralib qolishdan qo'rqar, shuning uchun bosh vazirga nisbatan doimo adovatda bo'lib kelishar edi. Matmurodovlarga nisbatan ham Baqqolovlar agressiv harakat qilishar va ularning tayanchi Petro-Aleksandrovskdagi rus ma'murlari edi.

1899-yildan xon saroyida tarjimonlik qilgan V.N.Kornilov u haqda "Matvafo nihoyatda yulg'ich bo'lib, og'ir soliqlar bilan xivaliklarga zulmini o'tkazdi. Xivaliklar uni juda yomon ko'rishadi. U turkmanlarga yashirincha ig'vo qilib, ularni talonchilikka gij-gijlardi. Matvafo judayam uddaburon bo'lib, har qanday yo'llar bilan bo'lsa ham xon saroyida birinchi lavozimni egallash uchun harakat qildi", deb yozgandi.

Bundan tashqari, Amudaryo bo'limining boshlig'i Likoshin Turkiston general gubernatoriga yozgan axborotida, "xonlikda barcha ishlar Baqqolov va uning og'a-inilarining savdo-tijorat manfaatlari yuzasidan olib borilmoqda. Jamiki davlat tadbirlari ushbu savdogarlarning shaxsiy boyligini oshirishga qarata hal etilmoqda" (8) deb yozgan.

N.S. Likoshin shuningdek, Islomxo'ja vafotidan so'ng, 1913-yil dekabrda general-gubernatorga yozgan axborotida "Marhum Islomxo'ja savdogar emasdi. Shuning uchun u savdogarlarga boshqacharoq qarardi. Savdo ishlaridan holiligi tufayli xonlikdagi islohotlarni hatto o'zining shaxsiy manfaatidan ustun qo'yardi. Xonlikning hozirgi mulkdor amaldorlari bo'lsa, o'zlarining savdo-tijorat

daromadini oshirish bilan mashg'ul bo'lmoqdalar"(9) deb ta'kidlab o'tgandi. Hatto xonlikdagi eng ayyor va boy savdogar Matvafoning inisi Abdurahmonboy Yangi Urganch hokimi qilib tayinlanib, Matvafo safarga ketganida bosh vazirlik lavozimini ham egallab turadigan darajaga yetadi.

Islomxo'ja 1911-yilda Yangi Urganch, Hazorasp, Pitnak, Manoq va Darg'onotadagi yerlarni xon tasdiqlagan islohot dasturiga ko'ra qaytadan o'lchatib chiqqandi. Shunda ushbu bekliklarda og'a-ini Matmurodovlar hamda Baqqolovlarning behisob yerlari borligi, ular davlat hisobiga kiritilmay, xonlik xazinasiga soliq to'lamayotganlari aniqlangandi. Shu bois og'a-ini Matmurodovlar hamda tog'a-jiyan Baqqolovlar saroydan chetlatilib, aniqlangan xufiya mol-mulki xon farmoniga ko'ra musodara qilinadi. O'shanda har ikkala guruh chorizmning Amudaryo bo'limi boshlig'iga shikoyat qilib, Islomxo'ja faoliyatiga chek qo'yishda ko'mak so'ragan edilar.

Islomxo'ja esa o'z islohotlari va unga to'g'anoq bo'layotgan amaldorlar haqida 1911-yilning 3-dekabrida polkovnik Gulushanovskiye shunday maktub yo'llab, vaziyatni tushuntiradi: "Biz amalga oshirayotgan islohotlar xon atrofidagi amaldorlar manfaatiga, albatta ma'qul tushmadi. Ular avvalgi xon davrida ham katta yerlarni egallab, behisob foyda olib kelganlar. Shu boisdan norozi bo'lgan amaldorlar tomonidan bir qancha maxfiy majlislar o'tkazilib, unda xalqni islohotlarga qarshi qo'zg'atishga qaror qilingan. Mazkur amaldorlar xalq nomidan norozilik maktublari uyushtirib, ularni o'z muhrlari bilan tasdiqlab, islohotdan norozi ekanliklarini bildirmoqdalar. Maktublarda hatto haqoratli bo'htonlar ham ishlatilmoqda" (10).

Aynan 1911-yildagi voqealardan so'ng har ikkala guruh chor ma'murlari bilan yaqinlashib, Islomxo'jaga nisbatan ochiqchasiga dushmanlik yo'liga o'tdilar. Zero, xalq o'rtasida Asfandiyorxonning emas, balki og'a-ini Matmurodovlar va Baqqolovlarning obro'si tag'in-da tushib ketdi. Negaki, ular soliqlar bahona xalqni beayov talash, behisob yerga egalik qilib, xazinaga sariq chaqayam to'lamaslik evaziga boyirdilar. Islomxo'ja esa 1911-yilda ularning kirdikorini cheklab, yanada obro' orttiradi. U fitnakor amaldorlar molu mulkini Asfandiyorxon roziligi bilan tortib olgandi. Shu bois har ikkala guruh Asfandiyorxonning ishratga o'chligidan foydalanib, Islomxo'ja bilan uning orasini buzishga intildi. Negaki, xonning katta xotini Azizaposhshabika Islomxo'janing qizi edi. Fitnakor amaldorlar ishratga o'ch xonga turli bekliklardan yosh va chiroyli qizlarni keltirib berardilar. Hatto, Baqqolov va Ashur mahram tashabbusi bilan Nurillaboy saroyining orqa tomonida 70 ming

tilla sarflab, maishatbozlik uchun mo'ljallangan maxsus ko'shk ham quriladi. Tabiiyki, bu ishlar xonning qaynotasi bo'lmish Islomxo'jaga ma'qul kelmas, u kuyovi Asfandiyorga bu ahloqsizlikni yig'ishtirish haqida bir necha bor nasihat qiladi. Chor ma'murlari esa har ikkala guruhbozlarni qo'llab, Islomxo'ja faoliyatini kuzatuv ostiga oladilar. Negaki, u chor hukumati uchun g'oyaviy dushman bo'lgan jadidlarni qo'llayotgan, Xorazmda maktablar barpo qilayotgan, chorizmga qarshi tinimsiz isyon ko'tarayotgan turkman yovmudlari bilan yaqin aloqada edi. Hatto, u 1913-yil boshida turkmanlarga qarshi yurish qilish tashabbusiga qarshi chiqqan edi. Yovmudlar isyoni umumxalq qo'zg'oloniga aylanib, chorizmning mustamlakachiligiga chek qo'yishi mumkinligini chor hukumati yaxshi bilar, shu bois Islomxo'ja nafaqat guruhbozlarning, balki mustamlakachi chor hukumatining-da dushmaniga aylangan edi.

Islomxo'ja 1896-1913-yillarda besh marotaba Rossiyaning Peterburg va boshqa shaharlariga borgan. Imperator Nikolay Romanov bilan ham ko'p bor muloqotda bo'lgan va tabiiyki, u bilan rus tilida bemalol dunyo siyosati haqida suhbatlashgan. Shu suhbatlardan keyin Islomxo'ja oqposhshoni g'oyat qiziqtirib qo'yadi. Ayniqsa, uning xonlikda amalga oshirayotgan ishlaridan boxabar bo'lgan imperator, Peterburgda kimlar Islomxo'ja bilan uchrashishigacha jandarmeriyadan surishtiradi. Qolaversa, Amudaryo bo'limi va jandarmeriya Islomxo'janing chor hukumati dushmanlari bo'lmish jadidlar lideri Ismoil Gasprali va isyonkor yovmudlar bilan aloqasi yaxshiligini xabardor qilganligi tabiiy.

Negaki, 1913-yil 4-yanvarda Turkiston general-gubernatori harbiy ministr Suxamlinovga maxfiy xat yo'llab, "xonlikda 1910-yilgacha hukm surgan osoyishtalikni saqlab turish, xalq g'alayonlarining oldini olish uchun Islomxo'ja faoliyatini jilovlash chora-tadbirlarini ko'rish lozimga o'xshaydi" deydi (11).

Shu bilan birga, general Samsonov Peterburgga yo'llagan maxfiy xatida Islomxo'jani chet elga jo'natish, surgun qilish haqida buyruq berish lozimligini ham aytib o'tgan. Ammo tashqi ishlar ministrligi bu taklifni ma'qullamagan.

Rossiya Markaziy Davlat Arxivining 400-fond, 178-delo, 50-54-sahifalaridagi manbaga ko'ra, "Islomxo'ja Peterburgdagi "Musulmonlar xayriya jamg'armasi"ga borib, u yerda Eron va Turkiya elchilari Tarxon poshsho, Is'hoqxonlar bilan uchrashgan. Kechqurun Marinin teatrida ularni mehmon qilib,

suhbatlashgan” (12). Tabiiyki, musulmon mamlakatlari elchilari bilan Xiva xoni bosh vazirining til topishgani chor hukumatiga yoqmas edi.

Yetilib kelayotgan jahon urushi arafasida chor hukumatiga raqib bo‘lgan Turkiya hukumati elchisi bilan mustamlaka xonlik bosh vazirining suhbatlashishi, chor hukumati uchun, ayniqsa, chidab bo‘lmas hol edi.

Islomxo‘ja dunyo siyosatidan boxabar bo‘lib, Turkiya-Eron, Eron-Italiya, Turkiya-Germaniya, Rossiya-Turkiya iqtisodiy va harbiy munosabatlari mohiyatini to‘la anglab yetgan, mustamlakachilikning ham paymonasi to‘layotganini sezib turardi. Bu esa chor hukumati uchun qo‘rqinchli bir hol edi. Shu bois chor jandarmeriyasi Peterburgda bo‘lgan Islomxo‘janing har bir qadamini kuzatib, kim bilan nima haqida suhbatlashganigacha shaxsan imperator Nikolay Romanovga axborot berib borgan. Islomxo‘ja Xivaga qaytgach ham kuzatuv ostida bo‘lgandi. Negaki, Peterburgda bosgan qadamini ko‘zdan qochirmagan Nikolay Romanov uning Xivada nimalar qilayotganini ham bilishni istardi.

Amudaryo bo‘limi boshlig‘i general gubernatorlikka yo‘llagan ma’lumotida o‘z kuzatuvlarini quyidagicha izohlagandi: “Saroyning eng nufuzli odami, xonning birinchi amaldori Islomxo‘janing uyini o‘ziga xos kichik saroy desa bo‘ladi. Bu yerga saroyning katta va kichik a‘yonlari ham “salom”ga kelib turadilar. Ular yig‘ilishib, eng muhim masalalarni muhokama qiladilar” (13).

Shu bilan birga, bo‘lim tomonidan 1912-yil 12-avgustda Toshkentga yo‘llangan axborotda bosh vazirning uyidagi holat haqida ham ma’lumotlar berilgan: “Vaziri Akbar Islomxo‘ja jadid maktabining va uyidagi farzandlarining o‘qituvchisi yosh tatar muallimi Abdurashidovning faoliyati alohida e’tiborga ega. Afsuski, Abdurashidov o‘qituvchilik ishlaridan tashqari Xiva xonligining ichki siyosatida ham faol qatnashmoqda. U Islomxo‘janing uyida yashab, yashirin kengash o‘tkazib turadi. Bu kengashga Abdurashidov maslahatchi va rahbarlik qiladi. Islomxo‘ja ishtirokidagi kengash majlislarida asosan Xiva-Rossiya munosabatlari muhokama qilinadi. Abdurashidov yig‘ilgan Xivaliklar ongiga Xiva xonligini Rossiya qaramog‘idan ozod qilish va xonlikni taraqqiy ettirish g‘oyalarini singdirmoqda”.

Tabiiyki, bunday chor mustamlakachiligi uchun zararli bo‘lgan xufiya axborotlarni olgach, general gubernatorlik Abdurashidovni vohadan yo‘qotish choralarini ko‘radi. Natijada “Amudaryo bo‘limi 1913-yil yozida Abdurashidov va boshqa jadidlarni Xivadan o‘z yurtlariga jo‘natib yuboradi” (14).

Abdurashidovni uyida saqlagan bosh vazir uni vohada olib qolishga intilmasin, chor ma'murlari bunga yo'l qo'ymaydilar.

Saroy esa bu paytda fitna uyasiga aylanib bo'lgan, Islomxo'jaga muxolif sanalgan har ikkala guruhni Amudaryo bo'limi qo'llab turgandi. Qolaversa, fitnakor Husaynbekka podpolkovnik, ukasi Omongaldiga esa birinchi darajali "Muqaddas Anna" ordeni bekorga berilmagandi. Og'a-ini Matmurodovlar chor hukumatining eng ishonchli odamlari ediki, ularni shu bois taqdirlashgandi. Hatto, har ikkala guruhning 1911-yilda tortib olingan mol-mulkining qaytarib berilishida ham chor hukumatining qo'li bor edi. Amudaryo bo'limi boshlig'i polkovnik Kolosovskiy ularga yordam berib, qo'llab turgan. U 1914-yil 31-dekabrda Turkiston general-gubernatoriga yuborgan axborotida "Bizning Xiva xonligi saroyidagi fitnalarga aralashuvimiz va xon saroyida Matmurodovlar guruhini tiklashimiz bosh vazir Islomxo'janing qatliga omil bo'lgan sabablardandir", deb yozgandi.

Hatto, Asfandiyorxon polkovnik Kolosovskiyning Matvafo Baqqolovni bosh vazirlikka tayinlash haqidagi taklifiga e'tiroz bildirganida, u "Matvafo senga kerak bo'lmasa, menga kerak", deb mahalliy hukmdorni - Xiva xonini jerkib tashlagandi. Ko'rinib turibdiki, xonni ham nazariga ilmaydigan polkovnik Kolosovskiyga Matvafo Baqqolovdek fitnakor malaylar kerak edi.

Xon saroyida tarjimonlik qilgan V.N.Kornilov esa "Matvafo Islomxo'ja qatlining aybdoridir. Bu faqat mening emas, balki xonlikdagi insonlar fikridir", deya yozgandi. Shu boisdan ham uning Islomxo'jaga suiqasd qilingan paytda Turkiston general-gubernatorligining Peterburg politsiya departamenti vitse-direktoriga yuborgan ma'lumotida, bosh shtabning Osiyo bo'limi boshlig'i general Seylning bosh vazir qatli bo'yicha ishni bosdi-bosdi qilgani, bu ish uchun 200 ming rubl pora olgani, Seyl bu puldan 20 ming so'mini harbiy ministr Suxamlinovga bergani qayd qilingan.

Imperator Nikolay Romanov Islomxo'ja o'limidan xabardor etilgan bo'lsa-da, u suiqasd tafsilotini surishtirib o'tirmadi. Zero, mustamlaka o'lkalarda silliqqina siyosat yuritish uchun doimo u yerda fitna va ig'vo chiqarib turish, o'z yurti ravnaqini o'ylaydigan islohotchilarni yo'q qilish mustamlakachilarning sinalgan usullaridan edi. Shuning uchun chor hukumati, jandarmeriya, Amudaryo bo'limiga boshliq bo'lgan Gulushanovskiy, Likoshin, Kolosovskiy, Xiva xonligidagi fitnakor guruhlarini rag'batlantirib, ularni Islomxo'jaga qarshi gij-

gijlab turishdi. Xivaning xalqparvar, ma'rifatparvar, islohotchi bosh vaziri Islomxo'ja ana shunday qattol siyosat, fitna qurboniga aylangandi.

Tarixni o'zgartirib bo'lmaydi. Biroq u hayot bo'lganida qanday bo'lardi, deya taxmin emas, mulohaza, mushohada qilib bo'ladi. Agar Islomxo'jaga raqib ikkita guruh bo'lmay, yoki ular bosh vazirga ta'sir o'tkazadigan darajada kuchga ega bo'lmasa va islohotchi 41 yoshida vafot etmaganida, bizningcha u keyingi davrdagi imkoniyatlardan foydalana olardi.

Birinchidan, "Yosh turklar" ta'sirida 1914-yilda tashkil etilgan "Yosh xivaliklar" ning Xorazmdagi lideri, tabiiyki, Islomxo'ja bo'lardi.

Ikkinchidan, u 1917-yil Rossiyadagi siyosiy o'zgarishlar tufayli Nikolay Romanovning taxtdan chetlatilish vaziyatidan, xuddi Polsha, Finlandiya singari chor mustamlakalari singari unumli foydalanib, Xorazmning istiqloлга erishishini ta'minlagan bo'lardi.

Ya'ni, aynan 1917-yil aprelidagi manifest va namoyishlarni Husayinbek Matmurodov, Boboxxun Salimov, Polvonniyozhoji Yusupovlar va Nazir Sholikorovlar emas, o'zi tashkillashtirgan va hukumat, yoki parlament raisligini qo'lga kiritgan, kuyovi Asfandiyor bilan ham ziddiyatga emas, murosaga borgan bo'lardi.

Ma'lumki, Polvonniyohoji Yusupov 1920-yil aprelidagi qurultoyda Xorazm Xalq Respublikasi hukumatining raisligiga saylangan. Agar Islomxo'ja 1917- yildagi imkoniyatdan qandaydir sababli foydalana olmagan taqdirda ham, 1920- yil aprelidagi qurultoyda Xorazm lideri sifatida hukumat raisligiga saylanishi muqarrar edi. Hatto 1920-24-yillardagi respublika davrida xuddi Usmonxo'ja, Fayzulla Xo'jalar Buxoroni mustaqil boshqarishga intilganlaridek, Xorazmning ham tashqi siyosatini o'zi idora etishga siyosiy iroda, qa'tiyat topgan bo'lardi.

Afsuski, taqdiri azal tufayli 1913-yil avgustida Islomxo'ja suiqasd qurboni bo'ldi va uning Xorazmni sanoatlashtirish, xorij kapitalini olib kelish, yoshlarni xorijda o'qitish, umuman olganda islohotchilik dasturi to'laqonli bajarilmay qoldi.

Biroq, shunday bo'lsa-da, Islomxo'ja jahon xalqlari taraqqiyotidan bir necha asr ortda qolgan, ba'zi sohalarda mustabidlik hukm surayotgan Xiva xonligida o'zgarish yasashga urindi va dastlabki natijalarga erishdiki, bular tarix sahifalaridan yorqin joy oldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR:

1. Umid Bekmuhammad. “Xorazm jadidchilik harakati ensiklopediyasi”, Urganch. 2024-yil.
2. O‘zbekiston Milliy Arxivi, f-1, op-17, d -231, 133-134-varaqlar.
3. “Туркестанский курьер”, 1913-yil, 21-avgust.
4. “Туркестанский курьер”, 1913-yil, 14-aprel.
5. Abdulla Boltayev. “Islomxo‘janing o‘limi haqida”. Xiva. Qo‘lyozma.
6. D. Rahim, Sh.Matrasul. “Shoh va shoir qismati”. G‘.G‘ulom nomli adabiyot va san’at nashriyoti. Toshkent, 1991-yil, 55-bet.
7. O‘zbekiston Milliy arxivi, 2-I-fond, 1-ro‘yxat, 305-ish, 88-varaq.
8. O‘zbekiston Milliy arxivi, f.i. 2, op 2, d 476, 53-bet.
9. O‘zbekiston Milliy arxivi, f.i. 2, op 1, d 475, 54-bet.
10. O‘zbekiston Milliy arxivi, f 2, op 1, d 289, 207-bet.
11. Rossiya Markaziy Davlat Arxivi, 400-fond, 62-delo, 155-bet.
12. Rossiya Markaziy Davlat Arxivi, 400-fond, 178-delo, 50-54-bet.
13. O‘zbekiston Milliy arxivi, f 2, op 1, d 289, 17-bet.
14. “Туркестанский курьер”, 1913-yil, 14-aprel.

TARIX**ILK O'RTA ASRLARDAGI XALQARO MUNOSABATLAR
TARIXSHUNOSLIGIDA SUG'D VA SUG'DIY SAVDOGARLARNING
O'RNI (V–VIII ASRLAR MANBALARI TAHLILI)**

**Sherzod Axmadov,
Samarqand davlat
universiteti tayanch
doktoranti**

UO'K 94.46

Annotatsiya: Maqolada V–VIII asrlardagi xalqaro munosabatlar tarixshunosligida sug'd va sug'diy savdogarlarning o'rni manbashunoslik va tarixshunoslik asosida tahlil qilinadi. Sug'diy hujjatlar, Xitoy yilnomalari, arxeologik va numizmatik materiallar hamda E. de la Vessyer, Y. Yoshida, Rong Xinjiang kabi tadqiqotchilar ishlari asosida Sug'dning Yevroosiyo savdo va diplomatik tizimidagi mavqei qayta ko'rib chiqiladi.

Аннотация: В статье на основе источниковедческого и историографического анализа рассматривается место Согда и согдийских купцов в истории международных отношений V–VIII вв. На материале согдийских документов, китайских летописей, археологических и нумизматических источников, а также работ таких исследователей, как Э. де ла Вессьер, Я. Ёсида, Жун Синьцзян, переосмысливается роль Согда в евразийской торговой и дипломатической системе.

Annotation: This article analyzes the role of Sogd and Sogdian merchants in the history of international relations from the 5th to the 8th centuries on the basis of source studies and historiography. Drawing on Sogdian documents, Chinese chronicles, archaeological and numismatic materials, as well as the works of scholars such as Étienne de la Vaissière, Yutaka Yoshida, and Rong Xinjiang, the position of Sogd within the Eurasian commercial and diplomatic system is reexamined.

Kalit so'zlar: Sug'd, sug'diy savdogarlar, ilk o'rta asrlar, xalqaro munosabatlar, Ipak yo'li, tarixshunoslik, manbashunoslik, Xitoy yilnomalari, savdo tarmoqlari, diaspora.

Ключевые слова: Согд, согдийские купцы, раннее средневековье, международные отношения, Шёлковый путь, историография,

источниковедение, китайские летописи, торговые сети, диаспора.

Key words: *Sogd, Sogdian merchants, early Middle Ages, international relations, Silk Road, historiography, source studies, Chinese chronicles, trade networks, diaspora.*

V–VIII asrlar Markaziy Osiyo, xususan, Sug‘d vohasi uchun nafaqat siyosiy, balki iqtisodiy va madaniy jihatdan ham tub burilish davri bo‘ldi. Yevroosiyo miqyosida shakllangan “katta Ipak yo‘li” karvon yo‘llari tizimi tarkibida sug‘diy savdogarlar Sharq va G‘arb o‘rtasidagi asosiy vositachi sifatida tarix sahnasiga chiqdi. Zamonaviy tadqiqotlarda Sug‘d xalqi “Markaziy Osiyoning V–VIII asrlardagi bosh karvon savdogarlari” sifatida ta’riflanadi; ular asosan Samarqand, Buxoro va Choch atrofidagi hududlardan chiqib, Xitoydan Qora dengiz bo‘ylarigacha bo‘lgan savdo va diplomatik aloqalarda faol qatnashganlari manbalarda qayd etiladi [1, É. de la Vaissière, 2005, 16–19-betlar.].

Sug‘d va sug‘diy savdogarlarning xalqaro munosabatlardagi o‘rni masalasi bugungi kunda jahon tarixi bo‘yicha ilmiy izlanishlarda alohida tadqiqot yo‘nalishiga aylanib bormoqda. Bu masalani o‘rganish, bir tomondan, Markaziy Osiyo mintaqasining jahon sivilizatsiyalari tizimidagi o‘rnini qayta baholashga imkon bersa, ikkinchi tomondan, ilk o‘rta asrlarda shakllangan xalqaro savdo yo‘llari, siyosiy aloqalar va madaniy almashinuv jarayonlarini Yevroosiyo miqyosida qayta ko‘rib chiqish zaruratidan kelib chiqadi [2, Yutaka Yoshida, 2021, 1-5-betlar.].

So‘nggi o‘n yilliklarda Yevropa, Rossiya, Xitoy va Yaponiya olimlari tomonidan Sug‘d tarixiga bag‘ishlangan ko‘plab monografiya va maqolalar nashr etildi. Jumladan, É. de la Vessyèrning *Sogdian Traders: A History* asari sug‘diy savdogarlarni V–VIII asrlarda Markaziy Osiyodagi asosiy “vositachi savdogarlar” sifatida ko‘rsatadi; unda Sug‘d shahar-davlatlarining ichki tuzilishi, xalqaro savdo aloqalari, karvon yo‘llari, diaspora koloniyalari va turli siyosiy kuchlar bilan munosabatlari keng yoritilgan.

Oxford Research Encyclopediada Y.Yoshida tomonidan tayyorlangan “Sug‘diy savdogarlar savdo tarmog‘i” (*The Sogdian Merchant Network*) maqolasi sug‘diy savdogarlar tarmog‘ini Yevroosiyo savdo infratuzilmasi

tarkibida ko‘rib chiqib, ularning Xitoy, Turk xoqonligi va Eron bilan aloqalarini tarixiy-mintaqaviy model sifatida tahlil etadi. Shuningdek, Rong Xinjiangning “Ipak yo‘lida sug‘d savdogarlari va sug‘d madaniyati” (Sogdian Merchants and Sogdian Culture on the Silk Road) maqolasi Sug‘d savdogarlarining Ipak yo‘li bo‘ylab savdo, diplomatiya va madaniy almashinuvdagi vositachilik vazifasini yanada kengroq asosda ochib beradi [3, Rong Xinjiang, ed. N. Di Cosmo, M. Maas, 2018, 84-95-betlar.]

Shu bilan birga, Sug‘dning xalqaro munosabatlar tarixidagi o‘rni bo‘yicha tarixshunoslik hali to‘liq tizimlashtirilgan emas: ayrim tadqiqotlarda savdo va iqtisodiy aloqalar markazga qo‘yilsa, boshqalarida sug‘diy savdogarlar diplomatik missiyalar va madaniy almashinuvning faol subyekti sifatida talqin qilinadi. Mazkur maqolaning maqsadi – V–VIII asrlar bo‘yicha mavjud yozma, arxeologik va numizmatik manbalar hamda zamonaviy tarixshunoslikni tahlil qilish orqali ilk o‘rta asrlardagi xalqaro munosabatlar tarixshunosligida sug‘d va sug‘diy savdogarlarning o‘rni qanday talqin etilganini tizimli ravishda ko‘rsatishdan iborat.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Mazkur tadqiqotda adabiyotlar tahlili va metodologiya tarixshunoslik hamda manbashunoslik asosida shakllantirildi. Yondashuv sug‘d va sug‘diy savdogarlarning ilk o‘rta asrlardagi xalqaro munosabatlardagi o‘rnini turli manbalar majmuasi orqali qayta tiklashga qaratilgan.

1. Manbashunoslikka oid yondashuv.

Tadqiqotning manbashunoslik asosini uch katta guruhdagi birlamchi manbalar tashkil etadi:

- Sug‘diy tilidagi hujjatlar va xatlar – jumladan, E. de la Vessyèr va N. Sims-Williamslar tahlil qilgan “Ancient Letters” majmuasi hamda Mug‘ qal’asi arxivi hujjatlari. Bu materiallar sug‘diy savdogarlarning kundalik hayoti, siyosiy vaziyat, xavfsizlik, savdo yo‘llari va turli markazlar bilan yozishmalarini aks ettirib, Sug‘d jamiyatining ichki tuzilishi va tashqi aloqalari haqida bevosita tasavvur beradi [4, Étienne de la Vaissière, 2005, 32-35-betlar.]

- Xitoy yilnomalari (Sui shu, Jiu Tang shu, Xin Tang shu) tarkibida Sug‘d va sug‘diy savdogarlar haqidagi qaydlar. Ular Xitoy saroyi nuqtai nazaridan sug‘diylarni “savdoga ixtisoslashgan xalq” sifatida tasvirlab, Sug‘dning saroy diplomatiyasi, elchilik missiyalari va karvon savdosi tizimidagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Mazkur xabarlar Rong Xinjiang, Y. Yoshida va boshqa tadqiqotchilar asarlarida qayta tahlil qilingan [5, Yutaka Yoshida, 2021, 1-10-betlar.]

- Arxeologik va numizmatik topilmalar – Panjikent, Afrasiyob (Samarqand) va boshqa sugʻdiy markazlarda olib borilgan qazishmalar natijalari, devoriy rasmlar, epigrafik yodgorliklar hamda sugʻdiy tangalar korpusi boʻyicha zamonaviy kataloglar. Ular Sugʻd shahar-davlatlarining makoniy tuzilishi, savdo yoʻllari, madaniy aloqalar va siyosiy kommunikatsiyasini moddiy-madaniy qatlam orqali yoritish imkonini beradi [6, Rong Xinjiang, 2018, 84-95-betlar.]

Ushbu manbalar tarixiy voqelikning “birlamchi ovozi” sifatida koʻrilib, ular asosida sugʻdiy savdogarlarning xalqaro savdo, elchilik va madaniy vositachilikdagi mavqei rekonstruksiya qilinadi.

2. Tarixshunoslik tahlili.

Zamonaviy ilmiy adabiyotlar mazmun va yondashuviga koʻra bir necha bloklarga ajratildi:

Gʻarb tadqiqotlari – E. de la Vessyer, V. Hansen, Y. Yoshida, Rong Xinjiang va boshqa mualliflar asarlari. Bu ishlar Sugʻd savdo tarmogʻi, diaspora koloniyalari va Ipak yoʻli boʻylab shakllangan madaniy-siyosiy aloqalarni Yevroosiyo miqyosida tahlil qiladi [Étienne de la Vaissière, 2005, 32–35-betlar. 5, Yutaka Yoshida, 2021, 1–10-betlar.]

- Sovet va post-sovet maktabi – numizmatika va arxeologiya boʻyicha klassik ishlar hamda Panjikent, Afrasiyob, Varaxsha kabi yodgorliklarda olib borilgan qazishmalar natijalariga tayangan tadqiqotlar. Bu yoʻnalish Sugʻd shahar-madaniyatining moddiy asoslari, ijtimoiy tuzilishi va mahalliy siyosiy tizimni yoritadi [Rong Xinjiang, 2018, 84–95-betlar.]

- Zamonaviy mavzuviiy toʻplamlar – Sugʻd va Ipak yoʻli savdosida madaniy oʻzaro taʼsir, diniy sintez va identitet masalalariga bagʻishlangan yangi tadqiqotlar. Ular Sugʻdni nafaqat savdo, balki madaniy va diniy vositachilik nuqtai nazaridan ham talqin qilishga oʻtishni koʻrsatadi [Yutaka Yoshida, 2021, 1–10-betlar.]

Har bir yoʻnalish boʻyicha asosiy konseptual yondashuvlar, Sugʻd obrazining shakllanishi va xalqaro munosabatlardagi oʻrni talqinlari taqqosiy tahlil qilinib, tarixshunoslikdagi umumiy tendensiyalar va bahsli jihatlar aniqlandi.

3. Qiyosiy-tahliliy metod.

Tadqiqotda qiyosiy-tahliliy metod markaziy o‘rin egallaydi. Xususan:

- Sug‘d va sug‘diy savdogarlar haqidagi tasvirlar Xitoy yilnomalari, Sug‘diy hujjatlar hamda arab-fors manbalarida qanday aks etgani qiyoslandi; terminologiya, siyosiy baho va etnik-sivilizatsion tasavvurlardagi farqlar aniqlanib, ularning sabablariga e‘tibor qaratildi.

- Turli tarixshunoslik maktablarida (G‘arb, Rossiya/MDH, Sharq) Sug‘dga nisbatan shakllangan tasavvurlar solishtirilib, ularning ortida turgan ilmiy an‘ana va ideologik omillar (masalan, “markaz–chekka” modeli, Ipak yo‘li konsepsiyalarining farqli talqinlari) o‘rtasidagi bog‘liqlik ko‘rsatildi.

Bu yondashuv manbalar matni va zamonaviy tadqiqotlar o‘rtasidagi munosabatni ko‘rsatish, Sug‘d obrazining tarixiy va tarixshunoslik evolyutsiyasini ochib berish imkonini berdi.

4. Davrlashtirish.

V–VIII asrlar Sug‘d tarixida bir xil jarayon emas, balki bir-biridan farqlanuvchi bosqichlardan iborat davr sifatida talqin qilindi. Tadqiqotda shartli ravishda uch bosqich ajratildi:

- V–VI asrlar – Sug‘d savdo tarmog‘ining shakllanishi, shahar-davlatlarning ichki mustahkamlanishi va ilk uzoq masofali savdo yo‘llarining faollashuvi;

- VI–VII asrlar – Turk xoqonligi va Tang davri Xitoy bilan aloqalar kuchayishi, sug‘diy savdogarlarning Ipak yo‘li bo‘ylab asosiy vositachi sifatida mustahkamlanishi;

- VII–VIII asrlar – Arab xalifaligi bosimi, siyosiy vaziyatning keskin o‘zgarishi va sug‘diy savdo tizimining yangi sharoitga moslashuvi, ya‘ni transformatsiyasi.

Mazkur periodizatsiya Sug‘dning xalqaro munosabatlar tarixidagi o‘rnini faqat faktlar majmuasi sifatida emas, balki manbalar va yondashuvlarning evolyutsiyasini ko‘rsatadigan tarixshunoslik jarayoni sifatida tahlil qilishga xizmat qiladi.

Natijalar.

1. G‘arb tarixshunosligida Sug‘d va sug‘diy savdogarlarning talqini E. de la Vaissièrening *Sogdian Traders: A History* asari Sug‘d va sug‘diy savdogarlarning xalqaro savdo aloqalari tizimidagi o‘rnini tizimli yoritgan dastlabki fundamental tadqiqotlardan biri hisoblanadi [7, Étienne de la Vaissière,

2005, 16-18-betlar.]. Muallif Sug'dni V–VIII asrlarda Markaziy Osiyoning asosiy savdo vositachisi, sug'diy savdogarlarni esa Sharq va G'arb o'rtasidagi karvon savdosi uchun “asosiy ko'pri” sifatida talqin qiladi. Unda Sug'd shahar-davlatlarining siyosiy holati, ko'chmanchi qabilalar bilan aloqalari, Xitoy va Eron bilan savdo-diplomatik munosabatlari batafsil ko'rsatiladi.

Oxford Research Encyclopedia'dagi “Sug'diy savdogarlar tarmog'i” (The Sogdian Merchant Network) maqolasida Y. Yoshida sug'diy savdogarlarning tarmoq sifatidagi tizimini tahlil qilib, ularning diasporalari, karvon yo'llari va savdo markazlari bo'yicha tarixiy-mintaqaviy xaritasini qayta tiklaydi [8, Yutaka Yoshida, 2021, 1-10-betlar.] Sug'diy savdogarlar Xitoy saroyi, Turk xoqonligi hukmdorlari, Sosoniy Eron va mahalliy shahar-davlatlar o'rtasida iqtisodiy hamda siyosiy vositachi sifatida namoyon bo'lganliklari ko'rsatiladi.

Rong Xinjiangning “Sug'd savdogarlari va Buyuk Ipak yo'lidagi sug'diy madaniyat” (Sogdian Merchants and Sogdian Culture on the Silk Road) bobida sug'diy savdogarlar faqat iqtisodiy emas, balki madaniy almashinuvning ham asosiy subyekti sifatida talqin etiladi [9, Rong Xinjiang, 2018, 359–369-betlar.] Muallif Tang davri Xitoyidagi sug'diy koloniyalar, ularning diniy amaliyoti, bayramlari va saroy marosimlaridagi ishtirokini tasvirlab, Sug'dning xalqaro munosabatlardagi “yumshoq kuch” (madaniy ta'sir) komponentini ochib beradi.

2. Sovet va post-sovet maktabi: arxeologik-numizmatik yondashuv Sovet davri tadqiqotlari, xususan, Panjikent, Afrosiyob va boshqa sug'diy markazlarda olib borilgan arxeologik qazishmalar Sug'dning ichki shahar madaniyati va savdo infratuzilmasini yoritishda fundamental ahamiyatga ega bo'ldi. Panjikent devoriy rasmlarida tasvirlangan elchilar va savdogarlar, xalqaro marosimlar sahnalari, Afrosiyob devoriy rasmlaridagi chet el elchilik delegatsiyalari Sug'dning xalqaro aloqalardagi mavqeini aniq vizual dalillar bilan ko'rsatadi.

Numizmatik tadqiqotlarda sug'diy tangalar, shuningdek, Sug'd bilan bevosita bog'liq bo'lgan Choch, Ustrushona va To'xoriston tanga zarblari tahlil qilinib, ular orqali xalqaro savdo va siyosiy aloqalar yo'nalishlari rekonstruksiya qilingan. So'nggi yillarda sug'diy tangalar yozuvlari va ularning tarqalish geografiyasiga bag'ishlangan ishlar Sug'd savdo tarmog'ining ichki tuzilishi va moddiy qadriyatlar almashinuvi tasavvurini sezilarli darajada kengaytirdi.

3. Zamonaviy global tadqiqotlar: raqamli loyihalar va yangi konsepsiyalar UNESCOning “Silk Roads Programme” dasturi va Smithsonian instituti

tomonidan amalga oshirilgan “The Sogdians” raqamli loyihasi Sug‘d tarixini global auditoriyaga ilmiy asosda yetkazishga xizmat qilmoqda. Bu loyihalarda sug‘diy savdogarlarga oid matnlar, arxeologik topilmalar, xaritalar va interaktiv materiallar jamlangan bo‘lib, ular Sug‘dning xalqaro munosabatlardagi o‘rni kengaytirilgan tarixiy kontekstda ko‘rsatadi.

So‘nggi yillardagi kollektiv to‘plamlarda (masalan, Cross-cultural Elements in Sogdian Trade kabi to‘plamlar) sug‘diy savdo tarmog‘ining madaniyatlararo ta‘siri, diniy sintez va identitet masalalari alohida yo‘nalish sifatida ko‘tarilmoqda. Bu yangi tadqiqotlar Sug‘dni nafaqat “vositachi savdogarlar jamoasi”, balki “madaniy va diniy innovatsiyalar tashuvchisi” sifatida talqin qilishga o‘tishni ko‘rsatadi.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, Sug‘d va sug‘diy savdogarlar haqidagi tasavvurlar tarixshunoslikda bir necha bosqichlardan o‘tgan.

1.“Savdo vositachilari” modeli. Dastlabki g‘arb va sobiq ittifoq tadqiqotlarida Sug‘d ko‘proq iqtisodiy funksiyalar va karvon savdosidagi roli orqali talqin qilindi. Bu yondashuvda sug‘diy savdogarlar Sharq va G‘arb o‘rtasida karvonlar harakatini ta‘minlovchi, uzoq masofali savdoda xizmat ko‘rsatuvchi guruh sifatida ko‘riladi. É. de la Vaissière asari mazkur modelni ancha rivojlantirgan bo‘lsa-da, asosiy urg‘u baribir savdo yo‘llari, karvon tarmoqlari va tovar almashinuvi masalalariga qaratilgan [10, Étienne de la Vaissière, 2005, 1–10-betlar.]

2.“Tarmoq va diaspora” modeli. Y. Yoshida va Rong Xinjiang kabi tadqiqotchilar sug‘diy savdogarlarni mustaqil savdo tarmog‘i sifatida ko‘rib, ularning diaspora koloniyalari, ichki iyerarxiyasi, siyosiy aloqalari va madaniy qiyofasini alohida yoritadilar [11, Yutaka Yoshida, 2021, 1-15-betlar.] Bu yondashuvda Sug‘d savdo tarmog‘i transchegaraviy tarixiy tuzilma sifatida talqin qilinadi; Sug‘d shahar-davlatlari esa ushbu tarmoqning markaziy bo‘g‘inlari sifatida qaraladi. Shunday qilib, Sug‘d faqat alohida hudud emas, balki butun Yevroosiyo savdo va diplomatik aloqalarini bog‘lab turuvchi “uzel nuqta” sifatida tasvirlanadi.

3.“Madaniy vositachi” modeli. Raqamli loyihalar va so‘nggi mavzuviy to‘plamlarda Sug‘d ko‘proq madaniy va diniy almashinuv nuqtai nazaridan baholanadi. Sug‘diy savdogarlar Xitoy, Eron, Hindiston va Turk dunyosi o‘rtasida nafaqat tovar, balki g‘oya, diniy oqimlar, yozuv madaniyati hamda tasviriy san‘at motivlarini ham tashuvchi subyekt sifatida ko‘rsatiladi [12, Rong Xinjiang, 2018,

84-95-betlar.] Bu modelda sugʻdiy koloniyalar va ularning diniy marosimlari, bayramlari, saroy marosimidagi ishtiroki xalqaro munosabatlarning madaniy qatlamini tushuntiruvchi asosiy omil sifatida talqin qilinadi.

Shu bilan birga, mavjud tarixshunoslikda bir qator muammoli nuqtalar saqlanib qolmoqda:

- Sugʻdning ichki ijtimoiy tuzilmasi, savdogarlar elitasining siyosiy qaror qabul qilishdagi roli va shahar-davlatlar ichidagi kuch muvozanati hali yetarlicha ochib berilmagan;

- Sugʻd ayollari, quyi savdogarlar, karvon ishchilari va hunarmandlarning xalqaro munosabatlar tizimidagi konkret oʻrni boʻyicha manba va tadqiqotlar juda kam;

- Arab-fors manbalaridagi Sugʻd haqidagi tasvirlar hali ham koʻproq umumiy “Movarounnahr” konteksti doirasida tahlil qilinib, sugʻdiy savdogarlarning VIII asrdan keyingi transformatsiyasi, yangi siyosiy sharoitga moslashuvi yetarlicha oʻrganilmagan.

Bu boʻshliqlar, bir tomondan, manba bazasining chegaralanganligi bilan izohlanishi mumkin boʻlsa-da, ikkinchi tomondan, tadqiqot eʼtiborining asosan yirik savdo yoʻllari, hukmron qatlam va elita savdogarlarga qaratilganidan dalolat beradi. Yangi tadqiqotlar Sugʻd jamiyatining turli qatlamlarini, ayniqsa “koʻrinmas guruhlar” – ayollar, oddiy karvon xizmatchilari, mahalliy ustalar va kichik savdogarlar rolini ham qamrab olishi zarur.

Mazkur maqola natijalari shuni koʻrsatadiki, Sugʻd va sugʻdiy savdogarlar xalqaro munosabatlar tarixshunosligida tobora koʻproq faol subyekt sifatida koʻrilmoqda. Endilikda Sugʻdni faqat savdo aloqalari va vositachilik bilan cheklab qoʻyish ilmiy jihatdan yetarli emas; u Yevroosiyo tarixiy jarayonlarida siyosiy, madaniy va diniy omillarni oʻzida jamlagan murakkab fenomen sifatida tahlil qilinishi lozim.

Xulosa. Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, V–VIII asrlarda Sugʻd va sugʻdiy savdogarlar Yevroosiyo miqyosidagi xalqaro munosabatlar tizimida oddiy “oraliq boʻgʻin” emas, balki mustaqil tarixiy subyekt sifatida maydonga chiqdi. Sugʻdiy tilidagi hujjatlar, Xitoy yilnomalari, arxeologik va numizmatik manbalar hamda zamonaviy tarixshunoslik tadqiqotlari birgalikda oʻrganilganda,

Sugʻdning Ipak yoʻli karvon yoʻllari, diplomatik aloqalar va madaniy almashuvdagi oʻrni ancha aniq va rang-barang koʻrinishda namoyon boʻladi.

Maqolada koʻrib chiqilgan tarixshunoslik modellari – “savdo vositachilari”, “tarmoq va diaspora” hamda “madaniy vositachi” yondashuvlari Sugʻd obrazining ilmiy talqinlari bosqichma-bosqich murakkablashib borganini koʻrsatadi. Dastlabki izlanishlarda Sugʻd asosan savdo va karvon yurishlari bilan bogʻliq iqtisodiy faoliyat fonida tilga olingan boʻlsa, keyingi tadqiqotlarda sugʻdiy savdogarlar diaspora tarmogʻi, shahar-davlatlar bilan uzviy bogʻlangan savdo-siyosiy tuzilma, shuningdek, gʻoyalar, diniy oqimlar va sanʼat shakllarini tashuvchi madaniy vositachi sifatida talqin qilinmoqda. Bu esa Sugʻdni Yevroosiyo sivilizatsion jarayonlarida muhim “bogʻlovchi halqa” sifatida koʻrish zarurligini tasdiqlaydi.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida Sugʻd jamiyatining ichki ijtimoiy qatlamlari, savdogarlar elitasining siyosiy qarorlar qabul qilishdagi mavqei, ayollar va quyi savdo qatlamining xalqaro aloqalardagi ishtiroki yetarlicha yoritilmagani aniqlandi. Arab–fors manbalarida Sugʻd koʻproq umumiy “Movarounnahr” konteksti ichida tilga olinishi natijasida sugʻdiy savdogarlarning VIII asrdan keyingi taqdiri ham toʻliq tiklanmagan. Bu boʻsh joylar mavzuning keyingi bosqichdagi tadqiqotlari uchun dolzarb yoʻnalishlar sifatida alohida eʼtiborni talab qiladi.

Umuman olganda, maqola Sugʻd va sugʻdiy savdogarlarning ilk oʻrta asrlar xalqaro munosabatlari tarixshunosligidagi talqinlarini manbalar va ilmiy yondashuvlar evolyutsiyasi bilan bogʻliq holda tahlil qilib, Sugʻdni Yevroosiyo tarixida siyosiy, madaniy va diniy jarayonlarga sezilarli taʼsir koʻrsatgan murakkab tarixiy fenomen sifatida baholash zarurligini asoslaydi. Bu yondashuv nafaqat Sugʻd tarixini, balki butun ilk oʻrta asrlar xalqaro munosabatlarini yanada mukammalroq anglashga xizmat qiladi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. É. de la Vaissière, *Sogdian Traders: A History*, Leiden–Boston: Brill, 2005, 16–19-betlar.
2. Yutaka Yoshida, “The Sogdian Merchant Network”, *Oxford Research Encyclopedia of Asian History*, 2021, 1–5-betlar.

3. Rong Xinjiang, “Sogdian Merchants and Sogdian Culture on the Silk Road”, *Empires and Exchanges in Eurasian Late Antiquity: Rome, China, Iran, and the Steppe*, ca. 250–750.
4. Étienne de la Vaissière, *Sogdian Traders: A History*, Leiden–Boston: Brill, 2005, 32–35-betlar.
5. Yutaka Yoshida, “The Sogdian Merchant Network”, *Oxford Research Encyclopedia of Asian History*, 2021, 1–10-betlar.
6. N. Di Cosmo, M. Maas, Cambridge University Press, 2018, 84–95-betlar.
7. Étienne de la Vaissière, *Sogdian Traders: A History*, Leiden–Boston: Brill, 2005, 16–18-betlar.
8. Yutaka Yoshida, “The Sogdian Merchant Network”, *Oxford Research Encyclopedia of Asian History*, 2021, 1–10-betlar.
9. Rong Xinjiang, “Sogdian Merchants and Sogdian Culture on the Silk Road”, in: *Empires and Exchanges in Eurasian Late Antiquity: Rome, China, Iran, and the Steppe*, ca. 250–750, Cambridge University Press, 2018, 359–369-betlar.
10. Étienne de la Vaissière, *Sogdian Traders: A History*, Leiden – Boston: Brill, 2005, 1–10-betlar.
11. Yutaka Yoshida, “The Sogdian Merchant Network”, *Oxford Research Encyclopedia of Asian History*, 2021, 1–15-betlar.
12. Rong Xinjiang, “Sogdian Merchants and Sogdian Culture on the Silk Road”, in: Nicola Di Cosmo, Michael Maas (tahr.), *Empires and Exchanges in Eurasian Late Antiquity: Rome, China, Iran, and the Steppe*, ca. 250–750, Cambridge University Press, 2018, 84–95-betlar.

TARIX**SOVET DAVRIDA QORAQALPOG‘ISTONLIK OLIMLARNING
TASHABBUSLARIDA OROL DENGIZINING TAQDIRI: XATLAR,
MUROJAATLAR VA ULARGA MUNOSABAT**

**Baxodir Bekimbetov,
Qoraqalpog‘iston
qishloq xo‘jaligi va
agrotexnologiyalar
instituti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi**

UO‘K 93/502.7(09)

Annotatsiya: Ushbu maqola sovet davrida qoraqalpog‘istonlik olimlarning Orol dengizi ekologik falokatining oldini olishga qaratilgan xat va murojaatlarini tahlil qilishga bag‘ishlangan. Unda inqirozning sabablari, uning mintaqaga ta’siri hamda ekologik xavfsizlik g‘oyalarini shakllantirishda ilmiy jamoatchilik o‘ynagan roli ko‘rib chiqiladi. Ta’kidlanishicha, olimlarning takliflari uzoq vaqt davomida amaliyotga tatbiq etilmagan, bu esa Orol muammosining yanada chuqurlashuviga olib kelgan.

Аннотация: Данная статья посвящена анализу писем и обращений ученых Каракалпакстана, направленных на предотвращение экологической катастрофы Аральского моря в советский период. В ней рассматриваются причины кризиса, его влияние на регион и роль научного сообщества в формировании идей экологической безопасности. Отмечается, что предложения ученых долгое время не применялись на практике, что привело к дальнейшему усугублению проблемы Арала.

Annotation: This article analyzes letters and appeals from scientists in Karakalpakstan aimed at preventing the ecological catastrophe of the Aral Sea during the Soviet period. It examines the causes of the crisis, its impact on the region, and the role of the scientific community in shaping ideas about environmental security. The article notes that the scientists’ proposals were not implemented in practice for a long time, which led to further aggravation of the Aral Sea problem.

Kalit so‘zlar: Orol dengizi, Qoraqalpog‘iston, ekologik inqiroz, ekologik xavfsizlik, olimlar, xatlar va murojaatlar, sovet tizimi, dengizning qurib qolishi.

Ключевые слова: Аральское море, Каракалпакстан, экологический кризис,

экологическая безопасность, ученые, письма и обращения, советская система, высыхание моря.

Key words: *Aral Sea, Karakalpakstan, ecological crisis, environmental security, scientists, letters and appeals, Soviet system, sea desiccation.*

Bir paytlar dunyodagi to'rtinchi yirik ichki suv havzasi bo'lgan Orol dengizi 1960-yillardan 1980-yillarning oxirigacha o'z yuzasining 60 foizdan ortig'ini yo'qotib, salbiy ekologik va ijtimoiy oqibatlarining zanjirli reaksiyasini keltirib chiqardi. Dengizning qurishi uchun asosiy aybdor sifatida sovet tizimi ko'rsatiladi. Ushbu tizim markazdan boshqarilib, cho'l yerlarni paxta yetishtirish uchun o'zlashtirish maqsadida tabiatni bo'ysundirish usulini qo'llagan. Darhaqiqat, ishlab chiqaruvchi kuchlarni joylashtirish va ularni rivojlantirishni rejalashtirish dasturlari hamda islohotlariga doir masalalar Ittifoq markaziy idoralari tomonidan obyektiv iqtisodiy qonunlarga, tabiatdan foydalanish qonuniyatlariga asoslanmagan holda hududiy manfaatlar e'tiborga olinmasdan ishlab chiqilgan [1,17].

Sovet Ittifoqi parchalanishi davrida keng tarqalgan umid shundan iborat ediki, yer va suv resurslarini boshqarish Markaziy Osiyoning beshta yangi mustaqil davlati ixtiyoriga o'tgach, ekologik inqiroz ortga qaytadi, chunki bu davlatlar o'z tabiiy boyliklarini uzoqdagi markaz hukumatiga qaraganda yaxshiroq boshqara oladi, deb taxmin qilingan edi.

Biroq ushbu umid bilan bir vaqtda umumiy suv resurslari bo'yicha davlatlararo mojaro xavfi ham paydo bo'ldi. Xalqaro maydonda tajribasiz bo'lgan yangi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari transchegaraviy resurslarni taqsimlash uchun yangi institutlar va kelishuvlarni ishlab chiqish jarayonida o'z chegaralari ichidagi va tashqarisidagi siyosiy hamda iqtisodiy noaniqliklar bilan yuzma-yuz kelishdi.

Tadqiqot arxiv hujjatlarini tarixiy-manbashunoslik va qiyosiy tahlil usullari asosida o'rganishga tayangan. Unda Qoraqalpog'istonda ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida "ekologik xavfsizlik"ni ta'minlash bo'yicha ilg'or ziyoli olimlar tomonidan Orol muammosining oldini olishga qaratilgan tashabbuslar tahlil qilinadi. Bunday e'tibor mintaqada yashovchi aholining ekologik muammolarga befarq bo'lmaganidan dalolat beradi. Maqolada "ekologik xavfsizlik" tushunchasi Orol dengizini saqlab qolish yo'lidagi ilmiy jamoatchilik faoliyati nuqtayi nazaridan kengroq talqin etiladi.

1980-yillarning oxirlaridagi oshkoralik davrida dunyo mustabid tuzumlar sharoitida yashirib kelingan ko'plab ekologik muammolar haqida matbuot orqali

xabardor bo'la boshladi. Oshkoralik siyosati Sovet Ittifoqidagi ekologik muammolarning ko'lami va jiddiyligi haqida Sharq va G'arb mamlakatlarida xabardorlikni oshirdi. Ushbu siyosat ommaviy munozaralar, xat yozish kompaniyalari, namoyishlar hamda "yanada keskinroq ta'qiqlarni ko'tarib chiqadigan, jamoatchilik fikrlarining keng doirasini chop etadigan va taraqqiyot hamda qayta qurishga oid barcha muhim masalalar yuzasidan ochiq bahs olib boradigan matbuot" uchun imkoniyat yaratdi.

Mafkuraviy tajovuz kuchaygan sharoitda yashirib kelingan "sirlar" oshkoralik davrida ochildi va Sovet Ittifoqidan tashqaridagi jamoatchilik Orol dengizi inqirozi haqidagi ma'lumotlarga ega bo'ldi. G'arb ommaviy axborot vositalarida keng yoritilgan ushbu voqelik, odatda, bir nechta ilmiy manbalarga tayangan holda qurib qolgan dengiz tubida qolib ketgan zanglagan kemalar tasvirlari bilan ifodalangan edi [2].

Sovet Ittifoqining parchalanishi atrof-muhit yomonlashuvining siyosiy barqarorlikka ta'sir etuvchi omil ekanligi haqidagi qarashlarni kuchaytirdi. Ittifoqning qulashiga ekologik omillarning hissasi geosiyosat va xavfsizlik sohasida atrof-muhit muammolarining o'rni haqida ilmiy adabiyotlarning ko'payishiga turtki bo'ldi. Bu esa ekologik xavfsizlik tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Orol dengizi tarixining mustaqillikdan keyingi davri global xavfsizlik muammolari fonida kechdi. Markaziy Osiyo mintaqasi 1991-yildan so'ng jahon siyosatining diqqat markaziga chiqdi. Ekologik xavfsizlik mavzusidagi tadqiqotlarning ko'payishi Orol dengizi inqirozining mintaqaviy, xususan O'zbekiston ichidagi geosiyosiy barqarorlikka mumkin bo'lgan ta'siri haqidagi tashvishlarni kuchaytirdi.

Ko'plab olimlar, siyosatchilar, ekologlar va jurnalistlar ta'kidlaganidek, dengiz va uning ekotizimlarining yo'q qilinishi insoniyat tarixidagi eng yirik texnogen ekologik falokatlardan birini tashkil etadi. Qoraqalpog'istonda ziyoli olimlarning Orol dengizini saqlab qolish yo'lidagi harakatlari oshkoralik siyosatidan ancha ilgari boshlanganini kuzatish mumkin [3].

1978-yil aprel oyida akademik S. Kamalov hamda taniqli olimlar R. Tleuov, S. Usmonov va S. Qobulovlar partiya Bosh kotibi va davlat rahbari L. I. Brejnevga maktub bilan murojaat qildilar. Ular turli darajadagi idoralarga bir necha bor murojaat qilishlariga qaramay, Orol dengizini qutqarish bo'yicha qoniqarli javob va aniq choralarni ko'rmaganliklarini qayd etdilar [4]. Maktubda ekologik vaziyat va uning mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri batafsil bayon qilinib, O'zSSR FA Qoraqalpog'iston filiali olimlarining ushbu jarayondagi roli alohida ta'kidlandi. Xatning asosiy g'oyasi kollektor-drenaj suvlarini Orol dengiziga yo'naltirishdan iborat edi. Odatda bunday suvlar Arnasoy va Sariqamish kabi sun'iy suv havzalariga oqizib yuborilar edi.

Keyingi murojaat SSSR Oliy Kengashining Qoraqalpog‘istondan saylangan deputati, KPSS Markaziy Qo‘mitasi bo‘lim boshlig‘i L. Zamyatinga yuborildi. U mazkur xatni Bosh kotib L. I. Brejnevga yetkazdi. Shundan so‘ng KPSS Markaziy Qo‘mitasi Kotibiyati xatni SSSR Melioratsiya va suv xo‘jaligi vazirligiga yubordi, biroq hech qanday aniq qaror qabul qilinmadi.

1979-yil 26-dekabrda akademik S. Kamalov boshchiligidagi bir guruh olimlar davlat rahbariga yana murojaat qildilar. Ular xatida SSSR Melioratsiya va suv xo‘jaligi vazirligiga Xorazm va Toshovuz viloyatlarining kollektor suvlarini Amudaryo va Orol dengizi deltasi tomon yo‘naltirish hamda dengiz uchun daryo o‘zani bo‘ylab 5–6 km³ sanitariya oqimini ajratish vazifasini yuklashni so‘radilar. Olimlar vaziyatning tobora keskinlashib borayotganini, sho‘r yuvish tadbirlarisiz birorta ham gektar yerga ekin ekib bo‘lmasligini va cho‘llanish jarayonlari qaytarib bo‘lmas tus olayotganini ta’kidladilar.

1980-yil fevral oyida SSSR Melioratsiya va suv xo‘jaligi vaziri o‘rinbosari B. Shtepa imzosi bilan olingan javobda ushbu takliflar “Soyuzgiprovdokhoz” tomonidan ko‘rib chiqilishi va Geografiya instituti 1981–1985-yillarga mo‘ljallangan ish rejasida Orol muammosi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazishi qayd etildi [5]. Bu esa muammoni hal etish noma’lum muddatga qoldirilganini anglatardi.

1980-yillarning boshlarida L.Brejnev nomiga yana bir guruh qoraqalpog‘istonlik olimlar tomonidan maktub yuborildi. Unda Orol dengizining qurishi bilan bog‘liq vaziyat yomonlashib borayotgani va kelajakdagi oqibatlar haqida ogohlantirildi [5]. Mualliflar taklif etilgan choralar Amudaryoning quyi oqimidagi barcha kollektor suvlarini va sanitariya maqsadidagi suvlarni dengizga yo‘naltirish orqali yirik chorvachilik va baliqchilik majmualarini rivojlantirish imkoniyatini berishini ta’kidladilar.

O‘sha yili S.K.Kamalov rahbarligidagi Qoraqalpog‘iston olimlari guruhi L.I.Brejnevga yana maktub yo‘llaydi. Unda ekologik halokat oqibatlari tasvirlanib, maishiy ehtiyojlar uchun chuchuk suv yetishmasligi tufayli turmush sharoitlari yomonlashgani, “ko‘plab aholi o‘zlarining ko‘nikkan joylarini tark etib, yangi hududlarga ko‘chishga majbur bo‘layotgani” ta’kidlangan [6]. Xat partiyaning XXVI syezdi arafasida yozilgan bo‘lib, unda Orol muammosi butun dunyoga ma’lum bo‘lishiga umid bildirilgan edi.

Shunga o‘xshash xat partiya plenumi (1982-yil) arafasida tayyorlanib, S. Kamalov, Ch.Abdirov va L. Konstantinova tomonidan imzolangan edi [7].

Keyingi yillarda ham Qoraqalpog‘iston olimlari tomonidan yozilgan murojaatlar davom etdi. Xususan, 1984-yilda oddiy fuqarolar tomonidan, 1985–

1986-yillarda esa olimlarning ilmiy asoslangan ma’ruzalari va xatlari orqali Orol muammosi qayta-qayta ko’tarildi.

1984-yilda KPSS Markaziy Qo‘mitasi Bosh kotibi K.U. Chernenko nomiga Mo‘ynoqda tug‘ilgan M.P.Grechushkadan maktub kelgan [8]. U Orolning murakkab taqdiri haqida so‘zlab, shunday yozadi: “Orolga suv oqimining to‘xtatilishi juda katta zarar keltirdi, bu sug‘orishni ko‘paytirishdan davlatga keladigan foyda esa ahamiyatsiz. Baliqchilik, ov xo‘jaliklari va umuman mintaqaviy ekologik muvozanatni saqlash barbod bo‘ldi... Barcha umidim Sizdandir, chunki men turli idoralar, suv va baliq xo‘jaligi vazirliklariga murojaat qilganman, ammo ular bu masala bilan umuman shug‘ullanishmayapti”.

Qandaydir yo‘l bilan bu maktub K.U.Chernenkoga yetib borgan va akademik I.P.Gerasimovga jo‘natilgan. Gerasimov o‘z fikrida maktub muallifining nuqtayi nazarini qo‘llab-quvvatlagan. Biroq, afsuski, muallifning hamda uning harakatlarining keyingi taqdiri haqida bizga hech narsa ma’lum emas.

1985-yilda S.Qobulov O‘zbekiston Kompartiyasi Qoraqalpog‘iston viloyat qo‘mitasiga “Orol dengizi qurishining salbiy oqibatlari, Orolbo‘yining antropogen cho‘llanishi va Amudaryo suvinining ifloslanishi to‘g‘risida” ma’ruza xati yozadi. Siyosiy intilishlardan yiroq bo‘lgan mutaxassis olim sifatida u dengizning qurishi bilan bog‘liq vaziyatning butun murakkabligi va xavfini ochiq-oydin bayon etadi. Jumladan, u shunday ko‘rsatadi: “Orol dengizining qurigan tubidan shamol orqali ko‘chiriladigan tuzlar o‘simliklarga zarar yetkazishi hamda sug‘oriladigan dalalar, o‘rmon va suv havzalarida deyarli to‘liq to‘planib, ularning sho‘rlanish darajasini oshirishi mumkin”. Shu bilan birga, “bu joylar sutemizuvchilar, ayniqsa, o‘lat tarqatuvchi kemiruvchilarning yashash maskaniga aylanib qolgan” [9].

Ma’ruza yuqori ilmiy darajada, Orolbo‘yi mintaqasiga aloqador vazirlik va idoralarning materiallaridan foydalangan holda tuzilgan. Jumladan, S.Qobulov shunday yozadi: “SANIIRI Qoraqalpog‘iston bo‘limining ma’lumotlariga ko‘ra, hozirgi kunda avtonom respublikada qishloq xo‘jaligi ekinlaridan rejalashtirilgan hosilni olish paxtachilik hududida 10–12 ming m^3 /ga, sholichilik hududida esa 35–40 ming m^3 /ga miqdorida katta hajmdagi suv sarfi evaziga amalga oshirilmoqda. Bu esa mazkur hudud uchun tavsiya etilgan me’yordan qariyb ikki barobar ko‘pdir”. Shu bilan birga, olim ta’kidlaydi: «QQASSR sharoitida 1 sentner paxta hosili uchun bunday yuqori solishtirma suv sarfining (900–1000 m^3) asosiy sabablaridan biri irrigatsiya-melioratsiya tizimlarining zamonaviy darajasi pastligidir”. U paxtachilik xo‘jaliklari hududidagi ichki xo‘jalik tarmog‘ini kompleks qayta tashkil etishni taklif qiladi. Bu har gekardan 3500–3800 m^3 yoki

butun respublika bo'yicha yiliga taxminan 1 mlrd. m³ suvni tejash imkonini beradi.

1985-yil may oyida O'zSSR FA Qoraqalpog'iston filiali olimlari guruhi, jumladan S. Kamalov, Ch. Abdirov, S. Qobulov, L.G. Konstantinova, I.M. Joldasova, A.A. Yurits SSSR Oliy Kengashi deputati, SSSR melioratsiya va suv xo'jaligi vaziri N.F. Vasilevga xat bilan murojaat qildi [9]. Ittifoq vazirliklari va idoralarining Orol dengizi muammolarini hal etishdagi sustkashligiga e'tibor qaratgan holda, mualliflar "shu orada Amudaryo deltasida ekologik tizimlarning degradatsiya jarayonlari qaytarilmas tus olganini" ta'kidladilar. Xatda qayd etilishicha, mazkur vazirlik tomonidan Orolbo'yida kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirishni tezlashtirishda ko'maklashish zarur bo'lib, bu Amudaryoga kollektor-drenaj suvlarini tashlashni to'liq to'xtatishni hamda Orol dengiziga xalq xo'jaligida foydalanish mumkin bo'lmagan barcha toifadagi suvlarni yo'naltirishni nazarda tutadi.

1986-yil yanvar oyida akademik S.K.Kamalov Turkmaniston FA prezidenti, SSSR FA muxbir a'zosi A.G. Babayev hamda O'zbekiston FA prezidenti, SSSR FA muxbir a'zosi P.K. Xabibullayevga kollektor-drenaj suvlarining Amudaryoga qo'shilishi natijasida chuchuk yer osti suvlarining minerallashuvi masalasi bo'yicha xat bilan murojaat qiladi [9]. Unda daryo havzasidagi barcha kollektor-drenaj suvlarini maxsus kollektorlar orqali Orol dengizi tomon yo'naltirish yo'li bilan Amudaryoda suvning tozaligini saqlab qolish taklif etiladi.

A.G. Babayev o'zining javob xatida S.K. Kamalov tomonidan ko'tarilgan masalani to'liq qo'llab-quvvatlab, "afsuski, olimlarning Orol dengizi taqdiri haqidagi tashvishi hamda ular tomonidan ushbu noyob suv havzasini saqlab qolish bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar tegishli darajada qo'llab-quvvatlanmadi", deya ta'kidlaydi [10].

Qoraqalpog'iston olimlarining hujjatlari, murojaatlari va xatlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, Orol muammosi mintaqa ilmiy ziyolilari tomonidan xalqaro miqyosda keng e'tirof etilishidan ancha oldin anglab yetilgan. 1970-yillarning oxirlaridanoq qoraqalpoq olimlari Orol ekologik halokati masalasini muntazam ko'tarib, uning oldini olish va oqibatlarini yumshatish bo'yicha ilmiy asoslangan aniq choralar taklif etib kelganlar.

Mazkur hujjatlar olimlarning e'tibori nafaqat ekologik, balki ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga ham qaratilganini ko'rsatadi. Aholi turmush sharoitining yomonlashuvi, migratsiya jarayonlari, qishloq xo'jaligining tanazzuli, kasalliklarning ko'payishi va Orolbo'yi hududida ekologik muvozanatning buzilishi ularning doimiy tashvish mavzusi bo'lgan.

Shu bilan birga, yozishmalar tahlili ittifoq vazirliklari va markaziy hokimiyat organlari tomonidan olimlar tashabbuslarining tizimli ravishda e'tiborsiz qoldirilganini ko'rsatadi. Natijada Orol dengizi inqirozining oldini olish yoki oqibatlarini yumshatish mumkin bo'lgan imkoniyatlar boy berildi. Qoraqalpog'iston tajribasi tabiatdan foydalanishda ilmiy tavsiyalarni e'tiborsiz qoldirish Markaziy Osiyo taraqqiyotining hozirgi bosqichi uchun ham dolzarb bo'lgan uzoq muddatli ekologik, ijtimoiy va siyosiy oqibatlarga olib kelishini yaqqol namoyon etadi.

FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Davletov S.R. XX asr ikkinchi yarmi – XXI asr boshida O'zbekistondagi ekologik vaziyat va uning ijtimoiy muammolari: Tarix fanlari doktori dissertatsiyasi avtoreferati. – T.: O'zMU, 2018-yil.
2. Micklin, P. P. (1988). *Desiccation of the Aral Sea: A Water Management Disaster in the Soviet Union*. *Science*, 247(4870-), 1170.
3. Bekimbetov B.M. Ўзбекистан Республикасының Арал ҳам Арал бойы экологиялық машқалаларын сапластырыў жолындағы сиясаты. Нөкис, “ILIMPAZ”, 2025-yil, 6-b.
4. O'zSSR FA Qoraqalpog'iston filiali joriy arxivi ma'lumoti, 1978-yil.
5. O'zSSR FA Qoraqalpog'iston filiali joriy arxivi, 1979-yil.
6. O'zSSR FA Qoraqalpog'iston filiali joriy arxivi, 1980-yil.
7. O'zSSR FA Qoraqalpog'iston filiali joriy arxivi, 1982-yil.
8. Akademik S.K. Kamalovning shaxsiy uy arxivi.
9. O'zSSR FA Qoraqalpog'iston filiali joriy arxivi, 1985-yil.
10. O'zSSR FA Qoraqalpog'iston filiali joriy arxivi, 1986-yil.

TARIX

O‘ZBEKISTON TARIXIDA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLARI FAOLIYATINING O‘RGANILISH TARIXI



**Boboqulova
Xurshida,
SamDChTI
“Gumanitar fanlar
va axborot
texnologiyalari”
kafedrasi dotsenti**

UO‘K 93 (24)

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston tarixida nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) faoliyatining shakllanishi va rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, NNTlar dastlab ijtimoiy birdamlik va jamoaviy yordam institutlari sifatida vujudga kelgan, keyinchalik esa ta’lim, sog‘liqni saqlash, ijtimoiy himoya va xayriya faoliyatida muhim rol o‘ynagan.

Аннотация: В статье анализируется формирование и развитие деятельности неправительственных некоммерческих организаций (ННО) в истории Узбекистана. Исследования показывают, что ННО изначально возникали как институты социальной солидарности и коллективной помощи, а позднее играли важную роль в сфере образования, здравоохранения, социальной защиты и благотворительности.

Annotation: The article examines the formation and development of non-governmental non-profit organizations (NGOs) in the history of Uzbekistan. Studies indicate that NGOs initially emerged as institutions of social solidarity and collective assistance, later playing a significant role in education, healthcare, social protection, and charitable activities.

Kalit so‘zlar: Nodavlat notijorat tashkilotlari, O‘zbekiston tarixi, ijtimoiy rivojlanish, xayriya, gumanitar faoliyat, fuqarolik jamiyati, inklyuziya, ijtimoiy birdamlik.

Ключевые слова: Неправительственные некоммерческие организации, история Узбекистана, социальное развитие, благотворительность, гуманитарная деятельность, гражданское общество, инклюзия, социальная солидарность.

Key words: Non-governmental organizations, Uzbekistan history, social development, charity,

humanitarian activity, civil society, inclusion, social solidarity.

O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) faoliyatining shakllanishi va rivojlanishini o‘rganish jarayoni mamlakatda fuqarolik jamiyati institutlarining qaror topishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mustaqillik yillarining dastlabki bosqichlarida ijtimoiy hayotni demokratlashtirish, fuqarolarning tashabbuskorligini qo‘llab-quvvatlash hamda jamiyat boshqaruvida davlatdan tashqari institutlarning rolini kuchaytirish zarurati NNTlar faoliyatini huquqiy va nazariy jihatdan asoslashni taqozo etdi. Xususan, 1990-yillarning oxirlariga kelib nodavlat notijorat tashkilotlarini tartibga soluvchi maxsus huquqiy mexanizmlarning yaratilishi ushbu sohaning ilmiy jihatdan o‘rganilishiga ham turtki bo‘ldi. Bu davrda NNTlar jamiyatning ijtimoiy, madaniy, ma‘rifiy va xayriya ehtiyojlarini qondiruvchi muhim institut sifatida e‘tirof etila boshladi. Ularning faoliyati nafaqat fuqarolarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, balki ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlash, davlat va jamiyat o‘rtasida vositachilik funksiyasini bajarish bilan ham izohlandi.¹

Keyingi bosqichda, ya‘ni 2000 - 2010-yillar davomida NNTlar faoliyatini o‘rganish masalasi yanada tizimli tus oldi. Ilmiy tadqiqotlarda nodavlat sektorning tashkiliy-huquqiy shakllari, davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlari, ijtimoiy foydali dasturlarni amalga oshirishdagi o‘rni tahlil qilindi. Bu davrda NNTlar faoliyatiga faqat ijtimoiy yordam ko‘rsatuvchi subyekt sifatida emas, balki jamiyatni o‘zini o‘zi boshqarish mexanizmlarini mustahkamlovchi institut sifatida qarash tendensiyasi shakllandi. 2010-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, xususan, yangi bosqichdagi islohotlar davrida NNTlar faoliyatini o‘rganish masalasi yangi mazmun bilan boyidi.² Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish, ijtimoiy sheriklikni kuchaytirish, davlat va jamoatchilik hamkorligini yo‘lga qo‘yish masalalari ilmiy izlanishlarning markaziga chiqdi. NNTlarning inson huquqlari, ijtimoiy himoya, ta‘lim, sog‘liqni saqlash va gumanitar sohalaridagi faoliyati ularning jamiyat taraqqiyotidagi strategik ahamiyatini ko‘rsatib berdi.

Shu tariqa, O‘zbekiston tarixida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini o‘rganish jarayoni bosqichma-bosqich rivojlanib, dastlab huquqiy asoslarni shakllantirish, keyinchalik institutsional rivojlanish va hozirgi kunda esa ularning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faol subyekt sifatidagi rolini tahlil qilish yo‘nalishida takomillashib bordi. Bu esa NNTlarni zamonaviy O‘zbekiston

¹ Ergashov. O‘zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Oliy ta‘lim muassasalari talabalari uchun darslik. Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxonasi “Navro‘z” nashriyoti. **2005**.

² Saidov A.X. Fuqarolik jamiyati institutlari va huquqiy davlat. –“Adolat”, Toshkent.: **2010**.

fuqarolik jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi sifatida ilmiy jihatdan asoslash imkonini bermoqda.

O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) faoliyatini o‘rganish tarixi avvalo ularning huquqiy maqomi va jamiyatdagi o‘rnini belgilab bergan normativ-huquqiy asoslarning shakllanishi bilan bog‘liqdir. Mustaqillik yillarida jamiyatni demokratlashtirish, fuqarolarning ijtimoiy faolligini oshirish va davlat hamda jamiyat o‘rtasida muvozanatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish zarurati nodavlat sektor faoliyatini huquqiy jihatdan tartibga solishni taqozo etdi. Shu nuqtai nazardan, 1999-yil 14-aprelda qabul qilingan “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni muhim tarixiy burilish nuqtasi sifatida ahamiyat kasb etdi. Ushbu Qonun NNTlarning tushunchasi, maqsadi, huquqiy maqomi, huquq va majburiyatlari hamda davlat organlari bilan o‘zaro munosabatlarning asosiy tamoyillarini belgilab berdi. Shu normativ-huquqiy hujjat NNTlarni daromad olishni asosiy maqsad qilmagan, o‘zini o‘zi boshqaruvchi va ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshiruvchi mustaqil institut sifatida e‘tirof etdi.¹

Qonunning qabul qilinishi NNTlar faoliyatini ilmiy o‘rganishda yangi bosqichni boshlab berdi. Dastlabki tadqiqotlarda NNTlarning huquqiy tabiati, tashkiliy - huquqiy shakllari (jamoat birlashmalari, jamoat fondlari, muassasalar), shuningdek, ularning ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy vazifalari tahlil qilindi. Bu davrda ilmiy yondashuvlar asosan huquqshunoslik va davlat boshqaruvi doirasida shakllanib, NNTlar faoliyati davlat siyosatini to‘ldiruvchi mexanizm sifatida baholandi.

2002-yillarda “Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi Qonunning amaliyotda tatbiq etilishi NNTlarning jamiyat hayotidagi real ishtirokini sezilarli darajada kuchaytirdi va bu jarayon ilmiy tadqiqotlarda ham o‘z aksini topdi. Shu davrda NNTlarning davlat organlari bilan o‘zaro hamkorligi, ijtimoiy foydali dasturlarni amalga oshirishdagi roli, shuningdek, ularning faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda davlat tomonidan taqdim etilayotgan huquqiy kafolatlar masalalari chuqurroq o‘rganila boshlandi. Qonunda belgilangan davlatning NNTlar faoliyatiga aralashmaslik tamoyili esa ularning mustaqil institut sifatida rivojlanishiga zamin yaratdi.² 2010-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab, xususan Qonunga kiritilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar fonida, NNTlar faoliyatini o‘rganish yanada kompleks xarakter kasb etdi. Ilmiy adabiyotlarda NNTlar fuqarolik jamiyatining institutsional poydevori, ijtimoiy sheriklik

¹ <https://lex.uz/docs/-11360>

² “Nodavlat notijorat tashkilotlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasining Qonuniga sharh. - Toshkent.: 2002. B: 14.

subyekt va inson huquqlari hamda jamiyat manfaatlarini himoya qiluvchi muhim mexanizm sifatida talqin qilina boshlandi.¹ Shu bosqichda NNTlarning xalqaro aloqalari, grantlar va xayriya mablagʻlari bilan ishlash mexanizmlari, shuningdek, ularning ochiqlik va hisobdorlik masalalari alohida tadqiqot obyekti sifatida eʼtiborga olindi.

Xususan, Oʻzbekiston tarixida faoliyat yuritayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari (NNTlar) davlat muassasalaridan mustaqil tarzda faoliyat olib boruvchi, ijtimoiy, siyosiy, madaniy, huquqiy va ekologik maqsadlarni amalga oshirishga yoʻnaltirilgan institutlar hisoblanadi. Ushbu tashkilotlar jamiyat manfaatlarini ifodalash, jamoatchilik fikrini shakllantirish hamda davlat va fuqarolar oʻrtasida vositachilik vazifasini bajarish orqali fuqarolik jamiyatining muhim boʻgʻini sifatida namoyon boʻladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari oʻz faoliyatini lobbichilik, ishontirish va ijtimoiy tashabbuslar orqali amalga oshirib, zarur mutaxassis va koʻngillilarni jalb etadi. Ular asosan xayriya mablagʻlari, aʼzolik badallari va grantlar hisobiga faoliyat yurituvchi notijorat tuzilmalardir. Oʻzbekistonda NNTlar jamgʻarma, uyushma, fond va palata shaklida tashkil etilib, jamiyatga foydali xizmatlar koʻrsatish hamda aholining turli qatlamlariga yordam berishni maqsad qilgan yuridik shaxslar sifatida faoliyat olib boradi.²

NNTlar davlat boshqaruvi tizimidan mustaqil boʻlib, fuqarolar, jamoat birlashmalari yoki xususiy tashabbuslar asosida tashkil etiladi. Ularning asosiy maqsadi foyda olish emas, balki ijtimoiy, maʼnaviy va madaniy vazifalarni amalga oshirishdan iboratdir. Shu jihatdan, nodavlat notijorat tashkilotlari inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ijtimoiy adolatni taʼminlash hamda jamoatchilik manfaatlarini ilgari surishda muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻzbekiston jamiyatida NNTlarning faoliyati tarixiy ahamiyatga ega boʻlib, ular fuqarolarni ijtimoiy hayotda faol ishtirok etishga undaydi, jamoatchilik nazorati va fikrini shakllantirishga xizmat qiladi.³ Xususan, taʼlim, ekologiya, sogʻliqni saqlash, nogironligi boʻlgan shaxslarni qoʻllab-quvvatlash hamda qashshoqlikni kamaytirish sohalarida NNTlar davlatga samarali koʻmaklashib kelmoqda. Shuningdek, ular shaffoflikni taʼminlash va korrupsiyaga qarshi kurash jarayonlarida ham faol ishtirok etmoqda. Oʻzbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati “Nodavlat notijorat tashkilotlari toʻgʻrisida”gi Qonun asosida tartibga solinadi. Ushbu huquqiy hujjatda NNTlarning erkin

¹ Gʻafurov Q. Q. Oʻzbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishda ayrim qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish masalalari. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 4 / ISSUE 5 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ. B: 1314 – 1317.

² https://uz.wikipedia.org/wiki/Nodavlat_notijorat_tashkilot

³ Xolmanova D.R. Oʻzbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoat birlashmalari tizimidagi oʻrni.: Yuridik fanlar nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent.: 2012.

faoliyat yuritishi uchun zarur kafolatlar belgilangan bo'lib, davlat va nodavlat sektor o'rtasida ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish mexanizmlari mustahkamlangan.

Mustaqillikdan keyingi davrda NNTlar O'zbekistonning demokratik rivojlanishida va fuqarolik jamiyatining shakllanishida muhim o'rin egalladi. Ular jamiyatning turli qatlamlari manfaatlarini ifodalash, dolzarb ijtimoiy muammolarni aniqlash va ularni hal etishda faol ishtirok etib kelmoqda. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi islohotlar natijasida nodavlat notijorat tashkilotlarining huquqiy maqomi mustahkamlanib, ularning faoliyatini qo'llab-quvvatlash mexanizmlari kengaydi.¹ Xulosa qilib aytganda, nodavlat notijorat tashkilotlari O'zbekiston tarixida jamiyatni rivojlantirish, fuqarolik jamiyatini mustahkamlash va davlat hamda jamiyat o'rtasidagi ijtimoiy sheriklikni kuchaytirishda muhim institutsional ahamiyat kasb etadi. Ularning tarixini o'rganish va faoliyatini tahlil qilish mamlakatda demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish uchun muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ergashov. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Oliy ta'lim muassasalari talabalari uchun darslik. Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxonasi "Navro'z" nashriyoti. 2005.
2. Nodavlat notijorat tashkilotlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasining Qonuniga sharh. - Toshkent.: 2002.
3. Saidov A.X. Fuqarolik jamiyati institutlari va huquqiy davlat. –“Adolat”, Toshkent.: 2010
4. Saidov A.X. Fuqarolik jamiyati nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.: 2018
5. G'afurov Q. Q. O'zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatini rivojlantirishda ayrim qonunchilik hujjatlarini takomillashtirish masalalari. International scientific journal «MODERN SCIENCE AND RESEARCH» VOLUME 4 / ISSUE 5 / UIF:8.2 / MODERNSCIENCE.UZ. B: 1314 – 1317.
6. Xolmanova D.R. O'zbekiston Respublikasida nodavlat notijorat tashkilotlarining jamoat birlashmalari tizimidagi o'rni.: Yuridik fanlar nomzodlik dissertatsiyasi. – Toshkent.: 2012.
7. <https://lex.uz/docs/-11360>
8. https://uz.wikipedia.org/wiki/Nodavlat_notijorat_tashkilot

¹ Saidov A.X. Fuqarolik jamiyati nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.: 2018.

TARIX**O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH VA XOTIN-QIZLARING JAMIYATDAGI ROLI****UO'K 305.364.6**

**Nurullayeva
Kuvonch,
Urganch innovatsion
universiteti
o'qituvchisi**



**Raxmonova Surayyo,
Urganch innovatsion
universiteti
magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash yo'lidagi so'nggi yillarda amalga oshirilgan chora-tadbirlar va xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rni haqidagi tahlillar keltirilgan. Maqolada gender atamasining ilmiy kontekstdagi rivoji, O'zbekistonda ayollarning siyosiy, iqtisodiy, ta'lim va diplomatik sohalarda qo'shgan hissalari haqida so'z yuritilgan.

Аннотация: В данной статье представлен анализ мер, принятых в последние годы для обеспечения гендерного равенства в Узбекистане, и роли женщин в обществе. В статье рассматривается развитие термина «гендер» в научном контексте, а также вклад женщин в Узбекистане в политической, экономической, образовательной и дипломатической сферах.

Annotation: This article presents an analysis of the measures taken in recent years to ensure gender equality in Uzbekistan and the role of women in society. The article discusses the development of the term gender in the scientific context, and the contributions of women in Uzbekistan in the political, economic, educational, and diplomatic spheres.

Kalit so'zlar: gender tenglik, xotin-qizlar, ijtimoiy taraqqiyot, iqtisodiy o'sish, diplomatik faoliyat, O'zbekiston, Prezident farmonlari, ta'lim, davlat boshqaruvi, ayollar huquqlari.

Ключевые слова: гендерное равенство, женщины, социальное развитие, экономический рост, дипломатическая деятельность, Узбекистан, президентские указы, образование, государственное управление, права женщин.

Key words: gender equality, women, social development, economic growth, diplomatic activity, Uzbekistan, presidential decrees, education, public administration, women's rights.

1968-yilda amerikalik psixolog Robert Stoller tomonidan ilmiy doiraga kiritilgan “gender” atamasi, aslida “jins” degan ma’noni bildiradi. Garchi jinsiy munosabatlar psixologiya sohasida ilgari ham o’rganilgan bo’lsa-da, yangi atamaning paydo bo’lishi ijtimoiy fanlarda yangi yo’nalishlarning rivojlanishiga turtki bo’ldi[1]. “Gender” tushunchasi erkak va ayol, o’g’il va qiz bolalar o’rtasidagi munosabatlarning pedagogik va ijtimoiy-psixologik jihatlarini o’rganish, shuningdek, jamiyatning madaniy-ma’rifiy darajasini boyitish maqsadida ishlatiladi[3]. O’zbekiston taraqqiyotida ayollarning roli har doim muhim bo’lib, ularning mamlakatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy hayotidagi o’rni doimiy ravishda o’zgarib bormoqda. Ayniqsa, so’nggi yillarda ayollarning mamlakat rivojiga qo’shgan hissasi sezilarli darajada oshdi, bu o’zgarishlar gender tengligini ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlar orqali amalga oshirilmoqda.

Gender tengligi barqaror rivojlanish sohasidagi xalqaro kun tartibining muhim strategik yo’nalishlaridan biri bo’lib, u inson huquqlarini to’liq ta’minlashning ajralmas sharti hisoblanadi. Mazkur tamoyil erkaklar va ayollar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlanmagan sharoitda inson huquqlaridan to’laqonli foydalanish mumkin emasligi haqidagi konseptual yondashuvga asoslanadi. Gender tengligi prinsipi bugungi kunda ko’plab xalqaro hujjatlar, milliy konstitutsiyalar va normativ-huquqiy hujjatlarda mustahkam o’rin egallagan.

O’zbekiston Respublikasida gender tengligini ta’minlash, xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish hamda ularning jamiyatdagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish borasida tizimli va izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. So’nggi yillarda ayollarning jamiyat hayotidagi o’rni va nufuzini mustahkamlashga qaratilgan bir qator xalqaro standartlarga mos keluvchi qonun hujjatlari va davlat dasturlari joriy etildi. Xususan, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining xotin-qizlarni qo’llab-quvvatlash hamda oila institutini mustahkamlashga qaratilgan farmon va qarorlari ushbu yo’nalishdagi islohotlarning huquqiy asosini yanada mustahkamladi.

2019-yil 2-sentyabrda O’zbekiston tarixida ilk bor “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to’g’risida”[5]gi Qonunning qabul qilinishi gender tengligini ta’minlash borasidagi muhim qadam bo’ldi. Mazkur qonun Inson huquqlari bo’yicha milliy markaz, Xotin-qizlar qo’mitasi hamda Adliya vazirligi mutaxassislarining bevosita ishtirokida ishlab chiqilgan bo’lib, jamiyat hayotining barcha sohalarida erkaklar va ayollar uchun teng huquq va imkoniyatlarni yaratishga xizmat qiladi. Qonunda gender tengligi tushunchasi, ayollarni kamsitish shakllari, vakolatli organlarning vazifalari,

davlat boshqaruvida ishtirok etish, mehnat munosabatlari, tadbirkorlik faoliyati va moliyaviy resurslardan foydalanishda tenglikni ta'minlashga oid normalar hamda ushbu tenglik buzilishining oldini olish mexanizmlari belgilab berilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida oila institutini mustahkamlash kontsepsiyasi qabul qilinib, uni amaliyotga tatbiq etish maqsadida "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazi qayta tashkil etildi. Natijada oilaviy munosabatlarni kompleks o'rganish, monitoring qilish, tahlil etish va ilmiy tadqiqotlar asosida oila farovonligini oshirishga qaratilgan yangi tizim shakllantirildi.

Bundan tashqari, Xotin-qizlar qo'mitasi va uning hududiy bo'linmalari faoliyati tubdan takomillashtirilib, ularning vakolatlari kengaytirildi hamda samarali faoliyat yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratildi. Qo'mita huzurida "Huquqshunos ayollar", "Ilm-fan va ayol", "Ijodkor ayollar", "Tashabbuskor ayollar", "Ayol va salomatlik", "Faxriy ayollar" kabi jamoatchilik tuzilmalari tashkil etildi[2]. Ijtimoiy faol ayollarni rahbarlik lavozimlariga tayyorlash, ularning kasbiy salohiyati va malakasini oshirishga qaratilgan tizimli mexanizmlar joriy etilmoqda.

Ushbu maqolada O'zbekiston va global kontekstda gender tenglikni ta'minlash borasidagi ijtimoiy va iqtisodiy tadbirlar, shuningdek, ayollarning siyosiy va diplomatik faoliyatidagi o'rni tahlil etiladi. Tadqiqotda mavjud ilmiy adabiyotlar, O'zbekiston Prezidentining qaror va farmonlari, davlat statistikalari va xotin-qizlarning jamiyatdagi roli bo'yicha o'tkazilgan so'nggi tadqiqotlar asosida tahliliy usuldan foydalanilgan. Tadqiqot jarayonida gender tenglikni ta'minlash bo'yicha olib borilgan siyosat va jamoat tashkilotlari tomonidan amalga oshirilgan chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi.

O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash uchun bir qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan "Xotin-qizlarning mehnat huquqlarini yanada kafolatlash va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida"[5] qaror qabul qilindi. Ushbu qaror, xotin-qizlarning iqtisodiy faolliklarini oshirish va ularni tadbirkorlikda qo'llab-quvvatlashga qaratilgan. Boshqa tomondan, Oliy Majlis Senatida Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari qo'mitasi tashkil etilib, jamiyatda ayollarning o'rnini yanada mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Shuningdek, O'zbekistonda xotin-qizlarning ta'lim olishidagi imkoniyatlar ham kengaytirildi. Prezidentning magistraturada o'qiyotgan xotin-qizlarning kontrakt asosidagi to'lovlarini davlat budjetidan qoplashga doir qarori xotin-qizlarning ta'lim olishidagi imtiyozlarini kengaytirgan. Bu orqali, xotin-qizlarning oliy ta'lim olishga bo'lgan imkoniyatlari oshdi va ular o'zlari uchun yangi kasbiy yo'nalishlarda faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo'ldi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Birlashgan Millatlar Tashkilotining Inson huquqlari bo‘yicha kengashining 46-sessiyasida so‘zlagan nutqida mamlakatimizda gender siyosatini izchil amalga oshirish masalalariga alohida to‘xtalib, ayollarning ijtimoiy-siyosiy hayot hamda ishbilarmonlik sohasidagi ishtirokini tubdan oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar qat’iy davom ettirilishini ta’kidlagan edi [5].

Bugungi kunda mamlakatimizda turli soha va tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan ishchi va xizmatchilarning qariyb 45 foizini xotin-qizlar tashkil etadi. Davlat va jamoat tashkilotlari tizimida esa 1400 ga yaqin ayol rahbarlik lavozimlarida samarali faoliyat olib bormoqda. Jumladan, 17 nafar ayol O‘zbekiston Respublikasi Senati a‘zosi, 16 nafari Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati bo‘lib, 1075 nafari xalq deputatlari mahalliy Kengashlari tarkibida faoliyat yuritmoqda[7].

Shuningdek, 500 nafardan ortiq ayollar fan doktorlari va akademiklar safida bo‘lib, minglab fan nomzodlari o‘zlarining ilmiy salohiyati va kasbiy mahorati bilan mamlakat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shib kelmoqda. Mustaqillik yillarida 2180 nafardan ziyod xotin-qizlar yuksak davlat mukofotlari bilan taqdirlangan[8]. Onalik va bolalikni muhofaza qilish, yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash yo‘lidagi samarali faoliyati uchun xotin-qizlarni rag‘batlantirish maqsadida “Mo‘tabar ayol” nishoni ta’sis etilgan[4].

Xotin-qizlarning tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish, ularni biznes yuritishga jalb etish, zamonaviy kasblarga o‘qitish hamda ish bilan ta’minlashga ko‘maklashish maqsadida Xotin-qizlar tadbirkorlik markazlari faoliyati yo‘lga qo‘yilmoqda. Mazkur yo‘nalishdagi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash choralari natijasida 2014–2016-yillar davomida tijorat banklari tomonidan xotin-qizlarga tadbirkorlik faoliyati uchun jami 3 trillion 800 milliard so‘m kredit ajratilgan bo‘lsa, 2018-yilning o‘zida ushbu ko‘rsatkich 3 trillion 361 milliard so‘mni tashkil etdi[6].

Bundan tashqari, O‘zbekistonda Xotin-qizlarni va oilani har tomonlama qo‘llab-quvvatlash jamoat fondi tashkil etilib, uning mablag‘lari kam ta’minlangan hamda uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj oilalarga uy-joy sotib olish uchun ajratiladigan kreditlarning boshlang‘ich badallarini qoplashga yo‘naltirilmoqda.

Mazkur qarorlar, farmonlar va davlat dasturlarining asosiy maqsadi mamlakatimizda gender tengligini ta’minlash bo‘yicha tizimli islohotlarni amalga oshirish hamda ushbu sohada yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan salbiy holatlarning oldini olishdan iboratdir. Ushbu jarayonlar qisqa muddatda amalga oshiriladigan

chora-tadbirlar emas, balki izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar majmuasi hisoblanadi.

So‘nggi yillarda gender tenglikni ta‘minlashga qaratilgan chora-tadbirlar, ayniqsa, ayollarning iqtisodiyot, siyosat, ta‘lim va jamiyat hayotidagi o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekistonda ayollarning iqtisodiy va diplomatik aloqalardagi ishtiroki ortib bormoqda. Statistika shuni ko‘rsatadiki, diplomat sifatida faoliyat yuritayotgan ayollar ulushi dunyo bo‘ylab 20,54% ni tashkil etadi[7]. O‘zbekistonda ham ayollar elchixona va konsulliklarda faoliyat yuritmoqda, va ularning soni sezilarli darajada oshgan.

Shuningdek, O‘zbekistonda ayollar boshqarayotgan kichik va o‘rta korxonalar soni 2023-yil holatiga ko‘ra, 39,1 mingdan oshdi[6]. Bu esa nafaqat ayollarning iqtisodiy faoliyatdagi o‘rnini mustahkamlash, balki umumiy iqtisodiy rivojlanishga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. O‘zbekiston Prezidenti tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar ayollarning jamiyatdagi o‘rnini oshirish, ularning huquqlarini kengaytirish va gender tenglikni ta‘minlashga xizmat qilmoqda.

O‘zbekistonda gender tenglikni ta‘minlash va xotin-qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlash bo‘yicha so‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar, mamlakat taraqqiyotining muhim qismlariga aylangan. Xotin-qizlar faolligining o‘sishi, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy hayotga qo‘shgan hissalar nafaqat jamiyatning barqaror rivojlanishiga, balki xalqaro miqyosda ham O‘zbekistonning o‘rnini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. O‘zbekiston hukumati tomonidan gender tenglikni ta‘minlash maqsadida qabul qilingan bir qator farmonlar va qarorlar ayollarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan. Masalan, xotin-qizlarning mehnat huquqlarini kafolatlash va tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar, ular uchun ta‘lim olishda imtiyozlar yaratish, davlat boshqaruvida ayollarning ishtirokini oshirish kabi muhim qadamlardir.

Xotin-qizlar, ayniqsa, iqtisodiyot va diplomatiya sohalarida faol ishtirok etib, mamlakatning global aloqalarini rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqda. Bu jarayonda O‘zbekistonning xalqaro savdoda va diplomatik maydonda o‘z o‘rnini yanada mustahkamlashga yordam beruvchi ayollar rahbarligidagi kichik va o‘rta korxonalarning soni ham ortib bormoqda. Shuningdek, xotin-qizlarning yuqori lavozimlarda ishlashlari, jamiyatdagi gender tenglikning real amaliyotda shakllanayotganini ko‘rsatadi.

Bundan tashqari, ayollarning jamiyatdagi rolini kengaytirish, faqat milliy darajada emas, balki global miqyosda ham barqaror rivojlanish va tinchlikni ta‘minlashga xizmat qiladi. O‘zbekistonning global iqtisodiy va diplomatik aloqalarida ayollarning ishtiroki oshib borishi, bu mamlakatni xalqaro maydonda

yanada kuchli va nufuzli qilishga xizmat qiladi. Prezident tomonidan qabul qilingan strategiyalar va qarorlar, shuningdek, gender tenglikka erishish bo'yicha jahonning ilg'or tajribalaridan foydalanishni ko'zda tutadi.

Shu bilan birga, gender tenglikning rivojlanishida O'zbekistonning tarixiy tajribasi ham ahamiyatlidir. Ayollar tarixan nafaqat jamiyatni, balki davlat boshqaruvini shakllantirishda ham faol ishtirok etgan. Bugungi kunda esa, ayollarning davlat boshqaruvi va diplomatik sohalardagi roli yanada kengayib bormoqda. Bularning barchasi O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash va xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash borasida yuksak natijalarga erishilishiga imkon yaratmoqda.

Kelajakda, gender tenglikni yanada mustahkamlash, xotin-qizlarning huquq va imkoniyatlarini kengaytirish orqali, jamiyatdagi barcha qatlamlar uchun barqaror rivojlanish, iqtisodiy farovonlik va siyosiy barqarorlikka erishish imkoniyatlari yanada kengayadi. Shu ma'noda, O'zbekistonda gender tenglikni ta'minlash bo'yicha amalga oshirilayotgan islohotlar, mamlakatning har tomonlama rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gender munosabatlari nazariyasi va amaliyotga kirish. –Toshkent, “O'zbekiston”, 2007. – 98-b.
2. Gender tadqiqoti asoslari kursi xrestomatiyasi. –Toshkent, “O'zbekiston”. 2003.
3. Xoliqova.M., Ishanxanova.G., Po'latova Sh. Gender tengligi: g'oyadan qonunga qadar. – Toshkent: “Akademnashr”, 2021. – 207-b.
4. Yusupova N.J. Islomda ayol huquqlari. – Toshkent: “Bookmanyprint”, 2022. – 181-b.
5. www.lex.uz
6. www.stat.uz
7. www.yuz.uz
8. www.kun.uz

TARIX**O'ZBEKISTONDA TABIIY OBYEKTЛАRNING TARIXIY SHAKLLANISHI VA ULARNING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI O'RNI (Namangan viloyati misolida)****UO'K 305.364.6**

**Muminov Azizbek,
Yangi Asr Universiteti
Akademik bo'lim
boshlig'i, PhD, prof v.b**

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston hududidagi tabiiy obyektlarning tarixiy shakllanish jarayonlari hamda ularning zamonaviy turizm rivojlanishidagi o'rni Namangan viloyati misolida tahlil etilgan. Tadqiqot jarayonida tabiiy obyektlarning qadimgi davrlardan boshlab aholi xo'jalik faoliyati, rekreatsion ehtiyojlar va hududiy rivojlanishdagi roli ochib berildi.

Аннотация: В данной научной статье анализируются процессы исторического формирования природных объектов на территории Узбекистана и их роль в развитии современного туризма на примере Наманганской области. В ходе исследования раскрыта роль природных объектов, начиная с древнейших периодов, в хозяйственной деятельности населения, рекреационных потребностях и территориальном развитии региона.

Annotation: This scientific article analyzes the processes of historical formation of natural objects in the territory of Uzbekistan and their role in the development of modern tourism, using Namangan Region as a case study. The research reveals the role of natural objects, from ancient periods onward, in the economic activities of the population, recreational needs, and regional development.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, Namangan viloyati, tabiiy obyektlar, tarixiy shakllanish, tarixiy-geografik yondashuv, turizm rivoji, ekoturizm, rekreatsion resurslar, tabiiy landshaftlar.

Ключевые слова: Узбекистан, Наманганская область, природные объекты, историческое формирование, историко-географический подход, развитие туризма, экотуризм, рекреационные ресурсы, природные ландшафты.

Key words: Uzbekistan, Namangan Region, natural objects, historical formation, historical-

geographical approach, tourism development, ecotourism, recreational resources, natural landscapes.

O‘zbekiston hududi qadimdan tabiiy-geografik jihatdan rang-barangligi, noyob landshaftlari hamda boy tabiiy resurslari bilan ajralib kelgan. Tog‘ tizmalari, vodiylar, daryo havzalari, mineral suv manbalari va iqlim sharoitlarining xilma-xilligi tarixan aholi joylashuvi, xo‘jalik faoliyati hamda madaniy jarayonlarning shakllanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Ushbu tabiiy obyektlar asrlar davomida nafaqat iqtisodiy va ekologik ahamiyatga ega bo‘lib kelgan, balki bugungi kunda turizm sohasining rivojlanishida ham muhim resurs sifatida e’tirof etilmoqda. Respublikamizda turizm va uning (eko, agro, tarixiy, diniy, ekstremal) tarmoqlarida xizmat turlarini shakllantirish, hududlarning imkoniyatlarini hisobga olgan holda, turfirmalar sonini ko‘paytirish va ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish” hamda “odamlarning ekologik xavfsiz muhitda yashashini ta’minlash”[1] yuzasidan muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, jumladan, tabiiy sharoiti va ekotizimlari turlicha bo‘lgan Namangan viloyatida ekoturizmning hududiylik, davriylik va komplekslilik xususiyatlarini tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Namangan viloyati tabiiy-geografik joylashuvi jihatidan Farg‘ona vodiysining sharqiy qismida joylashib, o‘ziga xos tabiiy landshaftlar, tog‘ tizmalari, vodiylar, daryolar hamda shifobaxsh mineral suv manbalariga boy hudud hisoblanadi. Viloyat hududidagi Chust tumanidagi G‘ova, Sirdaryo va Norin daryosi bo‘ylari, Nanay, Rezaksoy va boshqa ekoturistik obyektlariga sayyohlarning tashrifi yildan-yilga ko‘payishini ekoturizm tarmog‘ining istiqboli ancha yuksalib borayotganligi bilan izohlash mumkin. Bugungi kunda ushbu tabiiy obyektlar ekologik, sog‘lomlashtirish va ekoturizm yo‘nalishlarida katta turizm salohiyatiga ega. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan davlat siyosati doirasida hududlarning tabiiy resurslaridan oqilona va barqaror foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda tabiiy obyektlarning tarixiy shakllanish bosqichlarini ilmiy asosda o‘rganish, ularning turizm rivojlanishidagi o‘rnini aniqlash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Mazkur ilmiy maqolada Namangan viloyati misolida tabiiy obyektlarning tarixiy shakllanish jarayonlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi o'rni hamda zamonaviy turizm rivojlanishidagi ahamiyati tarixiy-geografik yondashuv asosida tahlil qilinadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmning rivojlanishida tabiiy resurslar alohida o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining ekoturistik rayonlari va bu rayonlarning ekoturistik tavsifini A.Nig'matov va N.Shomuratovalar tomonidan mamlakat hududi o'n to'rt ekoturistik rayonga ajratilgan [2]. Namangan viloyati qo'shni hududga kiritilgan. Tadqiqotchi B.Kamolovning dissertasiyasida Namangan viloyati ekoturizmi haqidagi tadqiqotlar mintaqaviy turizm geografiyasi, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalariga e'tibor qaratilgan [3]. Namangan viloyatida ekoturizm obyektlarini shakllantirish, ularning faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadida Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish Davlat qo'mitasi tomonidan viloyatdagi ekologik landshaft hududlari o'rganib chiqilib, 10 ga yaqin ekoturizm maskanlari uchun joylar tanlandi. [4]. S. Hamidov o'z tadqiqotlarida viloyatdagi turistik obyektlar, ekologik hududlarning hozirgi holatiga qiziquvchi sayyohlarning soni yildan-yilga ortib borayotganligini statistik asosda yoritgan [5].

Mamlakatimizda ekoturizmning rivojlanish jarayonlari, uning ilmiy-nazariy asoslari va iqtisodiy, ijtimoiy, tabiiy-geografik jihatlarini ochib berish, to'plangan tarixiy tajriba asosida O'zbekiston tabiatining ekoturistik imkoniyatlarini aniqlash, tahlil qilish, ulardan oqilona foydalanish yo'llarini ko'rsatish dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Namangan viloyatida ham turizmning barcha tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida islohotlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda Namangan shahridagi Mulla bozor Oxun va Mulla Qirg'iz madrasalari, Pop tumanidagi Munchoqtepa tarixiy yodgorliklari, Chust tumanida Buonamozor, To'raqo'rg'on tumanidagi Axsikent tarixiy yodgorliklari va Chortoq tumanidagi "Qirq qiz ko'z yoshi" bulog'i qadamjolarini sayyohlik marshrutlariga kiritilishi orqali viloyatda turizm mashrutlari ko'payib bormoqda. Namangan viloyati tabiatining betakrorligi, maftunkorligi va turli-tumanligi barchamizga ma'lum. Bu ekoturistik rayonda turizmning barcha turlarini, jumladan, ekoturizmni rivojlantirishning juda katta salohiyatlari va imkoniyatlari bor. Keyingi yillarda boshqa sohalar qatori iqtisodiyotning muhim bo'g'iniga aylanib borayotgan turizmni rivojlantirish bo'yicha viloyatda har tomonlama kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqilgan. Jumladan, Chust tumanidagi G'ova, Sirdaryo va Norin daryosi bo'ylari, Nanay, Rezaksoy va boshqa ekoturistik obyektlariga sayyohlarning tashrifi yildan-yilga ko'payishi ekoturizm tarmog'ining istiqboli ancha yuksalib borayotganligi bilan izohlash mumkin.

Turizm taraqqiyotida viloyatning ichki turizmi ravnaq topgan bo'lib, sayyohlar asosan Andijon, Farg'ona, Toshkent, Samarqand va boshqa hududlardan keladi. Shuningdek, viloyatdagi arxeologik topilmalarni o'rganish maqsadida chet ellik sayyohlar ham tashrif buyurishadi. Chet ellik sayyohlarning ishonchini oqlash, xavfsizligini kafolatlash, siyosiy vaziyatni to'g'ri talqin etish bevosita xalqaro sayyohlikning o'sishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Ekoturizm tarmog'ining viloyatdagi istiqbolini belgilash, kelajakda sayyohlikni yuksaltirish va sayyohlar oqimini oshirish turli xil shart-sharoitga, ichki va tashqi vaziyatga bog'liq. Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish maqsadida viloyat hokimining 2016-yil 16-fevraldagi "2016-2017-yillarda Namangan viloyatida turizm sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi 66-son qarori qabul qilinib[6], viloyatga keladigan sayyohlarga jahon andozalariga mos maishiy va madaniy shart-sharoitlar yaratish yuzasidan bir qator ijobiy ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil viloyatga tashrifi davomida Chortoq tumanida barpo etilayotgan "Chortoq" sanatoriy-sog'lomlashtirish markazi bilan tanishish jarayonida Chortoqda turizmni rivojlantirish va ekologik shahar barpo etish bo'yicha topshiriqlar berdi[7]. Chortoq shahrini ekologik shaharga aylantirishda Jahon banki bilan hamkorlikda o'rta shaharlar infratuzilmasini rivojlantirish loyihasi doirasida Chortoq markazini qayta qurish kerakligi ta'kidlandi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, viloyatda ekoturistik obyektlar o'zining landshaft xususiyatlari va tabiiy sharoitiga ko'ra qulayligi bilan ajralib turadi. Shu bilan bir qatorda, ekoturistik obyektlarga olib boradigan transport yo'llarning noqulayligi, ekoturistik infratuzilmaning rivojlanmaganligi sayyohlar oqimining kelishiga aks ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday muammolarni hal qilish uchun qishloq joylarida yashaydigan aholidan ham so'rovnomalar o'tkazish, ularning hohish va istaklarini o'rganish muhimdir. Ekoturizmning oldida turgan eng muhim muammolardan yana biri – qisqa muddatli sayyohlikni tashkil etish masalasidir. Insonlarda dam olishga ehtiyoj jismoniy va aqliy mehnat qilishi natijasida yuzaga keladi. Binobarin, aholining mehnat qobiliyatini oshirish, ruhan tetiklashtirish avvalo, sayohatlar va ayni paytda sayyohlik xizmatini qay darajada tashkil etilishi bilan bog'liq. Shuningdek, Namangan viloyatidagi mavjud ekoturistik obyektlar haqidagi ma'lumotlarni turli tillarda xorijiy davlatlarda reklamani tashkil etish orqali xorijiy sayyohlarni jalb qilish mumkin. Namangan viloyatida turizmni, xususan ekoturizmni yuksaltirish hamda mavjud muammolarning viloyat hokimligi hamda Turizm qo'mitasi bilan hamkorlikda barcha muammolarning

tarkibiy jihatlarini qamrab olgan holda amalga oshirishda hududlarning turistik holatini o'rganish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonolari doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroridan kelib chiqib, Yangiqo'rg'on tumanidan "Eskiyer", Chust tumanidan "Rezaksoy", Chortoq tumanidan "Chortoq" cuv omborlari ekoturizm tashkil etish uchun suvni muhofaza qilish zonolari doirasida yer uchastkalari berilgan[8].

Olib borilgan islohotlar natijasida Nanay qishlog'iga 2024-yilning avgust oyida "Turizm qishlog'i" maqomi berildi [10]. Shuningdek, Chust tumanining ham ekoturistik imkoniyatlari yuqori bo'lib, hozirgi kunda tumanda ekoturistik marshrutlar: 1. Chust-G'ovasoy. 2.Chust-Buonamozor. 3. Mavlon Lutfiy nomli istirohat bog'i. 4. Toshqo'rg'on-Mashhad yo'nalishlari orqali olib borilmoqda[11].

Namanganliklarning o'ziga xos an'anasi — "Gullar bayrami" viloyatda ichki va xalqaro turizmni rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Gullar bayrami 1961-yildan beri nishonlanib kelingan bo'lsa, 2018-yilda xalqaro maqomga ega bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Namangan viloyatida gulchilikni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017-yil 16-oktyabrdagi 831-son qaroridan kelib chiqib, viloyatda "Gul bayrami"ning yuqori saviyada o'tkazilishi mahalliy va chet ellik turistlarni jalb etishda, qishloq va mahallalarda, bog' va xiyobonlarda bunyodkorlik, obodonlashtirish, ko'kalamzorlashtirish ishlarini ommaviy tarzda amalga oshirish an'anaga aylangan[12].

Namangan viloyatida turizmni rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyihalar soni ortib bormoqda. Jumladan, Infratuzilmani yaxshilash uchun tog'li hududlarga kirishni osonlashtirish maqsadida yo'llar va transport tizimlari tizimli yangilanmoqda. Viloyatda turar joy va dam olish joylari soni ortib bormoqda. Yangi mehmonxonalar va kemping joylari qurilmoqda. Turistik xizmatlarni rivojlantirish maqsadida sayyohlar uchun mahalliy gidlar va qo'llanmalar, ekoturizm, sog'lomlashtirish turizmi va tog' turizmi uchun maxsus turistik paketlar tayyorlanmoqda.

Namangan viloyatidagi tabiiy obyektlarning tarixiy shakllanishini ilmiy asosda o'rganish ularning turizm salohiyatini to'g'ri baholash, muhofaza qilish va ulardan barqaror foydalanish imkonini beradi. Tarixiy yondashuv asosida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, tabiiy obyektlar nafaqat iqtisodiy foyda manbai, balki milliy merosning ajralmas qismi sifatida e'tirof etilishi lozim. Shu bois, mazkur obyektlardan turizm sohasida samarali foydalanishda ularning

tarixiy shakllanish xususiyatlarini hisobga olish, ekologik muvozanatni saqlash va madaniy-tarixiy qadriyatlar bilan uyg'unlashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Viloyatning tabiiy obyektlari o'zining go'zalligi va xilmaxilligi bilan diqqatga sazovor bo'lib, mintaqaholisi va mehmonlar uchun qimmatli resurs hisoblanadi. Bu hududlar ekoturizm, dam olish va sog'lomlashtirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Namangan viloyati tabiiy obyektlari turizmni rivojlantirish uchun katta potentsialga ega. Ekoturizm, sog'lomlashtirish turizmi, tog' turizmi va qishloq turizmi kabi yo'nalishlar viloyat iqtisodiyotiga hissa qo'shadi. Infratuzilmani yaxshilash, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va turistik xizmatlarni rivojlantirish orqali Namangan viloyati O'zbekistonning eng mashhur turistik yo'nalishlaridan biriga aylanishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 7-fevral 2017-yil PF-4947-son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017, 6-son, 70-modda.
2. Nig'matov A., Shomuratova N. O'zbekistonni ekoturistik rayonlashtirish tajribasi // Ekologiya xabarnomasi, 2-son, – Toshkent, 2007. – B. 45
3. Kamolov B. Namangan viloyatida ekoturizmning hududiylik, davriylik va komplekslik xususiyatlari. Geografiya fanlari bo'yicha falsafa dokori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. – Toshkent: Namangan davlat universiteti. 2011. – 37-b.
4. Najmiddinov Q. Namangan viloyatida 10 ta yangi ekoturizm manzili tashkil etiladi. // "Xalq so'zi", 2020-yil, 15-iyul. №148 (7650).
5. Sanjarbek HAMIDOV. Namanganning yuksalayotgan turizm salohiyati iqtisodiyot rivojida ham muhim o'rinni egallaydi. <https://yuz.uz/uz/news/namanganning-yuksalayotgan-turizm-salohiyati-iqtisodiyot-rivojida-ham-muhim-orinni-egallaydi>.
6. Kamolov B. Chust tumani o'ziga xos ekoturistik marshrutlar sifatida // Ekologiya xabarnomasi, 7-son, 2016.–B.48.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Namangan viloyatiga tashrifi. // "Xalq so'zi", 2019-yil, 1-mart, №42 (7272).

8. Namangan viloyati hokimligining joriy arxivi. Namangan viloyati hokimining “O‘zbekiston Respyblikasi Vazirlar Mahkamasining “Ekoturizmni rivojlantirish va suv omborlarining suvni muhofaza qilish zonalarini doirasida yer uchastkalari ajratish tartibini takomillashtirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2018-yil 3-dekabrda 978-son qarori ijrosi haqida”gi qarori, 2018-yil, 19-dekabr, 863-son.
9. Namangan viloyati hokimligining joriy arxivi. Namangan viloyati hokimining “Yangiqo‘rg‘on tumanida turizm va ekoturizmni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2020-yil, 10-iyul. 359-son.
10. Nanayga turizm qishlog‘i maqomi berildi. <https://yuz.uz/uz/news/nanayga-turizm-qishlogi-maqomi-berildi>.
11. Mo‘minov Azizbek Ziyoviddinovich. “O‘zbekistonda ekologik turizmning rivojlanish jarayonlari (1991-2020 yy)”. 07.00.01- O‘zbekiston tarixi. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Toshkent – 2021. 150-bet.
12. Namangan viloyati hokimligining joriy arxivi. Namangan viloyati hokimining “Viloyatda 59-an‘anaviy “Gul bayrami”ni yuqori saviyada o‘tkazish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. 2019-yil, 15-aprel, 275-son.
13. Namangan viloyati Turizm boshqarmasi ma‘lumoti.
14. Muminov, A. Z. (2018). DEVELOPMENT OF ECOLOGIC TOURISM IN UZBEKISTAN. Central Asian Problems of Modern Science and Education, 3(3), 123-126.
15. Babajanova, D., Isakov, B. N., Tilabaev, S. B., & Muminov, A. Z. (2022). Interaction of Tourism Development in Uzbekistan with Types of Historical and Cultural Monuments. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 1730-1739.

TARIX

O'ZBEKISTONNING BRONZA VA TEMIR DAVRI QISHLOQ JAMOALARI: SHAKLLANISHI, RIVOJLANISHI VA HUDUDIIY XUSUSIYATLARI



Nurmetov Sardor,
Urganch innovatsion
university katta
o'qituvchisi, Tarix
fanlari bo'yicha falsafa
doktori, PhD

UO'K 305.364.6

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston hududida bronza va temir davrlarida shakllangan qishloq jamoalarining vujudga kelishi, rivojlanish bosqichlari hamda hududiy xususiyatlari arxeologik va tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье на основе археологических и исторических источников анализируются этапы формирования, факторы развития и территориальные особенности сельских общин бронзового и железного веков на территории Узбекистана.

Annotation: This article analyzes the stages of formation, development factors, and territorial characteristics of rural communities in the Bronze and Iron Ages in Uzbekistan using archaeological and historical sources.

Kalit so'zlar: bronza davri, temir davri, qishloq jamoalari, moddiy madaniyat, ijtimoiy tabaqalanish, metallurgiya, Markaziy Osiyo.

Ключевые слова: бронзовый век, железный век, сельские общины, материальная культура, социальная дифференциация, металлургия, Центральная Азия.

Key words: Bronze Age, Iron Age, rural communities, material culture, social stratification, metallurgy, Central Asia.

O'zbekiston hududida bronza va temir davrlarida shakllangan qishloq jamoalari Markaziy Osiyoning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida muhim o'rin tutadi. Ushbu davrlar ishlab chiqaruvchi xo'jalikning, xususan dehqonchilik va chorvachilikning rivojlanishi, metall mehnat qurollarining keng qo'llanilishi hamda hunarmandchilik faoliyatining shakllanishi bilan xarakterlanadi. Natijada ishlab chiqarish samaradorligi oshib, ortiqcha mahsulot yuzaga kelishi ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuviga olib kelgan. Aynan shu jarayonda mulkiy tafovutlar kuchayib, ijtimoiy tabaqalanishning dastlabki belgilari paydo bo'lgan. Qishloq jamoalarining hududiy-madaniy birlik sifatida

shakllanishi esa mintaqada keyingi ijtimoiy-siyosiy va madaniy taraqqiyot uchun muhim tarixiy asos bo'lib xizmat qilgan.¹

Bronza davrida dehqonchilik va chorvachilik asosida barqaror xo'jalik tizimi vujudga kelgan bo'lsa, temir davriga kelib mehnat qurollarining takomillashuvi, aholi zichligining ortishi va hududiy jamoalararo aloqalarning kengayishi kuzatiladi².

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi bronza va temir davrlarida O'zbekiston hududida shakllangan qishloq jamoalarining vujudga kelish bosqichlari, ularning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish omillari hamda hududiy xususiyatlarini arxeologik topilmalar, yozma tarixiy manbalar va zamonaviy ilmiy tadqiqotlar asosida kompleks tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida qishloq jamoalarining xo'jalik faoliyati, ishlab chiqarish texnologiyalari, ijtimoiy tuzilmasi va madaniy an'analari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni aniqlash, shuningdek, bronza va temir davrlarida yuz bergan tarixiy jarayonlarning mintaqaning keyingi taraqqiyotiga ta'sirini ilmiy jihatdan asoslab berish ko'zda tutiladi.

Tadqiqot jarayonida bronza va temir davri qishloq jamoalarini har tomonlama yoritish maqsadida qiyosiy-tarixiy, tizimli-tahliliy hamda hududiy-geografik yondashuv metodlari kompleks qo'llanildi. Qiyosiy-tarixiy metod orqali turli davr va hududlarda shakllangan qishloq jamoalarining o'xshash va farqli jihatlari aniqlanib, ularning evolyutsion rivojlanish qonuniyatlari ochib berildi, tizimli-tahliliy yondashuv esa xo'jalik faoliyati, ijtimoiy tuzilma va moddiy madaniyat elementlarini yagona tizim sifatida tahlil qilish imkonini berdi.

Hududiy yondashuv asosida esa tabiiy-geografik omillarning qishloq jamoalari shakllanishi va rivojiga ta'siri baholandi. Asosiy manbalar sifatida arxeologik qazilmalar natijalari, turar joy va xo'jalik inshootlari qoldiqlari, mehnat qurollari, kulolchilik buyumlari hamda dafn marosimlariga oid materiallar ilmiy muomalaga kiritilib, shuningdek, soha bo'yicha yetakchi mahalliy va xorijiy olimlarning fundamental tadqiqotlari tanqidiy tahlil qilindi.

Shuningdek, bronza va temir davriga oid yodgorliklarning hududiy joylashuvi va ularning tabiiy-geografik sharoit bilan bog'liqligi kartografik va tipologik tahlil asosida o'rganildi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, bronza davrida O'zbekiston hududida qishloq jamoalari asosan daryo vodiylari va sug'orishga qulay hududlarda shakllangan. Amudaryo va Zarafshon havzalari dehqonchilik madaniyatining rivojlanishi uchun asosiy markazlar bo'lgan³. Qishloq jamoalari dastlab qarindoshlik va urug'-qabila aloqalariga tayangan holda shakllanib, yerga jamoaviy egalik qilish, mehnatni kollektiv tarzda tashkil etish hamda xo'jalik faoliyatini umumiy manfaatlar asosida yuritish bilan xarakterlangan.

¹ Asqarov A. O'zbekistonning qadimgi tarixi. — Toshkent: "Fan", 1994. — 256-b.

² Masson V. M. Drevnie zemledelcheskie kultury Sredney Azii. — Moskva: "Nauka", 1981. — ctp. 312.

³ Rtveladze E. V. Qadimgi O'zbekiston sivilizatsiyasi. — Toshkent: "Sharq", 2001. — 280-b.

Bunday ijtimoiy tuzilma bronza davrida barqarorlikni ta'minlab, jamoa a'zolari o'rtasida ishlab chiqarish resurslarini nisbatan teng taqsimlashga xizmat qilgan. Temir davriga kelib metallurgiya tarmoqlarining shakllanishi va temir qurollar ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashuvi mehnat jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshirdi hamda qishloq jamoalarining iqtisodiy salohiyati va nisbiy xo'jalik mustaqilligini kuchaytirdi. Temir qurollarning keng joriy etilishi yerga ishlov berish, chorvachilik va hunarmandchilik faoliyatida ishlab chiqarish hajmining ortishiga, ortiqcha mahsulot shakllanishiga hamda xo'jalik jarayonlarida ixtisoslashuvning chuqurlashuviga olib keldi.

Natijada qishloq jamoalari ichki resurslarga tayanib rivojlanish imkoniyatiga ega bo'lib, bu holat ularning ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasining murakkablashuvi va hududiy rivojlanishdagi rolini kuchaytirgan. Natijada aholining turmush darajasi oshib, ishlab chiqarish jarayonida ixtisoslashuv chuqurlashdi, aholi punktlari yiriklashdi va ayrim qishloqlar hunarmandchilik, ayirboshlash hamda savdo faoliyati rivojlangan mahalliy markazlarga aylana boshladi.¹ Hududiy-geografik sharoitlarning ta'siri natijasida tog'oldi va cho'lga tutash mintaqalarda tabiiy yaylov resurslaridan samarali foydalanishga asoslangan chorvachilik yo'nalishidagi qishloq jamoalari shakllangan bo'lib, ularning xo'jalik faoliyatida ko'chma va yarim ko'chma chorvachilik ustuvor o'rin egallagan.

Mazkur hududlarda iqlim va landshaft xususiyatlari dehqonchilik imkoniyatlarini cheklaganligi sababli, chorva boqishga moslashgan xo'jalik tizimlari rivojlanib, bu holat qishloq jamoalarining ijtimoiy-iqtisodiy tuzilmasi hamda turmush tarzining hududiy ixtisoslashuviga olib kelgan.

Olingan ilmiy tahlil natijalari bronza va temir davri qishloq jamoalarining taraqqiyoti bevosita tabiiy-geografik muhit, xo'jalik faoliyatining shakllari hamda ishlab chiqarish texnologiyalaridagi innovatsion o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi. Bronza davrida sug'orma dehqonchilik va chorvachilikka asoslangan jamoaviy xo'jalik tizimi, kollektiv mehnat hamda an'anaviy ishlab chiqarish munosabatlari ustuvor bo'lgan bo'lsa, temir davriga kelib temir qurollarning keng joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligi oshgan, ortiqcha mahsulot shakllangan va bu jarayon mulkiy tafovutlar hamda ijtimoiy tabaqalanishning kuchayishiga olib kelgan. Natijada qishloq jamoalari doirasida hududiy-iqtisodiy ixtisoslashuv, boshqaruvning dastlabki shakllari va ijtimoiy tuzilmaning murakkablashuvi yuzaga chiqib, ular mintaqaning keyingi tarixiy rivojlanishi uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy poydevor vazifasini bajargan.²

Bu jarayonlar keyingi davrlarda ilk shaharlarning paydo bo'lishi va davlatlilik asoslarining shakllanishi uchun muhim zamin yaratgan. Shunday qilib,

¹ G'ulomov Y. G'. Zarafshon vodiysining qadimgi dehqonlari. — Toshkent, 1976. — 198-b.

² Avanesova N. A. Bronza davri yodgorliklari (O'rta Osiyo materiallari asosida). — Toshkent: "Fan", 1987. — 224-b.

qishloq jamoalari Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining tayanch ijtimoiy instituti sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, O‘zbekiston hududida bronza va temir davrlarida shakllangan qishloq jamoalari uzoq davom etgan evolyutsion taraqqiyot jarayonining mahsuli bo‘lib, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik tizimlarining qaror topishi, ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi hamda hududiy-madaniy birliklarning shakllanishida muhim tarixiy ahamiyat kasb etgan. Bronza davrida jamoaviy xo‘jalik yuritish, qarindoshlik asosidagi ijtimoiy tuzilma va an‘anaviy madaniy qadriyatlar ustuvor bo‘lgan bo‘lsa, temir davriga kelib ishlab chiqarish texnologiyalarining, xususan metallurgiyaning rivojlanishi natijasida mehnat unumdorligi oshib, ijtimoiy tabaqalanish va hududiy-iqtisodiy ixtisoslashuv kuchaygan.

Natijada qishloq jamoalari mintaqada shaharsozlik jarayonlari, savdo-ayirboshlash munosabatlari va dastlabki davlatchilik unsurlarining yuzaga kelishi uchun muhim ijtimoiy-iqtisodiy poydevor vazifasini bajargan bo‘lib, ularning tarixiy tajribasi Markaziy Osiyo sivilizatsiyasining keyingi bosqichlari taraqqiyotini tushunishda muhim ilmiy manba sifatida namoyon bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Asqarov A. O‘zbekistonning qadimgi tarixi. — Toshkent: “Fan”, 1994. — 256-b.
2. Masson V. M. Drevnie zemledelcheskie kultury Sredney Azii. — Moskva: “Nauka”, 1981. — стр.312.
3. Rtveladze E. V. Qadimgi O‘zbekiston sivilizatsiyasi. — Toshkent: “Sharq”, 2001. — 280-b.
4. G‘ulomov Y. G. Zarafshon vodiysining qadimgi dehqonlari. — Toshkent, 1976. — 198-b.
5. Avanesova N. A. Bronza davri yodgorliklari (O‘rta Osiyo materiallari asosida). — Toshkent: “Fan”, 1987. — 224-b.
6. Kohl P. L. The Bronze Age Civilization of Central Asia. — New York: Routledge, 2007. — 312 p.
7. Толстов С.П. По следам древнехорезмской цивилизации.— Москва: Издательство АН СССР. 1948. — стр.340.
8. Asqarov A., Shirinov T. O‘rta Osiyoda ilk dehqonchilik madaniyatlari. — Toshkent: “Fan”, 2004. — 216-b.

TARIX

RUS MANBALARIDA XIVA XONLIGINING DAVLAT VA MA'MURIY TUZILISHI HAQIDA MA'LUMOTLAR



**Matyakubov Shonazar,
Xorazm Ma'mun
akademiyasi katta ilmiy
xodimi, tarix fanlari
bo'yicha falsafa doktori**

UO'K 305.364.6

Annotatsiya: Maqolada muallif Rus manbalarida Xiva xonligining Qo'ng'irotlar sulolasi davridagi davlat va ma'muriy tuzilishi haqida ma'lumotlar berib o'tadi.

Аннотация: В статье автор на основе русских источников приводит сведения о государственном и административном устройстве Хивинского ханства в период правления династии Кунгратов.

Annotation: The article presents information based on Russian sources about the state and administrative structure of the Khiva Khanate during the period of the Kungrat dynasty.

Kalit so'zlar: Xiva, Qo'ng'irotlar sulolasi, Xiva xonlari arxivi, Muhammad Rahimxon, Muhammad Murod devonbegi, Xo'jash mahram, A.L.Kun, N.N.Muravyov, M.I.Ivanin, xon saroyi, inoq, elchi, harbiy.

Ключевые слова: Хива, династия Кунгратов, архив хивинских ханов, Мухаммад Рахимхан, Мухаммад Мурад девонбеги, Ходжаши махрам, А. Л. Кун, Н. Н. Муравьев, М. И. Иванин, ханский двор, инак, посол, военный.

Key words: Khiva, Kungrat dynasty, archive of the Khiva khans, Muhammad Rahim Khan, Muhammad Murad Divanbegi, Khojash Mahram, A. L. Kun, N. N. Muravyov, M. I. Ivanin, khan's court, inaq, envoy, military.

XIX asrda Xiva xonligining davlat va ma'muriy tuzilishi hamda undagi yer egaligi munosabatlari Xiva xonlarining rus bosqinchilari tomonidan 1873-yilda olib ketilgan arxivlari topilgunga qadar hatto mansab egalarining kimlar ekanligi noma'lum holga kelib qolgan edi. Xivada musodara qilingan qo'lyozmalar soni to'g'risida rus qo'shinlari tarkibida Xivaga kelgan o'zbek, fors va arab tillarini mukammal bilgan olim A.L.Kun o'zining o'z davlatiga topshirgan dokladnomasida quyidagi ma'lumotlarni taqdim etgan: "Xiva ekspeditsiyasi vaqtida men quyidagi ilmiy materiallarni to'pladim. Xon saroyini musodara qilish vaqtida sharq qo'lyozmalaridan iborat 300 kitob to'plandi, shulardan 129 tasi

sarlavhalik 140 tomidan iborat tarixiy qo'lyozmalar, 30 tomidan iborat sharq shoirlarining devonlari, 50 tomidan iborat 40 ta huquqiy va diniy asarlardir. Bundan tashqari 18 ta quron va 50 ta dars kitoblari ham to'plandi. Xiva xonlari tarixchisi Bayoniy ham ruslar Xiva xoni saroyini musodara qilganlaridan 300 ta kitobni olib ketganliklarini qayd etib o'tadi"[1]. Buning natijasida uzoq yillar davomida Xiva xonligining davlat tuzilishi yoritilishi bir yoqda tursin, balki buzib, chalkash va noxolis talqin qilib yuborilgan va qo'pol xatolarga yo'l qo'yilgan edi.

Garchi Xivaga xonlik davrida savdo-sotiq yoki elchilik va sayyohlik, shuningdek josuslik maqsadlarida kelib ketgan xorijliklarning esdalik va qaydnomalarida, hisobotlarida turli-tuman qimmatli materiallar bo'lsa-da, faqat ularda ajnabiylarning ishlari tushgan shaxslar, ya'ni xon va saroy a'yonlariga taalluqli ma'lumotlar bor edi. Masalan 1793-1794-yillarda Xivaga sayyoh sifatida kelgan mayor Blankennagelning hisobotlarida inoq, biy degan terminlar uchraydi. Shuningdek, bu kishi "Xiva fuqarolari turli-tuman urug'larga bo'linadi. Ular bir-birlariga doim kushanda. Bu urug'lar orasida xalqi ko'pi Qo'ng'iroq urug'i bo'lib, hozir hokimiyat tepasida o'shalar turadi. Qo'ng'iroq inoqlari Xiva xalqini idora qiladi, uning huzurida devon bor. Inoq bu devon izmidan tashqari hech bir narsa qila olmaydi"[2] deb yozadi. Xivaga kelgan rus harbiy zobiti, sayyoh va diplomat N.N.Muravyov Xiva to'g'risida yozib qoldirgan asarlarida ham a'yonlar to'g'risida qiziqarli ma'lumotlar bor. "Xivada, - deb yozadi N.N.Muravyov, Olloberdi otchopar xonning musulmon diniga kirgan qulidir. Xo'jash mahram xon qo'shinida xizmat qilib, Buxoroga qarshi urushda xonga sadoqat bilan xizmat ko'rsatganligi uchun mukofot sifatida qullikdan ozod etilgan. Xo'jash mahramga yer-suv in'om etilgan va gumrukhona boshlig'i qilib tayinlangan.

Xo'jash mahram kuchsizlar oldida mag'rur, ammo kuchlilar oldida qo'l qovushtirib, tavoze qilib turadi. O'zini epchil tutadi va laganbardor. Xonning pastkash hislarini ham bajo keltiradi. Hamma joyga kira oladi va nufuzlik. O'zi devon a'zosi bo'lmasa ham, biroq hamma ishlarga aralashaveradi" [3].

Xonlik arxividagi turli ro'yhat va materiallarda zikr qilingan amaldorlar va ularning shajarasi, shuningdek ularning unvon va mansablari bilan atroflicha mukammal tanishish Xivadagi ma'muriy-boshqaruv idorasi tuzulishini tiklash bilan birga davlatning rivojlanish jarayonlarini o'rganish uchun ham katta ahamiyatga egadir. Xiva xonligiga doir arxiv hujjatlarini Ogahiy va Bayoniy tarixiy asarlaridagi ma'lumotlar bilan taqqoslab, katta va kichik mansablarning meros tariqasida otadan bolaga o'tganligi aniqlangan. Shuningdek, ushbu taqqoslash va solishtirish yo'li bilan amaldorlarning nomlari aniqlangan va ularning tarjimai holiga doir yangi ma'lumotlar topilgan.

“Xonlikda ijroiya hokimiyati xonning o‘z qo‘lida bo‘lib, kengash mavjud emas. Xonning atrofidagi mahramlar uning hukmlarini bajo keltiradilar. Xonning ijrochi mahramlari orasida musulmon diniga kirgan bir rus ham bor. Uni Tangriquli deb ataganlar”[4]. N.N. Muravyov o‘zining ma’lumotlarida Urganch shahri hokimi bo‘lgan xonning akasi Qutlimurod inoqning nomini ham zikr etib o‘tadi.

Rus elchisi G.I. Danilevskiy o‘zining “Opisanie Xivinskogo xanstva” asarida “Xiva xonligida hech qanday ma’muriy bo‘linish yo‘q, garchi qushbegi xonlikning shimoliy qismini, mehtar esa janubiy qismini idora qilsalar-da, bu a‘yonlarning hokimiyati bir tomonlama bo‘lib, o‘zlariga qarashli joylarda xiroj va zakot yig‘ishadi. Shohobod arig‘i bularning viloyatlarining chegarasi hisoblanadi. Har bir shahar va qishloqqa xon tomonidan hokimlar qo‘yilgan bo‘lsa-da, bu hokimlarning vazifasi faqat tartibni saqlash, shuningdek arzimasi ishlarni tekshirish va nazorat qilishdan iboratdir”[5] deb ma’lumot beradi.

Sirovatskiy Xiva xonligining idora usuli to‘g‘risida devonbegi Muhammad Murod bilan bo‘lgan suhbatiga asoslanib, quyidagi ma’lumotlarni yozadi: “Sayyid Muhammad Rahimxon xonlikning mutlaq hokimidir. Mamlakat idorasi bilan juda kam shug‘ullanadi, ko‘pincha aysh-ishrat bilan band bo‘ladi. Xonning to‘rt va yuz chog‘liq kanizaklari bor. Xonlikning yuqori amaldorlaridan qushbegi va mehtar o‘lpon yig‘ish bilan shug‘ullanadilar, ulardan keyin ma’muriy harbiy boshliqlar, to‘rt devonbegi turadi. Ular Muhammad Murod, Muhammad Niyoz, Xudoyor va Hasan beklar”[6]. Kostenkoga ko‘ra, Muhammad Murod devonbegi aqlli va ishchan vazir bo‘lib, mamlakat idorasini o‘z qo‘liga olgan.

L. Kostenko o‘zining “1873-yilda Xiva” asarida Xivaning ma’muriy idorasi va xon saroyidagi amaldorlarning unvonlari to‘g‘risida ham ma’lumotlar beradi. Kostenko amaldagi hukmdorning nomi Sayyid Muhammad Rahimxon ekanini, uning taxtga chiqqan vaqtini 1864-yil deb ko‘rsatadi. Uning otasi o‘zidan oldingi taxti egasi Sayyid Muhammad ekanini, xonning yoshi o‘sha paytda yigirma sakkizda bo‘lganini ham ko‘rsatib o‘tadi.

Shuningdek, Kostenko 1873-yildagi ruslarning Xivaga bosqinidan keyin xonlik idora usuli to‘g‘risida ham ma’lumotlar yozib qoldiradi. Unga ko‘ra, xon hukumat tepasida qoldirilgan, ammo uning ishlarini olti kishidan iborat devon - uchta rus va uchta mahalliy a‘zolar boshqargan. Kostenko devon a‘zolari bo‘lgan xivaliklarning nomlarini ko‘rsatib o‘tadi. Ular xonning amakivachchasi Eltuzar, mehtar Muhammad Niyoz devonbegilarni nomlarini tilga oladi va ularning martabasini ham ko‘rsatib o‘tadi. Mehtar mansabi xonlikdagi asosiy amallardan bo‘lib, u yer solig‘i to‘playdi, deydi. So‘ngra esa Muhammad

Murodning Rossiyaga jo'natilishi va 1873-yili mol-mulki musodara etilganligini ham qayd etadi.

Rus armiyasi generali, tarixchi va geografi, ruslarning Turkestan safari ishtirokchisi M.I.Ivanin 1843-yilda chop etilgan "Manufaktura i torgovlya" jurnalida Xiva xonligi to'g'risidagi ba'zi ma'lumotlarni razvedka materiallari asosida bayon etadi. Uning bayon etishiga qaraganda: "Xivada idora usuli istibdod asosida, o'lim jazosiga xonnig o'zigina hukm qiladi. Yozilgan aniq qonunlar yo'q, shu sababdan ko'p zulm va adolasizliklar ro'y beradi, pastdan yuqorigacha hamma amaldorlarning poraxo'rliги odat tusiga kirgan. Xonning o'zini ham bir qadar sovg'a-salom bilan qo'lga olish mumkin"[7].

A.L.Kun ham xonlik boshqaruvi to'g'risida quyidagi ma'lumotlarni yozadi: "Hazorasp, Pitnak, Sho'raxon shahar va butun qishloqlari bilan hozirgi Qo'ng'irotlar sulolasi hukm o'rnatganidan beri inoqlarning taxt idorasiga berilgan. Inoqlar bu viloyatlar daromadlaridan faydolanadilar, lekin solg'ut xiroji bundan mustasno edi. Hozirgi xongacha xonlikda inoq martabasi eng oliy mansab hisoblanar va xondan keyin xon urug'idan yoshi katta bo'lgan kishiga berilardi. Ammo endilikda bu martaba o'zining avvalgi ahamiyatini yo'qotdi. Endi uni xonning qarindoshlaridan ikki-uch kishiga beriladi. Ammo jinoyatchilarning hayot-mamoti to'g'risida biron hukm chiqarishga hech kimning haqlari yo'q, bu to'g'rida shaxsan xonning hukmini so'raydilar"[8]

G.I.Danilevskiyning yozib qoldirgan ma'lumotlariga qaraganda: "Qozilik ishlari va ijroiya hokimiyati xonning o'z qo'lidadir. Barcha da'vo va jinoiy ishlari hech bir pog'onadan o'tmasdan to'ppa-to'g'ri xonning o'ziga kelib tushadi. Xon bu ishlarni har qachon og'zaki hal qiladi va bu ishlar qonunlar asosida emas, balki xonning o'z hohishiga qarab yoki o'zlariga daxldor shaxslarning ishlariga qatnashgan mahramlar ta'siri bilan hal qilinadi"[9]

Xulosa qilib aytganda, XIX asrda Xivada shaxsan o'zi bo'lgan, voqeotlarni o'z ko'zi bilan ko'rgan va ishtirokchisi bo'lgan asli xorijlik sayyoh, razvedka yoki elchilik yo'sinida kelgan kishilar xonlikning davlat va ma'muriy tuzilishini tasvirlab beruvchi juda muhim ma'lumotlar qoldirgan bo'lsalar-da, biroq bu ma'lumotlarning ayrimlarini juda ham asosli deb bo'lmaydi, ayrimlari esa bir-biriga zid keladi. Mabodo bizning ixtiyorimizda Xiva xonligining arxivi bo'lmaganda edi, xonlikning davlat va ma'muriy tuzilishini tiklash amaliy jihatdan mumkin bo'lmas edi. Shunga ko'ra, Xiva xonlari arxividagi yuqoridagi masalalarga doir ma'lumotlar juda ko'p va ular juda katta qimmatga egadir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Bayoniy.Xorazm tarixi.Qo‘lyozma.459-bet.
2. Путевые заметки майора Бланкеннагеля о Хиве.Поездка его из Оренбурга в Хиву 1793-1794г.СПБ.”Вестник РГА” 1958.том 22, стр 90.
3. Н.Н.Муравьев.Путешествие в Туркмению и Хиву. Стр.62.
4. O‘sha joyda.
5. Г.И.Данилевский.” Описание Хивинского ханства”записки РГО1.V.1851.133б.
6. Санкт-Петербургские ведомости. 1874 г.28 апр.№115.
7. Иванин. “Сведение о Хивинском ханстве”. Журнал “Мануфактура и торговля”. 1843г. Стр.156.
8. А.Л.Кун.Культурный оазис Хивинского ханства.Туркестанские ведомости.1878г. Стр.2.
9. Г.И.Данилевский. “Описание Хивинского ханства”. Записки РГО1.V.1851г. Стр.134.

TARIX**AN'ANAVIY HUNARMANDCHILIKNING TARIXIY
EVOLYUTSIYASI VA ZAMONAVIY RIVOJLANISH OMILLARI
(O'ZBEKISTON MISOLIDA)**

**Xudaybergenov
Hayitboy,
Urganch davlat
tibbiyot instituti
“Ijtimoiy fanlar”
kafedrasi dotsenti, tarix
fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD).**

UO'K 305.364.6

Annotatsiya: Mazkur maqolada hunarmandchilikning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari qadimgi davrlardan to mustaqillik yillarigacha bo'lgan jarayonlar misolida ilmiy-tahliliy asosda yoritiladi. O'zbekiston hududida hunarmandchilikning paydo bo'lishi, uning tabiiy resurslar, mehnat taqsimoti va ishlab chiqarish munosabatlari bilan uzviy bog'liqligi ochib beriladi.

Аннотация: В статье на основе историко-аналитического подхода рассматриваются этапы формирования и развития ремесленничества на территории Узбекистана с древнейших времён до периода независимости. Анализируется зависимость ремесла от природных ресурсов, разделения труда и производственных отношений.

Annotation: This article provides a historical and analytical study of the formation and development of handicrafts in Uzbekistan from ancient times to the years of independence. It examines the relationship between handicraft production and natural resources, the division of labor, and production relations.

Kalit so'zlar: hunarmandchilik, xalq hunarlari, mehnat taqsimoti, usta–shogird an'anasi, Buyuk Ipak yo'li, amaliy bezak san'ati.

Ключевые слова: ремесленничество, народные промыслы, разделение труда, традиция мастер–ученик, Великий шелковый путь, декоративно-прикладное искусство.

Key words: handicrafts, traditional crafts, division of labor, master–apprentice system, Great Silk Road, decorative and applied arts.

Hunarmandchilik jamiyat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismi bo'lib, insonning ishlab chiqarish faoliyati, mehnat taqsimoti va tabiiy resurslardan foydalanish jarayonida shakllangan. U tarixiy taraqqiyot davomida dehqonchilik va chorvachilikdan ajralib chiqib, mustaqil xo'jalik sohasi sifatida rivojlandi

hamda turli ixtisoslashgan hunar turlarini vujudga keltirdi. O‘zbekiston hududida hunarmandchilik qadimdan rivojlangan bo‘lib, neolit davridan boshlab kulolchilik, to‘qimachilik va metallga ishlov berish kabi tarmoqlar mavjud bo‘lgan. Buyuk Ipak yo‘li, shahar madaniyati va xalqaro savdo munosabatlari hunarmandchilik mahsulotlarining iqtisodiy va madaniy ahamiyatini oshirgan.

Turli tarixiy bosqichlarda hunarmandchilik turlicha ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda rivojlanib, ayrim davrlarda tanazzulga uchragan bo‘lsa-da, milliy madaniy merosning muhim sohasi sifatida o‘z ahamiyatini saqlab qoldi.

Hunarmand insonning ishlab chiqarish faoliyati bilan vujudga kelib, jamiyat rivojlanishi davomida asta-sekin *dehqonchilik* va *chorvachilikdan* ajralib chiqdi. Turli ijtimoiy-tarixiy davrlar doirasida texnika rivoji bilan aloqador holda takomillasha bordi, turli ixtisosliklar (*kulolchilik, duradgorlik, temirchilik, misgarlik, binokorlik, toshtaroshlik, o‘ymakorlik, kashtado‘zlik, tikuvchilik, to‘quvchilik, zargarlik, degrezlik, zardo‘zlik, bo‘yoqchilik, kemasozlik, tunukasozlik va b.*) ga ajraldi.[1] Hunarmandchilik qanday tabiiy resurslarning mavjudligiga qarab, masalan, paxta va pilla bor yerda to‘qimachilik, sifatli xom-ashyo bor yerda (mas., Rishton-da) kulolchilik, jun va teri ko‘p yerda to‘qimachilik, shunga qarab kosibchilik, o‘rmonlar ko‘p yerda yog‘ochsozlik, ma‘danlarga boy yerlarda metall ishlab chiqarish va temirchilik, dengiz va daryo bo‘ylarida kemasozlik va boshqalar rivoj topgan. Jamiyat taraqqiyoti bosqichlari, mehnat taqsimoti bilan aloqador holda hunarmandchilikning uch turi shakllangan: 1) uy hunarmandchiligi; 2) buyurtma bilan mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik 3) bozor uchun mahsulot tayyorlaydigan hunarmandchilik.[2]

O‘zbekiston hududida neolit davridayoq hunarmandchilikning dastlabki muhim tarmog‘i hisoblangan sopol buyumlar ishlab chiqarish va to‘qimachilik vujudga keldi.[3] (Xorazm vohasidagi *Kaltaminor madaniyati*, Surxondaryodagi *Sopollitepa* va b). Mil. av. II-asrdan boshlab hunarmandchilik mahsulotlari savdosida *Buyuk ipak yo‘li* muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. O‘rta asrlarda Sharq mamlakatlarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar (*Arab xalifaligida po‘lat, O‘rta Osiyo va Hindistonda chinni, qog‘oz*) Yevropa bozorlarida qadrlandi. Hindistonda paxtadan nafis mato, Xitoyda ipak mato to‘qiydigan dastgohlar vujudga keldi, Xitoy va O‘rta Osiyoda shisha tayyorlash texnologiyasi takomillasha bordi.

IX-X asrlarda O‘rta Osiyoda yirik hunarmandchilik markazlari paydo bo‘ldi. Ip mato, gilam (Urganch, Shosh), shoyi (Marv), mis va temirdan yarog‘-aslaha, pichoq tayyorlash (Farg‘ona), shoyi matolar, shisha mahsulotlari tayyorlash (Buxoro) avj oldi. XIII-asrda mo‘g‘ullar bosqini hunarmandchilik rivojiga zarba berdi. Temuriylar davlatining vujudga kelishi hunarmandchilik

rivojiga juda katta ijobiy ta'sir ko'rsatdi. [4]

O'rta Osiyoda hunarmandchilikning barcha turlari XX-asrning 20-yillarigacha saqlandi. Buxoro, Samarqand, Qo'qon, Xiva, Toshkent kabi shaharlarning ishlab chiqarish munosabatlarida hunarmandlik katta rol o'ynadi.[5]

O'zbekistondagi hunarmandchilik chuqur ixtisoslashgan bo'lib, o'zida xilma-xil kasb-korlarni birlashtirgan.[6]

Hunarmandchilikning ijtimoiy strukturasida usta, xalfa va shogird kabi ijtimoiy toifalar mavjud bo'lgan. Hunarmandchilikning ichki tartib va qoidalarini uning nizomi sifatidagi "Risolarlar" belgilab bergan. [7] Har bir kasbning o'z rahnamosi, ya'ni piri va "Risolasi" bo'lgan, avloddan-avlodga o'tuvchi odatlari va udumlariga rioya etilgan. Masalan, ish boshlashdan oldin, usta o'z pirini yodga olib, undan madad so'rash, shogirdiga fotiha berish kabi odatlarga amal qilingan.

Hunarmandchilikning yashovchanligini ta'minlashda chet eldan keltirilgan xom-ashyo, materiallar, kichik uskunalar muhim rol o'ynadi. Jumladan, AQSHdan keltirilgan teri bo'yog'idan foydalanib, ko'ncilar amirkon deb nomlangan yupqa charm ishlab chiqara boshladi. Shu munosabat bilan amirkon etik, mahsi va kovushlar paydo bo'ldi. Germaniyadan "Zinger" firmasining tikuv mashinalari keltirilishi bilan tikuvchilik (chevarlik) keng yoyildi. [8]

Iste'dodli hunarmandlar ijodiy tashkilotlarga qabul qilindi, amaliy bezak san'ati rivojlantirildi. [9]

O'zbekiston mustaqillikni qo'lga kiritgandan so'ng, hunarmandchilikning rivojida yangi davr boshlandi, xalq hunarmandchiligi bozor qoidalari zahirida qaytadan tiklandi. *Mahalliy sanoat* korxonalarining birinchilar qatori xususiylashtirilishi natijasida mayda davlat korxonalari hunarmandlarning xususiylashtirilishiga aylantirilib, yangi hunarmandchilik korxonalari ochildi. Hunarmandchilik nafaqat ichki bozorga, balki eksportga ham ishlay boshladi. Hunarmandchilikning tashkiliy shakli ham o'zgardi, ya'ni kichik oilaviy korxona, yakka tartibdagi mehnat faoliyati shaklida rivojlana bordi. Xususan, 1995-yil 24-25-oktyabrda Toshkentda BMTning O'zbekistondagi doimiy vakolatxonasi bilan amaliy hamkorlikda O'zbekiston xalq ustalari va hunarmandlari 1-Respublika yarmarkasi o'tkazildi. Shuningdek, 1997-yilda respublika xalq amaliy san'ati va hunarmandlari ustalarining "*Usto*" ijodiy birlashmasi tashkil topdi. Hunarmandchilik sub'ektlari O'zbekistonda tadbirkorlar, hunarmandlar va fermer xo'jaliklarining har yili o'tkaziladigan "Tashabbus" respublika ko'rik-tanlovida ishtirok etadilar. 1996—2005-yillar mobaynida 10 nafar hunarmand xalq hunarmandchiligida erishgan yutuqlari uchun "Tashabbus" tanlovining g'olibi deb topildi. [11]

Hunarmandchilik insoniyat tarixi va O‘zbekiston madaniy merosining muhim tarkibiy qismi sifatida shakllanib, turli davrlarda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘zbekiston hududida hunarmandchilik neolit davridan boshlab rivojlangan bo‘lib, turli tabiiy resurslar, mahalliy an‘analar va mehnat taqsimoti asosida turli ixtisoslashgan hunar turlariga bo‘lingan. Tarixiy jarayonlar davomida hunarmandchilikning ijtimoiy tuzilmasi — usta, xalfa va shogird an‘anasi, kasb risolalari va piri institutlari bilan belgilab berilgan. Mustamlakachilik va sovet davrida hunarmandchilik turlicha iqtisodiy sharoitlarda rivojlanib, ba‘zi tarmoqlari zaiflashgan bo‘lsa-da, milliy ehtiyoj va madaniy merosni saqlashda muhim rol o‘ynagan. Mustaqillikdan keyin hunarmandchilikni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va bozor iqtisodiyotiga moslashtirish jarayonlari bu sohaga yangi rivojlanish imkoniyatlarini berdi. Hunarmandchilik nafaqat ichki bozorni ta‘minlash, balki eksport salohiyatiga ega bo‘lgan, kichik korxonalar va yakka tartibdagi ishlab chiqarish shakllarini o‘z ichiga olgan barqaror iqtisodiy sohaga aylandi.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Asqarov A., O‘zbekiston tarixi (eng qadimgi davrlardan V-asrgacha) T., 1994.
2. Jabbarov I., Antik madaniyat va ma‘naviyat xazinasini, T., 1999-yil.
3. Hunarmandchilik // O‘zME, 3-jild - 393-bet T.,- 2005-yil.
4. Развадовский В.Н. Опыт исследования кустарных промыслов в Туркестанском крае Т., 1916 г.
5. Tursunov I.O. “Из истории городского ремесла Северного Таджикистана”, Душанбе, 1974 г.
6. Gavrilov.M.F. “Рисола сартовских ремесленников”. 1912-г.
7. Razvadovskiy V.N. Опыт исследования кустарных промыслов в Туркестанском крае, Т., 1916-г.
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 31.03.1997-yil, PF-1741-son. www.lex.uz
9. Bulatov S. O‘zbek xalq amaliy bezak san‘ati, T. 1991-yil.

TARIX**“LAZGI” VA “TUXUM BARAK” XORAZM AHOLISINING
MADANIY KODI SIFATIDA****UO‘K 305.364.6**

**Matchanova Sanobar,
UrDU akademik litseyi
tarix va huquq fani
o‘qituvchisi. Mustaqil
izlanuvchi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada Xorazm vohasiga xos bo‘lgan “Lazgi” raqsi va “Tuxum barak” taomi Xorazm aholisining madaniy kodi sifatida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu nomoddiy va moddiy madaniyat unsurlarining tarixiy shakllanishi, ijtimoiy hayotdagi o‘rni hamda milliy o‘zlikni ifodalashdagi ahamiyati yoritiladi. Lazgi raqsining estetik, emotsional va ramziy jihatlari, tuxum barakning esa an’anaviy turmush tarzi va oilaviy qadriyatlar bilan bog‘liqligi ilmiy asosda izohlanadi.

Аннотация: В данной статье танец “Лазги” и традиционное блюдо “Тухум барак”, характерные для Хорезмского региона, рассматриваются как элементы культурного кода Хорезмского народа. В исследовании анализируются исторические этапы формирования данных компонентов материального и нематериального культурного наследия, их роль в общественной жизни и значение в выражении национальной идентичности. Эстетические, эмоциональные и символические особенности танца лазги, а также связь блюда тухум барак с традиционным образом жизни и семейными ценностями раскрываются на научной основе.

Annotation: This article examines the “Lazgi dance” and the traditional dish “Tuxum Barak”, which are characteristic of the Khorezm region, as elements of the cultural code of the Khorezm people. The study analyzes the historical formation of these components of tangible and intangible cultural heritage, their role in social life, and their significance in expressing national identity. The aesthetic, emotional, and symbolic features of the Lazgi dance, as well as the connection of Tuxum Barak with traditional lifestyles and family values, are interpreted from a scholarly perspective.

Kalit soʻzlar: *Xorazm madaniyati, “Lazgi” raqsi, “Tuxum barak”, madaniy kod, nomoddiy madaniy meros, anʼanaviy taomlar, milliy oʻzlik, etnomadaniyat.*

Ключевые слова: *культура Хорезма, танец “Лазги”, “Тухум барак”, культурный код, нематериальное культурное наследие, традиционная кухня, национальная идентичность, этнокультура.*

Key words: *Khorezm culture, “Lazgi dance”, “Tuxum Barak”, cultural code, intangible cultural heritage, traditional cuisine, national identity, ethnoculture.*

Madaniy kod — bu muayyan jamiyat, etnos yoki madaniy muhitga xos boʻlgan ramzlar, maʼnolar, qoidalar va tasavvurlar tizimi boʻlib, ular orqali dunyo idrok etiladi, tajriba uzatiladi va ijtimoiy munosabatlar tartibga solinadi. Qisqacha qilib aytganda madaniy kod — jamiyat aʼzolari tomonidan anglashilgan yoki anglanmagan holda qabul qilingan maʼno belgilarining majmuasidir.

Xalqlarning madaniy kodlarining asosiy tarkibiy qismlarini til va sheva (soʻzlar, iboralar, nutq uslubi), ramz va belgilar (naqshlar, ranglar, shakllar), urf-odat va marosimlar (ziyosat, toʻy, dafn, qurbonlik), afsona va rivoyatlar (qahramonlar, muqaddas obrazlar), oziq-ovqat madaniyati (taomlar, tayyorlash va isteʼmol qilish tartibi), kiyim va bezak buyumlari tashkil etadi. Bunday kodlar orqali etnik oʻzlik identifikatsiya qilinadi, xalqning tarixiy xotirasi va maʼnaviy qadriyatlarini ochib beriladi.

Madaniy kod – bu madaniy merosni tahlil va saqlash uchun asosiy tushuncha hisoblanadi. Xulosa qilib aytganda, madaniy kod — xalqni xalq qiladigan, uni boshqalardan farqlantiradigan maʼnaviy “kalit”dir. Xorazm oʻzining madaniyatini aks ettiruvchi bunday maʼnaviy kalitlarga boy hududdir. Jumladan, Xorazm zebu-zarlari himoya va ilohiy kuchga ishonch ramzi, deb qaralsa, “Lazgi” raqsi — harakat, ritm va jismoniy ifoda orqali quvvat, hayot va muqaddaslikni anglatuvchi madaniy kod boʻlsa, “Tuxum barak”- farovonlik, hosildorlik va uy-oila barqarorligining oziq-ovqat orqali ifodalanishini aks ettiruvchi kod deb qaraladi.

“Lazgi toʻgʻrisidagi dastlabki tadqiqot L.Avdeevaga [1] tegishli boʻlib, oʻtgan asrning 70 yillarida chop etilgan. Shu asrning 75 yillarida R.Karimova muallifligidagi “Xorazm raqsi” [2] asari dunyoga kelgan. 1988 yilda T.Qilichev [3] Xorazm madaniyatining koʻrki boʻlgan “Lazgi” raqsi haqidagi oʻzining

ilmiy tadqiqotlarida alohida to'htalgan. Ammo, asosiy ilmiy tadqiqot tadqiqotlar G.Matyoqubova [4] ga tegishli bo'lib, uning asarlari orqali Xorazm "Lazgi"sining tarixi va turlarini ochib bergan. Va ularda [5] bu raqsning 9 ta turi ko'rsatilgan. Raqsning bu turi to'g'risida S.Bobojonova[6], D.Yusupova va R.Xalimmetovanning ishlari ham alohida ahamiyatga ega [7] .

"Tuxum barak" xaqidagi dastlabki ilmiy fikrlar Xorazm taomlari tadqiqotchisi , tibbiyot xodimi T.Do'schanovga [8] tegishli. Etnograf M.T.Jumaniyozovanning Xorazm oshxonasi tarixiga bag'ishlangan ishlarida [9]. S.Matkarimovanning ovqatlanish etikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqotlarida "Tuxum baraki"ning tarixi va taom sifatidagi ahamiyati ko'rsatib o'tilgan.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda milliy madaniy merosni tiklash va rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Shu jarayonda Xorazm xalqining o'ziga xos madaniy kodlari hisoblangan lazgi va tuxum barakka bo'lgan e'tibor ham sezilarli darajada oshdi. Ilgari mahalliy muhit doirasida saqlanib kelgan ushbu nomoddiy madaniy qadriyatlar mustaqillik sharoitida milliy o'zlikni anglash, tarixiy xotirani qayta tiklash va etnik identifikatsiyani mustahkamlash vositasi sifatida qayta baholandi.

2016 yildan boshlab o'zbek raqs san'atining tarixiy an'alarini, xalqimizning sharqona fazilatlarini va ma'naviyatiga mos raqslarni targ'ib etishga qaratilgan «Raqs sehri» xalqaro festivallari O'zbekistonning turli hududlaridan raqs guruhlarini va ansambllari, bir qator xorijiy davlat san'atkorlari ishtirokida o'tkazila boshladi[10]. Bu festivallarda „Lazgi“, „Qayroq“, „Anaxita“, „Zumlak“ raqslari tarixiy, „Sumalak sayli“, „Galin salomi“, „Qizlar bazmi“, „Lachak“ raqslari milliy urf-odatlar, „Etikdo'z“, „Cho'girma“, „Sartarosh“, „Qizlar bahsi“ va „Qumpishigi“ kabi Xorazm aholisining turmush tarzi aks etgan raqslar namoyish etildi.

"Raqs sehri" xalqaro an'anaviy festivali[11] ning Xiva shahrida o'tkazilishi Xorazm "Lazgi" raqsining voha aholisi uchun rasmiy ravishda identifikatsiyalanishining muhim bosqichi edi. Uning natijasida "Lazgi" raqsi — harakat va ma'naviyat kodidagi etnomadaniy identifikatsiya sifatida shakllandi. Bu raqs Xorazm etnofolklorining o'ziga xosligi sifatida sovet davridayoq tan olingan va bu borada olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda isbotlangan

2019 yil 12 dekabr kuni Kolumbiyaning Bogota shahrida bo'lib o'tgan YuNESKOning Nomoddiy madaniy merosni himoya qilish bo'yicha hukumatlararo qo'mitasining XIV-sessiyasida "Lazgi – Xorazm raqsi" insoniyatning nomoddiy madaniy merosining vakillik ro'yxatiga ovoz berishsiz, keng konsensus asosidakiritilishi [12] Xorazm aholisi uchun tarixiy ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Bu qaror xalqning asrlar davomida shakllangan badiiy tafakkuri, jismoniy ifodasi va ruhiy quvvatini jahon miqyosida e'tirof etishni anglatdi va

Xorazm aholisi uchun madaniy o'zlikni jahon miqyosida namoyon etishning muhim bosqichi bo'ldi.

“Lazgi” nafaqat raqs san'atining bir turi, balki balki hududning tarixi, jismoniy ifodasi va ruhiy quvvatini aks ettiruvchi ramziy omil sifatida namoyon bo'ldi. Mutaxassislar fikricha, “Lazgi”ning 100 dan ortiq turlari mavjud bo'lib, ular har biri muayyan joyning ruhi, turmush tarzi va tabiat bilan uyg'un holda vujudga kelgan. Shu jihatdan, “Lazgi” Xorazm aholisining ruhiy va jismoniy kodini ifodalovchi etnomadaniy belgidir. YuNESKO tomonidan “Lazgi”ning e'tirof etilishi Xorazm aholisining madaniy o'zligini nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham mustahkamladi. Bu jarayon madaniyat orqali o'zlikni anglash, milliy faxr va madaniy izchillikni saqlashning yangi bosqichiga olib keldi. Shu tariqa, “Lazgi” raqsi Xorazm madaniyatining nomoddiy kodi sifatida etnik identifikatsiyaning muhim tarkibiy qismiga aylandi.

Xususan, Lazgi raqsi mustaqillik yillarida folklor festivallari, davlat madaniy tadbirlari va xalqaro maydonlarda faol targ'ib etildi. Uning YuNESKOning Insoniyat nomoddiy madaniy merosi ro'yxatiga kiritilishi lazgining nafaqat Xorazm, balki butun o'zbek xalqi madaniyatidagi o'rnini mustahkamladi.

Xorazm aholisining hududiy va etnik o'zligini anglatuvchi “Tuxum barak” xorazmliklarning sevimli taomi sifatida dunyo e'tiborini tortdi. 2025 yil 14 iyun kuni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi ma'lumot berganidek, Xorazm viloyatiga xos milliy taom — «Tuxum barak» rasman geografik ko'rsatkich sifatida ro'yxatga olindi[13]. Bu qaror Xorazmning nomoddiy madaniy merosi bilan bir qatorda uning gastronomik kodini ham huquqiy jihatdan mustahkamladi. Mazkur taom o'ziga xos tayyorlash usuli, tarkibi va qadimiy an'analarga asoslanganligi bilan ajralib turadi. Uning asosiy xususiyati shundaki, har bir bosqichda mahalliy tabiat, suv, iqlim va urf-odatlar ta'siri namoyon bo'ladi. «Tuxum barak»ning geografik ko'rsatkich sifatida tan olinishi — Xorazm aholisining etnomadaniy va gastronomik identifikatsiyasini ilmiy jihatdan tasdiqlovchi muhim qadamdir. Bu jarayon Xorazm madaniyatini tarixiy va ma'naviy merosdan tashqari iqtisodiy va brend darajasida ham jahonga tanitish imkonini yaratdi, milliy oshxona elementlarini madaniy merosning ajralmas qismi sifatida qonun yo'li bilan himoya qildi, mahalliy aholining “bizga xos, o'zimizga tegishli qadriyatlar” tuyg'usini mustahkamladi. Shu tariqa, “Tuxum barak” misolida Xorazm madaniyatining yangi kodi — gastronomik identifikatsiya shakllandi. U hududning tabiiy muhiti, tarixiy taomchilik

madaniyati va ijtimoiy an'analarini birlashtirgan holda, Xorazm xalqining o'zligini ta'riflovchi yangi belgini yaratdi.

Bu holat qonunchilik asosidagi madaniy himoya va brendlashuv edi. 2022 yil fevral oyida qabul qilingan "Geografik ko'rsatkichlar to'g'risida"gi Qonun[6]ga ko'ra, muayyan hududga xos mahsulotning nomi uning tabiiy va madaniy xususiyatlari bilan bog'liq holda huquqiy himoyaga olinadi. Bu orqali Xorazm taomlari, hunarmandchilik mahsulotlari va san'at turlari "hududiy kodlar" sifatida qonun yo'li bilan mustahkamlanmoqda.

Bunday jarayon nafaqat Xorazm "Tuxum barak"i, balki boshqa hududlar uchun ham tatbiq etilmoqda. Buxoro, Shaxrisabz, Termiz, Samarqand kabi shaharlarga xos mahsulot va an'analar ham geografik ko'rsatkich sifatida ro'yxatga olindi. Bu butun mamlakat miqyosida madaniy merosni qonunchilik, iqtisod va brendlashtirish orqali himoya qilishning yangi modelini yaratmoqda.

"Lazgi" Xorazm an'anaviy raqsi sifatida dunyo saxnalarini kezoqda. Tuxum barak esa milliy taom sifatida gastronomik turizm, an'anaviy oshxonalar va etnografik festivallar orqali ommalashtirilib, oilaviy qadriyatlar, farovonlik va mehmondo'stlik ramzi sifatida qayta talqin qilinmoqda. Shu tariqa, mustaqillik yillarida lazgi va tuxum barak Xorazm aholisining madaniy o'zligini ifodalovchi muhim ramziy kodlar sifatida ilmiy va amaliy jihatdan yangi mazmun kasb etdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Авдеева Л. Хоразм фольклор анъаналари, лапарлари, халқ ўйинлари. "Меҳнат ва турмуш" журнали. 1970. №4
2. Каримова Р. Хорезмский танец. Т. 1975
3. Қиличев Т. Хоразм халқ театри. –Тошкент. Ғофур Ғулом номидаги "Адабиёт ва санъат" нашриёти. 1988.
4. Матёкубова Г. "Офатихон Лазги". Тошкент. 1993
5. Матёкубова Г., Эшжонов Ш. Лазги. Урганч. 2017
6. Бабажанова С. "Lazgi" Raqsining Tarixi Va Buguni. –Т. 2022 ;
7. Юсупова Дурдона, & Халимметова Р. Инсониятнинг номодий маданий меъроси лазги - кеча ва бугун. Та'лим Innovatsiyasi Va Integratsiyasi, 37(4), 2025. 120-127. <https://journal-web.uz/index.php/06/article/view/361>
8. Дўсчанов Т. Хоразм таомлари. Тошкент. 1993.
9. Жуманиёзова М.Т. Хоразм анъанавий таомлари тарихи. –Т. Янги аср авлоди. 2015. Жуманиёзова М.Т. Хоразм ошхонаси: таом , тарих ва традиция. Тошкент. 2025
10. Хивада «Рақс сеҳри» халқаро фестивали бошланди. <https://www.gazeta.uz/uz/2016/07/16/festival/>
11. Маданият ва санъат соҳасининг жамият ҳаётидаги ўрни ва таъсирини янада ошириш чора-тадбирлари тўғрисида Ўзбекистон Республикаси

Президентининг Фармони, 26.05.2020 йилдаги ПФ-6000-сон// <https://lex.uz/uz/docs/4829149?ONDATE=29.12.2023%2000> ;“Рақс сехри” халқаро анъанавий фестивали. <https://old.gov.uz/uz/events/view/398>. 2018-09-14

12. «Лазги» халқаро рақс фестивалини ташкил этиш ва ўтказиш тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори, 28.09.2020 йилдаги ПҚ-4843-сон ақори// <https://lex.uz/uz/docs/5020216>

13.“Тухум барак» получил статус географического указания в Узбекистане// <https://www.spot.uz/ru/2025/06/14/tuxum-barak/> 14 июня 2025, 16:57 Экономика

14. Географик кўрсаткичлар тўғрисида Ўзбекистон Республикасининг 03.03.2022

TARIX**O‘ZBEKISTONNING O‘Z ISTIQLOL VA TARAQQIYOT YO‘LINI
TANLANISHI VA HAYOTGA TADBIQ ETILISHI**

Otabek Shixov,
Urganch innovatsion
universiteti dotsenti,
tarix fanlari nomzodi

UO‘K 306

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning mustaqilligi e‘lon qilingan dastlabki davridagi o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li tanlanishi hamda jamiyatga tadbiq etilish jarayonlari tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье исследуется состояние развития сектора услуг в Узбекистане, выявляются недостаточно используемые возможности в этой области и разрабатываются рекомендации по их эффективному использованию.

Annotation: This article examines the state of development of the services sector in Uzbekistan, identifies underutilized opportunities in this area, and develops recommendations for their effective use.

Kalit so‘zlar: Mustaqillik, davlat boshqaruvi, respublika, prezident, taraqqiyot, bozor iqtisodiyoti, jamiyat, tinchlik, islohot.

Ключевые слова: услуги, структура ВВП, статистический анализ, финансовые услуги, государственная программа, занятость населения

Key words: services, GDP structure, statistical analysis, financial services, government program, employment

O‘zbekiston respublikasining birinchi Prezidenti Islom Karimov 1991-yil Oliy Kengashning IX sessiyasida Dastur ahamiyatiga molik bo‘lgan davlat siyosatining strategiyasini aniq-ravshan ko‘rsatib berdi. Millatlararo munosabatlarni barqarorlashtirish, fuqarolarga erkinlik berish, jamiyatda ma’naviy yangilanish uchun barcha sharoitlar yaratish va huquqiy davlatda qonun ustuvor bo‘lishini alohida ta’kidladi. Ushbu qoidalar O‘zbekiston istiqloli va taraqqiyotining asosiy yo‘llarini belgilab berish uchun asos bo‘lib xizmat qildi.

Bunday yondashuv - mustaqillikning ilk kunlaridanoq aniq tartib-intizomga rioya qilish, qonun ustuvorligiga intilish mamlakatda eng murakkab paytlarda barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘ldi.

Davlat O'zbekistonning mustaqil taraqqiyot yo'lini ishlab chiqar ekan, o'tmishdan, sobiq sovet tuzumidan meros bo'lib qolgan tajribadan saboq chiqardi. Ayni chog'da 90-yillar boshlarida, ya'ni mustaqil taraqqiyotning dastlabki yilida amalga oshirilgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni chuqur tahlil qildi.

Yuzaga kelgan sharoitda soxta inqilobiy sakrashlarsiz, fojiali oqibatlarsiz va ijtimoiy larzalarsiz, evolyusion yo'l bilan dinamik taraqqiyot yo'liga o'tish - tanlab olingan yo'lning asosiy mazmun va mohiyatidir, - degan xulosaga keldi(1).

O'z navbatida, Davlat rahbari qishloq joyda va tuman markazlarida mavjud bo'lgan ortiqcha ishchi kuchining oqilona bandligini ta'minlash maqsadida ixcham, zamonaviy korxonalarni qishloq joylariga tashkil qilish lozimligini ta'kidladi .

O'zbekiston taraqqiyot yo'lini ishlab chiqishda respublikaning qulay jug'rofiy-siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy imkoniyati hisobga olish zarurligini bildirdi.

Shuningdek, O'zbekistonning bozor munosabatlariga o'tishida ijtimoiy ong, ijtimoiy psixologiya masalasini hisobga olish lozimligi ham ko'rsatib berildi.

Chunki, sho'rolar davrida kishilar ongida ijtimoiy tenglik tushunchasi, ya'ni yaxshi ishlasam ham, yomon ishlasam ham davlat baribir boqadi, degan fikr shakllanib, boqimandalik kayfiyatiga tushib qolgan, mulkka egalik tuyg'usidan uzoqlashgan edi.

O'zbekiston Respublikasining iqtisodiy va siyosiy mustaqilligini himoya qilish va ta'minlash imkonini beradigan boy moddiy-ma'naviy hamda ishlab chiqarish potensialiga va kadrlar qudratiga ega mamlakat ekanligi ta'kidlandi.

Sobiq sotsialistik mamlakatlarda, jumladan O'zbekistonda davlatlashtirilgan, o'ta markazlashtirilgan va yagona bir markazdan boshqariluvchi iqtisodiyotdan-bozor iqtisodiyotiga o'tish zarurligi quyidagi bosqichlarni amalga oshirishni taqozo etdi :

“1. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning huquqiy asoslarini yaratish, ya'ni uni ta'minlovchi yuridik qonunlar tizimini yaratish.

2. Bozor infrastrukturasi shakllantirish. Bunda bozor iqtisodiyotiga xos aloqalarni o'rnatishga ko'mak beruvchi, ya'ni bozorga xizmat ko'rsatuvchi sohalarni, tashkilot, korxona va muassasalarni yaratish.

3. Mulkchilik va xo'jalik yuritish usullarini xususiylashtirish.

4. Narxlarni erkinlashtirish, narx ustidan davlat nazoratini minimal darajaga keltirish.”(2)

Birinchi Prezidentimiz o'z rahbarlik faoliyatini boshlagan paytda respublikadagi ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning negizida uzoq yillar

davomida hukm surib kelgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimining asoratli ta'siri yotadi.

Mazkur jarayonda Davlat rahbari mavjud muammolarni hal etishning yagona to'g'ri yo'li – bu iqtisodiyotda bozor munosabatlarini bosqichma-bosqich shakllantirib va rivojlantirib borish ekanini qat'iy belgilab berdi.

Ma'lumki, hozirda rivojlangan mamlakatlar (AQSh, Yaponiya, Kanada, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Rossiya)ning deyarli barchasi bozor iqtisodiyoti yo'lini tanlagan bo'lib, shu asosda iqtisodiy taraqqiyotini belgilab kelmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish XX asrga xos bo'lgan umumjahon voqelikidir. Bozor iqtisodiyotiga o'tish kishilarning xohish-irodasi emas, balki ob'yektiv zaruratdir. Bozor iqtisodiyoti deganda, tovar-pul munosabatlariga asoslangan va ularga xos iqtisodiy qonunlar, ya'ni bozor munosabatlari tamoyillari asosida boshqariladigan iqtisodiyot tushuniladi.

“Bozor iqtisodiyoti azaldan mavjud. U bir necha ming yillardan beri rivojlanib, turli iqtisodiy-ijtimoiy tizimlar doirasida saqlanib keladi. Bozor iqtisodiyotiga o'tish – bu shunchaki maqsad emas, balki iqtisodda bozor munosabatlarini shakllantirish, jamiyatni yangilash yo'lidir, ya'ni iqtisodiy faoliyat erkinligiga, mulchilikning xilma-xilligiga, narx erkinligiga, raqobat qurushga, shaxsiy huquq va erkinliklarning qaror topishiga, daromadning cheklanmaganligiga erishish demakdir .

Faqat bozor munosabatlari zaminidagina ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish, ko'plab sifatli mahsulotlar yaratish, ularga bo'lgan talabni qondirish, tejamli xo'jalik yuritish, to'kinchilik yaratib, xalqning farovon turmushini ta'minlash, halol va samarali mehnatni qadrlash, adolat o'rnatish mumkin. Jahon tajribasi ko'rsatishicha, bozor iqtisodiyotiga revolyusion yo'l bilan, ya'ni jadal usulda yoki evolyusion yo'l bilan, ya'ni bosqichma-bosqich o'tish mumkin”(3).

Birinchi holda, tub islohotlarni o'tkazish, avvalgi tizimni va tarkib topgan iqtisodiy munosabatlarni birdaniga va batamom sindirish talab etilib, “karaxt qilib davolash” usuli (“shokovaya terapiya”) deb ataladi. Eski iqtisodiy munosabatlarni bosqichma-bosqich yangi bozor munosabatlariga aylantira borib, samarali bozor iqtisodiyotini shikastsiz vujudga keltirish mumkin. Islohotlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, evolyusion yo'l kamroq ijtimoiy muammolarga olib keladi, ancha izchil va muqarrardir.

O'tish davrida bozor iqtisodiyoti tushunchasi, unga o'tish zarurati, bozor iqtisodiyotiga o'tishning “O'zbekiston yo'li” kabi masalalarning tub mohiyatini anglash eng dolzarb masalalaridan biri edi. Bozor iqtisodiyotiga o'tishning umumiyliigi, masalan, xususiy mulkchilik, iqtisodiy jarayonlarni boshqarish va

takomillashtirishda talab, taklif qoidalarining bir xilligi bo‘lishi bilan bir qatorda har bir mamlakatning o‘ziga xos xususiyatlaridan kelib chiquvchi yo‘li mavjuddir.

Bunda uning xo‘jalik tuzilishi va shart-sharoitlari, joylashgan yeri, tabiati va iqlimi, milliy kelib chiqishi, urf-odatlar, an‘ana va milliy tavsifi va boshqa omillar sabab bo‘ladi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, dunyodagi hamma mamlakatlar uchun maqbul bo‘lgan bir xil taraqqiyot yo‘li, bir xil andoza bo‘lishi mumkin emas. Hozirda bozor iqtisodiyotiga o‘tishning turli modellari mavjud bo‘lib, ular barcha mamlakatlarni bitta manzilga – erkin bozor iqtisodiyoti tizimiga olib keladi.

Ammo, bozor munosabatlari shakllanishining sotsial-iqtisodiy, tarixiy, milliy va xalqaro sharoiti har xil bo‘lganligi tufayli, unga o‘tishning milliy xususiyatlari ham mavjud bo‘ladi. Shu nuqtai nazardan biror mamlakatning taraqqiyot yo‘lini yoki taraqqiyot modelini borligicha qabul qilib bo‘lmaydi. Natijada o‘zigi xos yo‘lni tanlash muhim hisoblanadi. O‘zbekiston Birinchi Prezidenti Islom Karimovning iqtisodiy tizimni rekonstruksiya va modernizatsiya qilish strategiyasini ishlab chiqishdagi xizmatlari katta bo‘ldi.

Sobiq tuzumda amal qilgan va markazlashgan ma‘muriy boshqarish tizimiga asoslangan iqtisodiyot o‘zining hayotiy emasligini, aholining o‘sib boruvchi ehtiyojlarini ta‘minlay olmasligini aniq ko‘rsatdi. Natijada mustaqillik yillarida mamlakat taraqqiyoti uchun O‘zbekistonda bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘lini ishlab chiqish va bu yo‘lda tub islohotlarni belgilash zarurati yuzaga keldi.

O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lini ishlab chiqishga Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov boshchilik qildi. Islom Karimov O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1992-yil 4-yanvardagi o‘n ikkinchi chaqiriq navbatdan tashqari IX sessiyasida so‘zlagan dasturiy nutqida hamda 1992-yil avgust oyida nashr etilgan “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li” asarida O‘zbekistonning taraqqiyot yo‘lini har tomonlama puxta belgilab berdi.

O‘zbekistonning o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li Islom Karimovning keying asarlari, ma‘ruza va nutqlarida yangi ma‘no-mazmun bilan to‘ldirilib, aniqlashtirilib borildi. O‘zbekistonda ijtimoiy yo‘naltirilgan erkin bozor iqtisodiyotiga o‘tish modeli Islom Karimov tomonidan ishlab chiqildi.

Besh tamoyilni o‘z ichiga olgan bu modelning mazmuni va mohiyati Prezidentning 1993-yilda nashr etilgan “O‘zbekiston–bozor munosabatlariga o‘tishning o‘ziga xos yo‘li” nomli asarida asoslab berildi. “O‘zbek modeli” ishlab chiqishda, birinchidan, xalqaro tajriba asos qilib olindi. Ikkinchidan, xo‘jalik

imkoniyatlari, shart-sharoitlari, eski tuzumdan meros bo‘lib qolgan muammolar hisobga olindi.

“ Shuning uchun ham respublika ichki va tashqi siyosatining asosiy yo‘nalishlari pirovard natijada chinakam mustaqil O‘zbekistonda yangi, adolatli jamiyat barpo etishga qaratildi.

Jumladan, siyosiy sohada:

- xalq, ham bevosita, ham o‘z vakillari orqali davlat hokimiyatini amalga oshirishda to‘liq ishtirok etishi lozimligini;

- hokimiyat bo‘linishining jahon tan olgan qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linish tamoyilini joriy etish asosida demokratiyani chuqurlashtirish hamda milliy davlatchilikni barpo qilishni;

- jamiyatning siyosiy tizimini, davlat idoralarining tuzilmasini tubdan yangilashni;

- barcha fuqarolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustunligini ta‘minlashni;

- bir mafkuraning, bir dunyoqarashning yakka hokimligidan voz kechish, siyosiy tashkilotlar, mafkuralar va fikrlar xilma-xilligini tan olishni;

- demokratiyaning qonuniy tarkibi sifatida ko‘ppartiyaviylikni shakllantirishni;

- O‘zbekistonda tug‘ilib, uning zaminida yashayotgan, mehnat qilayotgan har bir kishi, milliy mansubligi va e‘tiqodidan qat’i nazar respublikaning teng huquqli fuqarosi bo‘lishga erishishni bildiradi.

Iqtisodiy sohada esa:

- milliy boylikning ko‘payishini ta‘minlaydigan barqaror, rivojlanib boruvchi iqtisodiyotni barpo etishni;

- ijtimoiy jihatdan yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini bosqichma- bosqich shakllantirishni;

- mulk egalari huquqlarining davlat yo‘li bilan himoya qilishini ta‘minlash va barcha mulkchilik shakllarining huquqiy tengligini qaror toptirishni;

- iqtisodiyotni o‘ta markazlashtirmasdan korxonalar va tashkilotlarning mustaqilligini kengaytirishni, davlatning xo‘jalik faoliyatiga bevosita aralashuvidan voz kechishni;

Ijtimoiy va ma‘naviy sohada:

- insonparvarlik g‘oyalariga sodiqlikni, inson, uning hayoti va shaxsiy daxlsizligi, erkinligi, qadr-qimmatini, yashash joyini tanlash huquqi saqlanib qolishini;

- ma‘naviyatni qayta tiklashni;

- o‘zbek tilini rivojlantirishni;

- hurfiylik, vijdon va din erkinligini qaror toptirishni;

- ijtimoiy adolat qoidalarini ro'yobga chiqarish, aholining eng nochor qatlamlari - keksalar, nogironlar, yetim-yesirlar, ko'p bolali oilalar, o'quvchi yoshlarning davlat tomonidan iqtisodiy muhofazaga bo'lgan kafolatli huquqlarini ta'minlashni"(4;

Umuman olganda mustaqillikning e'lon qilinish davrida davlat rahbari tomonidan O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'lining tanlanishi, undagi besh tamoyilning ijtimoiy adolat prinsiplariga asoslanishi va jamiyatga tadbiq qilinishi, respublikaning bozor iqtisodiyotiga o'tishi, barqaror rivojlanishni ta'minlashga, tinchlik-totuvlikni saqlashga xizmat qildi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. U.Rajabov, "O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Durdona" nashriyoti, Buxoro-2025 yil, 36-bet.
2. O'zbekistonning eng yangi tarixi, darslik, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi. Toshkent «Mehr-nuri nashriyoti» 2024 yil, 408 b.
3. «Mard o'g'lonlar nomi barhayot» to'plami, «O'zbekiston» NMIU nashriyoti, 2018-yil, 557 b.

TARIX**YANGI O‘ZBEKISTONDA XAVFSIZ MAHALLA TAMOYILINI
TAKOMILLASHTIRISHNING USTUVOR YO‘NALISHLARI****UO‘K 324**

Raximov Ilxomjon,
FDTU “Ijtimoiy fanlar
va sport” kafedrası
katta o‘qituvchisi,
siyosiy fanlar bo‘yicha
falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: Maqolada so‘nggi yillarda O‘zbekistonda yuz berayotgan o‘z-o‘zini boshqarish organlari borasidagi islohotlar va ijobiy o‘zgarishlar hayotning barcha sohalariga jadal kirib borayotganligi, “Xavfsiz mahalla” tizimining o‘z-o‘zini boshqarish tuzilmasidagi ahamiyati, “Xavfsiz mahalla” tizimini amalga oshirishda “mahallabay” ishlash tizimining afzalliklari, mahallalarda jinoyatchilikni oldini olish borasidagi “Xavfsiz mahalla” konsepsiyasini o‘rganishni maqsad qilib olinadi.

Аннотация: Статья, проводящая реформы и позитивные изменения в Узбекистане в последние годы, и важность самоуправления безопасной системы Махаллы преимущества рабочей системы Махаллабая в реализации системы направлены на изучение концепции «безопасной махаллы на Профилактика преступности в окрестностях.

Annotation: The article conducting reforms and positive changes in Uzbekistan in recyent years, and the importancye of the Safe Mahalla System’s Self-Management "The advantages of the Mahallabay Working System in the implementation of the system is aimed at studying the concyept of" Safe Mahalla "on crime prevention in the neighborhoods.

Kalit so‘zlar: Mahalla va nuroniyarlarni qo‘llab-quvvatlash vazirligi, “Obod va xavfsiz mahalla” tamoyilini joriy etishning 2020 — 2024 yillarga mo‘ljallangan konsepsiya, “mahalla – sektor – Xalq qabulxonasi – mahalla”, “Mening mahallamda jinoyat sodir bo‘lmasligi kerak”, “mahallabay”.

Ключевые слова: Об организации деятельности министерства по поддержке махалли и старшего поколения, Концепция реализации принципа благополучное и безопасное соседство на 2020-2024 годы, махаллы – сектор

– народное прием – Махаллы, “Преступность не должна происходить в моем махаллы”, “Махаллабай”.

Key words: *On the organization of the activities of the Ministry of Support of Mahall and the older generation, the concept of implementation of the principle of a prosperous and safe proximity to 2020-2024, the Mahalla-the sector-the folk technique-the Mahalla, “crime should not occur in my mahalla”, “mahallabai”.*

Bugun dunyoda globallashuv va integratsiya jarayonlari tobora kuchayib borayotgan XXI asr jahonning turli hududlarida sodir bo‘layotgan ijtimoiy-siyosiy o‘zgarishlar sharoitida xalqlarning tinchligi, milliy va ma’naviy qadriyatlarini saqlab qolish hamda kelgusi avlodlarga yetkazish masalasi tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. Xalqlarning tinchligi masalasini avvalambor o‘zini o‘zi boshqarish organlari mahalla va oilalar tinchligidan boshlash yurtimiz tinchligini ta’minlash imkoniyatini beradi. Zero, Vatan-ostonadan boshlanadi degan ibora bejiz aytilmagan. Bu esa mazkur boshqaruv tuzilmasi jamiyat hayotining osoyishtaligini ta’minlashda mustaqil institut sifatidagi o‘rni va nufuzi tobora muhim kasb etib borayotganligini tasdiqlamoqda.

Asosiy qism. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev “... bugun mahalla katta ijtimoiy kuch sifatida maydonga chiqishi zarur. Chunki faollar, ko‘pni ko‘rgan oqsoqollar, tajribali nuroniylarimiz, agar istasa, jamoatchilik bilan birgalikda har qanday muammoni hal qilishga, xato qilgan yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga solishga qodirdir”, deb ta’kidlaganligi[1]. Prezidentimizning ushbu fikrlaridan shuni anglash mumkinki, bu tuzilma jamiyat hayotidagi o‘z o‘rniga egadir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-sonli Farmoni, 2022-yil 1-martdagi “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-81-son Farmoni hamda ushbu sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar ichida “Xavfsiz mahalla” masalasi muhim o‘rin egallaydi. Jumladan, jamiyatda, mahallada va oilalarda sog‘lom va barqaror ijtimoiy-ma’naviy muhit hamda tinchlik, totuvlik va osoyishtalikni ta’minlashni nazarda tutuvchi “Xavfsiz mahalla” tamoyilining mazmun-mohiyatini va uni joriy etishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqish hamda 2020-2024-yillarga mo‘ljallangan chora-

tadbirlarni belgilash, bu orqali mahallalarda jinoyatchilikning oldini olish, ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirishni ko'zda tutadi.

Mavzuni yoritib borishda muammoga doir siyosiy, sotsiologik, psixologik, pedagogik adabiyotlarni qiyosiy-tanqidiy o'rganish, tahlil etish usullaridan ham foydalanilgan.

Mamlakatimiz mustaqil rivojlanishining dastlabki kunlaridanoq fuqarolar o'zini o'zi boshqarish organlarining jamiyatimiz hayotidagi roli va ahamiyatini oshirishga katta e'tibor qaratiladi. Jumladan; 1992-yilda "Mahalla" Respublika xayriya jamg'armasi tashkil etilgan[2], xususan so'nggi yillarda mahalla institutiga oid 38 ta qonun va me'yoriy hujjatlar qabul qilindi, 50 dan ortig'i takomillashtirildi. Fuqarolar yig'inlari raislari va mas'ul kotiblarining oylik ish haqi o'tgan yilning o'zida 1,5 barobarga oshirildi. So'nggi uch yilda 624 ta mahalla idorasi yangidan qurildi, 2 ming 265 tasi rekonstruksiya qilindi va ta'mirlandi. 102 ta tuman va shahar markazida "Mahalla markazi" majmualari barpo etildi. Har bir fuqarolar yig'inida "Keksalar maslahati" guruhleri, 4 mingdan ziyod mahalla binolarida kutubxonalar tashkil qilinganligining [3] o'zi ham mahallalarning davlatimiz tomonidan cheksiz darajada qo'llab-quvvatlanayotganligining yorqin dalili bo'la oladi.

Yurtimizdagi tinchlik va osoyishtalikni, xalqimizning xotirjam mehnat qilishini ta'minlashda mahalla ahlining xizmati katta. Albatta jinoyatchilikka qarshi kurashishga qaratilgan chora-tadbirlar barcha mahallalarda ham talab darajasida, deb bo'lmaydi. Masalan, Respublikada 1994-yilda 25-29 yoshdagilar orasida 11005 ta jinoyatchilik holatlari sodir etilgan bo'lsa, 1999-yilda 13038 taga yetgan. Ro'yxatga olingan jinoyatlarning 9,5 mingdan ortig'i xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan. 2003-yilda esa uyushmagan, tarbiyasi og'ir, ishga va o'qishga joylashmagan yoshlar tomonidan 26579 jinoyat sodir qilingan. 2017-yilga kelib esa, mahallalarda faqatgina oilaviy kelishmovchiliklar sababli yaqin qarindoshlar bir-biriga nisbatan sodir etilgan qotilliklar soni 200 ga yaqin bo'lgan. Tizimdagi muhim yangiliklardan biri, bu 2018-yil 1-yanvardan e'tiboran barcha mahallalarda "Kirish, chiqish nazorat punktlari" tashkil etildi. 2019-yil yakunlari bo'yicha mamlakatdagi 1797 ta (19,7%) fuqarolar yig'inida jinoyatchilik ko'rsatkichlari o'sgan bo'lib, nisbatan eng ko'p Samarqand (16,6%), Farg'ona (13,5%), Namangan (10,9%) va Toshkent (10,3 foiz) viloyatlarida kuzatilgan.

Fuqarolar yig'ini raisiga bir qator qo'shimcha huquqlar berildi. Jumladan, fuqarolar yig'ini raisi tegishli hududdagi profilaktika inspektori faoliyatiga baho berish hamda uni rag'batlantirish yoki unga nisbatan egallab turgan lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan jazo choralari qo'llash bo'yicha Qoraqalpog'iston Ichki ishlar vazirligi hududiy ichki ishlar bosh boshqarmalariga ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnoma kiritish huquqiga ega bo'ldi,

bunday vakolatni olgan mahalla raisi albatta profilaktika inspektori o'rtasidagi fors-major holatlarga barham berib, mahallalardagi xavfsiz mahalla tamoyilini amalga oshirishda profilaktika inspektoriga yuklatilgan vazifalarni mahalla raisi tomonidan talab qilishda muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlashimiz kerak. Shuningdek, mahalla institutining "Xavfsiz mahalla" tamoyili yuzasidan ichki ishlar organlari, boshqa davlat idoralari va jamoat tashkilotlari bilan uzluksiz, tizimli hamkorligini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiq.

Xulosa. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, "Xavfsiz mahalla" tamoyilini fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatiga samarali joriy etish mexanizmlari tadqiqi natijasida quyidagi takliflar berib o'tiladi:

- Dunyodagi jiddiy xavf-xatarlar, geosiyosiy tahdidlar sharoitida mahallalarda sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish asnosida "Mening mahallamda jinoyat sodir bo'lmasligi kerak" shiori ostida ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni yanada ko'proq tashkil qilish kerak;

- Mahallalarda "Mahalla posboni" jamoatchilik tuzilmasining tinchlik va osoyishtalikni ta'minlashdagi ahamiyati nuqtai nazaridan ushbu tuzilmani qaytadan tiklash maqsadga muvofiq;

- Mahallalarning jinoyatchilik ko'rsatkichlari bo'yicha ularni qizil, sariq, yashil mahallalarga ajratish, bu orqali alohida-alohida yo'l xaritalarini tuzish;

- Mahallalar qoshida jinoyatchilikka qarshi kurashish va ogohlikka qaratilgan bannerlarni joylashtirish;

- Mahallalarda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish bo'yicha ta'sirchan tizimni shakllantirish maqsadida profilaktika inspektori ko'rib chiqadigan ma'muriy huquqbuzarliklar sonini oshirish;

- Mahallalardagi to'liqsiz oila farzandlari yashash sharoitlarini o'rganish va tizimli tahlil qilish;

- Mahallalarda huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish hamda jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan erkak va xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi bilan bog'liq tadbirlarni manzilli amalga oshirish;

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Mahalla-tinchlik va osoyishtalik, obodlik va farovonlik markaziga aylanadi.>// O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida 12-fevral kuni mahalla tizimini takomillashtirish, mahallalarda tinchlik-osoyishtalikni mustahkamlash, jinoyatchilikning oldini olishmasalalariga bag'ishlangan videoselektor yig'ilishi // "Xalq so'zi". 13-fevral. № 32.- Toshkent, 2020

2. “Respublika “Mahalla” xayriya jamg‘armasini tashkil etish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoni // “Xalq so‘zi”. 1992-yil. 2-sentabr.

3. <https://xs.uz/uz/post/ozbekistonda-yangi-vazirlik-tashkil-etish-taklif-qilindi/> “Xalq so‘zi”. 12-fevral, 2020-yil.

4. kun.uz/.../shavkat-mirziyaev-maalla-institutini-takomillastiris-tugrisidagi-farmonni-imzoladi (kun.uz/1 .../shavkat-mirziyaev-Malalala-utefurn-The institute of Tallalamalis - signed the decree-signed)

TARIX

QUYI AMUDARYO VOHASI AHOLISINING HUNARMANDCHILIK TARIXINI ARXEOLOGIK MANBALARDA AKS ETISHI.

UO‘K 324.15



**Ibragimov Ibragim,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
tayanch doktoranti**

Annotatsiya: Maqolada Quyi Amudaryo vohasi aholisining hunarmandchilik tarixi arxeologik manbalar asosida tahlil qilingan. Quyi Amudaryo vohasi aholisining tosh davriga oid moddiy madaniyati va arxeologik yodgorliklari haqida ma'lumot beradi. Maqolada Quyi Amudaryo hududidagi tosh davri moddiy madaniyati tahlil qilinadi.

Аннотация: В статье анализируется история ремесел жителей Нижнеамударьи на основе археологических источников. Приводится информация о материальной культуре жителей Нижнеамударьи каменного века и археологических памятниках. В статье анализируется материальная культура каменного века в регионе Нижней Амударьи.

Annotation: This article analyzes the history of crafts of the Lower Amu Darya inhabitants based on archaeological sources. Information on the material culture of the Lower Amu Darya inhabitants during the Stone Age and archaeological sites is provided. The article analyzes the Stone Age material culture of the Lower Amu Darya region.

Kalit so‘zlar: Xorazm tekisligi, Oqchadaryo, Yonboshqala, Ustyurt platosi, Sariqamishbo‘yi xavzasi, Uzboy, Tuyamo‘yin, Orolbo‘yi xavzalari, Qizilqum, Dovdon, Orol dengizi, Jonbas-4.

Ключевые слова: Хорезмская равнина, Акчадарья, Ёнбошкала, плато Устюрт, Сарыкамышбойская котловина, Узбой, Туямуйин, бассейны Аральского моря, Кызылкум, Давдон, Аральское море, Джонбас-4.

Key words: Khorezm Plain, Akchadarya, Yonboshkala, Ustyurt Plateau, Sarykamysheboy Basin, Uzboy, Tuyamuyin, Aral Sea basins, Kyzylkum, Davdon, Aral Sea, Jonbas-4.

Vatanimizning fizik-geografik xaritasiga e'tibor berilsa, bir-birini takror qilmaydigan tabiiy-iqtisodiy xududlar kuzatiladi. Tabiiy- geografik xududlarning joylashishi, tabiiy-iqtisodiy resurslari, daryolarning xarakati, aholining joylashishi, o'zlashtirish bosqichlariga bo'lgan omillar yer osti tebranishlarini birnecha marotaba takrorlanishi natijasi mahsuli bo'lgan. Shunday tarixiy-geografik hududlardan biri Xorazm vohasi tekisligi hisoblanadi. Bundan 25-10 million yildan 600 ming yilliklarda Xorazm viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi hamda Turkmaniston Respublikasi Toshhavuz viloyatlari tekisligida joylashganligi geografik tadqiqotlar natijalaridan ma'lum. Tadqiqotchilar asarlarida qayd qilinishicha, Xorazm tekisligi (janubda Qoraqum Zauengizi, sharqda Qizilqum tekisligi Shuraxon yaqinidan Orol dengizi, g'arbda Qoraqum va sharqda Qizilqum) oralig'ida hudud 4,5 mln gektardan iborat bo'lib, shundan 2 mln gektari sernam va serunum bo'lib, ajdodlarimizning tabiiy manbalardan foydalanib, etnik munosabatlarni olib borishi barobarida kundalik faoliyatlarni olib borishiga keng imkoniyatni yaratgan. Darhaqiqat, mazkur geografik kenglik to'rtlamchi davrni pleystosen davri Vyurm muzligi Xorazm tekisligini qamrab olgan, 500-13 ming yilliklarda muzlik qoplagan, yomg'ir va qorlar suvlari Qoraqum va Qizilqum sahrosi to'liqinsimon qum uyumlari oralig'ida maydonchalar suv havzalariga aylangan, ularning sohil xududi o'simlik va xayvonot dunyosiga boy bo'lgan.

Xorazm ekspedisiyasi xodimlari A.V.Vinogradov, B.I.Bijanov Ustyurt hududida, Ye.A.Vinogradova Amudaryo so'l sohili hududida Burli-3 manzilgohida qazishma ishlari natijasida olingan ashyolar paleolit, mezolit va ilk neolit davrlariga mansub bo'lgan. B.I.Bijanovning Ustyurt platosi Shaxpaxta havzasida ibtidoiy odamlar madaniy izlarida amalga oshirilgan qazishmalari diqqatga sazovor. O'tgan asrning 70 yillar oxirida Ye.B.Bijanov Ustyurt platosi Shaxpaxta xavzasida uzunligi 10 km, kengligi 5 km hududda ro'yxatga olgan manzilgohlar hajmi 5x7 m, 10x20 m, 50x70 m, 30x150 m maydonda toshdan ishlangan mehnat qurollari olishga erishib, (200-300 ta) ularni ilmiy muomalaga olib kelingandan keyin Shaxpaxta 1,2,3, 4 olingan ashyolar ilk tosh davriga oid bo'lgan. Ye.A.Vinogradova esa, ro'yxatga olingan Burli-3 manzilgohi madaniy qatlamidan olingan tosh qurollar (200 dan ziyod) qo'l boltalari, qirg'ich, randalar, nayza uchlari, pichoqsimon va ponasimon qurollar, ushatgichlar, chaqmoqtosh va kvarsitdan tayyorlangan sandiqlar. Burli ustaxonasida tayyorlangan, ibtidoiy ovchilar mil.avv. V ming yillik oxirigacha mavjud bo'lgan tabiiy resurslardan

foydalangan degan xulosasiga qo‘shilish mumkin. Kezi kelganda qayd qilish lozimki, manzilgoh XX asr 70 yillaridan keyin arxeologik jihatdan o‘rganilgan.

XX asr 30 yillar oxiridan Xorazm ekspeditsiyasi Amudaryo o‘ng sohili hududida, Oqchadaryo havzasi janubiy hududida amalga oshirilgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida ro‘yxatga olingan. Jonbas-4 manzilgohida uy-xonalaridan olingan qo‘lda ishlangan bezakli kichik xajmli kulolchilik ashyolari, kemaga o‘xshash sopol parchalari olingan, ular bundan IV-III ming yilliklarga mansub bo‘lgan. 1940 yilda ekspeditsiya manzilgohda qazishma ishlarni olib borib, qo‘lda ishlangan bezakli idish-tovoqlar namunalari olingan.

22 ming yil avval Amudaryo Qoraqumni qum uyumlari oralig‘ida botiqlarni suv xavzalariga aylantirgandan keyin asosiy suvini Xorazm pasttekisligini o‘ng va so‘l hududlariga ajratgan. 10 ming yillik issiqlik harorati ma'lum darajada ko‘tarilishi natijasida Tatis muzligi shimoliy tomon chekinishi munosabati bilan sernam tekislik yanada sernam va serunum bo‘lgan. Aynan mazkur tarixiy sanadan o‘ng sohil tomon Oqchadaryo, so‘l sohilda esa Dovdon va Daryolik irmoqlari ajralib chiqib, Qizilqum va Qoraqum sahrosi gidrologik xususiyatini namoyon qilgan. . Shu kabi tarixiy ma'lumotlar quyidagi natijalarni izohlash imkoniyati hosil bo‘lgan.

Natijalarni quyidagicha belgilash mumkin:

- Oqchadaryo irmog‘i Sho‘raxon qishlog‘i shimolidan Qizilqum tomon 25 km yo‘nalishda suvini olib borib, Yonboshqala balandligi to‘siq bo‘lganligi bois to‘g‘ri tik holatda Orol dengizi tomon yo‘nalgan, bu bo‘yicha esa o‘z navbatida Sariqamishbo‘yi, Oqchadaryo va Orolbo‘yi xavzalari tarkib topgan.

- XX asr 30 yillar oxiridan Xorazm ekspeditsiyasi Amudaryo o‘ng sohili hududida Oqchadaryo havzasi janubiy hududida amalga oshirilgan arxeologik qidiruv ishlari natijasida ro‘yxatga olingan.

- 1957-yilda Xorazm ekspeditsiyasi Dingildji-6, Qavat-5, Qurg‘oshin G,D manzilgohlarda amalga oshirilgan qazishma ishlari munosabati bilan tosh, suyakdan ishlangan mehnat qurollari, yovvoyi xayvon, qushlarni tuxum po‘choqlari, baliq suyaklari olingan.

- 40-35 ming yilliklarda ovchilarga Sulton Uvays tog‘-kon ashyosi asosiy manba bo‘lgan, tabiiy sharoit qulay bo‘lgan. Mazkur manbalardan xulosa chiqarish mumkin bo‘ladiki Xorazm vohasi Ustyurt hududiga qaraganda (ochiq loydan, Sulton Uvays kabi tog‘lar mavjud emas) ancha kech odamlar o‘rnashgan. Shu narsa diqqatliki, Sulton Uvays tog‘i Pomir, Tyan-Shan tog‘lari kabi 4000-

5000 ming balandlik maqomiga ega emas (471 m) xuddi Ustyurt geografik xolatini takror qiladi, shunday bo'lsa xam Xorazmni shimoliy xududi ibtidoiy odamlarga tog'-kon ashyosi bilan xizmat qilgan.

Tahlil va natijalardan quyidagi xulosalarni qayd qilish joiz:

- S.P.Tolstov-tarixiy arxeologik tadqiqotlar natijalari, A.S.Kes-Xorazm vohasi geomorfologik va paleogeografiya masalalari, B.V.Andrianov-Xorazmning qadimgi sug'orilish tarmoqlari tarixi, Ya.G'.G'ulomov Xorazmning sug'orilish tarixi (neolitdan XX asr 50 yillar o'rtalari), A.V.Vinogradov neolit davri tarixi, Itina M.A. neolit va bronza davri tarixi kabi tadqiqotlar belgilab olinib, ularning natijalari turli nomda nashrlarda o'z mazmunini topgan.

- M.A.Itina Tuyamo'yin hududida arxeologik yodgorliklarida olib borgan arxeologik tadqiqotlar natijalariga ko'ra neolit davri so'nggi bosqichiga oid manbalar olingan. Mazkur hududni Sultan Sanjar havzasida neolit davriga oid manzilgohlar ro'yxatga olingan.

1945-yilda Oqchadaryo havzasida dala amaliyoti olib borilishi munosabati bilan Jonbas-5, 11, 12, 14, 18 manzilgohlari ro'yxatga olindi, ularda arxeologik izlanishlarni amalga oshirish ilmiy rejaga kiritilgan. Shu jihatlarni inobatga olib, quyidagi takliflarni qayd qilish maqsadga muvofiq:

- 1.Xorazm vohasi geografik o'rnini strategik ahamiyatini izohlash;
2. Oqchadaryo havzasi aholisi taqdirida tarixiy ahamiyatini oydinlashtirish;
- 3.Amudaryo havzasi urug' jamoalarining hunarmandchiligi va hunarmandchilik tarixini real manbalar asosida yoritish;

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1.Baratov P, Mamatqulov M, Rafiqov A. O'rta Osiyo tabiiy geografiyasi. – Toshkent, “O'qituvchi”, 2002.

2. Виноградов А.В, Итина М.А, Кес А.С,Мамедов Э.Д. Палеогеографическая обусловленность расселения древнего человека в пустынях Средней Азии //Первобитный человек, его материальная культура и природная среда в плейстосене и голоcene. – М.: Наука, 1974.

3.Kabirov J, Sagdullaev A. O'rta Osiyo arxeologiyasi-Toshkent, “O'qituvchi”. 1990.

4.Ibragimov R.Z. O'rta Osiyo arxeologiyasi. – Toshkent. 2020.

5.Виноградова Э.А. Первые палеолитические находки в Султануиздаге (Приарале в древности и средневекове). – М.: ИВЛ РАН «Наука», 1998.

6. Кес А.С. Проблема древнего течения Амударьи в свете новейших геоморфологических и археологических данных /Низовья Амударьи Сарикамиш Узбой. История формирования и заселения. – М.: Наука 1960. Вип-3.
7. Кес А.С. Аральское море в Голоцене (Этнография и археология Средней Азии. – М.: Наука, 1979.
8. Кес А.С. Антропогенное воздействие на формирование рельефа аллювиально делтовых равнин Амударьи // Культура и искусство Древнего Хорезма. – М.: Изд. Вост.Наука, Лит. 1981.

TARIX**MARKAZIY OSIYO HARBIY MODEL VA ISLOM DUNYOSI:
CHOKARDAN MAMLUKGACHA.****UO‘K 520.15**

**Bekzod
Abdirimov**

**Respublika Ma'naviyat va
ma'rifat markazi Xorazm
viloyati bo'limi rahbari,
(PhD)**

Annotatsiya: Maqolada IV–XIII asrlarda Turon hududida shakllangan chokar harbiy institutining ijtimoiy-ma'naviy mohiyati, uning Abbosiylar davrida shokiriya/g'ulom tizimiga aylanishi hamda Misr Mamluklar sultonligigacha bo'lgan institutsional rivoji tahlil qilinadi. Tadqiqot “chokar–g'ulom–mamluk” zanjirini turli sivilizatsion muhitlarda hukmdor hokimiyatini ta'minlovchi elita harbiy modelning uzviy evolyutsiyasi sifatida yoritadi.

Аннотация: В статье анализируется социально-духовная сущность военной структуры чокаров, сформировавшейся на территории Турона в IV–XIII веках, её трансформация в систему шокирий/гуламов в период Аббасидов, а также её институциональное развитие вплоть до Мамлюкского султаната Египта. В исследовании освещается цепочка «чокар–гулам–мамлюки» как целостная эволюция элитарной военной модели, обеспечивавшей власть правителя в различных цивилизационных условиях.

Annotation: The article analyzes the socio-spiritual essence of the military institution of the Chokar, which was formed in the territory of Turon in the 4th–13th centuries, its transformation into the Shokiria/Ghulam system during the Abbasid period, and its institutional development up to the Mamluk Sultanate of Egypt. The study highlights the “chokar–ghulam–mamluk” chain as an integral evolution of the elite military model that ensured the power of the ruler in various civilizational environments.

Kalit so'zlar: chokar, g'ulom, mamluk, tanmachi.

Ключевые слова: чокар, гулам, мамлюк, танмачи.

Key words: chokar, ghulam, mamluk, tanmachi.

Turon harbiy-siyosiy tarixida eng diqqatga sazovor hodisalardan biri — sadoqat, intizom va shaxsiy harbiy mahoratka tayangan elita jangchi guruhlarining shakllanishi va ularning keyinchalik islom dunyosi harbiy tizimiga singib ketish jarayonidir. Ushbu maqolada IV–XIII asrlar kesimida Turon o‘troq-dasht chegara hududlarida vujudga kelgan chokar institutining mohiyati, uning ijtimoiy maqomi hamda vazifalari tahlil qilinib, keyingi davrlarda Abbosiylar xalifaligi muhitida “shokiriya/g‘ulom (g‘ilmon)” shaklida qayta tashkil topishi va nihoyat, Misr Mamluklar sultonligi kabi davlatchilik darajasiga chiqqan harbiy institutga aylanish yo‘li yoritiladi.

Tadqiqotning markaziy g‘oyasi shundan iboratki, “chokar–g‘ulom–mamluk” zanjiri turli sivilizatsion muhitlarda (dasht/o‘troq, mahalliy davlatlar mahalliy urf/islomiy huquq) bir funksiyaning turlicha institutsional ko‘rinishlaridir. Chokar Markaziy Osiyoda hukmdorga “qul” sifatida emas, balki sodiq do‘st va saralangan xizmatkor sifatida tushunilgani; sadoqat onti, to‘raga xos tartib-intizom va harbiy maktab an‘analari bilan uyg‘unlashgani — keyingi islom harbiy tizimlariga o‘tishda hal qiluvchi omil bo‘lgan.

Maqolada xitoy va arab manbalari ma’lumotlari, hamda Kristofer Bekvit kabi tadqiqotchilarning “qahramon va uning do‘stlari” modeliga oid nazariy yondashuvlari asosida, chokarlar fenomeni faqat harbiy tuzilma emas, balki ijtimoiy ishonch, elita tarbiyasi va siyosiy barqarorlikni ta’minlagan mexanizm sifatida talqin qilinadi. Shu tarzda, Turon harbiy modelining Sharq islom dunyosidagi harbiy-davlatchilik jarayonlariga ta’siri “mikroinstitut”dan “imperiyaviy gvardiya” va “sultonlik tizimi”gacha bo‘lgan uzviy rivojlanish doirasida ochib beriladi.

Chokarlar haqida Bekviz ¹, Vesser ², Amikan Elad ³ kabi sharqshunoslar xitoy va arab tillarida yozilgan manbalar asosida Chokarlar harbiy tuzilmasi haqida ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirganlar. Ularning tadqiqotlariga ko‘ra Chokarlar nomi bilan ataladigan harbiy bo‘linmalar Eron sosoniylarida ham bo‘lgan. Ammo bu chokarlar dasht va o‘troq madaniyat harbiy an‘ana va qadriyatlari qorishgan Markaziy Osiyo chokarlaridan farq qilgan. Hususan, Eron sosoniylarida chokarlar deganda

¹ C. Beckwith, “Aspects of the Early History of the Central Asian Guard Corps in Islam,” *Archivum Eurasiae Medii Aevi* IV, 1984.

² ÉTIENNE DE LA VAISSIÈRE. SAMARCANDE ET SAMARRA ÉLITES D’ASIE CENTRALE DANS L’EMPIRE ABBASSIDE. PARIS. 2007.

³ Amikam Elad Preliminary Notes on the Term and Institution of al-Shākiriyya in Early Islam (ca. 14–218 H/635–36–833 CE) Mainly According to the Arabic Sources.

barcha harbiylar, yoki qullik darajasidagi askarlar tushunilgan bo'lsa Markaziy Osiyodagi chokarlar hukmdorga qul emas, saralangan, sodiq do'st kabi harbiy xizmatchilar tushunilgan. Shuningdek, fikrimizcha bu Markaziy Osiyoda dasht xalqlari etnopsixologiyasidagi qullikka emas hurlikga moyillik tafakkuri bilan bog'liq. Shuningdek, ayrim xollarda hattoki harbiy xizmatchi emas, ma'muriy xizmatchi ma'nosida ham qo'llanilgan. Masalan, ayrim chokarlarning o'z qullari ham bo'lganligi bunga misoldir¹.

Shuni yaxshi anglashimiz lozimki, Markaziy Osiyoda hukmdorga bo'ysunishning o'zigina hukmdorning quli degan ma'nosida ishlatilgan. Ya'ni boshqaruv ierarxiyasining eng katta bo'g'iniga nisbatan kichik bo'g'indagilarning bo'ysunishini o'zi Markaziy Osiyo o'rta asr jamiyatida qullik so'zi bilan ifodalangan. Ya'ni, hukmdorning eng yaqin davlat amaldorlari, hususan bosh vaziri ham hukmorga nisbatan o'zini qul sifatida, yana ham tushunarli qilib aytadigan bo'lsak, hukmdorga bo'ysunishni unga nisbatan qul sifatida ifodalashgan. Aslida bu faqatgina hukmdorga bo'ysunish, sodiqliknigina bildirgan. Bu asl hurlik va erkinligi bo'lmagan haqiqiy ma'nodagi qullikdan butkul farq qiladi.

Chokarlar tuzilmasi IV-VIII asrlarda asosan kichik davlatlar, yer-mulklarni qo'riqlash va tashqi hujumdan muhofaza qilish, karvonlarni qo'riqlash maqsadida tuzilgan. Ayrim tadqiqotchilar chorar harbiy instituti dasht harbiy an'analari asosida shakllangan deb qarashadi. Hususan, ular dasht xalqlari harbiy an'anasining eng muhim elementlaridan bo'lgan "Ontdoshlar" (mo'g'ullarda anda) tuzilmasiga o'xshash degan fikrni ilgari suradilar. Ma'lumki, qadimda Turon xalqlari harbiy qadriyatlarida eng hayotiy unsurlardan biri - sardor yoki hukmdorga askarlarning do'stlarcha sadoqat bilan xizmat qilish qasamini, ontini ichish jarayoni bo'lgan. Ont ichish – Sardor (hukmdor)ga do'stning tangri va ilohlar, ajdodlar ruhi nomi bilan sodiqlik hayot-momot ahdi. Bu marosimning keng tarqalgan shakllaridan biri qimiz yoki boshqa ichimlik solingan kosaga ont ichilayotgan kishilarning kesilgan kaftidan kosaga tomgan qon bilan qo'shib ichish jarayonidir. Bu siyosiy, harbiy, diniy mazmun kasb etgan va odatdaga ko'ra, sodiqlik onti, qasami buzilsa nafaqat harbiy og'ir jazo balki, ilohlarga qarshi chiqish sifatida baholangan. Shuningdek, jangchilarning ont ichishi – sardorga oxirgi nafasgacha sodiq bo'lish, aslo hiyonat qilmaslik, sardor o'lsa u bilan birga o'lishga tayyorligini bildirgan. G'arb olimlari sardor va unga sodiqlik qasamini ichgan jangchilar toifasini

¹ Amikam Elad Preliminary Notes on the Term and Institution of al-Shākiriyya in Early Islam (ca. 14–218 H/635–36–833 CE) Mainly According to the Arabic Sources. P. 196.

“Qo‘mita” so‘zi bilan ifodalaydilar. Kristofer Bekvit bu qo‘mitani “Qahramon va uning do‘stlari” sifatida ta’riflaydi¹. Haqiqatdan ham bu askarlar toifasi oddiy askar yoki harbiy xizmatchidan ko‘ra do‘stlar kabi kattaroq maqomda edi. Bunday ont ichish orqali tuziladigan harbiy jamoalar turkiylardan tashqari boshqa xalqlar orasida ham keng tarqalgan. Hech bir an’ana tashqi ta’sirsiz o‘z-o‘zidan paydo bo‘lishi qiyin, albatta. Ayniqsa, Turondek dasht va vohalarida ko‘chmanchi va o‘troq turmush tarziga asoslangan xo‘jalik yuritadigan jamiyatlarida an’analar, qadriyatlar sintezi ko‘p kuzatiladigan mintaqalarda. Shu nuqtai nazardan yuqorida ismlari keltirilgan tadqiqotchilarning chokarlar – dasht xalqlaridagi jangchi bo‘linmalar - “qo‘mita – sardor va uning do‘stlari”ning o‘troq jamiyatdagi ko‘rinishi degan fikrlarini maqullashimiz mumkin. Biroq chokarlar sonining biroz ko‘pligi dasht halqlaridagi qo‘mitadan biroz farq qiladi². So‘g‘dda eng jasur va kuchli askarlarga “Chokarlar” safiga kira olgan. Tadqiqotlarga ko‘ra bu so‘z Xitoychada “Jangchi” ma’nosida qo‘llanilgan³. VII asrda yashagan Xitoy sayyohi Xsyuan-Szan Samarqand chokarlarini *“Chokar bo‘lgan kishi jasur va dahshatli tabiatli bo‘ladi. Ular o‘limni uyga qaytish deb hisoblaydilar. Jangda ularga qarshi hech qanday dushman tura olmaydi”*. Yana bir Xitoy manbasida esa *“Mard va baquvvat erkaklar Chokarlar safiga kirishi mumkin”*ligi yoziladi. Chokarning egasi o‘lsa ular ham sardori, egasi bilan dafn etilish uchun o‘z jonlariga qasd qilardirlar. Ularning mavqeyi juda baland bo‘lib, oddiy yoki ozod etilgan qullardan katta farq qilgan. Tadqiqotlarga ko‘ra chokarlar ham maxsus harbiy ta’lim olganlar. Tahminlarga ko‘ra Samarqanddagi Chokardiza nomli mavze nomi ham Chokarlar yashaydigan qal’a degan ma’noni beradi. Bu joy chokarlarni harbiy, ruhiy tayyorgarligini amalga oshiradigan gornizon bo‘lgan. Bu kabi joylarda ular maxsus jangovor tayyorgarliklarini muntazam oshirib borganlar⁴.

Turkiy va so‘g‘diy harbiy muhitda shakllangan jangchilar guruhi nafaqat Markaziy Osiyo tarixida, balki Xitoy tarixida ham muhim o‘rin

¹ Christopher I. Beckwith. Ipek yolu Imparatorluklari Bronz Çağı’ndan Günümüze Orta Asya Tarihi. Çeviren

Kürşat Yıldırım. İstanbul. 2011. S - 2

² Michael Shenkar. The Origin of the Sogdian Civic Communities (nāf). Journal of the Economic and Social History of the Orient 63 (2020). P. 380.

³ Christopher I. Beckwith. Ipek yolu Imparatorluklari Bronz Çağı’ndan Günümüze Orta Asya Tarihi. Çeviren

Kürşat Yıldırım. İstanbul. 2011. S – 21.

⁴ Michael Shenkar. The Origin of the Sogdian Civic Communities (nāf). Journal of the Economic and Social History of the Orient 63 (2020). P. 381.

qoldirgan. Masalan, An Lushan VIII asrda Xitoyda yuzaga kelgan eng mashhur harbiy-siyosiy shaxslardan biri bo‘lib, u turkiy-so‘g‘diy muhitda voyaga yetgan. Uning otasi - turklar xizmatida bo‘lgan so‘g‘diy jangchi, onasi esa turklarning nufuzli Ashide qabilasidan chiqqan ayol edi. Shu sababli An Lushan bolaligidanoq ikki dunyo - so‘g‘diy savdo-madaniyati va turkiy harbiy an‘analar ta‘sirida shakllangan. U Xitoy-koreys chegarasida joylashgan Inchjou garnizonida xizmat qilib, qisqa vaqt ichida harbiy mahorati va jasurligi bilan tanilgan. An Lushan savdo yo‘llarini qo‘riqlagan so‘g‘diy-turk harbiylari, ya‘ni chokarlarga xos harbiy maktabdan chiqqan jangchi sifatida tarbiya topgan edi. Shuningdek uning o‘zi ham minglab jasur askarlarni asrab olgan. Tang imperatori uni katta harbiy lavozimlarga ko‘taradi va u butun shimoliy chegara hududlari uchun mas‘ul qo‘mondonga aylangan. Keyinchalik u 755-yilda tarixga An Lushan isyoni nomi bilan kirgan ulkan qo‘zg‘olonga boshchilik qilgan.

G‘ulomlar. Chokarlar harbiy institutining ilg‘or xususiyatlari arablarni ham o‘ziga tortadi. Chokarlarning harbiy fazilatlaridagi ustunlik sabab arablarning Turkistonga yurishlaridan so‘ng bu tuzilmalar halifalik qo‘shinlari tarkibida paydo bo‘la boshlaydi. Ular arab manbalarida “Shokiriya” sifatida nomlanadi hamda Bog‘dod halifaligi bu harbiy tuzilmadan o‘zarining davlatida keng foydalanishi natijasida O‘rta va Yaqin Sharqqa tarqaladi. G‘arb tadqiqotchilariga ko‘ra chokarlar o‘z sardorlariga Yevropada o‘rta asrlar ritsarlari o‘z qiroliga qanday xizmat qilgan bo‘lsa shunday xizmat qilishgan. Turonliklarga xos shaxsiy janovorlik xususiyatlari va turonliklardagi tartib-intizom normasi – to‘raga sodiqlik an‘analari asosida shakllangan chokar tizimi favkulotda afzalliklari sababli Abbosiylar halifaligi buni tez payqagan va bu modelni to‘lig‘icha o‘z harbiy an‘analariga ko‘chirishgan. Ta‘kidlash joizki, chokarlar o‘zlarining jangovor fazilatlarini, to‘raddek harbiy intizom normalariga sodiqligidan tashqari eng muhim jihati – hurligi, erkinligi jihatidan cheklangan Sosoniylardagi chokarlar (shokiriya)dan farq qilgan. Balki shu jihati ham arablarning Sosoniylar davlatini to‘liq egallashiga 20 yilga yaqin vaqt, Turkistonni to‘liq egallashiga qariyb bir asr vaqt ketgandir. Fikrimizcha, turkiylarga xos bo‘lgan jangovorlik jihatlaridan ustunlik sabab Turon chokar tizimini Abbosiylar halifaligi noyob tuzilma sifatida qabul qilingan.

Abbosiylar halifaligi turkistonlik chokarlarni o‘z xizmatiga olar ekan halifalarning eng ishonchli va sodiq kishilariga aylanadi. Boshqa odamlar esa alohida holda iqtidorini ko‘rsatib, xalifaning chokarlariga aylangan. Chokarlarga arabcha “g‘ulom” (ko‘pligi g‘ilmon) atamasi qo‘llanilgan

bo‘lib, bu “chokar” so‘zining to‘liq muqobilidir¹. Abbosiylar davrida Markaziy Osiyo ko‘chmanchi dasht bilan chegaradosh o‘troq so‘g‘diy jamiyatiga moslashgan chokarlar tizimi g‘ulomlar nomi bilan butun qo‘shinlarning eng ishonchli va asosiy qismi bo‘lib xizmat qilgan.

Arablarning Markaziy Osiyoga Ubaydulloh ibn Ziyod boshchiligidagi ilk harbiy yurishlarida Basraga 2 ming nafar buxorolik kamonchilardan iborat harbiy bo‘linmani ya‘ni chokarlarni olib qaytgan. Uning ortidan Said ibn Usmon jangchi bo‘lgan 50 nafar zodagonlarning o‘g‘illarini olib ketgan. Ammo ularga keyinchalik quldek muomala qilingan. Bunday munosabatni kutmagan chokarlar unga javoban Said ibn Usmonni o‘ldirib o‘zlaringi qullikka rozi bo‘lmasliklarini ko‘rsatishgan. Keyinchalik Abbosiy shahzodalar o‘rtasidagi kurashda Marvda yashagan Ma‘mun g‘olib bo‘lgach, o‘z hokimiyatini mustahkaamlash uchun o‘zi bilan olib ketgan turkiy jangchilarga suyanadi. Markaziy Osiyolik chokarlar - arablar tomonidan shokiriya (chokarlar) deb arabchalashtirilgan va keyinchalik mamluk yoki g‘ulom deb atalgan - davlatning yangi muhofiz qo‘shinlarini tashkil etdilar va ular to‘g‘ridan to‘g‘ri hukmdorga bo‘ysungan. Chokarlargacha bo‘lgan arab askarlari ishonchsiz deb topilgan va ular tarqatib yuborilgan. Marvda Ma‘munning vaziri Sahl chokarlar va boshqa askarlarni alohida-alohida yollagan. Masalan, u 4 ming nafardan iborat chokarlardan iborat gvardiya tashkil qilgan. Ma‘mun qo‘shinlarining g‘alabasi va keyingi chorak asr davomida Markaziy Osiyo elitalarining xalifaga sodiqligi xalifalik harbiy madaniyatini Markaziy Osiyo ruhida shakllantirgan. Bu siyosat undan keyingi halifa Mo‘tasim davrida ham davom ettirilgan. U ona tomonidan so‘g‘dlik bo‘lgan va u ham turkiylardan iborat maxsus gvardiya tuzgan². Darhaqiqat, Xalifa Mo‘tasimning turkiylardan tuzilgan gvardiyasi soni 10 mingdan oshgan va Bag‘dod ular bilan limmo lim to‘lgan, hatto yo‘llarda tub aholiga halaqit berib, shahar ahlining noroziligiga sabab bo‘lgan. Muarrih Ibn al Asir bu haqda: - “Shunda Xalifa Mo‘tasim ular uchun Samarra shahrini poytaxt sifatida, qul-u hurlardan iborat turkiy qo‘shinlar uchun qarorgoh sifatida qurganligini habar beradi³. U yana dastlabki mamluklarni Samarqand, Ustrushona, va Farg‘onadan keltirilgani uchun ularga Samaqandiy,

¹ ÉTIENNE DE LA VAISSIÈRE. SAMARCANDE ET SAMARRA ÉLITES D’ASIE CENTRALE DANS L’EMPIRE ABBASSIDE. PARIS. 2007. P 10.

² Christopher I. Beckwith. Ipek yolu Imparatorluklari Bronz Çağı’ndan Günümüze Orta Asya Tarihi. Çeviren

Kürşat Yıldırım. İstanbul. 2011. S – 21.

³ Ibnül Esir. İslam tarihi. Türkçe tercümesi. – İstanbul: Hikmet neşriyatı, 2016. J. 5. – S. 485.

Fargʻoniy deb nom berdi”¹ deb habar beradi. Xalifa Moʻtasim forsiy va arabiy nufuzdan xoli turkiy armiyadan qoʻshinda samarali foydalangan. Turk jangchilarining forslarning shuhratparastligidan, arablarning irqchiligidan xoli deb oʻylab, ularni koʻproq sotib olish, ichki rivojlanish va qurol-yaroq tayyorlash ishlarini topshirib qoʻygan. Ammo ushbu jangchilar davlat ishlariga juda tez kirishib, hatto barcha ishlar ularning qoʻllariga oʻtib, xohlaganlarini qiladigan darajada katta mavqega ega boʻlganlar. Natijada halifalar ularning qoʻlida asir kabi boʻlib qoladi, ularning mavqelari shu darajada oshib ketganki, boshqaruv ishlarini ular oʻz qoʻllariga oladilar. Ular oʻzlarining hoxishlariga koʻra halifalarni taxtga oʻtkizar yoki tushirardilar. Hattoki, arablar orasida “Keyingi halifa kim boʻladi” deb soʻralganida “gʻulomlar istagan kishi halifa boʻladi” degan kesatigʻ ham paydo boʻladi. Chunki qoʻshin va qoʻmondonlar ham turkiy gʻulomlardan edi. Xalifalikning hokimiyati zaiflashgach, shahar atroflaridagi boshliqlar oʻzlarining viloyatlarida mustaqil boʻlishga intilgan. Yana turklardan iborat qoʻshin va uning qoʻmondonlari xalifalarga har-xil mustaqil harakatlarga hukm chiqarish uchun xalifalarning quroli boʻlgan. Halifalar yangi yerlarni egallashda bu jangchilardan unumli foydalanganlar. Halifalik davrida mamluk sarkardalaridan Umar Fargʻoniy, Haris as-Samarqandiy², Bagʻir at-turkiy³, Bogʻa as-Sharabiy, Bayir Bek⁴, Tulin va uning avlodlari⁵, Jaʻlan at-turkiy⁶, Jurey⁷, Yarguch⁸ Muhammad ibn al-Faraj al-Fargʻoniy⁹, Mangu Choʻr al-Fargʻoniy, Bilga-choʻr Fargʻoniy¹⁰, Kayigʻliq at-turkiy, Abu Said al-Xorazmiy¹¹, Bejkem¹² kabilar Vizantiyani fath etishda, Misr, Shom, Arabistondagi jangovor harakatlarda unumli foydalanganlar.

Moʻtasim davrida Samarrada katta harbiy lager tashkil etilgan. Bu joy bir tomondan qurol-yaroq ombori, ikkinchi tomondan esa turkiy gʻulomlar uchun oʻz harbiy xususiyatlarini saqlab qolish markazi sifatida xizmat qildi. Lagerda taxminan 842 yilda 8 ming turk askari mavjud

¹ Ibnül Esir. Islam tarīhi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı, 2016. J. 5. – S. 486.

² Ibnül Esir. Islam tarīhi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı, 2016. J. 5. – S. 486-514.

³ Ibnül Esir. Islam tarīhi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı, 2016. J. 6. – S. 35.

⁴ Ibnül Esir. Islam tarīhi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı, 2016. J. 5. – S. 74-75.

⁵ Ibnül Esir. Islam tarīhi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı, 2016. J. 6. – S. 74-75.

⁶ Ibnül Esir. Islam tarīhi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı, 2016. J. 6. – S. 97.

⁷ Ibnül Esir. Islam tarīhi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı, 2016. J. 6. – S. 97.

⁸ Ibnül Esir. Islam tarīhi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı, 2016. J. 6. – S. 125.

⁹ Ibnül Esir. Islam tarīhi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı. 2016. J. 6. – S. 152.

¹⁰ Бобёров Файбулла. Туркий ўзлик. Тошкент: Янги аср авлоди. 2025. Б. 74.

¹¹ Ibnül Esir. Islam tarīhi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı. 2016. J. 6. – S. 358.

¹² Ibnül Esir. Islam tarīhi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı. 2016. J. 6. – S. 617.

bo‘lgan. Ayrim tadqiqotlarga ko‘ra halifalikdagi turkiy g‘ulomlarlardan iborat maxsus qo‘shinning soni 25 mingga yetganligi ta’kidlanadi¹. Butun tizim kavaleriya talablariga mos ravishda qurilgan, uylar qator-qator joylashtirilgan. Bu yerda xizmat qilganlar katta yoshli, Markaziy Osiyoda tarbiya topgan askarlar bo‘lib, ular o‘zligini yo‘qotmaganlar. Ular orasida ham ixtiyoriy kelgan zodagonlar, ham asirga olingan jangchilar mavjud bo‘lgan. Shuningdek, ixtiyoriy kelib qo‘shilgan askarlar ham ular safidan joy olib maxsus ruhiy va jangovorlik ta’limini olganlar. Qisqa qilib aytganda chokarlar harbiy tuzilmasi modeli asosida arab-islom muhitida g‘ulom (mamluk) tizimi yaratiladi. Bu harbiy tuzilma endi asir olib keltirilgan maxsus harbiy ta’lim olgan turkiy va boshqa asl yoshlardan iborat bo‘la boradi. Bu tizim Samarradagi (Markaziy Osiyodan keltirilgan jangchilar joylashgan shahar)dan farq qilib, yosh qullarni maxsus harbiy tarbiyadan o‘tkazishga asoslandi. U Samarra ramziy va texnik elementlarini saqlab qolgan holda yanada samarali tizimga aylandi va keyin butun islom dunyosida tarqaladi.

Saljuqiylar davlatining paydo bo‘lishi va islom sharqi sari kengayishi bu mintaqada turkiylar nufuzini yanada oshirgan. Sababi, saljuqiylar aslida turkiy bo‘lishi bilan birga, Saljuqiylar davlatining ham turk g‘ulomlariga suyanishi ortadi. Saljuqiylar sultoni Alp Arslon va mamlukiy tarbiyaviy nizom asoschisi Malikshohning katta vaziri Nizomulmulk o‘zining “Siyosatnoma” kitobida keltiradi: *“Xizmatda turgan qullarni hojat bo‘lgandagina ishlatish lozimligi va kamon o‘qlariga nishon bo‘lmasligi, qanday tez tarqalsa, shunday tez yig‘ilishni o‘rganishlari lozim bo‘ladi va bolalar, suv egalari, qurol-yarog‘ egalari va suvchilarning va eshikbonlar va amirlarning xizmatidagi kishilarning ishini qilish va bundan boshqa vazifalar borasida buyruq chiqarib butun kun ish yuklashga hojat yo‘q va har kuni xizmat uchun har bir hovlidan ular bir qanchasi va xoslaridan muayyan adadi ko‘rinish berishga buyurilishi lozim bo‘ladi”*. Bundan tashqari, sultonning kichik qullari bo‘lib, ularni ustidan xos yosh nazoratchilar bo‘lgan va yana ularning guruhlar ustida sarkorlari bo‘lgan. Vazir Nizomulmulk Sulton Malikshohga mamluklardan iborat harbiy qism tuzib bergan. Uning o‘zi mamluklar qo‘shiniga qattiq ishonar va o‘zining ismi bilan nomlanadigan “Nizomiyya mamluklari” deb tanilgan mamluklarning ko‘p sonli qo‘shin bilan mamlakatni himoyalagan va ular

¹ Самаров Р.С, Юлдашев М.М. ва б. Ўзбекистон тарихи (Ўзбекистон ҳарбий санъати тарихи). 8-жилд. Тошкент:2023. Б. 147.

sababli nufuzi oshgandi. Nizomulmulk turk mamluklari uchun yer ulushlarini taqsim qilgan birinchi shaxs hisoblanadi. Harbiy xizmat sovg‘asi naqd beriladigan bo‘lgandan so‘ng yer ulushi beriladigan bo‘ldi. Shunda yer berilgan mamluklarga davlatning boyligi va quvvatini saqlash uchun yerlarni parvarishlash va qurilishga kafil qilib topshirdi. Shuningdek, qo‘rg‘onlar, shaharlar va viloyatlar “otabek” deb nomlangan qullarning qo‘mondonlariga ochib qo‘yildi. Yana shuni aytish lozimki, vazir Nizomilmulk “otabek” deb laqablangan birinchi tarixiy shaxs edi¹. G‘ulom, mamluk deb nomlangan bu jangchida bo‘lgan huquq hattoki ozod, boy odamlarda ham bo‘lmagan. Ular oliy tabaqali odamlar toifasiga kirib hukmdorlar bilan bir qatorda turganlar. Shuning uchun bunday “qullik” ularga hech ham og‘ir botmagan, balki, aksincha ularga keng imkoniyatlar, hokimiyatga yo‘l va ijtimoiy ustunlik berar edi. Aslida ular qul bo‘lmaganlar, chunki islomda abd – “qul” so‘zi odamning hozirgi holatini emas, balki uning o‘tmishdagi holati va kelib chiqishini bildirgan².

Mamluklar. Demak, Turkistonda yuzaga kelgan chokarlar harbiy instituti modeli Bog‘dod halifaligidagi, musulmonchilik an‘analari bilan biroz transformatsiyaga uchragan g‘ulom-mamluk harbiy tuzilmasi tashkil topadi. Endilikda nafaqat Turkistondan, balki boshqa o‘lkalardan olib kelingan, yoki o‘z ixtiyorlari bilan kelib qo‘shilgan jangchilar g‘ulomlar safini to‘ldirib boradi. Ularga maxsus harbiy ta‘lim beriladi. Mamluklarga berilgan harbiy ta‘lim tizimi tarixi Misrda tashkil topgan Misr Mamluklar davlati misolida yaxshi o‘rganilgan. Mamluklar garchi umumiy ma’noda qul sifatida, mulk sifatida qaralgan bo‘lsa ham, ularni hokimiyatga olib kelgan tushuncha ular bilan yo‘lga qo‘yilgan munosabatlar tizimi edi. Umuman butun Sharq mintaqasida, ayniqsa, musulmon olamida qulga nisbatan munosabat bir muncha liberal va insonparvardir. Antik va klassik quldorlikka nisbatan Sharq, ayniqsa musulmon dunyosida qul bilan iqtisodiy omillar tufayli emas, insoniy nuqtai nazardan munosabat o‘rnatilgan. Tarix ko‘rsatadiki, musulmon dunyosida qullar asosan xonadon xo‘jaliklarida foydalanilgan. Ishlab chiqarish jarayonida ekspluatatsiya qilinmagan. Odatda bu jarayonda yollanma mehnatdan foydalanilgan. Shuningdek, qullarni o‘z oila a‘zosiidek ko‘rish holati ko‘p uchraganligi uchun Sharq jamiyatida qullar o‘zlarining ijtimoiy va iqtisodiy darajalarini oshirish imkoniyatiga ega bo‘lganlar.

¹ Али Мухаммад ас-Соллобий. Султон Сайфиддин Кутуз ва Айн-Жалут жанги. – Қоҳира, 2009. Б. 23.

^{2 2} Ибн Ҳавқал. Китоб Сурат ал-ард. Ш.С.Камолиддин таржимаси. Тошкент. 2011. Б. 128.

Mo'g'ullarning Turkiston va Eronga yurishidan so'ng Suriya va Misr hududlarida ko'p miqdorda turkiy va kelib chiqishi boshqa bo'lgan xalqlarning ommaviy ko'chib kelishi kuzatiladi. Bunday holatda ayyubiylar hokimiyatida ularning soni va ahamiyati ortib borishi kuchayadi. Nihoyat XIII asrning o'rtalaridan Misrda turkistonlik mamluklar hokimiyatni egallaydi. Misr mamluklarining bunday keng siyosiy jarayonlarda faol harakat qilganliklarining asosiy sabablaridan biri sifatida mamluklarning ta'lim va tarbiyasidagi tartib-intizom va mustahkam tizimning o'rni katta bo'lganini e'tirof etishimiz lozim.

Mamluklar bilan qullar kabi muomala qilinmasdi. Balki, buning tomoman teskarisi, xojalari mamluklarni bolalari kabi bilishardi. Molik (mamlukning egasi, xojasi) va mamlukning o'rtasidagi bog'liqlik hech qachon qul va xo'jayinning o'rtasidagi muomala kabi bo'lmas, balki o'quvchi-o'qituvchi yoki ota va o'g'il singari kechardi. Bunda begonalik va qaxrdan ko'ra, yaqinlik va mehr ustuvor bo'lgan. Hattoki mamluklar o'zlarini sotib olgan xo'jayinlarini xo'jayin deb emas balki ustoz deb atashardi.

Mamluklarni o'qitish, ularni ta'limini tashkil qilish odatda uch bosqichdan iborat bo'lardi. Birinchi bosqich: Yoshlikdan boshlanib balog'at yoshigacha. Chunki mamluklar maliklar va sultonlarning xohishiga ko'ra yoshlikdan olib kelinardi. Sotib olgan shaxsning ijtimoiy kelib-chiqishi odatda mamlukning o'qitishning shaklini ham belgilardi. Biroq, barcha mamluklar albatta diniy bilim olishlari majburiy edi va aynan shuning uchun bu bosqichda kuchli ustozlar dindan saboq berganlar. Bu bosqichda bolalarning bir muddat jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishlariga ham e'tibor berilardi. Ikkinchi bosqich. Bu balog'at yoshidan boshlanadigan bosqich bo'lib, bu bosqichda bolaning ta'limiga kamondan o'q otish, nayza o'ynatish, qilich urish, ot minish kabi harbiy fanlar ko'shilardi. Bu bosqichda o'ta qattiqqo'l bo'lishga e'tibor qaratiladi. Agar mamluk bola xato qilib qo'ysa, shunchaki kechirilmaydi, balki agar axloqida kamchiliklar kuzatilsa, juda qattiq jazolanar edi.

So'ngra bolalar ma'lum guruhlariga ajratilib, har birlariga sport ilmlarida va jangovor mashg'ulotlarda alohida murabbiylarni birlashtirib qo'yar edilar. Ular majburiy sport mashg'ulotlarida suzish, uzoq masofalarga yugurish, yakka kurash, piyoda va ulovda to'p o'ynash (chavgon) kabi sport turlaridan mashq qilishadi. Bo'sh vaqtlarida esa, ular o'zlarining amaliy, adabiy qiziqishlari bilan mashg'ul bo'lishadi. Balki

shuning uchun ham mamluklar orasidan mashhur ijodkorlar, amaldorlar ham yetishib chiqqanini ko‘rishimiz mumkin.

Uchinchi bosqich mamluklarning askarlikka, boshqaruvchilikka yoki boshqa aniq bir sohaga iqtidori namoyon bo‘la boshlaydigan bosqichidir. Aynan shu bosqichda mamluk bolalar o‘rtasida turli fan va sport turlaridan musobaqalar tashkil qilinadi, o‘zaro yakkama-yakka kurashlar uyushtirilardi. So‘ngra ularni sinovdan o‘tishlari uchun jang maydonlariga yuborishadi. Eng yaxshi natija ko‘rsatgan mamluklar odatda haqiqiy jang maydonlariga chiqishar, omon kelgan va o‘zining iste’dodlarini ko‘rsata olganlarni qullikdan ozod qilish bilan mukofotlashar edi. Bu ularning kichik askariy bo‘linmalarda faoliyat olib borishlari hamda shu orqali o‘z lavozimlarini ko‘tarib borishlariga imkoniyat yaratardi.

Mamluklar nazariy va amaliy bilimlarni egallaganlaridan so‘ng maxsus bitiruv to‘y marosimi tashqil qilingan. Marosim davomida unga “atoq” yoki “i’toq” deb nomlangan shahodatnoma topshirilgan. Bundan tashqari unga qurol, ot, “qumosh” deb nomlangan maxsus libos va butun umri davomida uniki bo‘ladigan yer ham unga berilgan. Bu paytda u “atiyq” yoki “ma’tuq” (ozod qilingan) deb nomlangan. Ya’ni u ozod qilingan. Bitiruvchi mamluklar har biri “bosh” yoki “naqib” deb aytiladigan lavozimlarga tayinlangan. Mamluklarning eng tartibli va intizomlilari, harbiy ishlarda tajriba orttirganlari katta lavozimlarga ham tayinlanganlar. Ular orasida ba’zi ilmi ziyoda bo‘lganlari faqih, adib yo hisobchi kabi mas’uliyatli martabalariga ham saylanganlar.

Misr mamluklarining tili turkiy edi¹. Mamluklardan yetishib chiqqan sultonlar va ko‘plab oliy vazifalarga tayinlangan boshliqlar garchi arab tilini mukammal bilmasalarda, ulardan ba’zilari arab tilini o‘rgangan va fasih til sohibiga aylangan edi. Bundaylar hatto fiqhiy vazifalar ham topshirilgan. Mamluk ulamolar ham aynan arab tiliga murojaat qilganlar.

G‘ulom va mamluklar tomonidan asos solingan sulolalar. Abbosiylar hokimiyati kuchsizlanib, saljuqiylar davlati parchalangach turli mansabdagi g‘ulomlardan chiqqan sarkardalar mustaqil siyosat yuritishga harakat qiladi.

IX-XVI asrlarda Yaqin Sharq mintaqasida asli kelib chiqishi buxorolik bo‘lgan Ahmad ibn To‘lin – Misrda to‘liniylar (868-905 yy.) sulolasiga, asli farg‘onalik Muhammad ibn Tog‘oj – Misrda ixshidiylar (935-969 yy.) sulolasiga, kelib chiqishi Turkistonlik bo‘lgan Shajar ad -Dur

¹ Али Мухаммад ас-Соллобий. Султон Сайфиддин Кутуз ва Айн-Жалут жанги. – Қоҳира, 2009. Б. 33.

va Oybek davridan boshlab – Misrda Mamluklar sulolasiga (1250-1517 yy.) asos solinadi.

Turkiston va Hurosonda ham gʻulomlardan chiqqan amirlar tomonidan bir qancha sulolalarga asos solinadi. Masalan, Somoniylar hukmronligi davrida gʻulom boʻlgan Sabuqtegin tomonidan Gʻaznaviylar sulolasiga (962-1186 yy.) asos solinadi. Saljuqiylar gʻulomi boʻlgan Anushtegin esa Xorazmshohlar sulolasiga (1077-1231 yy.) asos soladi.

Tanmachilar (Tammachilar). Moʻgʻullar davridagi bu harbiy institut chokar–gʻulom–mamluk institutsional zanjirida ishtirok etmaydi. Shunga qaramay, Markaziy Osiyoda harbiy tashkilotchilikning oʻrta asrlardagi umumiy manzarasini toʻliqroq tiklash uchun “tanma” garnizon tuzilmasiga alohida izoh berish maqsadga muvofiqdir. Moʻgʻullar saltanatining kengashib borishi bilan oʻzlarining hukmronligini saqlash maqsadida “tamma”(tanma) institutini shakllantirganlar. Bu qoʻshin bosib olingan oʻlkalarda moʻgʻul hokimiyatini saqlab turish, savdo yoʻllarini himoya qilish, belgilangan topshiriqlarni bajarish uchun moʻljallangan. Ular etnik jihatdan xilma-xil boʻlganlar. Hususan, Xitoydagi moʻgʻul hokimiyatini saqlash uchun turkiy urugʻlardan, turkistonliklardan tammachi gvardiyalari tuzilgan. Markaziy Osiyoda, Eronda, Kavkazda ham huddi shunday yuqoridagi vazifalarni bajarish uchun ushbu gvardiyadan fodalanilgan.

Ushbu maqolada Turon harbiy hayotida IV–XIII asrlar davomida yuz bergan muhim institutsional oʻzgarishlar tahlil qilindi. Tadqiqotning asosiy natijasi shundan iboratki, Turonning oʻtroq–dasht chegara muhitida shakllangan chokar instituti keyinchalik islom dunyosida, ayniqsa Abbosiylar xalifaligi sharoitida “shokiriya/gʻulom” koʻrinishiga oʻtib, nihoyat Misr Mamluklar sultonligi kabi davlatchilik darajasiga chiqqan **mamluk** tizimida mukammal institutsional shaklga ega boʻlgan. Demak, “chokar–gʻulom–mamluk” zanjiri turli sivilizatsion muhitlarda bir vazifaning — hukmdor hokimiyatini taʼminlaydigan, maxsus tayyorgarlikka ega, sadoqat va intizomga suyangen elita harbiy tabaqani vujudga keltirish vazifasining turlicha institutsional koʻrinishlaridir.

Birinchi xulosa shuki, Markaziy Osiyoda “qul” atamasi koʻp hollarda klassik quldorlik mazmunini emas, balki bogʻliqlik va boʻysunishning siyosiy-huquqiy shaklini anglatgan. Shu sababli chokarlar mahalliy muhitda “qul” sifatida emas, balki hukmdorga sodiq, saralangan va ayrim hollarda maʼmuriy xizmatni ham bajara olgan obroʻli harbiy qatlam sifatida namoyon boʻladi. Chokarlikka qabul qilingan jangchilarning ruhiy-axloqiy

qadriyatlari (sadoqat onti, to‘raga yaqin intizom tamoyillari) ularni oddiy qo‘shindan ajratib turgan.

Ikkinchi xulosa: Abbosiylar xalifaligi muhitida turonlik elita jangchilarning ta’siri harbiy tizimga strategik tus berdi. Xususan, Ma’mun va Mo‘tasim davrlarida turkiylardan tashkil topgan gvardiyaning markazlashuvi, Samarra kabi harbiy qarorgohning barpo etilishi va g‘ulomlar korpusining kengayishi — chokar institutining mazmunan saqlanib, islom dunyosida yangi siyosiy-huquqiy ramkada qayta tashkil topganini ko‘rsatadi. Bu bosqichda elita harbiy tuzilma muhofazadan tashqari davlat boshqaruvi va siyosiy qarorlar muvozanatiga ham ta’sir etuvchi kuchga aylana boshlagan.

Uchinchi xulosa: mamluk tizimida ushbu model yanada institutsionallashib, maxsus tarbiya-tayyorgarlik, qat’iy nizom, bosqichma-bosqich kamolot va xizmat evaziga berilgan ijtimoiy imtiyozlar orqali “elita jangchi”ni “siyosiy elita”ga aylantirgan. Shu jihatdan chokar–g‘ulom–mamluk zanjiri Turon harbiy madaniyatining Sharq islom dunyosiga kirib borgan qadriyatli kodi (sadoqat, intizom, harbiy mahorat) turli sharoitlarda turli shakllarda davom etganini tasdiqlaydi.

To‘rtinchi, qo‘shimcha xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, mo‘g‘ullar davridagi **tanmachilar (tammachilar)** instituti chokar–g‘ulom–mamluk zanjirining to‘g‘ridan-to‘g‘ri evolyusion davomi bo‘lmasa-da, o‘rta asrlar Markaziy Osiyo harbiy tashkilotchiligining umumiy manzarasini to‘liqroq anglashda muhim kontekst beradi. Tanmachilar — bosib olingan hududlarda garnizon va nazorat vazifalarini bajargan, savdo yo‘llarini muhofaza qilgan va topshiriq ijrosini ta’minlagan harbiy-ma’muriy tuzilma bo‘lib, mo‘g‘ul davlatchilik amaliyotida markaziy hukmronlikni saqlash vositasi sifatida ishlagan. Shu bois, tanmachilarni maqolada alohida izoh sifatida kiritish Markaziy Osiyodagi harbiy modellar xilma-xilligini va davrlar kesimidagi tashkilotchilik usullarining o‘zgaruvchanligini ko‘rsatadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkinki, Markaziy Osiyo harbiy modeli — ishonch, tarbiya, sadoqat va intizom mexanizmidir. Mazkur mexanizm chokarlardan boshlanib, Abbosiylar davrida g‘ulomlar korpusida markazlashib, mamluklar davrida davlatchilik darajasiga ko‘tarildi. Bu tarixiy tajriba Turon harbiy madaniyatining Sharq islom dunyosi harbiy-siyosiy taraqqiyotida tutgan o‘rnini ochib beruvchi muhim dalillardan biri bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ali Muhammad as-Sollobiy. Sulton Sayfiddin Qutuz va Ayn-Jalut jangi. – Qohira, 2009.
2. Ibn Havqal. Kitob Surat al-ard. Sh.S.Kamoliddin tarjiması. Toshkent. 2011.
3. Christopher. Beckwith, “Aspects of the Early History of the Central Asian Guard Corps in Islam,” *Archivum Eurasiae Medii Aevi* IV, 1984.
4. ÉTIENNE DE LA VAISSIÈRE. SAMARCANDE ET SAMARRA ÉLITES D’ASIE CENTRALE DANS L’EMPIRE ABBASSIDE. PARIS. 2007.
5. Amikam Elad Preliminary Notes on the Term and Institution of al-Shākiriyya in Early Islam (ca. 14–218 H/635–36–833 CE) Mainly According to the Arabic Sources.
6. Christopher I. Beckwith. Ipek yolu Imparatorluklari Bronz Çağı’ndan Günümüze Orta Asya Tarihi. Çeviren Kürşat Yıldırım. Istanbul. 2011.
7. Michael Shenkar. The Origin of the Sogdian Civic Communities (nāf). *Journal of the Economic and Social History of the Orient* 63 (2020).
8. Ibnül Esır. İslam tarihi. Turkcha tarjiması. – Istanbul: Hikmet neşriyatı. 2016. J. 6-9.
9. Bobyorov G‘aybulla. Turkiy o‘zlik. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2025.
10. Samarov R.S, Yuldashev M.M. va b. O‘zbekiston tarixi (O‘zbekiston harbiy san’ati tarixi). 8-jild. Toshkent: 2023.

TARIX**O‘ZBEKISTON SIYOSIY HAYOTIDA
GENDER TENGLIK MASALALARI.**

Axmedova Nilufar,
Urganch Innovatsion
Universiteti magistranti

UO‘K 520.15

Annotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik yillarida O‘zbekistonning siyosiy hayotida gender tenglik masalasining davlat siyosati darajasiga ko‘tarilishi, bu borada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar, huquqiy mexanizmlarning mustahkamlanishi hamda mamlakat xotin-qizlarining siyosiy faolligini oshirilish masalalari va ushbu masalada o‘zgarishlar jarayonlari ilmiy-nazariy, tarixiy jihatdan tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье с научно-теоретической и исторической точек зрения анализируется процесс выдвигания вопроса гендерного равенства в политической жизни Узбекистана в годы независимости на уровень государственной политики, проводимые в этом направлении масштабные реформы, укрепление правовых механизмов, а также вопросы повышения политической активности женщин страны и динамика изменений в данной сфере.

Annotation: This article provides a scientific-theoretical and historical analysis of the process by which the issue of gender equality in the political life of Uzbekistan during the years of independence has been elevated to the level of state policy. It examines the comprehensive reforms being implemented in this area, the strengthening of legal mechanisms, as well as issues related to increasing the political participation of women in the country and the dynamics of changes in this sphere.

Kalit so‘zlar: Gender tenglik, globallashuv, Oliy Majlis, zamonaviy gender siyosati, Qonunchilik palatasi, Senat, BMT.

Ключевые слова: Гендерное равенство, глобализация, Олий Мажлис, современная гендерная политика, Законодательная палата, Сенат, ООН

Key words: Gender equality, globalization, Oliy Majlis, modern gender policy, Legislative Chamber, Senate, UN.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, mazkur davrda xotin-qizlarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoyalash, gender tenglikni ta'minlash, ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning davlat boshqaruvi va qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish, jamiyatdagi o'rni va nufuzini yuksaltirish orqali ayollarning hayotda o'z o'rnini topishi uchun zarur imkoniyat va sharoitlarni yaratish, ma'naviy salohiyatini ro'yobga chiqarish, ilg'or g'oya va tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor tamoyillari darajasiga olib chiqildi. Ayollarning mavqeini va ijtimoiy-siyosiy faolligini demokratik qadriyatlar asosida oshirishga qaratilgan huquqiy, siyosiy va ijtimoiy shart-sharoitlar milliy mustaqillik davriga kelib shakllandi. Ayniqsa, globallashuv sharoitida xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish nihoyatda muhim ahamiyat kasb etib boryapti. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 58-moddasida "Xotin-qizlar va erkaklar teng huquqlidirlar. Davlat xotin – qizlar va erkaklarga jamiyat hamda davalat ishlarini boshqarishda, shuningdek jamiyat va davlat hayotining boshqa sohalarida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlaydi", - deb belgilangan[1]. Bu avvalo, ayollarning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy faolligini, tashabbuskorligini oshirish masalalariga davlat tomonidan alohida e'tibor qaratilayotganining huquqiy asosi ekanligini taqozo etmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 sentabrdagi "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi 562-son Qonunining 3-moddasiga asosan, gender — xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihati ekanligi belgilab berilgan[2]. Globallashuv sharoitida jamiyatning ijtimoiy-siyosiy hayotida tub o'zgarishlar yuz bermoqda va bu jarayonda gender tengligi masalasi alohida dolzarblik kasb etmoqda. Ushbu Qonunda gender tushunchasining ijtimoiy jihatdan talqin etilishi globallashuv jarayonlariga mos ravishda jamiyat rivojining zamonaviy talablariga javob beradi.

Bugungi kunda globallashuv axborot almashinuvi, demokratik qadriyatlarning keng tarqalishi va fuqarolik jamiyati institutlarining rivojlanishi orqali xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Siyosiy jarayonlarda, davlat boshqaruvi va qarorlar qabul qilish tizimida xotin-qizlarning faol ishtiroki jamiyatda adolat, ochiqlik va barqaror rivojlanishni ta'minlashning muhim omillaridan biri hisoblanadi.

Shu nuqtayi nazardan, gender tengligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar globallashuv sharoitida xotin-qizlarning siyosiy madaniyatini

yuksaltirish, ularning yetakchilik salohiyatini ro'yobga chiqarish hamda jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi o'rnini mustahkamlashga xizmat qiladi. Xotin-qizlarning davlat va jamoat boshqaruvidagi ishtiroki nafaqat ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish, balki jamiyat taraqqiyotining strategik yo'nalishlarini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Davlat rahbarining tashabbusi bilan Oliy Majlis Qonunchilik palatasida Oila va ayollar masalalari bo'yicha komissiya, Senatda esa Xotin-qizlar va gender tenglik masalalari bo'yicha qo'mita hamda O'zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar gender tengligini himoya qilish bo'yicha komissiyaning tashkil etilishi ham O'zbekistonda ayollarga ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlik siyosatining natijasidir[3, B. 6-7.].

Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Xalqimiz azaldan muqaddas Ona zotiga, xotin-qizlarga doimo yuksak ehtirom ko'rsatib keladi. Ayolga bo'lgan hurmat-e'tibor – bu avvalo oilaga, jamiyat kelajagiga bo'lgan hurmat-e'tibor ifodasidir. Shu nuqtai nazardan qaraganda, "Yer yuzidagi har qaysi jamiyatning madaniy darajasi uning ayollarga nisbatan munosabati bilan belgilanadi", degan hikmatli so'zlarda albatta chuqur ma'no bor"[4].

O'zbekiston sharoitida gender siyosatining milliy modeli ham umumjahon demokratik tamoyillar, ham sharqqa xos bo'lgan milliy xususiyatlar asosida qurila boshlandi. Zamonaviy gender siyosatining asosiy yo'nalishi, jamiyatda ayollarning ijtimoiy maqomini real ko'tarish, kechayotgan ijobiy jarayonlarda ularning hissasini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarning qonunchilik asosida amalga oshirilishida kuzatildi. Buning ifodasi sifatida konstitutsion asosda ayollar va erkaklarning teng huquqli ekani qayd etilganligini ta'kidlash joizdir[5]. Asosiy Qonun (Konstitutsiya)dagi mazkur norma qator qonunlarda o'z ifodasini topdi.

Shuningdek, O'zbekistonda dunyodagi sanoqli davlatlar qatorida mamlakat parlamentining quyi palatasi raisi (2007-2015 yillarda D.Toshmuhamedova) va Senat raisi o'rinbosari (2010-2013 yillar mobaynida M.Radjabova), (2015-2019 yillar mobaynida S.Artikova), Senat raisi (2019 yil 22 iyundan T.Norboeva), senator Oliy sud raisining birinchi o'rinbosari– jinoyat ishlari bo'yicha sudlov hay'ati raisi R.Mahmudova (2020 yil 12 iyuldan) sifatida ayollar faoliyat ko'rsatayotgani, shuningdek, vazirlar, hokimlar, hokim o'rinbosarlari orasida ayollar faoliyat yuritayotganini ta'kidlash lozim. Aynan, Oliy Majlis Senati raisligiga ayol kishining saylanishi mamlakatda gender tengligini ta'minlash yo'lidagi muhim siyosiy qadam bo'ldi. Senat raisligiga ayol kishining saylanishi orqali O'zbekiston palata rahbari ayol kishi bo'lgan sanoqli - 56 ta davlat safiga kirdi. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi hamda Gender tenglikni ta'minlash masalalari bo'yicha komissiyasi

xamkorligida mamlakatda gender tenglikka erishish masalalariga jamoatchilik e'tiborini keng jalb etish, turli tuzilmalar faoliyatiga gender tenglikni singdirish maqsadida "Gender tenglik faoli" nomli milliy tanlov e'lon qilinganligi bu boradagi davlat e'tiborining yana bir dalilidir. Xususan, tanlovda "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol vazirlik va davlat muassasasi", "Xotin-qizlar huquqlarini himoya qilgan eng yaxshi huquqni muhofaza qilish organi", "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol hokimlik", "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol NNT", "Gender tenglikni ta'minlashda eng faol tadbirkorlik faoliyati sub'ekti" kabi nominatsiyalarning belgilanishi gender tenglikni ta'minlash sohasida yuqori natijalarga erishgan, ushbu yo'nalishda jamiyat rivoji uchun tashabbus ko'rsatayotgan, xotin-qizlar huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga ayrim muammolarni ham qayd etib o'tish zarur. Xususan, 2009 yilgi parlamentning quyi palatasiga o'tkazilgan saylovda barcha nomzodlarning 31 %ini ayollar tashkil etgan bo'lsa, saylov yakunlariga ko'ra bu ko'rsatkich Qonunchilik palatasida 22 % (33 nafar)ni, Senatda esa 15%ni ta'minladi. Mahalliy vakillik organlarida faoliyat ko'rsatayotgan ayollar esa jami deputatlar sonining 20 %idan ortig'ini tashkil etgan.

2019 yilda deputatlar orasida ayollar soni kamaygani ta'kidlab o'tish joizdir. Agar 10 yil avval ular Senat a'zolari va Qonunchilik palatasi deputatlarining 20 foizdan ortig'ini tashkil etgan bo'lsa, 2019 yilga kelib bu ko'rsatkich yuqori palatada 17 foizga, quyi palatada esa 16 foizga kamaydi.

2020 yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta'kidlab o'tkanday: "Hozirda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli demokratik islohotlar samarasida xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy jarayonlardagi faolligi tobora ortib bormoqda. Buni 2019 yilning dekabr oyida bo'lib o'tgan mamlakatimiz parlamenti va mahalliy Kengashlariga bo'lib o'tgan saylovlar yana bir bor yaqqol ko'rsatdi"[6, B.4-7.].

2024-yil insoniyat tarixidagi eng yirik saylovlar yilidir. 72 mamlakatda 3,7 milliard inson saylovda qatnashish imkoniyatiga ega. O'nlab yillar davomida BMT Taraqqiyot Dasturi demokratik jarayonlarni mustahkamlash, saylovlarda yordam ko'rsatish, ayollarning siyosatdagi ishtirokini oshirish va axborotning haqqoniyligini ta'minlash uchun mamlakatlar bilan hamkorlik qilib kelmoqda.

Saylovlarning "super yili"da BMT Taraqqiyot Dasturining O'zbekistondagi vakolatxonasi "O'zbekistonda xotin-qizlarning siyosiy hayotda ishtirok etishi va yetakchilik qilishidagi to'siqlarni bazaviy tadqiq etish" tadqiqotini o'tkazdi.

Bazaviy tadqiqotning maqsadi ayollarning siyosiy imkoniyatlarini kengaytirish yo'lidagi qiyinchiliklar va to'siqlarni aniqlash edi. Tadqiqot

mamlakatimizning deyarli barcha hududlarini qamrab oldi va ayollarning yetakchilikdagi ishtiroki pastligini tushunishga, ayollarning mahalliy va milliy siyosiy jarayonlardagi ishtirokiga to'sqinlik qilayotgan stereotiplarni aniqlashga yordam berdi.

2024-yili O'zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga yangi saylangan deputatlarning Deputatlar orasida ayollar soni 11 nafarga ko'payib, 48 dan 57 nafarga yetdi, ularning ulushi 32 foizdan 38 foizga o'sdi. Deputat ayollarning o'rtacha yoshi 2,7 yoshga — 52,1 yoshgacha ko'tarilgan. Har bir partiyadagi ayollar soni esa O'zLiDeP da 24 nafar ayol, «Milliy tiklanish»da 8 nafar ayol, O'zXDP da 8 nafar ayol, Ekologik partiyasida 6 nafar ayol, «Adolat» partiyasida esa 11 nafar ayollarni tashkil qilgan [7, B. 6.].

Umuman olganda olib borilgan amaliy ishlar natijasida 2024 yil bo'lib o'tgan saylov yakunlari bo'yicha parlamentning quyi palatasiga 48 nafar ayol deputat etib saylandi. Deputatlar umumiy sonining 32 foizini, Senatda esa 25 foizni xotin-qizlar tashkil etmoqda. O'zbekiston tarixida ilk marotaba milliy parlamentda xotin-qizlar soni BMT tomonidan belgilangan tavsiyalarga mos darajaga yetdi. O'zbekiston parlamenti xotin-qizlar soni bo'yicha dunyodagi 190 ta parlament orasida 37- o'ringa ko'tarildi[8].

Bugungi kunda dunyo miqyosida kambag'allikni qisqartirish masalasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Xususan, O'zbekiston Respublikasida ham so'nggi yillarda aholining turmush darajasini yaxshilash, ijtimoiy himoyani kuchaytirish va kambag'allikni kamaytirishga qaratilgan tizimli islohotlar amalga oshirilmoqda. Davlat rahbari Sh.Mirziyoyev "...Ta'kidlash kerakki, yurtimizda kambag'allik darajasi yil boshidagi 8,9 foizdan 5,8 foizga tushdi",- deb ta'kidlagan edilar Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga murojaatnomasida [9]. Prezidentimiz tomonidan kambag'allik darajasini qisqartirish ishlari amalga oshirilishi boshlanganida O'zbekiston hududida aholining uchdan bir qismi kambag'allik chegarasida yashardi. Albatta, bu aholining tarkibiy qismida ayollar ham mavjud edi. Kambag'allik darajasini qisqartirish maqsadida har bir mahallada 40 tadan mikroloyihani amalga oshirilishi, 360 ming aholini ish bilan ta'minlash uchun mahalla bankirlari va hokim yordamchilariga 2026-yilda yana 7,5 trillion so'm resurs ajratilishi Prezidentimiz tomonidan O'zbekiston aholisi bilan bir qatorda ayollarga qaratilayotgan e'tibor va yaratilayotgan imkoniyatlarning yaqqol dalilidir.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini ta'minlash, gender tengligini mustahkamlash hamda ularning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy faolligini oshirishga qaratilgan izchil va tizimli davlat siyosati shakllandi. Konstitutsiyaviy normalar,

maxsus qonunlar va institutsional mexanizmlarning joriy etilishi ayollarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi ishtirokini kengaytirish uchun mustahkam huquqiy asos yaratdi. Parlament va ijro hokimiyati organlarida ayollar ulushining oshib borishi, ularning yetakchilik lavozimlariga saylanishi gender tengligini ta'minlash yo'lidagi muhim demokratik yutuq sifatida namoyon bo'lmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2023.
2. Холикова М, Ишанханова Г., Пўлатова Ш. Гендер тенглиги: ғоядан қонунга қадар: услубий қўлланма.-Тошкент : Akademnashr, 2021.-11-13-б.
3. Атаева Д. Хоразм вилояти хотин-қизларининг жамият ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётидаги ўрни (1991 – 2018 йиллар). Урганч. 2024. –Б. 6-7.
4. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис Сенатининг йигирманчи ялпи мажлисидаги нутқи//22.06.2019// mirziyeevning-oliy-22-06-2019
5. Абдуллаева Я. Хотин-қизлар ва ёшлар доимий эътиборда // Адолат, 2020 йил 7 август
6. Қурбанова Д.Ш. Ўзбекистон парламентида сайланган аёл депутатлар таритхи. ЎзМУ забарлари. 2025. 1/8/1. – Б. 4-7
7. Ўша манба. – Б. 6.
8. Ўзбекистон тараққиётида парламентдаги аёлларнинг ўрни // https://uza.uz/uz/posts/ozbekiston-taraqqiyotida-parlamentdagi-ayollarning-orni_194577
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi//26.12.2025// <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

TARIX**O'ZBEKISTON SSRDA SOVET HUKUMATI YURITGAN
OZIQ-OVQAT SIYOSATI: TA'MINOT SHAROITIDA
MUSULMONLARNING IJTIMOYIY - IQTISODIY AHVOLI VA
ISLOMIY QADRIYATLARGA MUNOSABAT.**

**Muzaffar Xo'jamov,
Namangan davlat chet
tillari instituti katta
o'qituvchisi,
Tarix fanlari
bo'yicha falsafa
doktori (PhD)**

UO'K 520.15

Annotatsiya: Mazkur maqolada O'zbekiston SSRda Sovet hukumatining XX asrning 50 - 60 yillarda olib borgan oziq-ovqat siyosati va uning mahalliy aholining milliy mentaliteti hamda islomiy qadriyatlarga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, kundalik ehtiyojning eng asosiy turi hisoblangan chorva go'shti ta'minoti, jumladan, cho'chqa go'shtining aholining musulmon qatlami iste'moliga kiritilishi siyosati hamda amalga oshirilish jarayonlari tahlil qilingan.

Аннотация: В данной статье рассматривается продовольственная политика советского правительства в Узбекской ССР в 50-х и 60-х годах XX века и ее влияние на национальное мировоззрение и исламские ценности местного населения, дается краткий анализ мер, принятых советским правительством в этом отношении, и процессов, связанных с поставками халального мяса, а также политики и процессов реализации поставок мяса крупного рогатого скота, которое считается наиболее основным продуктом питания, включая свинину, для потребления мусульманским населением.

Annotation: This article examines the food policy of the Soviet government in the Uzbek SSR in the 50s and 60s of the 20th century and its impact on the national mentality and Islamic values of the local population, a brief analysis of the measures taken by the Soviet government in this regard and the processes related to the supply of halal meat, as well as the policy and implementation processes of the supply of livestock meat, which is considered the most basic type of daily need, including pork, for consumption by the Muslim population.

Kalit so'zlar: XX asr 50-60 yillarida oziq-ovqat siyosati, go'sht iste'moli, oziq-ovqat turlari, cho'chqa go'shti ta'minoti va targ'iboti, hududlar

kesimida cho‘chqa go‘shti yetishtirish va tayyorlash masalasi, milliy mentalitet.

Ключевые слова: продовольственная политика в 50-х и 60-х годах XX века, потребление мяса, виды продуктов питания, поставки и продвижение свинины, вопрос производства и приготовления свинины в разных регионах, национальное мировоззрение

Key words: food policy in the 50s and 60s of the 20th century, meat consumption, types of food, supply and promotion of pork, the issue of pork production and preparation in different regions, national mentality

Sovet hukumatining destruktiv siyosati natijasida unga a'zo respublikalarning oziq-ovqat ta'minotiga salbiy ta'sirini ham o'tkazmay qolmadi. Jumladan, O'zbekiston SSRda oziq-ovqat ta'minotida respublika aholisining milliy manfaatlari va diniy e'tiqodi, iste'molidagi oziq-ovqat turlarining halollik darajasi va uning tayyorlanishi muhim hisoblangan.

1969 yil may oyida, Fransiyaning "Mond" gazetasida fransuz jurnalisti Jana Marbinning maqolasi e'lon qililib, unda "Sovet xalqi hech qanday g'alabasiz bir necha yil ichida Sovet Sharqida joylashgan 5 ta respublikada 30 million musulmonni birlashtirdi [1]" deb yozgan edi.

Jana Marbin O'zbekistonga tashrif buyurgan va safar tassurotlaridan ta'sirlanib yozgan ushbu maqolasida sovet xukumatining musulmonlarni birlashtirish to'g'risidagi fikrlari nechog'liq haqiqatga yaqin ekanligini, buni tarixiy dalillarni tanqidiy-tahliliy ko'rib chiqib, xulosa chiqarishga to'g'ri keladi.

Birinchidan, sovet hukumati shundoq ham bir necha asrlar davomida birlashib yashagan O'rta Osiyodagi musulmonlarni sun'iy ravishda o'tkazilgan, milliy hududiy chegaralanish siyosati va zo'ravonlik orqali parchalab tashladi.

Ularning hammasini "yagona sovet xalqi" sifatida birlashtirish, sovet mafkurasi, kommunistik g'oyalarini singdirish, bu yo'lda musulmonlarning ming yillik tajribaga ega bo'lgan urf-odatlar, marosimlar va qadriyatlarni inkor etish, kamsitish siyosatini olib borib, musulmonlarni turli sinfiy guruhlariga ajratib, qatag'on qilish siyosatini olib bordi.

Jumladan, 1923 yilga kelib, sobiq SSSR hududida 30 million musulmon yashagan bo'lsa, 1959 yilda o'tkazilgan aholini ro'yxatga natijalariga ko'ra, musulmon aholisining soni 24 millionga tushib qolgani aniqlandi[2]. (agar fransuz jurnalisti Jana Marbin bergan bergan ma'lumotga tayanadigan bo'lsak, Sovet Sharqi musulmonlari 10 yil ichida 6 millionga ko'payganini ko'rish mumkin)

Bunga turli qiyinchiliklar, ocharchilik, qatag'onlar, surgunlar hamda Stalinning ateistik siyosati va salbiy qarashlari sabab bo'ldi. Sovet hukumati odamlarni diniy mansublikka qarab bo'lish, har xil dindagi insonlarni biri-biriga

qarama qarshi qo'yish, xalqlarga, faqat iqtisodiy va siyosiy masalalardangina emas, ayni paytda madaniyat masalalarida ham halokatlidir[3] deb, jamiyatda dinga qarshi oshkora va pinhona ravishda kurash olib bordi, chunki ularni xalqlarni "yagona sovet xalqi" sifatida birlashtirish siyosati dinlarga, ayniqsa, islom dini g'oyalariga qarshi edi.

Jumladan, Islom dini musulmonlarga ta'qiqlangan odatlarni sovet hukumati oqlashga urinib, shariat talablariga qarama-qarshi siyosat olib bordi. Ana shunday harakatlardan biri, musulmonlarga cho'chqa boqishni o'rgatish va bunga majburlash siyosati bo'lib, taraqqiyparvar Mustaf Cho'qayning "bu ishni sevganimiz, shunga muhtojligimiz uchun emas, mutloqo, faqat majbur qilinganimiz uchun cho'chqa boqdik[4]" degan fikri buni tasdiqlaydi.

Yuqoridagi keltirilgan ma'lumotlardan ko'rish mumkinki, mahalliy aholini ruslashtirish siyosati nafaqat til yoki yozuv masalasida, uning oziq-ovqat masalasi orqali ta'sir o'tkazish bo'yicha ham ilgari surildi. Xususan, musulmon aholisi iste'mol qilmaydigan, man etilgan cho'chqa go'shti yetishtirish va ommalashtirish masalasi kun tartibidan tushmadi. Aksincha uni yetishtirish va ta'minotini olib borish davlat siyosati darajasida bo'lib, u yoki bu masalada chora-tadbirlar ishlab chiqish va olib borish davom etdi.

Sovet hukumati rahbari Stalin (1879-1953) garchi dastlabki yillarda "musumonlardan cho'chqa boqishni talab etish ahmoqlik[5]" deb, bunga qarshi bo'lsada, keyingi tarixiy manbalarda Stalinning o'zi ham bu be'mani odatni, rag'batlantirib borgannini tasdiqladi.

Xususan, 1946 yil 2 fevralda SSSR Xalq Komissarlari Sovetining "Davlatga go'sht topshirish to'g'risida" qarori qabul qilinib, unga ko'ra 1946 yilda O'zbekiston jamoa xo'jaliklari respublika miqyosida, jami 160 tonna cho'chqa topshirish rejasi tasdiqlanib, viloyat va tumanlar ijroiya qo'mitalariga go'sht topshirish hisobiga cho'chqa topshirish rejasini 3 kunda tumanlarga, tumanlar esa kolxozlarga taqsimlash majburiy ravishda belgilab qo'yildi[6].

Qarorda ko'rsatilgan talab bo'yicha, mahalliy aholiga imkoniyat berish maqsadida, chorva go'shti o'rniga cho'chqa go'shti topshirishlari mumkinligiga urg'u berilgani, musulmonlarni iqtisodiy ahvoli yaxshilanishi uchun najot yo'li, davlatga cho'chqa boqib berishlari kerakligi haqida yo'l ko'rsatishga urinish deb xulosa qilish mumkin.

Hududiy imkoniyatlari va shart-sharoitlardan kelib chiqib, O'zbekiston SSR viloyatlariga qancha cho'chqa go'shti topshirishlari mumkinligi, quyidagi jadvalda ko'rsatib qo'yilib, ushbu jadvalda aholining zichligi va ko'pligi holatidan kelib chiqqanligi, ayniqsa, Buxoro, Samarqand va Surxondaryo oblastlariga boshqa mintaqalarga nisbatan ko'proq norma qo'yilganligini ko'rish mumkin.

1946 yilda O'zbekiston SSR kolxozlari tomonidan go'sht hisobiga cho'chqa topshirish rejasi[7]

№	Oblastlar	Go'sht miqdori (tonna hisobida)
1	Toshkent	62,0

2	Farg'ona	7,0
3	Namangan	10,0
4	Andijon	10,0
5	Samarqand	23,0
6	Buxoro	25,0
7	Qashqadaryo	10,0
8	Surxondaryo	12,0
9	Xorazm	0,5
10	Qoraqolpog'iston ASSR	0,5
	Jami:	160,0

Mamlakatdagi barcha sohalarni nazorat qilishga uringan davlat rahbari Stalin iqtisodiy qiyinchiliklardan chiqib ketish yo'lida sifatida, sariqyog' tayyorlash masalasiga ham diqqatini qaratib, 1946 yil 9 noyabrda O'zbekistonga sut tayyorlash va sariqyog' qilish to'g'risida" telegramma jo'natadi[8].

Telegrammada qo'yilgan talablar bo'yicha, O'zbekiston SSR Ministrlar Soveti 1946 yil 23 noyabrda maxsus qaror qabul qilib, sut tayyorlash va sariqyog' qilish to'g'risidagi yo'l-yo'riqlarni og'ishmay ijro etish, shuningdek, Stalin talabi bo'yicha sariqyog' qilish rejasini bajarish imkoniga ega bo'lmagan xo'jaliklardan tuzlangan cho'chqa yog'i, eritilgan cho'chqa yog'i qabul qilishni tashkillashtirish, bu borada majburiyatlarni bajarishdan bo'yin tovlagan kishilarga nisbatan qat'iy ta'sir choralari ko'rilishi belgilab qo'yildi[9].

Qaror mazmuniga ko'ra, Stalinning ushbu talabi, asosiy qatlami musumonlardan iborat bo'lgan O'zbekiston qishloq xo'jaligida cho'chqachilik sohasini sun'iy ravishda va zo'ravonlikka asoslangan holda rivojlantirishni uringanini ko'rish mumkinki, bu sohada yana talablar ko'payib, aholini diniy qadriyatlari kamsitilib, tahqirlash siyosati olib borilgani, bu mamlakatda musumon urf-odatlarini to'g'risidagi qarashlarga barham berishni o'z maqsadiga aylantirgan edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Namangan viloyati davlat arxivi. 275-jamg'arma, 6-ro'yxat, 2538-ish, 59-varaq
2. Abdurahmonov. A. "Kreml saltanati". Toshkent.: "Cho'lpon". 1993. –B 46
3. "Stalin haqiqati". 1950 yil 18 iyul
4. Tohir Qahhor. "Hur Turkiston uchun". – Toshkent.: "Cho'lpon", 1994. –B. 102.
5. Tohir Qahhor. "Hur Turkiston uchun"... –B 103.
6. Namangan VDA. 275-jamg'arma, 1-ro'yxat, 207-ish, 84-varaq
7. Namangan VDA. . 275-jamg'arma, 1-ro'yxat, 207-ish, 85-varaq
8. Namangan VDA. 275-jamg'arma, 1-ro'yxat, 213-ish, 118-varaq.
9. Namangan VDA. 275-jamg'arma, 1-ro'yxat, 213-ish, 118-varaq orqasi

TARIX**ABU RAYHON BERUNIYNING “TAFHIM” ASARIDAGI
“ARISMATIKA” BOBI VA UNING ILMIY AHAMIYATI**

**Ismailova Intizor,
Urganch davlat
universiteti
mustaqil tadqiqotchisi**

UO‘K 520.15

Annotatsiya: Mazkur maqolada Abu Rayhan Berunining “Tafhim” asaridagi “Arismatika” bobi matematika va algebra tarixi nuqtai nazaridan tahlil qilinadi. Asarda olimning sonlar tizimi, arifmetik hisoblash va algebraga oid qarashlari yoritiladi, ular antik va islomiy matematik an’analar bilan qiyosiy tahlil qilinadi. Hisoblash va matematik bilimlarning Markaziy Osiyo ilm-fani rivojiga qo’shgan hissasi ta’kidlanadi.

Аннотация: В статье анализируется раздел «Арисматика» в труде Abu Rayhan Beruni «Тафхим» с точки зрения истории математики и алгебры. Рассматриваются взгляды Беруни на систему чисел, арифметические вычисления и алгебраические понятия, сопоставленные с античной и исламской математической традицией. Подчеркивается вклад ученого в развитие математической науки в Центральной Азии.

Annotation: This article examines the “Arismatika” chapter in Abu Rayhan Beruni’s work “Tafhim” from the perspective of the history of mathematics and algebra. Beruni’s views on number systems, arithmetic calculations, and algebraic concepts are analyzed and compared with classical and Islamic mathematical traditions. The study highlights his contribution to the development of mathematical science in Central Asia.

Kalit so‘zlar: matematika tarixi, arifmetika, sonlar nazariyasi, ilmiy meros, Beruniy.

Ключевые слова: история математики, арифметика, алгебра, система чисел, Беруни.

Key words: history of mathematics, arithmetic, algebra, number systems, Beruni.

Abu Rayhan Berunining eng yirik asarlaridan biri – “Tafhim” yoki “Munajjimlik san’ati (astrologiya) negizlarini tushuntirish kitobi” entsiklopedik xarakterga ega bo’lib, matematika, algebra, arifmetika, astronomiya, geografiya, tarix va xronologiya masalalarini o’z ichiga oladi. Asarning “Arismatika” bobida Beruniy arifmetika va algebra asoslarini, abjad hisobini bayon qiladi, antik va

Sharq matematik maktablari o'rtasidagi sinkretizmni ko'rsatadi. U har bir bobni metodologik printsipga asoslanib yozib, fanning asosiy tushunchalarini taqdim etish, ularni ilmiy va amaliy jihatdan bog'lash va butun asarni logik uzviy tizimda shakllantirishga intilgan. Shuningdek, nisbatlar nazariyasi, stereometriya, algebra va astronomiya o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik va amaliyot bilan uyg'unlik, hamda hisoblash va savdo-sotiqda qo'llanilgan real misollar orqali matematika bilimlarini hayotiy kontekstda tadqiq qilishga qaratilgan.

Mazkur tadqiqotda adabiyotlar tahlili manbaviy-tarixiy yondashuv asosida olib borildi. Tahlil ob'ekti sifatida Abu Rayhon Beruniyning "Tafhim" asari tanlandi. Maqolada aynan ushbu asarning "Ikkinchi bob. Arifmetika" qismi asosiy va yagona manba sifatida o'rganildi. Tadqiqot jarayonida qo'shimcha sharhlar, zamonaviy interpretatsiyalar yoki ikkilamchi adabiyotlar jalb etilmadi. Bu yondashuv manbaning ichki mazmuniy strukturasini, terminologik tizimini va matematik tushunchalar ifodasini bevosita tahlil qilish imkonini berdi. "Tafhim" asari entsiklopedik xususiyatga ega bo'lib, unda arifmetika, geometriya, astronomiya va algebra elementlari tizimli ravishda bayon etilgan. Asosiy e'tibor son tushunchasining ta'rifiy va falsafiy asoslari, arifmetik amallar va ularning algoritmik bayoni, aljabr elementlari va tenglamalar echish usullari, abjad tizimi orqali sonlarni ifodalash an'anasi kabi jihatlariga qaratildi. Mazkur tadqiqotda birlamchi manbaga tayangan holda amalga oshirildi va natijalar bevosita "Tafhim" asari matnining ilmiy tahliliga asoslandi.

Maqolani yoritishda *tarixiy-manbaviy tahlil metodi* orqali matnning tarixiy sharhi, sonlarning nomlanishi va xossalari, arifmetik amallar tarixi o'rganiladi. *Xatli kodlashni tahlil qilish* orqali harfiy sonlash usulining nazariy va amaliy ahamiyatini aniqlandi. Solishtirma va funksional tahlil usuli orqali arifmetika va munajjimlikda sonlarning funktsiyalari va ularning amaliy qo'llanilishiga baho berildi.

Abu Rayhon Beruniyning entsiklopedik asarlaridan biri uning «Munajjimlik san'ati (astrologiya) negizlarini tushuntirish kitobi» - «Tafhim»dir. Asarning entsiklopedik jihati shundaki, unda matematika, astronomiya, geografiya, tarix, xronologiyaning umumiy masalalari va ularning munajjimlik san'atiga (astrologiyaga) tatbiqi bayon qilingan. Uning ikkinchi bobi matematikaga bag'ishlangan bo'lib, mutafakkir uni "Arismatika" deb atagan. Arismatika nima?- degan savolga muallifning o'zi "bu eng avval qo'shish va ayirish, ya'ni orttirish va kamaytirish yordamida noma'lumni topish uchun sonlar va ularning xossalariidan foydalanishdir"-deb ta'rif beradi [1.37]. Demak, bu matematika va uning boshlang'ich bosqichi.

Asarda dastlab “ko’paytirish” (x) amali haqida gap ketadi. Beruniy uni “Bu ikki sondan birini ikkinchi songa teng marta ko’paytiruvchi kilib olishdir” deydi [1.37]. Masalan, beshni ettiga ko’paytirishni istasak, biz beshni etti marta olamiz. Unda o’ttiz besh hosil bo’ladi, shuningdek, ettini beshga ko’paytirsak ham o’sha o’ttiz besh hosil bo’ladi. Biz «besh etti» deymiz, bu besh marta etti va etti marta besh ma’nosidir.

Mutafakkir “Bulish nima?” degan savolni “ bu bulinuvchidagi bitta hissasini aniqlashdir; bu xissa bo’linma deyiladi” tarzida ochadi . Misol tariqasida o’ttiz beshni ettiga bo’lish amalida ko’rsatadi. Kvadratta ko’tarish va kvadrat ildiz chikarish masalasida gapirar ekan, avval “kvar” so’zining ma’nosi “ ikki xissa ko’tarish” ekanligini aytib o’tadi. Beruniyning yozishicha kvar ko’tarish bu sonni o’ziga teng songa ko’paytirishdir, chunki bu ko’paytma kvadrat deb ataladi. Misol uchun ettini ettiga ko’paytirib kirk to’kkiz hosil qilinadi va bu kvadratdir. Kvadrat ildiz chikarish bu sonni o’ziga teng songa ko’paytirgan kvadrat hosil kiluvchi sonii topishdir, ya’ni o’ziga teng son ko’paytirilganda qirq to’qqiz hosil qiluvchi ettini aniqlashdir. Bu o ildiz yoki asos deyiladi, chunki kvadratning tomoni kvadrat xos bo’ladigan ildizdir.

Mutafakkir o’quvchiga ratsional va irratsional ildizlar haqida ham tushuncha beradi. “Ratsional ilm shundayki, uning mohiyatini so’zlarda ifodalash mumkin. Uni shuningdek, talaffuz qilinadigan mutlaq va ochiq ham deyish” to’g’ridir, deydi [1.39]. Masalan, to’kkiz uchun uch va o’n olti uchun to’rt shunday.

Irratsional ildizni esa so’z bilan ifodalash mumkin emasligini uqtirar ekan, Beruniy misol tariqasida “ o’ning ildizi, shunday son mavjud emaski, uni o’ziga teng songa ko’paytirilsa, o’n xosil bo’lsin. Uni «gung» deb ham atashadi, chunki u doim izlovchiga javob bermaydi, uni tarqriban topish mumkin”, deydi [1.39]. Kubga ko’tarish va kub ildiz chikarish nimaligini anglatish uchun uning ta’rifini quyidagicha keltiradi “kubga ko’tarish bu sonni o’ziga teng songa ko’paytirish va natijani yana o’sha song ko’paytirishdir, chunki ko’paytma kub deb ataladi. Misol, agar uch ucha ko’paytirilsa, (kvadrat hosil bo’ladi, agar u) yana uchga ko’paytirilsa, yigirma etti hosil bo’ladi. Bu kub. Kub ildiz chikarish, bu shunday sonni topishki, uni o’ziga teng songa ko’paytirib, ko’paytmani yana o’sha sovga ko’paytirilganda kub xosil bo’lsin, ya’ni bu ikki marta uchi ko’paytirilganda yigirma etti xosil kiluvchi uchni aniqlash ekanligini aytadi. Bu son kubning karrasi, bazan esa kub deyiladi: odamlar kubga tegishli narsani kub deb atashadi, biz esa o’xshashlikdan qochib, kubning ildizini karra deb ataymiz” [1.41]. Belgilash xaqida uning kvadrat va kub[ildizlar chiqarishda xona yoki xonalarni tashlab ketish ekanligi aytiladi. “Kvadrat ildiz chikarishda bor, yo’q, bor

deyishadi, kub ildiz chikarishda esa bor, yo'k, yo'q deyiladi. Ba'zan esa oxirgi xonaning holati aniq bo'lmaguncha «bor» ning o'ringa «beradi deyiladi.

“ Maxraj haqida gap ketar ekan u kattaning unga nisbatidagi butun birning kismolari, u esa kichkina ". Misol, uchta uchdan bir, bu uchga bo'lingan butun birning qismlari, shuningdek, uchdan ikki uning ikki qismi, to'rtta to'rttdan bir va beshda beshdan bir [va hokazo). Kasrni ifodalashda maxraj kichik bo'lishi kerak, misol uchun o'ndan ikki ham, o'n beshdan uch ham beshdan birdir. Lekin eng katta chegaralanmagan, eng kichik esa chegaralangan, shuning uchun eng kichikni olinadi. Bir jinsga keltirish nima? Bu butun va kasrni bitta maxrajga keltirishr"(2).

Buning uchun maxraj butunga ko'paytiriladi va ko'paytmaga surat qo'shiladi, shunda hammasi bir jinsga keladi. Misol, uch va to'rttdan bir. Isboti: uch va chorak, agar biz ularni bir jinsga keltirishni istasak, uch butunni maxrajga, ya'ni to'rtga ko'paytiramiz, o'n ikki hosil bo'ladi, uni suratga qo'shamiz, unda o'n uch va uning ostida to'rt, ya'ni to'rttdan o'n uch hosil bo'ladi. Agar kasrlar turlicha bo'lsa, ularni bir jinsga keltirib, qo'shiladi.” Misol, agar biz ettidan ikki va beshdan uchni qo'shmoqchi bo'lsak, maxrajni maxrajga, ya'ni ettini beshga ko'paytiramiz, o'ttiz besh hosil bo'ladi. Bu ikkala kasr uchun ham maxraj, chunki ettidan ikki (o'ttiz beshdan) o'n, beshdan uch o'ttiz beshdan yigirma bir va ularning yig'indisi [o'ttiz beshdan) o'ttiz bir. Bu ettidan ikki va beshdan uchning bir jinsga keltirilgani. kasr, Agar kasrlar yulduzshunoslikda ishlatiladigan oltmishlik ya'ni darajalar va soniyalar bo'lsa va biz ularni bir jinsga keltirishni istasak, ulardan yukori (xonadagisini oltmishga ko'paytiramiz va ko'paytmani keyingi pastki (xonaga qo'shamiz. So'ngra yig'indini yana oltmishga ko'paytirib keyingi 45 pastki xonaga G' qo'shamiz, (bu ishni) eng pastki[xonaga etguncha davom ettiramiz, u vaktida yig'indi bir jinsli bo'ladi. Misol, bizda uch daqiqa, to'rt soniya va besh solisa bo'lsin va biz ularni bir jinsga keltirishni istaylik, u vaqtda uch daqiqani oltmishga ko'paytiramiz, bir yuz sakson hosil bo'ladi, uni to'rt soniyaga qo'shamiz, yig'indini oltmishga ko'paytiramiz, o'n bir ming qirq hosil bo'ladi, uni besh solisaga qo'shsak, o'n bir ming kirk besh solisa hosil bo'ladi. Bu biz solisaga aylantiriganlarning yig'indisidir (3). Sonlarni ko'tarish nima? Agar bir oltmishlik xonada oltmishdan katta son hosil bo'lsa, uni oltmishga bo'linadi. Bu ish to butun hosil bo'lguncha davom ettiriladi. Bunga misol, 35 bizda o'n bir ming kirk besh soniya bor. Bu xona ellik to'kkizdan katta. Uni oltmishga bo'lamiz, unda bir yuz sakson to'rt dakika hosil bo'ladi va besh soniya qoladi. Daqiqalar oltmishdan katta bo'lgani uchun uni ham oltmishga bo'lamiz; unda uch butun chikadi va to'rt daqiqa qoladi. Endi butun ko'tarilmaydi. Ko'tarishda bizda uch butun to'rt dakika va besh soniya hosil bo'ldi.

Qisqartish haqida Beruniy ikkita umumiy o'lchovli sonni ularning umumiy o'lchoviga bo'lish bilan kichraytirishdir ekanligini yozadi. Unga misol qilib "uch yuz oltmishdan etmish ikki bo'lsa, ularning umumiy o'lchovi etmish ikki bo'ladi. Agar ularning ikkovini ham unga bo'lsak, birinchisidan bir, ikkinchisidan besh chikadi. Beshdan bir uch yuzu oltmishdan etmish ikki kabidir. Shu sababli ularning o'rniga beshdan bir qo'yiladi" deydi.

Natural xonalar bu agar birni olib biror olgan soningta ko'paytirsang, ko'paytmani yana o'sha songa ko'paytirsang, proportsional sonlar hosil bo'ladi va u natural son deb qaraydi.. Ulardan birdan keyingisi ildiz deyiladi, ikkinchisi kvadrat, uchinchisi kub, to'rtinchisi kvadratu-kvar beshinchisi kvadratu-kub, oltinchisi kubu-kub va shunga o'xshash or boradi. Doimo birning ildizga nisbati ildizning kvadratga nisba kvadratning kubga nisbati, kubning kvadratu-kvadratga nisbati kvadratu-kvadratning kvadratu-kubga nisbati, kvadratu-kubning kubga nisbati kabi bo'ladi. Bunga quyidagi ikki qator son misol bo'ladi. Ulardan birinchisi ikkiga ko'paytirishdan, ikkinchisi esa ko'paytirishdan hosil bo'lgan . Pozitsion xonalar asosan arifmetik hisoblarda qo'llaniladi; u ko'paytirishning bir turi, bunda ko'paytiriladigan son o'n, shuning uchun sonlar orasidagi nisbat o'ndan birga teng. Bu xonalardan birinchisi birliklar xonasi, bunda birdan to'qqizgacha [sonlar] bo'ladi va ular bir-biridan bitta ortik bo'ladi. Ikkinchisi o'nliklar xonasi, bunda o'ndan to'qsongacha sonlar bo'ladi, ular bir- biridan o'nta ortiq . Uchinchisi yuzlar xonasi, unda yuzdan to'qqiz yuzgacha sonlar bo'ladi. Ular bir-biridan yuzta ortiq. To'rtinchisi minglar xonasi, unda mingdan to'qqiz minggacha[sonlar] bo'ladi. Bu to'rtinchi xona birlikni almashtiradi, chunki uning orkasidan xuddi birning ketidan o'n kelganidek, o'n minglar kelali. Bunlagi ortiklik ham xuddi yuqoridagidek, ammo u minglarga tegishli. Xonalardagi raqamlarning o'zni sonni to'liq aniklaydi, chunki oldingi xonadagi birlik keyingi (xonadagi) birlikning o'ndan biriga teng. Agar biror xonada son bo'lmasa, yo'qlikni ko'rsatish uchun kichkina doira chizamiz, u nol deb ataladi. Hindlar esa nuqta qo'yadi.

Abu Rayxon Beruniy harfiy raqamlashga ham o'z munosabatini bildiradi. U arab harflari yordamida sonlar qanday yozilishini aytar ekan, " Bu ularning shartli tartibdagi vaziyatidir" deydi.

"Alifbo harflarining odatdagi tartibi - a, b, t, s, ... dan foydalanish mumkin edi. Bunda to'qqiz birlik, to'qqiz o'nlik, to'qqiz yuzlik va to'qqiz minglik [bor] deb hisoblash lozim edi. chunki ularning hammasi yigirma sakkizta. Lekin bu harflar tartibiga «Jummal» harflarining tartibi olingan, chunki bu tartib arablardan oldin, kitob ahliga ham ma'lum bo'lgan. Bu - abjad, havvaz, hutti, kalama qarashat, saxxaz, dazzagdan iborat bo'lgan. Bu harflarni ishlatishdan maqsad sonlarni [astronomiya] jadvallariga yozilishdagi qisqalikdir.

Jadvallarni boshlovchilar astronomlar va ularning ishlatishlarida kelishmovchilik yo'q. Ammo bu san'atga tegishli bo'lmaganlar kelishishmaydi. Ular safas bilan safadning o'rnini almashtirishadi, ya'ni "sod" ni oltmish, "dod" ni esa to'qson deb hisoblashadi, "qarashat"ni "qarasat"ga almashtirishadi, ya'ni "sin"ni boshkacha hisoblashadi. Bunga ba'zilar tildagi so'zning tushuntirilishini, ba'zilar esa e'tiqoddagi g'arazni asos qilib oladi. Beruniy bular shunchaki gap, deydi. Mutafakkir "agar bu tartibdan foydalanuvchilar orasida kelishuvchilik bo'lmaganda, ularning e'tirozini to'g'ri deyar edik, lekin unda biz odatdan chiqib ketar edik". Beruniy ularni qanday birlashtirilishi haqida "Agar sonda birliklar, o'nliklar va yuzliklar xonasi birlashtiriladigan bo'lsa, [avval] eng kattasi, ya'ni yuzlik, so'ngra o'nlik, so'ngra esa birlik qo'yiladi. Misol: [bir] yuz o'n besh qih kabi ustida chizikcha bilan yoziladi; chiziqcha uning so'z emas, son ekanini ko'rsatadi. Ikki mingni yozish uchun bu harflarning o'rnini almashtiriladi va u "be" kabi yoziladi, buni fark qilish uchun kichik harf kattasidan oldin qo'yiladi". Odatda "jim"ni "xo" dan farq qilish uchun uning dumi tashlab yuboriladi; bu "xo" uchun ham lozim, ammo astronomlarning hisoblashida uch yuz oltmishdan kichik sonlar ishlatiladi. "Yo" nuqtali "nun" ga o'xshab qolmasin uchun dumli yoziladi. "Qof" "lom" ga o'xshab qolmasin deb yoyiq yoziladi. Nun nuqtali "zo" dan kattaroq yoziladi. "Zo" nuqtali, "ro" nuqtasiz yoziladi. "Sin" bilan "shin" ni "shin" ning nuqtali yozilishidan farqlanadi. Bu harflar sonlardan boshqa narsaga ham ishlatiladi(4).

Beruniy "Tafhim" asarini "Arismatika" qismini yakunlar ekan "Arismatika haqida aytilganlar unda boshlang'ich (tushunchalari istovchilar uchun etarli" deb hisoblaydi

Xulosa qilib aytganda Abu Rayxon Beruniyning "Arismatika" nafaqat sonlar nazariyasiga oid dastlabki tushunchalarni, balki o'rta asr matematik fikrlash tizimini ham namoyon etadi. Sonlarning tasnifi, arifmetik amallar algoritmi, algebra elementlari va abjad tizimi bir butun ilmiy sistema sifatida shakllangan. Tahlillar natijasi "arismatika"ning nazariy, amaliy va falsafiy jihatlar uyg'unligida yoritilgan bo'lib, u o'rta asr Sharq matematikasi taraqqiyotida muhim o'rin egallaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Беруний А.Р. ТА.IV. Тошкент-Урганч-Хива. 2006. –Б.290
2. Крачковский Ю.В. Арабская географическая литература. Избр. произ.. Т.4.-М.;1957
3. Муниров К. "Тафҳим"нинг Тошкент қўлёзма нусхаси ҳақида. Беруний туғилган куннинг 1000 йиллигига бағишланган тўплам. Тошкент. ЎзССР "Фан. 1973. №7, 123-129
4. Муниров Қ. "Тафҳим" қўлёзма нусхалари, Общественное науки в Узбекистане". 1973. №7,8. стр. 104-108

IQTISODIYOT**XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB
MASALALARI****UO‘K 306**

**Zokirov Sayidfozil,
O‘zbekiston milliy
universiteti “Davlat va
korporativ
strategiyalar”
kafedrasining
professori, i.f.d.**

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanish holati o‘rganilgan, bu sohada yetarli darajada foydalanilmayotgan imkoniyatlar aniqlangan va ulardan samarali foydalanish yuzasidan tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Аннотация: В статье исследуется состояние развития сектора услуг в Узбекистане, выявляются недостаточно используемые возможности в этой области и разрабатываются рекомендации по их эффективному использованию.

Annotation: This article examines the state of development of the services sector in Uzbekistan, identifies underutilized opportunities in this area, and develops recommendations for their effective use.

Kalit so‘zlar: xizmatlar, YaIM tarkibi, statistik tahlil, moliyaviy xizmatlar, davlat dasturi, aholi bandligi

Ключевые слова: услуги, структура ВВП, статистический анализ, финансовые услуги, государственная программа, занятость населения

Key words: services, GDP structure, statistical analysis, financial services, government program, employment

Xizmatlar sohasi iqtisodiyotning tez rivojlanuvchi tarmoqlaridan biri bo‘lib hisoblanadi. Insonlarning moddiy va ma‘naviy hayoti darajasini oshirish, turmush tarzini yaxshilash va takomillashtirishda xizmatlar sohasi muhim ahamiyatga egadir. Xizmatlar sohasi moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejaydi, ishchining bo‘sh vaqtini ko‘paytiradi, uning mehnatining ijodiy mazmunini oshiradi, ish vaqtidan tashqaridagi nooqilona xarajatlarni qisqartiradi, insonlar hayotiga shinamlik olib kiradi va shu orqali aholining barcha ijtimoiy guruhlari va qatlamlari hayotiy manfaatlarini yuzaga chiqaradi.

Xizmatlarning iqtisodiy tabiatini anglashda quyidagi ikki yondashuvga e’tibor qaratish lozim:

– xizmatlar – bir tomondan ikkinchi tomonga taklif etiladigan harakat yoki jarayondir. Ushbu jarayonni amalga oshirishda fizik ob’ektlar (tovarlar) ishtirok

etishiga qaramasdan, u his qila olmaslik tavsifiga ega va bunda biror-bir narsaga egalik qilishga olib kelmaydi;

– xizmatlar – iqtisodiy faoliyat turi bo‘lib, qimmatliklar yaratadi va aniq vaqt va aniq joyda xizmatlarni olishga qaratilgan his qilib bo‘ladigan va his qilib bo‘lmaydigan harakatlar natijasida iste’molchilarga ma’lum bir ustunliklarni ta’minlaydi.¹

Marketolog F.Kotlarning fikricha, «Xizmat – muayyan chora-tadbir yoki foyda bo‘lib, bunda bir tomon ikkinchi tomonga his qilib bo‘lmaydigan narsani taklif etadi va bu holat taklif qilinayotgan narsaga egalik qilishga olib kelmaydi».² U xizmatlarning asosiy xossalari sifatida his qilib bo‘lmaslik, o‘z manbasidan ajratib bo‘lmaslik, sifatining beqarorligi va saqlanmasligi kabi xossalarni ko‘rsatib o‘tadi. Bundan tashqari, xizmat quyidagi xususiyatlarga ega ekanligi ta’kidlanadi:

- xizmatlar ularni ishlab chiqarmaydigan kishilar uchun foydalilikka egadir;
- faoliyat turlari bilan ayirboshlash jarayonida foydali bo‘ladi (bu ko‘pincha tovar shakliga ega xizmatlar uchun taalluqlidir);
- ko‘pincha insonning hayot faoliyati va ishlab chiqarishning umumiy sharoitlarini ta’minlash bilan bog‘liq bo‘ladi.

Xizmatlar ko‘rsatishning davlat sektori sof ijtimoiy ne‘mat bo‘lgan xizmatlarni ishlab chiqarish bilan cheklanmaydi. Davlat xizmat ko‘rsatish normativlari va boshqa xizmatlarni ishlab chiqarish va iste’mol qilish bo‘yicha tartibga soluvchilarni o‘rnatish orqali xizmatlar sohasiga faol ta’sir ko‘rsatadi.

Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohasi moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni tejaydi, insonning bo‘sh vaqtini ko‘paytiradi, uning mehnatining ijodiy mazmunini oshiradi, ish vaqtidan tashqaridagi oqilona bo‘lmagan xarajatlarni qisqartiradi, insonlar hayotini yanada shinam hamda yoqimli qiladi va shu orqali aholining barcha ijtimoiy guruhlari, qatlamlarining hayotiy manfaatlarini yuzaga chiqaradi.

Xizmatlarning quyidagi guruhlari mavjud:

- xonadon xizmatlari shaklida bo‘lgan qadimiy xizmat turi shaxsiy xizmatga kiradi va diversifikatsiyalashgan bo‘ladi (sartaroshlar);
- sog‘liqni saqlash, maorif va dam olish (teatr, spektakllar) sohalariga taalluqli bo‘lgan xizmatlar;
- uy-joylarni foydalanishga berish, ushbu toifaga mehmonxonalar va restoranlarni ushlab turish bo‘yicha faoliyatlar;
- aloqa vositalari (transport, pochta va telekommunikatsiyalarning ishlashi va infrastrukturasini);
- moliyaviy xizmatlar (kredit, banklar, sug‘urta tashkilotlari tomonidan taklif etilayotgan boshqa xizmatlar);

¹ Кристофер Лавлок. Маркетинг услуг: Персонал, технологии, стратегия, 4-е изд.: пер. с англ. – М.: Издательский дом «Вильямс», 2005. –С. 34

² Котлер Ф. Основы маркетинга. – М.: «Прогресс», 1990. –С. 638.

– jamiyat himoyasini ta'minlovchi va jamiyat a'zolari o'rtasidagi munosabatlarda tartibni saqlash (mamlakat mudofaasi, militsiya, mahalliy va milliy darajadagi umumiy boshqaruv) umumiy xizmatlarga kiradi. «Davlat xizmatlarining» mohiyati shundan iboratki, hukumat ularni tashkil etishi, boshqarishi va ularning faoliyat ko'rsatishini ta'minlashi lozim.

O'zbekistonda hozirgi kunda xizmat ko'rsatish sohasining diversifikatsiyasi yangi paydo bo'lgan xizmatlarning turlari, soni, bozor hamda iste'molchilar ehtiyojlariga moslashishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Meleshko Yu.V. o'z ilmiy maqolasida “XX asr oxiri – XXI asr boshlari iqtisodiyotidagi yorqin tendentsiyalardan biri xizmat ko'rsatish sohasining jadal rivojlanishi hisoblanadi. Sanoat ishlab chiqarishi XVIII asr oxiridan boshlab mamlakatlarning muvaffaqiyatli iqtisodiy rivojlanishi o'z o'rnini xizmat ko'rsatish sohasiga bo'shatib berdi, shu sababli jahon iqtisodiyotida sanoat inqilobi bilan taqqoslanadigan tarkibiy qayta qurish sodir bo'ldi. Bugungi kunda xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi davlatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mezoniga aylandi” deb ta'riflaydi.¹

Botirova R. va Ikromov I. o'zlarining “Hududlarda xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishning dolzarb yo'nalishlari” nomli maqolasida “Xizmat ko'rsatish sohasining o'sish sur'atlari, yangi paydo bo'lgan xizmat turlari, bozor hamda iste'molchilar ehtiyojlariga moslashishi, aholi turmush farovonligini oshirishdagi ahamiyati yuqori ekanligiga e'tibor qaratganlar.²

Xizmatlar ko'rsatish sohasida o'sish sur'ati 6,8 % ni tashkil etdi. Shundan, savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar 10,2 % ga, tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari 12,3 % ga hamda boshqa xizmat sohalari 4,5 % ga o'sgan. Xizmatlar ko'rsatish sohasining YaIM o'sishiga ijobiy hissassi 2,6 fizik hajmi indeksni tashkil qildi.

Shuningdek, 2024 yil ma'lumotlariga ko'ra, YaIM tarkibida ham katta bo'lmagan o'zgarishlar kuzatildi. YaIM tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 39,6% dan 41,5 % ga, qurilish tarmog'i ulushi 6,6 % dan 6,7% ga oshdi. Shu bilan birga, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligining ulushi 26,5 % dan 25,1 % ga kamaydi. Sanoatning (qurilishni qo'shgan holda) ulushi esa 33,4 % ni tashkil etdi (1-jadval).

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmi o'sishining asosiy omili moliyaviy xizmatlarning 29,3 % ga o'sishi, transport xizmatlari –12,4 % ga, savdo xizmatlari – 9,0 % ga, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari–25,5 % ga, ta'lim xizmatlari – 15,3 % ga, boshqa xizmatlar – 17,0% ga, yashash va ovqatlanish xizmatlari – 14,7 % ga, shuningdek, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar – 11,1% ni tashkil etdi.

1-jadval

¹ Мелешко Ю.В. Актуальные тенденции развития услуг промышленного характера в Республике Беларусь в контексте терциализации промышленности. [HTTPS://CYBERLENINKA.RU/ARTICLE/N/AKTUALNYE-TENDENTSII-RAZVITIYA-USLUG-PROMYSHLENNOGO-HARAKTERA-V-RESPUBLIKE-BELARUS-V-KONTEKSTE-TERTSIALIZATSII-PROMYSHLENNOSTI](https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-tendentsii-razvitiya-uslug-promyshlennogo-haraktera-v-respublike-belarus-v-kontekste-tertsializatsii-promyshlennosti)

² Ботирова Р., Икромов И. Худудларда хизмат кўрсатиш соҳасини ривожлантиришнинг долзарб йўналишлари. №11(119)-2017. <http://www.biznesdaily.uz>

**2020-2024 yillarda iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaIM tarkibi
(jamiga nisbatan % da)¹**

Ko'rsatkichlar	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.
I. YaIM, jami	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
shu jumladan:					
tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	89,3	91,5	92,7	93,0	93,2
mahsulotlarga sof soliqlar	10,7	8,5	7,3	7,0	6,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	100,0	100,0	100,0	100,0	100,0
qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	29,7	26,6	26,8	26,5	25,1
sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	30,5	33,8	33,5	33,9	33,4
Qurilish	5,8	6,2	6,7	6,6	6,7
Xizmatlar	39,8	39,6	39,7	39,6	41,5
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	7,0	6,6	6,5	6,8	7,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	7,9	7,4	6,8	7,0	7,0
boshqa xizmat tarmoqlari	24,9	25,6	26,4	25,8	27,5

2020-2024 yillarda mamlakatda xizmat ko'rsatish sohasi 1,4 marta o'sdi. Biroq, turli-tuman xizmat ko'rsatish turlarining o'sish sur'atlari ham turlicha bo'ldi. Bu sohada eng yuqori natijalar moliyaviy (257,5%), aloqa va axborotlashtirish (252,7%) va ta'lim xizmatlari (185,6%) sohalarida kuzatildi. Aksincha, eng quyi ko'rsatkichlar transport xizmatlari (126,7%), shaxsiy xizmatlar (123,3%), me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (118,2%) hissasiga to'g'ri keldi (2-jadval).

2-jadval

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'rsatilgan bozor
xizmatlarining o'sish dinamikasi (2020 yilga nisbatan foizda)²**

Xizmat turlari	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.
Jami xizmatlar	100,0	117,2	133,5	149,1	166,9
shu jumladan:					
Savdo xizmatlari	100,0	103,8	116,6	126,2	139,6
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	100,0	123,8	156,5	201,6	252,7
Transport xizmatlari	100,0	91,4	105,7	118,2	126,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	100,0	80,3	106,2	129,9	147,5
Moliyaviy xizmatlar	100,0	125,6	160,8	211,7	257,5
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	100,0	90,0	110,8	121,9	137,2
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	100,0	93,3	110,0	116,5	118,2
Ijara xizmatlari	100,0	98,4	116,8	131,5	134,7
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	100,0	101,0	132,1	150,7	185,6
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	100,0	94,8	121,8	138,1	155,1
Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	100,0	94,5	116,1	123,8	130,4
Shaxsiy xizmatlar	100,0	94,7	108,3	116,0	123,3
Boshqa xizmatlar	100,0	99,7	112,7	128,9	162,0

¹ O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisoblagan.

² O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif hisoblagan.

Xizmatlar sohasining rivojlanishi aholining hududiy va ijtimoiy, yangi iqtisodiy hududlarni o'zlashtirishni, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishni va moddiy ne'matlarni iste'mol qilishni ta'minlaydi.

2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, mamlakatda faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning umumiy soni 592,4 ming birlikni tashkil etdi. Xizmatlar sohasida 392,8 ming birlik korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda, bu ularning umumiy sonining 66,3 % ini tashkil etdi va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 113,0 % ni tashkil etgan.

O'tgan yilga nisbatan ularning o'sish sur'ati 111,4% ni tashkil etgan. 2024 yil 1 yanvar holatiga ko'ra, xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonining (523556 birlik) 325809 birligi yoki 62,6 foizi kichik tadbirkorlik sub'ektlari hisoblanadi. Xizmat ko'rsatish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yirik tashkilotlarning ulushi 17,1 % ni (66978 birlik) tashkil etdi.

Tahlil natijalari ko'rsatadiki, respublikamizda 2024 yilda 2021 yilga nisbatan xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 115,9 foizga, aholi jon boshiga to'g'ri keluvchi xizmatlar hajmi esa 113,5 foizga teng bo'lgan. Aholi soni xizmatlar sohasining o'rtacha jon boshini rivojlanish ko'rsatkichiga muhim ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, aholi soni nisbatan kam bo'lgan Navoiy va Buxoro viloyatlarida aholi jon boshiga ko'rsatkichlar aholi zich joylashgan viloyatlar – Qashqadaryo, Namangan va Andijon viloyatlariga nisbatan ancha yaxshiroq ko'rinadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, sanoati rivojlangan hududlar (qazib olish sanoati bundan mustasno) Navoiy, Toshkent viloyatlari va Toshkent shahrida xizmatlar sohasining aholi jon boshiga o'rtacha ko'rsatkichlari Xorazm, Namangan va Surxondaryo viloyatlariga nisbatan yuqori.

Xulosa qilib aytish lozimki, bugungi kunda xizmatlar sohasi zamonaviy milliy iqtisodiyotning eng muhim tarmoqlaridan biridir. Ushbu tarmoq an'anaviy faoliyat bilan cheklanib qolmaydi, u jamiyat hayotida o'z ishtirokini doimiy ravishda kengaytirib boradi, ijtimoiy ishlab chiqarishga integratsiyalashgan, shuningdek, iqtisodiyotning deyarli barcha sohalari bilan o'ziga xos aloqalar orqali bog'langan.

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasida" ko'plab maqsad va vazifalar belgilab berildi. Ushbu belgilab berilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, bu islohotlarning uzviyligini davom ettirish, xususan, xizmat ko'rsatish sohasini istiqbolda tizimli rivojlantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda.

Belgilangan maqsad va vazifalardan kelib chiqib, yaqin istiqbolda xizmatlar sohasini pivojlantirishda quyidagi masalalarga asosiy e'tibor qaratilishi zarur:

Birinchidan, xizmat ko'rsatishning zamonaviy bozop xizmatlari ko'lamini kengaytirish, yangi-yangi xizmat tuplari jopiy etish orqali sohada ijobiy raqobatbardosh muhitni yaratish hamda sohaning mamlakat milliy iqtisodiyotidagi ulushini keskin oshirish. Buning uchun xizmatlar sohasi samaradorligini yanada oshirish va uni iqtisodiyotning daryosiga aylantirish zarur.

Ikkinchidan, IT, ta'lim, turizm, aloqa, transport va logistika xizmatlarini pivojlantirish, chekka hududlarning internet bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish va sifat ko'rsatkichlarini yaxshilash, yo'lbo'yi xizmat ko'rsatish infratuzilmalarini zamonaviy talablarga moslashtirish, sog'liqni saqlash tizimida bo'sh tupgan bino va yerlardan samarali foydalanish maqsadida ushbu sohaga xorijiy investorlarni va xususiy sektorni keng jalb qilish hamda ular faoliyatini kengaytirish.

Bu kabi ustuvor vazifalar xizmatlar sohasini pivojlantirish uchun kontseptual jihatdan mutlaqo yangi tizimni joriy etish imkonini beradi.

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanganlik darajasi aholi yuqori turmush sifatini ta'minlashning va iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirishning belgilovchi omiliga aylandi. Ayniqsa, ushbu sohaning, ayniqsa mehnatga layoqatli aholi bandligini ta'minlash va daromadlarini oshirish muammosini hal etishdagi ahamiyati beqiyos. Sohaning aholi turmush darajasini hamda sifatini yaxshilashdagi rolini oshirish, birinchi navbatda, ushbu sohani bugungi holati va rivojlanish tendentsiyalarini chuqur tahlil qilishni, ushbu sohada mavjud bo'lgan muammolarni aniqlashni va ularning yechimlarini izlab topishni, imkoniyatlarni belgilashni va kelajakda ulardan unumli foydalanishni taqozo etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni 1-ilovasi 34-maqсадida: "Hududlarning muxandislik-kommunikatsiya va ijtimoiy infratuzilma tizimini hamda xizmat ko'rsatish va servis soxalarini rivojlantirish" yo'nalishi bo'yicha quyidagi vazifalar belgilangan:

- hududlarda xizmat ko'rsatish va servis soxalarini rivojlantirish orqali keyingi 5 yilda xizmat ko'rsatish hajmini 3 baravarga oshirish hamda ushbu yo'nalishda jami 3,5 million yangi ish o'rinlarini yaratish;

- shahar va tumanlar markazlarida aholining kundalik ehtiyoji yuqori bo'lgan maishiy va kommunal xizmatlarni rivojlantirish bo'yicha pullik santexnika, elektrik, uy jihozlarini ta'mirlash xizmatlarini ko'rsatish punktlarini rivojlantirish;

- respublika hududlarida savdo va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish orqali 130 ta zamonaviy bozorlar va savdo komplekslari, shuningdek, yo'lbo'yi infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha 65 ta yirik hamda 5000 ta kichik xizmat ko'rsatish ob'ektlarini tashkil etish;

- servis sohasida yashirin iqtisodiyot ulushini 3 baravar qisqartirish. Xizmatlar sohasining jozibadorligini oshirish maqsadida sohadagi tadbirkorlik sub'ektlariga qo'shimcha imtiyozlar taqdim etish.¹

Qayd etilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, bugungi kunda jahonda davom etayotgan turli inqiroziy holatlar sharoitida, O'zbekistonda xizmat ko'rsatish sohasini davlat tomonidan yanada qo'llab-quvvatlash bo'yicha imtiyozlar berish, infratuzilmani yanada rivojlantirish orqali tadbirkorlik muhitini

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 28.01.2022 йилдаги "2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг таракқиёт стратегияси тўғрисида"ги ПФ-60-сон Фармони. <https://lex.uz/docs/5841063>

yaxshilash, bu jarayonlarda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash va bartaraf etish borasida ilmiy tavsiyalar va takliflar ishlab chiqish bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib xisoblanadi.

Hozirgi paytda xizmat ko‘rsatish sohasi faoliyatini baholash usullarini takomillashtirish va unda yuqorida zikr etilgan barcha holatlar o‘z aksini topishi lozim. Mavjud adabiyotlarda xizmat ko‘rsatish sohasining milliy iqtisodiyotdagi, uning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidagi o‘rnini, uning samaradorligini, raqobatbardoshligini yoki boshqa jihatlarini baholash, muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali ifoda etilgan.

Xizmat ko‘rsatish sohasini mamlakat YaIM tarkibi bo‘yicha baholash uning mamlakat iqtisodiyotidagi mavqeini ko‘rsatadi. Chunki, YaIM iqtisodiyotning moddiy hamda nomoddiy sohalari bo‘yicha iqtisodiy faoliyatning yakuniy natijalarini tavsiflovchi muhim makroiqtisodiy ko‘rsatkichdir. YaIM tarkibida xizmat ko‘rsatish sohasining ulushi qancha yuqori bo‘lsa, mamlakat axolisining turmush darajasi va sifati ham shunchalik baland bo‘ladi.

2021 yilda xizmat ko‘rsatish sohasining YaIM tarkibidagi ulushi 37,4 foizni tashkil qilgan bo‘lsa, oxirgi to‘rt yil mobaynida xizmat ko‘rsatish sohasining YaIMdagi ulushi muttasil o‘sib bordi. Jumladan, 2022 yilda 35,5 foiz, 2023 yilda 36,6 foiz va 2024 yilda esa 38,6 foizgacha o‘shirishga erishgan. Bu ko‘rsatkich rivojlangan mamlakatlarda 74 foizni tashkil etadi. Shundan kelib chiqqan holda O‘zbekistonda ushbu sohani jadal sur‘atlar bilan rivojlantirish va uning mamlakat YaIM tarkibidagi ulushini yanada oshirish maqsad qilib qo‘yildi.

Mamlakatda olib borilayotgan tarkibiy o‘zgarishlar ham aynan shunga karatilgan. YaIM tarkibida xizmatlar sohasi ulushining oshib borishiga asosan ko‘rsatilgan xizmatlar hajmining yildan-yilga oshishini ko‘rsatib o‘tish mumkin. 2020-2024 yillarda respublikamizda ko‘rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o‘shirish dinamikasi taqqoslama baholarda 166,9 foizni tashkil etdi (3-jadval).

3-jadval

O‘zbekiston Respublikasi mintaqalari bo‘yicha ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining o‘shirish dinamikasi (2020 yilga nisbatan foizda)¹

Mintaqalar nomi	2020y.	2021y.	2022y.	2023y.	2024y.
O‘zbekiston Respublikasi	100,0	117,2	133,5	149,1	166,9
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	100,0	119,9	137,2	149,8	162,1
Andijon viloyati	100,0	116,0	128,3	139,6	156,3
Buxoro viloyati	100,0	116,4	132,6	144,4	156,1
Jizzax viloyati	100,0	115,2	130,5	147,4	161,9
Qashqadaryo viloyati	100,0	112,3	125,1	136,5	148,1
Navoiy viloyati	100,0	116,2	128,6	144,8	163,8
Namangan viloyati	100,0	117,3	132,7	144,6	160,7
Samarqand viloyati	100,0	116,7	131,1	145,9	164,8
Surxondaryo viloyati	100,0	117,6	130,9	139,9	150,8
Sirdaryo viloyati	100,0	116,6	126,5	137,3	153,6
Toshkent viloyati	100,0	119,2	131,1	143,7	159,7
Farg‘ona viloyati	100,0	115,2	129,5	139,6	154,7

¹ O‘zbekiston Respublikasi milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif hisoblagan.

Xorazm viloyati	100,0	117,1	132,6	149,0	166,4
Toshkent shahri	100,0	115,6	135,7	157,6	182,9

Bu sohada eng yuqori ko'rsatkichlar Toshkent shahri (182,9%), Xorazm (166,4%), Samarqand (164,8%) va Navoiy (163,8%) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi. Quyi natijalar esa Sirdaryo (153,6%), Surxondaryo (150,8%) va Qashqadaryo (148,1%) viloyatlarida kuzatildi.

Ta'kidlash joizki, Toshkent shahridan tashqari barcha mintaqalarning natijalari o'rtacha respublika ko'rsatkichidan past. Buning sababi shahar hududida joylashgan ko'plab xizmat ko'rsatish muassasalari (banklar, bozorlar, oliy ta'lim muassasalari, shifoxonalar va boshq.) nafaqat poytaxt aholisiga, shu bilan birga mamlakatimizning deyarli barcha hududlari aholisiga xizmat ko'rsatadi.

Xizmat ko'rsatish sohasida band axolining iqtisodiyotda band umumiy aholi sonidagi ulushi ham yuqori. Xizmat ko'rsatish sohasi faoliyatiga bunday yondashuv asosida baholash sohaning milliy iqtisodiyotdagi ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan va aholi turmush farovonligini ta'minlashga qaratilgan bozor iqtisodiyotini izchillik bilan shakllantirayotgan O'zbekistonda aholi bandligi masalalariga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Aholi bandligini ta'minlash mamlakatda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi.

Aholi bandligini ta'minlash xususida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoev "Barcha harakatlarimiz aholini ish bilan ta'minlash, iqtisodiyotimizni rivojlantirishga qaratilgan" deydi.¹ Aholi bandligini ta'minlash, kishilarning daromadlarini oshirish maqsadida alohida davlat dasturlari qabul qilinib, amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2022 yil 27 yanvarda qabul qilingan "Xizmatlar sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-104-son qaroriga muvofiq, xizmat ko'rsatish sohasi bilan shug'ullanadigan tadbirkorlarga juda katta soliq imtiyozlari joriy etildi.² Bu esa o'z navqbatida mamlakatimizda xizmatlar sohasining jadal rivojlanishiga katta turtki berdi.

Xizmat ko'rsatish sohasi aholi bandligiga nisbatan juda ta'sirchan. Iqtisodchi B.Mardonov fikricha, "agarda xizmat ko'rsatish sohasida band aholi bordi-yu, 10-20 foizga qisqaradigan bo'lsa, u holda mehnat resurslari safiga kelib qo'shilayotganlardan xizmat ko'rsatish sohasidan ortgan mehnat resurslari 2 yoki 4 baravardan ortiq bo'ladi".³

¹ <https://www.uzavtoyul.uz/cy/post/barcha-harakatlarimiz-aholini-ish-bilan-taminlash-iqtisodiyotimizni-rivojlantirishga-qaratilgan.html>

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 27 январдаги "Хизматлар соҳасини ривожлантиришга оид қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-104-сон қарори. <https://lex.uz/docs/5840284?ONDATE=18.12.2024>

³ Мардонов Б.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасини модернизациялаш муаммолари ва уларнинг ечимлари. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/7_B_Mardonov_0.pdf

Shunday qilib, xizmat ko'rsatish sohasi O'zbekiston iqtisodiyotining tobora muhim qismiga aylanib bormoqda. Transport, moliyaviy xizmatlar va AKT xizmatlari kabi turli xil xizmat turlari katta investitsiyalar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi tufayli tez sur'atlar bilan o'sib bormoqda. Mamlakatimiz milliy iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilishda davom etar ekan, uning yanada o'sishi va kengayishi uchun ko'plab imkoniyatlar mavjud.

IQTISODIYOT

NAVOIY VILOYATI IQTISODIYOTIDA PAXTA-TO‘QIMACHILIK KLASTERLARI SALOHİYATIDAN SAMARALI FOYDALANISH HOLATI



**Xayitov Rustam
Burxonovich, Navoiy
innovatsiyalar
universiteti “Iqtisodiyot
va axborot
texnologiyalari”
kafedrasi o‘qituvchisi.**

UO‘K 306

Annotatsiya: Ushbu maqolada Navoiy viloyati iqtisodiyotida paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan samarali foydalanish holati tahlil qilingan. Shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan samarali foydalanish yuzasidan xulosalar bayon etilgan.

Аннотация: В данной статье анализируется состояние эффективного использования потенциала хлопчатобумажных и текстильных кластеров в экономике Навоийской области. Также сделаны выводы об эффективном использовании потенциала хлопчатобумажных и текстильных кластеров.

Annotation: This article analyzes the state of effective use of the potential of cotton-textile clusters in the economy of Navoi region. Also, conclusions are drawn on the effective use of the potential of cotton-textile clusters.

Kalit so‘zlar: Klaster, paxta-to‘qimachilik klasteri, salohiyat, tartibga solish, holat.

Ключевые слова: Кластер, хлопчатобумажный и текстильный кластер, потенциал, регулирование, состояние.

Key words: Cluster, cotton-textile cluster, potential, regulation, state.

Bugungi kunda O‘zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va uning raqobatbardoshligini oshirishda hududlarning klaster tizimi muhim o‘rin tutmoqda. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi va sanoatni uzviy bog‘lovchi paxta-to‘qimachilik klasterlari hududlar iqtisodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishda samarali mexanizm sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mamlakatimizda paxta-to‘qimachilik va tikuv-trikotaj sanoati rivojlanishining tahlili jahon bozoridagi kon’yunkturaning o‘zgarishi, raqobat kurashining kuchayishi sharoitida sohani davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, uni yanada barqaror va jadal rivojlanishi mexanizmlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishni taqozo etmoqda [1]. Bu borada Navoiy viloyati tabiiy resurslari, mehnat salohiyati va

qulay geoiqtisodiy joylashuvi bilan klasterlarni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlarga ega.

Navoiy viloyati respublikadagi yirik sanoat hududlaridan biri sifatida uning tarkibida tog'-kon sanoati, kimyo, energetika va qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoqlar bo'lib qaraladi. Viloyatda sanoat tarmoqlarining tarkibiy jihatdan rivojlanib, tog'-kon va metallurgiya sanoati hisobiga sanoat mahsuloti hajmi va iqtisodiy barqarorlik sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Bu esa kelgusi yillarda ham sanoatni diversifikatsiya qilish va yuqori texnologik ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mustahkam asos yaratadi. Sanoat mahsuloti ishlab chiqarishning o'sish sur'atlari yillar kesimida nisbatan barqaror bo'lib, asosan 100-109 foiz oralig'ida shakllangan.

Qishloq xo'jaligida esa paxtachilik muhim o'rin egallab, u aholining bandligini ta'minlash va qayta ishlash sanoati uchun xomashyo bazasini yaratishda muhim ahamiyatga ega. Bu esa paxta-to'qimachilik klasterlarining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga oladigan boshqaruv qarorlarini qabul qilishning takomillashtirilgan algoritmini ishlab chiqishni o'z ichiga oladi [2].

So'nggi yillarda viloyat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish, eksport salohiyatini oshirish va qo'shimcha qiymat yaratadigan tarmoqlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Chunki, paxta-to'qimachilik klasteri paxtani yetishtirishdan boshlab, uni qayta ishlash, tayyor to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish va eksport qilish jarayonigacha bo'lgan yagona texnologik zanjirdan tarkib topadi. Bu esa klaster tizimi ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, mahsulot sifatini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish, eksport hajmini kengaytirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabi afzalliklarni yaratib beradi.

Navoiy viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari bosqichma-bosqich joriy etildi. Klasterlar asosan Qiziltepa, Navbahor, Karmana va Xatirchi tumanlarida faoliyat yuritmoqda. Ularda zamonaviy agrotexnologiyalar qo'llanilib, tomchilatib sug'orish, yuqori hosilli navlardan foydalanish yo'lga qo'yilgan. Klasterlar fermer xo'jaliklari bilan shartnoma asosida ish olib borib, ularni sifatli urug', mineral o'g'it va texnika bilan ta'minlamoqda. Shu boisdan ham, Navoiy viloyatida paxta-to'qimachilik klasterlari tashkil etilishi ustuvor yo'nalishlardan biri bo'lib sanaladi. Vazirlar Mahkamasi qaroriga muvofiq viloyatning Kiziltepa va Xatirchi tumanlarida klasterlar tashkil etildi, ular paxta yetishtirish va uni qayta ishlash bo'yicha tizimli faoliyat olib bormoqda.

Shular bilan birgalikda, viloyatda paxta-to‘qimachilik klasterlari viloyat iqtisodiyotiga quyidagi ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Xususan, xom paxta eksporti o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish orqali qo‘shimcha qiymat oshmoqda, mahalliy budget daromadlari ko‘paymoqda, kichik biznes va xizmat ko‘rsatish sohalari rivojlanmoqda hamda aholi daromadlari o‘smoqda. Hamda klasterlar aholini doimiy ish o‘rinlari bilan ta’minlashda muhim omil bo‘lmoqda. Bu borada viloyatda **paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishga asoslangan klasterlar faoliyat yuritgan.** Unga ko‘ra, “Baxt Textilee” MChJ klasteri viloyatda eng yirik klasterlardan biri sifatida Karmana, Qiziltepa va Xatirchi tumanlarini qamrab olgan holda jami 24484 gektar paxta maydonida faoliyat yuritgan. Mazkur holat ushbu klasterning ishlab chiqarish quvvati yuqori ekanligini, shuningdek, paxta xomashyosini barqaror yetkazib berish imkoniyatiga ega ekanligini ko‘rsatadi. Keng maydonlar esa klasterga chuqur qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish va eksportbop mahsulot ishlab chiqarish uchun qulay shart-sharoit yaratadi. “Navbaxor Textile” MChJ klasteri esa Navbahor va Konimex tumanlarida joylashgan bo‘lib, u o‘ziga jami 8104 gektar paxta maydonini qamrab olgan. Yer maydoni hajmi “Baxt Textilee” MChJga nisbatan kam bo‘lsa-da, ushbu klaster hududiy ixtisoslashuv asosida samarali faoliyat olib borish, suv tejovchi texnologiyalar va intensiv usullardan foydalanish orqali yuqori iqtisodiy samaraga erishish imkoniyatiga ega.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, bugungi kungacha viloyatda umumiy 4 ta paxta-to‘qimachilik klasteri mavjud bo‘lib, ular jami 28155 ga. yer maydonida faoliyat yuritmoqda. Bu klasterlar orqali paxta yetishtirishdan tortib, xomashyoni qayta ishlashga qadar bo‘lgan qo‘shimcha qiymat zanjiri shakllantirilmoqda. Shuningdek, Navoiy viloyati klasterlarida raqamli boshqaruv, agrar monitoring, resurslarni tejovchi texnologiyalar joriy etilmoqda. Bu ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va ekologik barqarorlikni ta’minlashga xizmat qilmoqda. Ammo, viloyatda paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan samarali foydalanish bo‘yicha suv resurslarining cheklanganligi, malakali kadrlar yetishmasligi, logistika va infratuzilma muammolari va tashqi bozorlarda raqobat kuchliligi kabi muammolar mavjud. Ushbu muammolarni hal qilish uchun paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan samarali foydalanish holatini tahlil qilish maqsadga muvofiq. Ushbu tahlil bo‘yicha quyidagi holatni kuzatish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Navoiy viloyatida paxta-to‘qimachilik klasterlari salohiyatidan samarali foydalanish holati¹

№	Ko‘rsatkichlar	Klasterlar joriy etilishidan oldin	Klasterlar joriy etilgandan so‘ng	Iqtisodiy ahamiyati
1	Paxta hosildorligi (ts / ga)	25-27	35-40	yer resurslaridan samarali foydalanish
2	Qayta ishlash darajasi (%)	30-35	70-80	qo‘shimcha qiymat oshishi
3	Tayyor to‘qimachilik mahsuloti ulushi	kam	yuqori	eksport salohiyatining o‘shishi
4	Yaratilgan ish o‘rinlari (ming nafar)	cheklangan	sezilarli oshgan	aholi bandligi ta‘minlanishi
5	Eksport qilish	xom ashyo	tayyor mahsulot	valyuta tushumlarining ko‘payishi
6	Innovatsion texnologiyalar	kam qo‘llanilgan	keng joriy etilgan	ishlab chiqarish samaradorligi
7	Fermerlar daromadi	barqaror emas	barqaror o‘shida	ijtimoiy barqarorlik
8	Soliq tushumlari	Past	oshgan	mahalliy budjet mustahkamlanishi

Ushbu 1-jadvalga asosan, Navoiy viloyati iqtisodiyotida paxta-to‘qimachilik klasterlari joriy etilishi natijasida erishilayotgan iqtisodiy va ijtimoiy o‘zgarishlar tahlil qilingan. Unga ko‘ra, klaster tizimi paxta yetishtirish bilan birgalikda tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni qamrab olgan holda samarali ishlab chiqarish zanjirini shakllantirgan.

Birinchidan, paxta hosildorligi ko‘rsatkichlarining sezilarli oshishi zamonaviy agrotexnologiyalar, yuqori hosilli navlar va suv tejovchi usullarning joriy etilishi bilan izohlanadi.

Ikkinchidan, paxtani qayta ishlash darajasining keskin o‘shishi viloyat iqtisodiyoti uchun muhim ahamiyatga ega. Ilgari asosan xom ashyo eksport qilingan bo‘lsa, hozirgi kunda tayyor to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarilib, tashqi bozorlarga chiqarilmoqda.

Uchinchidan, klasterlar faoliyati natijasida yangi ish o‘rinlari yaratildi. Ayniqsa, qishloq joylarda aholi bandligining oshishi ijtimoiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

¹ Muallif ishlanmasi.

Xulosa qilib aytganda, paxta-to‘qimachilik klasterlari Navoiy viloyati iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda muhim strategik ahamiyatga ega. Ushbu tizimni samarali rivojlantirish orqali hududning iqtisodiy salohiyatini to‘liq ro‘yobga chiqarish mumkin. Shunday ekan, Navoiy viloyati iqtisodiyotida paxta-to‘qimachilik klasterlari salmoqli iqtisodiy, ijtimoiy va moliyaviy samara berayotganini yaqqol namoyon etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ҳасанова Р.Б. Пахта-тўқимачилик кластерларида бошқарув сегментар ҳисоби ва ҳисоботи самарадорлигини аниқлашнинг услубий жиҳатлари. // “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy-elektron jurnali, №5, sentyabr-oktyabr, 2020. - 53 б.
2. Иноятов С.Б. Совершенствование алгоритмов принятия управленческих решений в сельскохозяйственном производстве хлопково-текстильных кластеров Узбекистана. // Экономика Центральной Азии, 2024, Т.8, №4. - с. 275-288. – DOI 10.18334/asia.8.4.122453

IQTISODIYOT**MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA
OLIV TA'LIM TIZIMI SAMARADORLIGINI OSHIRISH
ZARURLIGI**

**Ilmira Yusupova,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
Iqtisodiyot kafedrası
katta o'qituvchisi,
mustaqil izlanuvchi.**

UO'K 306

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintaq*a* iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish zarurligi yoritib berilgan. Shuningdek, mintaq*a* iqtisodiyotida oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish yuzasidan xulosa va takliflar keltirilgan.

Аннотация: В данной статье подчеркивается необходимость повышения эффективности системы высшего образования в контексте устойчивого развития региональной экономики. Также представлены выводы и предложения по повышению эффективности системы высшего образования в региональной экономике.

Annotation: This article highlights the need to improve the efficiency of the higher education system in the sustainable development of the regional economy. It also presents conclusions and proposals for improving the efficiency of the higher education system in the regional economy.

Kalit so'zlar: Mintaqa, mintaq*a* iqtisodiyoti, ta'lim, oliy talim, oliy ta'lim tizimi, samaradorlik.

Ключевые слова: Регион, региональная экономика, образование, высшее образование, система высшего образования, эффективность.

Key words: Region, regional economy, education, higher education, higher education system, efficiency.

Jahon ta'lim tizimida oliy ta'lim sohasini rivojlantirishga katta e'tibor berilib, uning ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlari amalga oshirilmoqda. Bu esa oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish sohasi samaradorligini oshirish va iqtisodiy foydalilik yo'nalishlarni ishlab chiqishni taqozo qiladi. Statistik ma'lumotlarga qaraydigan bo'lsak, jahonda global oliy ta'lim xizmatlari bozori 2030-yilda 97,4 mlrd. AQSh dollarini tashkil etadi. Ya'ni, 2023-yilda 33,3 mlrd. AQSh dollariga baholangan oliy ta'lim xizmatlari uchun global bozor tomonidan 2030-yilda 97,4 mlrd. AQSh dollariga yetishi kutilmoqda yoki ushbu ko'rsatkich 2023-yil tahlil davrida 16.6 foizga o'sdi [1]. Shundan kelib chiqib, jahon mintaqalarida oliy ta'lim xizmatlari

ko'rsatish samaradorligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Jahon iqtisodiyotining innovatsion rivojlanishi sharoitida malakali kadrlar tayyorlash jarayoni muhim ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Bugungi sharoitida mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, ta'lim sohasini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish, xususan, oliy ta'lim xizmatlarini ko'rsatish, oliy ta'lim muassasalari xizmatlariga ta'sir qiluvchi omillardan samarali foydalanish, oliy ta'lim sohasini rivojlantirish, oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish holatini tahlil qilish, ushbu sohani tartibga solish, baholash va takomillashtirish masalalari bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Yangi O'zbekistonda oliy ta'lim sohasini rivojlantirish uchun yetarli chora-tadbirlarni amalga oshirish yuzasidan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan taraqqiyot strategiyasining 46-maqsadida "Oliy ta'lim bilan qamrov darajasini 50 foizga yetkazish va ta'lim sifatini oshirish" [2] **lozimligi ta'kidlab o'tilgan. Shunday ekan, O'zbekistonda oliy ta'lim sohasini rivojlantirish ustuvor vazifa bo'lib xizmat qiladi. Bu borada mintaqada oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish ahvolini baholash, oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish samaradorligini oshirishning innovatsion yo'nalishlarini taklif qilish hamda oliy ta'lim xizmatlari ko'rsatish samaradorligi ko'rsatkichlarini ekonometrik baholash va prognozlashtirish bo'yicha ko'pgina ilmiy tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.**

Ayniqsa, bugungi globallashtirish sharoitida mintaqalar o'rtasidagi raqobat kuchayib bormoqda. Mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishi tabiiy resurslar, ishlab chiqarish salohiyati yoki infratuzilma hamda inson kapitalining sifati bilan belgilanadi. Shu nuqtai nazardan oliy ta'lim tizimi mintaqaviy iqtisodiy rivojlanishning asosiy "drayverlari"dan biri bo'lib hisoblanadi. Chunki, oliy ta'lim muassasalari malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy-tadqiqotlar olib borish, innovatsiyalarni joriy etish orqali hududlarning uzoq muddatli barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

Mintaqa iqtisodiyotining barqarorligi iqtisodiy o'sishning uzluksizligi, bandlik darajasining oshishi, aholining turmush sifati yaxshilanishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy xavflarga moslashuvchanlikni ifodalaydi. Ushbu jarayonda oliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish muhim strategik vazifa sifatida namoyon bo'ladi. Bu borada oliy ta'lim tizimi mintaqada ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash va aholining hayot sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Unga

asosan, ta'limli aholining ulushi oshishi natijasida jamiyatda huquqiy madaniyat, fuqarolik faolligi va ijtimoiy mas'uliyat darajasi yuksaladi. Oliy ma'lumotli yoshlar mintaqada ijtimoiy tashabbuslarni ilgari surib, jamiyat taraqqiyotiga faol hissa qo'shadi. Bundan tashqari, oliy ta'lim muassasalari mintaqada madaniy-ma'rifiy muhitni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Universitetlar tomonidan tashkil etiladigan ilmiy konferensiyalar, madaniy tadbirlar va ijtimoiy loyihalar hudud aholisi uchun bilim va tajriba almashish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bu esa mintaqada intellektual muhitning rivojlanishiga xizmat qiladi.

Hozirgi kunda ta'lim xizmatlaridan foydalanish yozma va og'zaki muloqotda, shuningdek, xizmatlarni taqdim etuvchi va ularni qabul qiluvchi tomonlar uchun odatiy holga aylangan [3]. Ushbu masalani yechimi sifatida mintaqada oliy ta'lim tizimi bilan mehnat bozori o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik alohida ahamiyatga ega. Bu esa ta'lim xizmatlari orqali o'quv dasturlarining xususiyatlari va asosiy tarkibiy qismlarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ta'lim xizmatlari mijozning xizmat jarayonida faol ishtirok etishini belgilaydi [4]. Ya'ni, oliy ta'lim muassasalari tomonidan tayyorlanayotgan kadrlarning malakasi va yo'nalishlari hudud iqtisodiyotining real ehtiyojlariga mos bo'lishi lozim. Shu nuqtai nazardan, oliy ta'lim muassasalari va ish beruvchilar o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish zarurdir. Bu bo'yicha amalga oshirilgan ba'zi tadqiqotlarga ko'ra, aralash ta'lim modeliga o'tish va masofaviy hamda onlayn ta'lim texnologiyalaridan keng foydalanishning yangi tendensiyalari inobatga olinib, oliy ta'lim xizmatlarining sifatini baholash uchun uslubiy yondashuv ishlab chiqiladi [5].

Fikrimizcha, oliy ta'lim tizimi va mintaq iqtisodiyoti o'rtasida uzviy va ikki tomonlama bog'liqlik mavjud. Bu bir tomondan, mintaq iqtisodiyoti rivojlanishi oliy ta'lim muassasalari uchun moddiy-texnik baza, investitsiya va mehnat bozori imkoniyatlarini yaratadi. Ikkinchi tomondan esa oliy ta'lim tizimi mintaq iqtisodiyotini yuqori malakali mutaxassislar, ilmiy ishlanmalar va innovatsion g'oyalar bilan ta'minlaydi. Aniqroq qilib aytganda, hududlarda joylashgan oliy ta'lim muassasalari mintaqaning ixtisoslashuviga mos kadrlar tayyorlashi orqali iqtisodiy samaradorlikni oshiradi. Masalan, sanoat rivojlangan hududlarda muhandislik va texnologik yo'nalishlar, agrar mintaqalarda esa qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar bo'yicha mutaxassislar tayyorlash mintaqaviy iqtisodiy o'sishga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Barqaror rivojlanish tushunchasi iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning uyg'unligini taqozo etadi. Oliy ta'lim tizimi ushbu yo'nalishlarda

zarur bo'lgan qator vazifalarni bajaradi. Xususan, iqtisodiy yo'nalishda raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, innovatsion faoliyatni rivojlantirish va mehnat unumdorligini oshirish, ijtimoiy yo'nalishda bandlikni ta'minlash, ijtimoiy tenglikni mustahkamlash va aholining bilim darajasini oshirish hamda ekologik yo'nalishda esa ekologik ongni shakllantirish, yashil texnologiyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mutaxassislarni tayyorlash shular jumlasidandir. Shu sababli, oliy ta'lim tizimi samaradorligi iqtisodiy ko'rsatkichlarga va mintaqaning umumiy barqaror rivojlanish darajasiga ham bevosita ta'sir qiladi.

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida an'anaviy ta'lim usullari mehnat bozori talablarini to'liq qondira olmaydi. Bu esa oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish zaruratini yuzaga keltiradi. Asosiy muammolar ta'lim dasturlarining amaliyot bilan yetarli darajada integratsiyalanmaganligi, bitiruvchilarning kasbiy kompetensiyalari mehnat bozori talablariga mos kelmasligi, ilmiy-tadqiqot natijalarining ishlab chiqarishga joriy etilish darajasining pastligi va raqamli texnologiyalar va innovatsion ta'lim usullaridan foydalanishning cheklanganligi kabilardan iborat bo'ladi. Mazkur muammolarni bartaraf etish mintaq iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun muhim shart bo'lib hisoblanadi.

Mazkur muammoning yechimi sifatida mintaq iqtisodiyoti ehtiyojlaridan kelib chiqib, oliy ta'lim tizimi samaradorligini oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlarda amalga oshirilishi lozim:

birinchidan, ta'lim dasturlarini mintaqaviy mehnat bozori talablariga moslashtirish zarur. Bu orqali bitiruvchilarning ish bilan ta'minlanish darajasi oshadi va kadrlar migratsiyasi yanada kamayadi.

ikkinchidan, oliy ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini kuchaytirish lozim. Korxonalar bilan hamkorlikda dual ta'lim, amaliyot va stajirovkalar tashkil etilishi kadrlar tayyorlash sifatini oshiradi.

uchinchidan, ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish mintaq iqtisodiy o'sishining muhim omilidir. Universitetlar qoshida texnoparklar, startup markazlari va innovatsion klasterlarni tashkil etish bunga xizmat qiladi.

to'rtinchidan, raqamli ta'lim texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim sifati va qamrovini oshirish mumkin. Masofaviy ta'lim, onlayn kurslar va sun'iy intellekt asosidagi ta'lim platformalari mintaqaviy imkoniyatlarni kengaytiradi.

Shunday ekan, mintaq iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda oliy ta'lim tizimi samaradorligining oshishi mintaq iqtisodiyotiga mehnat unumdorligining

oshishi, innovatsion mahsulot va xizmatlar ulushining ko'payishi, yangi ish o'rinlarining yaratilishi, mintaqaning investitsiyaviy jozibadorligining oshishi va aholining daromadlari va turmush darajasining yaxshilanishi kabi quyidagi ijobiy ta'sirlarni ko'rsatadi. Ushbu omillar mintaqa iqtisodiyotining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda oliy ta'lim tizimining samaradorligini oshirish strategik ahamiyatga ega. Bu borada oliy ta'lim muassasalari bilim beruvchi institutlar hamda mintaqaviy innovatsion va iqtisodiy rivojlanish markazlari sifatida faoliyat yuritishi lozim. Ta'lim sifati, ilmiy-tadqiqot salohiyati va ishlab chiqarish bilan integratsiya darajasining oshishi mintaqa iqtisodiyotining raqobatbardoshligini kuchaytiradi. Shu boisdan ham oliy ta'lim tizimini modernizatsiya qilish, uni mintaqaviy rivojlanish strategiyalari bilan uyg'unlashtirish va samaradorligini oshirish mintaqa iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi eng muhim yo'nalish bo'lib hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1· <https://www.marketresearch.com/Global-Industry-Analysts-v1039/Higher-Education-Services-37599297/>
- 2· Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022-йил 28-январдаги “2022-2026-йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. Манба: <https://lex.uz/docs/5841063>
- 3· <https://studfile.net/preview/3966205/page:5/>
- 4· Сухенко Н.В. Образовательные услуги вузов. // Современные исследования социальных проблем (электронный научный журнал), №2(10), 2012.
- 5· Kapustina L., Izakova N., Makovkina E. Higher education services market: new trends in sustainable development. // E3S Web of Conferences, 208, 09016 (2020). - p. 2.

IQTISODIYOT

YASHIL FISKAL TRANSFORMATSIYA: EKOLOGIK SOLIQ TIZIMI VA BYUDJET XARAJATLARI O'RTASIDAGI MUVOZANAT MODELI



**Mullabayev Baxtiyarjon
Bulturbayevich,
Namangan davlat
texnika universiteti
Menejment kafedrası
mudiri, professor.**

UO'K 306

Annotatsiya: Mazkur maqola yashil fiskal transformatsiya jarayonida ekologik soliq tizimi va davlat byudjeti xarajatlari o'rtasidagi institutsional muvozanatning shakllanish mexanizmlarini chuqur tahlil qiladi. Yashil iqtisodiyotga o'tish sharoitida ekologik soliqlar faqatgina byudjet daromadlarini shakllantirish vositasi emas, balki ifloslanishning tashqi xarajatlarini ichkilashtiruvchi, resurslardan tejankor foydalanishni rag'batlantiruvchi va ekologik muammolarni kamaytirishga qaratilgan strategik fiskal instrument sifatida qaraladi.

Аннотация: В данной статье проводится глубокий анализ механизмов формирования институционального баланса между системой экологического налогообложения и государственными бюджетными расходами в условиях зелёной фискальной трансформации. В процессе перехода к зелёной экономике экологические налоги рассматриваются не только как инструмент формирования бюджетных доходов, но и как стратегический фискальный механизм, направленный на интернализацию внешних экологических издержек, стимулирование ресурсосбережения и снижение экологических рисков.

Annotation: This article provides an in-depth analysis of the mechanisms shaping the institutional balance between the environmental tax system and government budget expenditures within the context of green fiscal transformation. In the transition to a green economy, environmental taxes are viewed not only as an instrument for generating public revenue, but also as a strategic fiscal tool aimed at internalizing environmental externalities, promoting resource efficiency, and reducing ecological risks.

Kalit so'zlar: Yashil fiskal transformatsiya, ekologik soliq tizimi, uglerod solig'i, byudjet xarajatlari, yashil infratuzilma, fiskal barqarorlik,

ekologik innovatsiyalar, ekologik transferlar, resurs tejamkorligi, ekologik siyosat, yashil investitsiyalar.

Ключевые слова: Зелёная фискальная трансформация, система экологического налогообложения, углеродный налог, бюджетные расходы, зелёная инфраструктура, фискальная устойчивость, экологические инновации, экологические трансферты, ресурсосбережение, экологическая политика, зелёные инвестиции.

Key words: Green fiscal transformation, environmental tax system, carbon tax, budget expenditures, green infrastructure, fiscal sustainability, environmental innovation, ecological transfers, resource efficiency, environmental policy, green investments.

Yashil fiskal transformatsiya jahon iqtisodiyotining ustuvor strategik yoʻnalishiga aylanib, ekologik soliq tizimi va davlat byudjeti xarajatlari oʻrtasidagi institutsional muvozanatni shakllantirish zaruriyatini dolzarb masalaga aylantirdi. Global miqyosda iqlim oʻzgarishi, uglerod emissiyalarining oshishi va tabiiy resurslarning kamayishi iqtisodiy oʻsishning barqarorligini xavf ostiga qoʻymoqda; xalqaro tashkilotlar bahosiga koʻra, har yili ekologik zararlarni bartaraf etish xarajatlari global YaIMning 4-6 foiziga teng boʻlib bormoqda [1]. Bu holat anʼanaviy fiskal siyosatning chegaralarini namoyon qilib, ekologik soliqlarni kuchaytirish, resurslardan tejamkor foydalanishni ragʻbatlantirish va ekologik tashqi xarajatlarni ichkilashtirish mexanizmlarini davlat siyosatining markaziga olib chiqmoqda.

Xalqaro valuta jamgʻarmasi (IMF), Jahon banki va OECDning soʻnggi tahlillari ekologik soliqlarni kuchaytirish iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish, uglerod intensiv tarmoqlarni restrukturizatsiya qilish va ekologik xavflarni kamaytirishda hal qiluvchi rol oʻynashini taʼkidlaydi [2]. OECD davlatlarida uglerod soligʻi, “ifloslantiruvchi toʻlaydi” tamoyiliga asoslangan chiqindilar uchun differensial toʻlovlar, atmosfera emissiyalari boʻyicha progressiv soliq yukining joriy etilishi ekologik koʻrsatkichlarni sezilarli darajada yaxshilagan. Masalan, Shvetsiya va Norvegiya kabi davlatlarda karbon soligʻini kuchaytirish natijasida CO₂ emissiyalari 15-25 foizgacha pasaygan, iqtisodiy oʻsish esa barqaror suratda davom etgan [3].

Oʻzbekiston sharoitida ham yashil fiskal siyosatning dolzarbligi soʻnggi yillarda keskin oshdi. “Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasi”, “Qayta tiklanuvchi energiya manbalari toʻgʻrisida”gi Qonun va “Iqlim oʻzgarishi boʻyicha milliy adaptatsiya dasturni tasdiqlash” haqidagi hujjatlar davlat fiskal siyosatining yangi ekologik paradigmaga oʻtganini koʻrsatadi [4]. Ushbu normativ-huquqiy bazaga koʻra, ekologik soliqlarni segmentlashtirish, resurs tejamkor texnologiyalar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish, yashil infratuzilma xarajatlarini byudjetda ustuvorlashtirish, uglerod

solig'i mexanizmlariga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha kompleks vazifalar belgilangan.

Bugungi kunda ekologik soliqlar va byudjet xarajatlari o'rtasidagi muvozanat modeli fiskal barqarorlikni mustahkamlash, uglerodga bog'liq tarmoqlarni diversifikatsiya qilish, ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirish va yashil iqtisodiy o'sishni tezlashtirishning asosiy iqtisodiy mexanizmlaridan biri sifatida qaralmoqda [5]. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, ekologik soliqlar orqali shakllangan daromadlarning kamida 30-50 foizini yashil infratuzilma, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik transport, suv ta'minoti va chiqindi xo'jaligini modernizatsiya qilishga yo'naltirish fiskal muvozanat va ekologik samaradorlik o'rtasida uzoq muddatli barqaror bog'liqlikni yaratadi. Shu bois, mazkur maqola ekologik soliq tizimi va byudjet xarajatlari o'rtasidagi institutsional bog'liqlikni, fiskal muvozanatning ekologik omillar bilan transformatsiyasini hamda O'zbekiston sharoitida yashil fiskal siyosatning amaliy modelini chuqur ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan.

Yashil fiskal transformatsiya bo'yicha ilmiy adabiyotlar ekologik soliqlar, fiskal siyosatning optimallashtirilishi va davlat byudjeti xarajatlarining ekologik yo'nalganlik darajasini oshirishni davlatning strategik iqtisodiy funksiyasi sifatida ko'rib chiqadi. Mazkur yo'nalishning nazariy asoslari A.Pigu tomonidan yaratilgan "tashqi effektlar iqtisodiyoti" konsepsiyasiga borib taqaladi. Pigu o'zining "The Economics of Welfare" asarida atrof-muhitga keltirilgan zararlarning bozor narxlariga aks etmayotgani sababli hukumat ekologik soliqlar orqali ushbu tashqi xarajatlarni ichkilashtirishi kerakligini ilmiy asoslab bergan [6]. Ushbu yondashuv zamonaviy yashil fiskal siyosatning butun konseptual bazasini tashkil etib, barcha ekologik soliqlar "Piguvian Soliq" deb yuritilishiga sabab bo'lgan.

Ekologik fiskal choralar iqtisodiy agentlarning xulq-atvoriga bevosita ta'sir etishi mumkinligini asoslab bergan muhim ilmiy ishlardan biri R.Stavins va D.Myers tomonidan yaratilgan "Environmental Economics and Policy" asaridir. Mualliflar energiya, transport va sanoat sektorlarida soliq stavkalari o'zgarganda agentlarning resurslardan foydalanish modeli qanday o'zgarishini nazariy va empirik tahlil asosida ko'rsatib, ekologik soliqlarni eng samarali va kam xarajatli ekologik siyosat instrumenti sifatida baholaydi [7]. Ularning tadqiqotlari ekologik soliqlarni byudjet xarajatlari bilan muvofiqlashtirish zarurligini, aks holda fiskal tizimda "kompensatsiya bo'shlig'i" yuzaga kelishini ilmiy asoslaydi.

Shuningdek, N.Hanley, J.Shogren va B.White tomonidan yaratilgan "Environmental Economics: In Theory and Practice" darsligida ekologik soliq tizimi bilan davlat xarajatlari o'rtasidagi muvozanat "optimal ekologik fiskal aralashuv" tushunchasi orqali izohlanadi [8]. Mualliflar ekologik soliq daromadlarini energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya va ekologik innovatsiyalarni moliyalashtirishga yo'naltirish davlat uchun ikki tomonlama dividend — ekologik ifloslanishning kamayishi va iqtisodiy barqarorlikning

kuchayishi — ta'minlanishi mumkinligini isbotlaydi. Bu nazariya yashil fiskal transformatsiyaning eng muhim ilmiy asoslaridan biridir.

S.Turner va D.Pearce tomonidan yozilgan “Economics of Natural Resources and the Environment” asarida ekologik soliqlar faqat daromad shakllantirish vositasi emas, balki tabiiy resurslardan foydalanishning iqtisodiy chegaralarini belgilovchi strategik regulyator sifatida talqin qilinadi [9]. Ularning fikricha, davlat ekologik soliq tushumlarining ma'lum qismini resurslarni qayta tiklash va ekologik infratuzilmani rivojlantirishga yo'naltirgan taqdirdagina ekologik barqarorlikni ta'minlovchi fiskal muvozanat modeli vujudga keladi. Bu yondashuv O'zbekiston uchun ham dolzarb bo'lib, resurslar taqchilligi sharoitida fiskal siyosatning ekologik yo'nalganligini kuchaytirishga ehtiyoj mavjud.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham ekologik fiskal siyosat bo'yicha izlanishlar chuqurlashib bormoqda. R.Ahmedov tomonidan yaratilgan “Ekologiya va atrof-muhitni boshqarish” darsligida O'zbekiston iqtisodiyotida ekologik to'lovlar, chiqindilar bo'yicha tariflar va suv resurslari uchun differensial to'lovlar ekologik xatti-harakatni tartibga soluvchi fiskal mexanizmlar sifatida ko'rsatiladi [10]. Muallif ekologik soliq tizimini modernizatsiya qilish uchun soliq bazasini kengaytirish, emissiyalarni o'lchash tizimini takomillashtirish va korxonalar uchun ekologik rag'batlar yaratish zarurligini ta'kidlaydi.

Sh.O'rozimov tomonidan tayyorlangan “Davlat moliyasi” darsligida yashil fiskal siyosat fiskal barqarorlik konsepsiyasining integral qismi sifatida baholanadi [11]. Unga ko'ra, ekologik soliq tizimining kuchayishi davlat byudjeti xarajatlarining tarkibini qayta ko'rib chiqish, ekologik investitsiyalar ulushini oshirish, energetika subsidiyalarini optimallashtirish va davlat tomonidan ekologik monitoringni kuchaytirishni talab etadi. Mazkur ilmiy yondashuv O'zbekiston moliya tizimining ham transformatsiya jarayonida muhim metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.

G.Hardingning “The Economics of the Environment” asarida ekologik soliqlar va ekologik subsidiyalar o'rtasidagi muvozanat iqtisodiy samaradorlikning asosiy sharti sifatida talqin etiladi [12]. Hardingga ko'ra, haddan tashqari subsidiyalar fiskal yukni oshiradi, soliq yukining yetarlicha sezilmasligi esa ekologik zararlarni kamaytirishda yetarli natija bermaydi. Demak, fiskal siyosatda ekologik soliq va xarajatlar o'rtasidagi muvozanat fundamental talabdir.

E.Atkins tahriri ostida chop etilgan “Handbook of Environmental Policy” ilmiy to'plamida ekologik soliq tizimlarining turli mamlakatlardagi samaradorlik darajasi, davlatning ekologik boshqaruvdagi roli va yashil investitsiyalarning fiskal barqarorlikka ta'siri orasidagi murakkab bog'liqliklar statistik va nazariy jihatdan asoslangan [13]. Ushbu to'plam ekologik fiskal transformatsiya jarayonining institutsional, huquqiy va iqtisodiy mexanizmlarini ko'p qirrali ilmiy tahlil asosida yoritib beradi.

Ushbu tadqiqotda yashil fiskal transformatsiya mexanizmlarini baholash uchun kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Dastlab, ekologik soliq tizimi, byudjet xarajatlari va fiskal muvozanat o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash

maqsadida normativ-huquqiy tahlil, institutsional iqtisodiyot yondashuvlari hamda fiskal ekologiya nazariyasi asos sifatida tanlandi. Shu bilan birga, ekologik soliqlar tarkibi, soliq yukining resurslar iste'moliga ta'siri, uglerod emissiyalari va ekologik tashqi samaralarning ichkilashtirilish darajasi komparativ tahlil, deduktiv va induktiv iqtisodiy mantiq, fiskal tizimlararo qiyosiy model orqali baholandi. Tadqiqotda xalqaro tajriba, xususan OECD, EU Green Deal, Piguvian soliq nazariyasi hamda ekologik fiskal integratsiya modellaridan foydalanilib, O'zbekistonning milliy sharoitiga moslashtirilgan konseptual fiskal muvozanat modeli ishlab chiqildi.

Metodologiyaning amaliy qismi ekotizimga yo'naltirilgan davlat xarajatlarining samaradorligini, ekologik soliq tushumlarining o'zgarishi va byudjet xarajatlari tarkibidagi "yashil ulush"ning dinamikasini o'rganishga qaratildi. Bunda trend tahlili, strukturaviy dinamik tahlil, ko'rsatkichlararo korrelyatsiya bahosi, fiskal resurslarning qayta taqsimlanish modeli, shuningdek yashil fiskal ko'rsatkichlar integrallashgan indeksi (GFII) qo'llanildi. Ekologik soliq va byudjet xarajatlari o'rtasidagi funksional bog'liqlik konseptual muvozanat modeli orqali baholanib, ekologik soliq siyosati va ekologik investitsiyalar o'rtasidagi ikki tomonlama ta'sirning iqtisodiy mexanizmlari aniqlashtirildi. Metodologik yondashuvlarning uyg'un qo'llanilishi tadqiqot natijalarining ilmiy asoslanganligini, nazariy mantiqiyiligini va amaliy qo'llanish imkoniyatlarini ta'minladi.

Ushbu bo'limda Namangan viloyati va uning tumanlarida ekologik moliyalashtirish jarayonlarining rivojlanish dinamikasi uchta murakkab jadval asosida tizimli tahlil qilinadi. Jadval-lar yashil kreditlar hajmining yillik o'zgarishi, uglerod emissiyasining kamayish indeksi hamda ekologik investitsiyalar tarkibining transformatsiyasini qamrab oladi. Har bir jadval muallif tomonidan rasmiy statistik manbalarga tayangan holda yaratilib, o'zgaruvchilar o'rtasidagi miqdoriy bog'liqlikni aniqlash uchun standart iqtisodiy hisoblash formulalari — yillik o'sish sur'atlari, indeks dinamikasi, tarkibiy ulushlar va umumlashtirilgan ko'rsatkichlar metodikasi qo'llanilgan. Mazkur formulalar yordamida hududlar bo'yicha farqlar, vaqt bo'yicha trendlar hamda ekologik moliyalashtirishning asosiy yo'nalishlari miqdoriy jihatdan baholangan.

2017-2024-yillar oralig'idagi sakkiz yillik davrda Namangan viloyatining 12 ta tumani bo'yicha ekologik moliya oqimlari, emissiya jarayonlaridagi o'zgarishlar hamda ekologik investitsiyalar tarkibidagi strukturaviy siljishlar yillik kesimda yoritiladi. Ushbu ma'lumotlar viloyatning ekologik transformatsiya sur'atlarini, tumanlararo nomutanosibliklarni va moliya resurslarining ekologik sektorlarga yo'naltirilishidagi tendensiyalarni ko'rsatib beradigan asosiy statistik material hisoblanadi. Jadvallarda aks etgan dinamik ko'rsatkichlar keyingi bo'limlarda mazmunan kengaytirilgan ilmiy tahlil va mintaqaviy iqtisodiy talqinlar uchun tayanch empirik baza vazifasini bajaradi.

Namangan viloyatida ekologik moliyalashtirish jarayonlarining shakllanishi va hududlar bo'yicha rivojlanish sur'atlarini aniqlashda yashil

kreditlar dinamikasi asosiy tashxis ko'rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Shu bois mazkur jadvalda viloyatning barcha tumanlari kesimida 2017-yildan 2024-yilgacha bo'lgan moliyaviy oqimlar yillik tartibda keltirilib, ekologik loyihalarga yo'naltirilgan kreditlarning hajmi, o'sish sur'atlari va hududlarga taqsimlanishidagi farqlar umumlashtirilgan. Jadvalda ko'rsatilgan ma'lumotlar energiya samaradorligi, qayta tiklanuvchi energiya tizimlari va ekologik infratuzilma bo'yicha moliyalashtirishning kengayib borayotganini aks ettiradi. Yillik o'zgarishlar ekologik loyihalarning faollashuvi va moliya sektorining yashil iqtisodiyotga moslashuv jarayonini raqamli shaklda namoyon etadi.

Jadval tarkibida Namangan shahri, Pop, Kosonsoy, Chust kabi iqtisodiy faol hududlar bilan bir qatorda Mingbuloq, Norin, Uchqo'rg'on kabi nisbatan sekin modernizatsiyalanayotgan tumanlarning ko'rsatkichlari ham to'liq yillik dinamika asosida yoritiladi. Bu yondashuv hududlararo tafovutlarni aniqlash, ekologik investitsiya talabining miqyosi va moliyaviy resurslarning taqsimlanishidagi mintaqaviy nomutanosibliklarni ko'rsatib berish imkonini beradi. Yillik kesimdagi bu raqamlar viloyatda ekologik moliyalashtirishning qanday shakllanayotgani, qaysi hududlarda kreditlash darajasi yuqori yoki pastligi va ekologik iqtisodiy siyosatning amaliy natijalari haqida asosli xulosa chiqarish uchun boshlang'ich ilmiy platforma vazifasini bajaradi (1-jadval).

1-jadval

Namangan viloyatida ekologik soliq tushumlari dinamikasi, mlrd. so'm¹

Yil	Atmosfera emissiyalari bo'yicha soliq	Chiqindi joylashtirish to'lovi	Suv resurslari bo'yicha to'lov	Jami ekologik daromad	Yillik o'sish (%)
2017	42	18	25	85	—
2018	47	20	27	94	10.6
2019	53	23	30	106	12.7
2020	59	25	34	118	11.3
2021	66	28	38	132	11.8
2022	72	32	41	145	9.8
2023	78	35	45	158	9.0
2024	84	38	49	171	8.2

2017-2024-yillar oralig'ida Namangan viloyatida ekologik soliqlar bo'yicha tushumlarning barqaror o'sishi kuzatilgan bo'lib, jami ekologik daromad 2017-yildagi 85 mlrd. so'mdan 2024-yilga kelib 171 mlrd. so'mga ko'tarildi, ya'ni 101 foizlik umumiy o'sishga erishildi. Atmosfera emissiyalari bo'yicha soliq tushumlari 42 mlrd. so'mdan 84 mlrd. so'mga yetib, aynan ushbu segmentning o'sish darajasi 100 foizni tashkil etdi. Chiqindilarni joylashtirish bo'yicha to'lovlar esa 18 mlrd. so'mdan 38 mlrd. so'mga (111 %) oshgan, bu chiqindi boshqaruvi tizimida nazoratning kuchayganini ko'rsatadi. Suv resurslari bo'yicha to'lovlar 25 mlrd. so'mdan 49 mlrd. so'mga yetishi esa suv tanqisligi

¹ Manba: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi

sharoitida fiskal mexanizmlarning resurs iste'molini tartibga solishdagi rolini tasdiqlaydi. Yillik o'sish sur'atlarining 2018–2021-yillarda 10,6 %-11,8 % diapazonida bo'lishi fiskal siyosatning ekologik yo'nalganlikka uzluksiz o'tganini, 2022-yildan boshlab o'sishning 8–9% darajada barqarorlashgani esa fiskal tizimdagi institutsional moslashuvning shakllanganini anglatadi.

Ikkinchi tomondan, jadvaldagi dinamikalar ekologik soliqlarning fiskal transformatsiyadagi tizimli rolini chuqur yoritadi. Atmosfera emissiyalaridan tushgan soliqlar jami ekologik daromad tarkibida 49–51 % atrofida barqaror ulushga ega bo'lib, viloyatning ekologik yukining sanoat, transport va energiya sektorlari bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatadi. Chiqindilar bo'yicha tushumlar sur'atining yuqori bo'lishi (111 %) viloyatda chiqindilarni saralash, poligonlar monitoringi va differensial tariflarning joriy etilishi samaradorligini bildiradi. Suv resurslari bo'yicha tushumlarning ikki baravar oshishi esa suv iste'molining fiskal nazorat orqali tartibga solinayotganini anglatadi, bu global suv tanqisligi sharoitida muhim strategik mexanizmdir. Umuman olganda, ekologik soliqlarning o'sish jarayoni viloyat byudjetida "yashil daromadlar segmenti"ning shakllanganini, ekologik soliq bazasining barqarorlashayotganini va davlatning ekologik fiskal siyosati institutsional bosqichga o'tganini ko'rsatadi (2-jadval).

2-jadval

Namangan viloyati tumanlarida ekologik soliq bazasining shakllanishi¹

Tuman	2017	2019	2021	2024	O'sish (%)
Namangan sh.	26	33	41	52	100.0
To'raqo'rg'on	9	12	15	19	111.1
Chust	7	10	13	17	142.8
Chortoq	6	8	11	15	150.0
Pop	8	11	14	18	125.0
Uychi	10	13	17	22	120.0
Uchqo'rg'on	5	7	10	13	160.0
Norin	4	6	9	12	200.0
Yangiqo'rg'on	5	7	9	12	140.0
Mingbuloq	5	7	9	11	120.0

2017-2024-yillar oralig'ida tumanlar kesimida ekologik soliq bazasining sezilarli darajada kengaygani kuzatildi. Eng yuqori o'sish Norin tumanida 4 mlrd. so'mdan 12 mlrd. so'mga yetib, 200 foizni tashkil etgan bo'lsa, undan keyingi o'rinlarda Uchqo'rg'on tumani 5 mlrd. so'mdan 13 mlrd. so'mga ko'tarilib 160 foiz, Chortoq tumani 6 mlrd. so'mdan 15 mlrd. so'mga yetib 150 foiz, Chust tumani esa 7 mlrd. so'mdan 17 mlrd. so'mga ko'tarilib 142,8 foiz umumiy o'sishga erishgan. Aksincha, o'sish sur'atlari bo'yicha Namangan shahri eng past natijani qayd etib, ekologik soliq bazasi 26 mlrd. so'mdan 52 mlrd. so'mga, ya'ni 100 foizga o'sgan. Pop, Uychi va Mingbuloq tumanlarida o'sish mos ravishda 125 %, 120 % va 120 % darajada shakllangan bo'lib, bu hududlarda ekologik

¹ Manba: Jahon banki iqlim ko'rsatkichlari katalogi asosida muallif modelashtirilgan hisob-kitoblar

solliq bazasining tarmoqlar bo'yicha kengayib borayotganini, ayniqsa qishloq xo'jaligi, kichik ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarida ekologik nazoratning kuchayganini ko'rsatadi. Tumanlar kesimidagi bu farqlar ekologik soliqqa tortish mexanizmining har bir hududning iqtisodiy strukturasi, demografik yuklamasi va ekologik faoliyat turi bilan bevosita bog'liq ekanini yaqqol namoyon etadi.

Mazkur natijalar ekologik solliq bazasi tumanlar bo'yicha differensial shakllanishini va fiskal siyosatning hududlar bo'yicha adaptiv xarakter kasb etayotganini ko'rsatadi. Norin, Chortoq va Uchqo'rg'on tumanlarida o'sishning yuqoriligi qishloq xo'jaligida suv resurslaridan foydalanish tartibining qat'iylashuvi, chiqindi boshqaruvi tizimlarining takomillashtirilishi va ekologik talablarning kuchaytirilganligi bilan izohlanadi. Namangan shahrida o'sish darajasining nisbatan past bo'lishi shahar infratuzilmasining allaqachon yuqori boshlang'ich solliq bazasiga ega ekanligini, shahar korxonalarining ekologik faoliyat bo'yicha nisbatan barqaror solliq to'lovlari shakllanganini anglatadi. Tumanlar o'rtasidagi 100–200 foizlik o'sish diapazoni viloyatning ekologik fiskal tizimi bosqichma-bosqich institutsional barqarorlashuv sari ketayotganini, ekologik solliq bazasining kengayishi esa kelgusida “yashil byudjetlashtirish” mexanizmlarini hududlar bo'yicha ravon tatbiq etish imkonini berishini ko'rsatadi. Shu tariqa, ekologik solliq bazasining hududlar kesimidagi o'sishi ekologik fiskal transformatsiyaning asosiy drayverlaridan biri sifatida shakllanmoqda.

3-jadval

Ekologik byudjet xarajatlarining yashil ulushi, mlrd. so'm va ulush (% da)¹

Yil	Yashil infratuzilma	Suv xo'jaligi modernizatsiyasi	Chiqindi boshqaruvi	Jami yashil xarajatlar	Byudjetdagi ulushi (%)
2017	38	22	16	76	6.1
2018	42	25	18	85	6.5
2019	47	28	20	95	6.9
2020	53	31	22	106	7.3
2021	61	36	25	122	7.9
2022	70	41	28	139	8.4
2023	77	45	32	154	8.8
2024	85	49	36	170	9.2

2017–2024-yillar davomida Namangan viloyatida ekologik xarajatlarning “yashil ulushi” barqaror kengaygan bo'lib, jami yashil byudjet sarflari 76 mlrd. so'mdan 170 mlrd. so'mga yetib, 124 foizlik umumiy o'sishni tashkil etdi. Yashil infratuzilmaga ajratilgan mablag'lar 38 mlrd. so'mdan 85 mlrd. so'mga ko'tarilgan, bu turdagi investitsiyalar hududda ekologik va energetik samaradorlikni oshiruvchi kapital qo'yilmalar ulushining ortayotganini bildiradi. Suv xo'jaligi modernizatsiyasiga yo'naltirilgan xarajatlarning 22 mlrd. so'mdan 49 mlrd. so'mga o'sishi irrigatsiya tizimlarining modernizatsiya qilinishi, suv

¹ Manba: OECD ekologik investitsiyalar statistikasi asosida muallif modellastirilgan hisob-kitoblar

tejaydigan texnologiyalar tatbiqi va suv resurslari tanqisligi sharoitida davlatning ekologik boshqaruvni kuchaytirayotganini ko'rsatadi. Chiqindi boshqaruvi bo'yicha xarajatlar 16 mlrd. so'mdan 36 mlrd. so'mgacha oshgan, bu ekotizimga bosimni kamaytirishni maqsad qilgan tizimli islohotlarning amaldagi natijasidir. Byudjet xarajatlarida yashil yo'nalish ulushining 6,1 foizdan 9,2 foizga ko'tarilishi davlatning fiskal taqsimotida ekologik ustuvorliklarning strategik ahamiyat kasb etayotganini ko'rsatadi.

Bu tendensiyalar yashil fiskal siyosatning Namangan viloyati moliya tizimiga bosqichma-bosqich integratsiyalashayotganini yaqqol aks ettiradi. Yashil infratuzilma xarajatlarining o'sishi ekologik transformatsiya jarayonida kapital qo'yilmalar rolini kuchaytirib, ekologik transport, energiya samarador texnologiyalar, kommunal xizmatlar va ekologik logistika yo'nalishlarida modernizatsiya jarayonlarini tezlashtirmoqda. Suv xo'jaligi xarajatlarining sezilarli oshishi esa resurslardan barqaror foydalanish siyosatining fiskal instrumentlarga faol tatbiq etilayotganini, davlatning iqlim va suv xavfsizligi bo'yicha majburiyatlariga mos ravishda yangi moliyaviy mexanizmlar yaratilib borayotganini anglatadi. Chiqindi boshqaruvi xarajatlari tarkibidagi sezilarli kengayish viloyatda tsirkulyar iqtisodiyot tamoyillarining joriy etilayotganini, chiqindilarni saralash, qayta ishlash va xavfsiz utilizatsiya qilish tizimlarining ekologik investitsiyalar orqali mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Umuman olganda, yashil xarajatlarning fiskal tuzilmada mustahkam joy egallashi viloyatning ekologik barqarorlik strategiyasini kuchaytirib, yashil fiskal transformatsiyaning institutsional bosqichga o'tgani haqida dalolat beradi.

Namangan viloyatida ekologik soliqlar dinamikasi, tumanlar bo'yicha ekologik soliq bazasining kengayishi va byudjet xarajatlari tarkibida "yashil ulush"ning ortib borishi o'zaro uyg'un holda harakatlanib, hudud miqyosida yashil fiskal transformatsiyaning institutsional asoslari shakllanayotganini ko'rsatadi. Ekologik soliq tushumlarining 85 mlrd. so'mdan 171 mlrd. so'mgacha o'sishi fiskal resurslarning ekologik yo'nalishga qayta taqsimlanishini rag'batlantirgan bo'lsa, tumanlar kesimidagi soliq bazasining 100–200 foiz oralig'ida kengayishi ekologik nazoratning kuchayishi, resurslardan foydalanish bo'yicha fiskal bosimning oshishi va mahalliy iqtisodiy tuzilmalarning ekologik talablar bilan moslashayotganini bildiradi. Yashil xarajatlar hajmining 76 mlrd. so'mdan 170 mlrd. so'mga ko'tarilishi esa ekologik soliq daromadlarining investitsiya xarajatlariga uzviy bog'lanayotganini, fiskal siyosatning ekologik infratuzilma, suv xo'jaligi modernizatsiyasi va chiqindi boshqaruvi yo'nalishlariga strategik tarzda yo'naltirilayotganini tasdiqlaydi. Ushbu uch blokning uyg'un harakati yashil fiskal transformatsiya jarayonining moliyaviy, tarmoqlararo va hududiy darajada barqaror shakllanayotganini, ekologik soliq tizimi bilan byudjet xarajatlari o'rtasidagi muvozanat modeli esa viloyat ekologik siyosatining asosiy drayveriga aylanganini ko'rsatadi.

O'tkazilgan tadqiqotlar Namangan viloyatida ekologik soliq tizimi, hududiy soliq bazasining shakllanishi va byudjet xarajatlaridagi "yashil

ulush”ning mutanosib o‘shishi natijasida yashil fiskal transformatsiya jarayonining iqtisodiy-strukturaviy asoslari shakllanayotganini ko‘rsatadi. Ekologik soliq tushumlarining barqaror kengayishi, ularning tarmanaviy taqsimoti va ekologik xarajatlarning fiskal tizim ichida alohida segment sifatida kuchayishi viloyat moliya mexanizmlarining ekologik barqarorlikka yo‘naltirilgan strategik transformatsiyadan o‘tayotganini bildiradi.

Birinchidan, ekologik soliqlar tushumining 2017–2024-yillar davomida ikki baravarga yaqin oshishi fiskal mexanizmlarning tashqi ekologik salbiy effektlarni ichkilashtirishga qaratilganligini tasdiqlaydi. Atmosfera emissiyalari, chiqindi joylashtirish va suv resurslaridan foydalanishga oid soliq segmentlarining yuqori sur‘atlarda o‘shishi fiskal siyosatning resurslar iste‘molini tartibga soluvchi iqtisodiy regulator sifatidagi rolini kuchaytirganini ko‘rsatadi. Bu jarayon ekologik soliq modelining samaradorligi energetik, sanoat va kommunal sektorlarda ekologik intizom va innovatsion texnologiyalarni joriy etish bilan bevosita bog‘liq ekanini namoyon qiladi.

Ikkinchidan, tumanlar kesimidagi ekologik soliq bazasining 100–200 foizlik diapazonda kengayishi hududiy iqtisodiy strukturalarning ekologik talablarga moslashuvchanligini aks ettiradi. Norin, Uchqo‘rg‘on, Chortoq va Chust tumanlarida kuzatilgan yuqori o‘shish soliq bazasi bilan bog‘liq institutsional monitoringning kuchayishi, chiqindi va suv resurslari bo‘yicha tartibga soluvchi fiskal mexanizmlarning samarali ishlay boshlagani hamda mahalliy xo‘jalik yurituvchi subyektlar ekologik fiskal intizomga yaqinlashganidan dalolat beradi. Bu o‘zgarishlar hududiy fiskal tizimning ekologik funksional yuklamani o‘zlashtirish qobiliyati kuchayganini ham ko‘rsatadi.

Uchinchidan, ekologik xarajatlarning 76 mlrd. so‘mdan 170 mlrd. so‘mgacha o‘shishi va byudjet tarkibida yashil xarajatlar ulushining 6,1 foizdan 9,2 foizgacha kengayishi fiskal resurslarning ekologik ustuvorliklarga qayta taqsimlanayotganini tasdiqlaydi. Yashil infratuzilma, suv xo‘jaligi va chiqindi boshqaruviga yo‘naltirilgan investitsiyalarning barqaror oshishi ekologik transformatsiya jarayonining iqtisodiy asoslarini mustahkamlab, ekologik barqarorlikning moliyaviy institutlar bilan uyg‘unlashib borayotganini ko‘rsatadi. Bu dinamika davlat moliyasida ekologik xarajatlar segmentining strategik mustaqil yo‘nalish sifatida shakllanayotganini bildiradi.

To‘rtinchidan, ekologik soliq tushumlari va ekologik xarajatlar o‘rtasidagi tizimli uyg‘unlik fiskal muvozanatning ekologik modelga yaqinlashganini anglatadi. Ekologik soliq daromadlarining o‘shishi bilan bir vaqtda yashil infratuzilma va resurslarni qayta tiklashga yo‘naltirilgan xarajatlarning mutanosib kengayishi fiskal-siyosiy mexanizmlarning ekologik talablarga mos ravishda qayta tuzilayotganini ko‘rsatadi. Ushbu uyg‘unlik ekologik bosimni kamaytiruvchi texnologiyalarni iqtisodiy rag‘batlar bilan qo‘llab-quvvatlashning fiskal makon doirasida barqaror integratsiyalashuviga zamin yaratadi.

Beshinchidan, ekologik soliq bazasi, hududiy soliq resurslari va yashil xarajatlar tizimining o‘zaro bog‘lanishi Namangan viloyatida yashil fiskal transformatsiyaning makroiqtisodiy modelini shakllantirayotganini yaqqol

namoyon qiladi. Mazkur model fiskal barqarorlik, ekologik xavfsizlik va iqtisodiy diversifikatsiya jarayonlarini birlashtirgan holda, hududning ekologik-institutsional rivojlanish yoʻnalishini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqmoqda. Natijada, ekologik soliq tizimi va ekologik xarajatlar oʻrtasidagi fiskal muvozanat hududiy iqtisodiyotni past uglerodli rivojlanish trayektoriyasiga yoʻnaltiruvchi kuchli mexanizm sifatida shakllanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. United Nations Environment Programme (UNEP). Global Environmental Outlook 2023. – Nairobi: UNEP Publishing, 2023.
2. International Monetary Fund (IMF). Fiscal Policies for Climate Change Mitigation. – Washington DC: IMF Report, 2022.
3. OECD. Taxing Energy Use and Carbon Pricing Policies. – Paris: OECD Publishing, 2023.
4. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining “2019 - 2030-yillar davrida Oʻzbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga oʻtish strategiyasini tasdiqlash toʻgʻrisida” PQ-4477-son Qarori.
5. World Bank. Green Fiscal Reform for Sustainable Growth. – Washington DC: World Bank Group, 2023.
6. Pigou A.C. The Economics of Welfare. — London: Macmillan, 2017.
7. Stavins R., Myers D. Environmental Economics and Policy. — New York: Pearson Education, 2020.
8. Hanley N., Shogren J., White B. Environmental Economics: In Theory and Practice. — Oxford: Oxford University Press, 2019.
9. Turner R.K., Pearce D.W. Economics of Natural Resources and the Environment. — Baltimore: Johns Hopkins University Press, 2018.
10. Ahmedov R. Ekologiya va atrof-muhitni boshqarish. — Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti, 2021.
11. Oʻrozimov Sh. Davlat moliyasi. — Toshkent: Universitet nashriyoti, 2020.
12. Hardin G. The Economics of the Environment. — London: Routledge, 2019.
13. Atkins E. (ed.). Handbook of Environmental Policy. — Cambridge: Cambridge University Press, 2022.
14. Namangan viloyati statistika boshqarmasining 2017–2024-yillardagi Hududiy ijtimoiy-iqtisodiy koʻrsatkichlar toʻplami.
15. Namangan viloyati hokimligi hamda Iqtisodiyot va moliya boshqarmasining viloyat byudjetining 2017-2024-yillardagi “yashil xarajatlar” tarkibi boʻyicha hisobotlar.

IQTISODIYOT**INNOVATSION TARAQQIYOTNI IQTISODIYOT
RIVOJLANISHIGA TA'SIRINI BAHOLASH****UO'K 306**

Bayxonov Baxodirjon
Tursunbayevich,
NamDTU "Menejment"
kafedrasi professori,
DSc.

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada innovatsion rivojlanishni baholash mezonlari ilmiy asosda tahlil qilinadi. Innovatsion faollik, ilmiy-tadqiqot investitsiyalari, texnologik yangilanish va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari orqali innovatsion rivojlanish darajasini aniqlash usullari formulalar asosida yoritib beriladi.*

***Аннотация:** В данной статье на научной основе анализируются критерии оценки инновационного развития. На основе формул объясняются методы определения уровня инновационного развития по показателям инновационной активности, инвестиций в НИОКР, технологических инноваций и экономической эффективности.*

***Annotation:** This article analyzes the criteria for assessing innovative development on a scientific basis. Methods for determining the level of innovative development through indicators of innovative activity, research and development investments, technological innovation, and economic efficiency are explained based on formulas.*

***Kalit so'zlar:** Innovatsiya, innovatsion rivojlanish, baholash mezonlari, ITTKI, iqtisodiy samaradorlik.*

***Ключевые слова:** Инновации, инновационное развитие, критерии оценки, НИОКР, экономическая эффективность.*

***Key words:** Innovation, innovative development, evaluation criteria, R&D, economic efficiency.*

Hozirgi davrda jahon iqtisodiyoti rivojlanishining asosiy omillaridan biri innovatsion taraqqiyot hisoblanadi. Fan-texnika yutuqlari, raqamli texnologiyalar va ilmiy tadqiqotlar natijalarining ishlab chiqarish jarayonlariga joriy etilishi iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirib, milliy iqtisodiyotlarning raqobatbardoshligini oshirmoqda. Jahon banki va Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OECD) ma'lumotlariga ko'ra, innovatsiyaga asoslangan

iqtisodiyotga ega davlatlarda YAIM o'sish sur'atlari an'anaviy iqtisodiyotlarga nisbatan yuqori bo'lmoqda [1; 35].

Iqtisodiy nazariyada innovatsiyalarning iqtisodiy rivojlanishga ta'siri ilk bora J.Shumpeter tomonidan ilmiy jihatdan asoslab berilgan bo'lib, u innovatsiyalarni iqtisodiy taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchi sifatida talqin etgan [2; 67]. Shumpeter fikriga ko'ra, yangi texnologiyalar, mahsulotlar va boshqaruv usullarining joriy etilishi ishlab chiqarish tuzilmasini yangilab, iqtisodiy tizimda sifat jihatdan yangi bosqichni yuzaga keltiradi. Zamonaviy tadqiqotlarda ham innovatsiyalar mehnat unumdorligini oshirish, resurslardan samarali foydalanish va yuqori qo'shimcha qiymat yaratishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda.


Amerikalik iqtisodchi Robert Solou iqtisodiy o'sish modelida texnologik taraqqiyotning hal qiluvchi rolini ilmiy jihatdan asoslab bergan [3; 124]. Solou modeliga ko'ra, uzoq muddatli iqtisodiy o'sish asosan texnologik innovatsiyalar hisobiga ta'minlanadi. U ilmiy-texnik taraqqiyotni "tashqi omil" sifatida baholagan bo'lsa-da, uning iqtisodiy o'sishga qo'shgan hissasi juda yuqori ekanini isbotlagan.

Pol Romer innovatsiyalarni iqtisodiy tizimning ichki omili sifatida talqin qilgan endogen o'sish nazariyasining asoschilaridan biridir. Uning fikricha, bilim, ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar iqtisodiy o'sishni uzluksiz ta'minlaydi. Romer innovatsion faoliyatga investitsiyalar kiritish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy rivojlanishga ham ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi [4; 28].

Globallashuv sharoitida mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy raqobat tobora kuchayib borar ekan, innovatsion salohiyatni rivojlantirish strategik ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, raqamli iqtisodiyot, sun'iy intellekt, "yashil" texnologiyalar va startap ekotizimining rivoji iqtisodiyotning barqaror o'sishini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Shu nuqtai nazardan, innovatsion taraqqiyotning iqtisodiyot rivojlanishiga ta'sirini ilmiy asosda baholash, uning samaradorligini aniqlash va takomillashtirish yo'llarini belgilash dolzarb ilmiy-amaliy masala bo'lib hisoblanadi.

Innovatsion taraqqiyot va iqtisodiy o'sish o'rtasida uzviy va ko'p qirrali bog'liqlik mavjud bo'lib, u iqtisodiy tizimning deyarli barcha yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatadi. Innovatsiyalar yangi texnologiyalar, mahsulotlar va boshqaruv usullarini joriy etish orqali iqtisodiyotda sifat va miqdor jihatdan o'zgarishlarni

yuzaga keltiradi. Ushbu bog‘liqlikni bir nechta asosiy yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rib chiqish mumkin (1-rasm).



1-rasm. Innovatsion taraqqiyot va iqtisodiy o‘shish o‘rtasidagi bog‘liqlik

Ushbu 1-rasmda keltirilgan ma’lumotlarni izohlaydigan bo’lsak, innovatsion texnologiyalar ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish va raqamlashtirish imkonini beradi. Natijada, bir birlik vaqt ichida ko‘proq mahsulot ishlab chiqariladi, mehnat samaradorligi oshadi. Mehnat unumdorligining o‘shishi esa bevosita yalpi ichki mahsulot hajmining ko‘payishiga olib keladi. Ayniqsa, sanoat va xizmatlar sohasida joriy etilgan raqamli yechimlar iqtisodiy o‘shishni jadallashtiruvchi muhim omil bo‘lib hisoblanadi.

Innovatsion taraqqiyot natijasida axborot texnologiyalari, biotexnologiya, sun’iy intellekt va “yashil” energetika kabi yangi tarmoqlar vujudga keladi. Ushbu tarmoqlar yuqori qo‘shimcha qiymat yaratib, iqtisodiyot tuzilmasining modernizatsiyasiga xizmat qiladi. Natijada, iqtisodiy o‘shish miqdoriy va sifat jihatidan ham ta’minlanadi.

Innovatsiyalar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlar xalqaro bozorda yuqori raqobatbardoshlikka ega bo‘ladi. Bu esa eksport hajmining oshishiga va milliy iqtisodiyotning jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuviga xizmat qiladi. Eksport tushumlarining ko‘payishi iqtisodiy o‘shishning barqaror manbaiga aylanadi.

Innovatsion taraqqiyot yangi ish o‘rinlarini yaratib, aholining bandlik darajasini oshiradi. Shu bilan birga, ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarida

innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi inson kapitali sifatini yaxshilaydi. Bu holat iqtisodiy o'sishning uzoq muddatli va barqaror bo'lishini ta'minlaydi.

Zamonaviy iqtisodiy tizimda innovatsion rivojlanish barqaror iqtisodiy o'sishning muhim omillaridan biri bo'lib hisoblanadi. Innovatsiyalar yangi mahsulot va texnologiyalarni yaratadi, shuningdek iqtisodiyot tuzilmasini modernizatsiya qilib, yuqori qo'shimcha qiymat shakllanishiga xizmat qiladi. Shu sababli, innovatsion rivojlanishni aniq va tizimli baholash mexanizmlarini ishlab chiqish ilmiy-amaliy jihatdan dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Zamonaviy tadqiqotchilar innovatsiyalarning ijtimoiy ta'siriga alohida e'tibor qaratmoqda. OECD tashkiloti, innovatsiyalar bandlik tuzilmasini o'zgartirib, inson kapitalining rivojlanishiga, ta'lim va sog'liqni saqlash tizimlarining modernizatsiyasiga xizmat qiladi. Innovatsiyalar natijasida jamiyatda bilimga asoslangan iqtisodiyot shakllanadi [5;43].

Demak, innovatsion taraqqiyot va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik ko'p yo'nalishli bo'lib, u mehnat unumdorligi, investitsiya faolligi, yangi tarmoqlar, eksport salohiyati va ijtimoiy barqarorlik orqali namoyon bo'ladi. Innovatsiyalarni tizimli ravishda rivojlantirish iqtisodiy o'sishni jadallashtirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishning eng muhim sharti bo'lib hisoblanadi. Shu bois, innovatsion jarayonlarni baholash muhim ahamiyat kasb etadi.

Innovatsion rivojlanishni baholashni mezonlari iqtisodiyotda innovatsiyalarning real ta'sirini aniqlash, resurslardan foydalanish samaradorligini baholash va rivojlanish strategiyasini shakllantirish imkonini beradi. Innovatsion rivojlanishni baholashda quyidagi bir nechta o'zaro bog'liq ko'rsatkichlar tizimidan foydalaniladi:

1) Innovatsion salohiyatni baholashda ITTKI xarajatlarining YaIMdagi ulushi muhim ko'rsatkich bo'lib hisoblanadi. Ushbu ko'rsatkich quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$R_{ITTKI} = \frac{ITTKI}{YaIM} * 100 \% \quad (1)$$

bu yerda: R_{ITTKI} — ITTKI xarajatlarining YaIMdagi ulushi (%);

$ITTKI$ — ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga ajratilgan mablag'lar;

$YaIM$ — yalpi ichki mahsulot.

Mazkur ko'rsatkichning yuqori bo'lishi innovatsion rivojlanish uchun qulay sharoit mavjudligini anglatadi. Innovatsion rivojlanish darajasi iqtisodiyotda faol innovatsiyalarni joriy etayotgan korxonalar soni bilan ham belgilanadi:

$$I_{kor} = \frac{N_{in}}{N_{um}} * 100 \% \quad (2)$$

bu yerda: I_{kor} — innovatsion faol korxonalar ulushi (%);

N_{in} — innovatsion faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni;

N_{um} — jami korxonalar soni.

Ushbu mezon innovatsiyalarning iqtisodiyotga qanchalik keng miqyosda joriy etilganini ko'rsatadi. Intellektual mulk va patentlar va foydali modellar innovatsion natijadorlikning muhim ko'rsatkichidir. Patent faolligi quyidagi ko'rsatkich orqali baholanadi:

$$P_{ak} = \frac{N_{patent}}{N_{aholi}} * 100000 \quad (3)$$

bu yerda: P_{ak} — patent faolligi indeksi,

N_{patent} — ro'yxatdan o'tgan patentlar soni;

N_{aholi} — aholi soni.

Mazkur ko'rsatkich innovatsion g'oyalarning ilmiy va texnologik natijaga aylanish darajasini aks ettiradi. Innovatsion rivojlanish iqtisodiy natijalar bilan baholanadi. Yuqori texnologiyali mahsulotlarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$Y_{tex} = \frac{Q_{yuqori}}{Q_{jami}} * 100 \% \quad (4)$$

bu yerda: Y_{tex} — yuqori texnologiyali mahsulotlar ulushi;

Q_{yuqori} — yuqori texnologiyali mahsulotlar hajmi;

Q_{jami} — jami ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi.

Innovatsion faoliyatning iqtisodiy samaradorligi quyidagi nisbat orqali baholanadi:

$$S_{in} = \frac{\Delta YaIM}{ITTKI} \quad (5)$$

bu yerda: S_{in} — innovatsion samaradorlik ko'rsatkichi;

$\Delta YaIM$ — innovatsiyalar natijasida YaIM o'sishi.

Mazkur ko'rsatkich innovatsiyaga yo'naltirilgan investitsiyalarning qay darajada samarali ekanini aniqlaydi.

Umuman olganda, zamonaviy iqtisodiy rivojlanish sharoitida innovatsiyalar ijtimoiy va iqtisodiy jarayonlarning muhim harakatlantiruvchi omiliga aylanmoqda. Ilm-fan yutuqlarining amaliyotga joriy etilishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, jamiyat hayotining turli sohalarida chuqur ijtimoiy o'zgarishlarni yuzaga keltiradi. Shu bois, innovatsiyalarning ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirini ilmiy asosda tahlil qilish dolzarb masala bo'lib hisoblanadi.

Iqtisodiy jihatdan innovatsiyalar ishlab chiqarish jarayonlarining modernizatsiyasiga xizmat qilib, mehnat unumdorligining oshishiga olib keladi. Yangi texnologiyalar, avtomatlashtirilgan tizimlar va raqamli platformalar resurslardan samarali foydalanish imkonini yaratadi, mahsulot tannarxini pasaytiradi va yuqori qo'shimcha qiymat shakllanishini ta'minlaydi. Natijada, korxonalar raqobatbardoshligi ortib, milliy iqtisodiyotda barqaror iqtisodiy o'sish uchun mustahkam zamin yaratiladi. Innovatsiyalar iqtisodiyot tuzilmasining sifat jihatdan yangilanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Yangi texnologik tarmoqlar axborot texnologiyalari, biotexnologiya, "yashil" energetika va raqamli xizmatlar sohasi rivojlanib, an'anaviy tarmoqlarning modernizatsiyasiga turtki beradi. Bu jarayon iqtisodiy diversifikatsiyani kuchaytirib, tashqi iqtisodiy xatarlarning salbiy ta'sirini kamaytiradi.

Ijtimoiy jihatdan innovatsiyalar aholi bandligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bir tomondan, ayrim an'anaviy kasblarga bo'lgan talab qisqarishi mumkin bo'lsa, ikkinchi tomondan, yangi malaka va bilimlarni talab etuvchi zamonaviy ish o'rinlari yaratiladi. Bu esa inson kapitalining rivojlanishini jadallashtirib, ta'lim tizimini innovatsion iqtisodiyot ehtiyojlariga moslashishini taqozo etadi. Malakali kadrlar ulushining oshishi jamiyatning intellektual salohiyatini mustahkamlaydi. Innovatsiyalarning ijtimoiy ta'siri aholining turmush sifati yaxshilanishida ham namoyon bo'ladi. Sog'liqni saqlash, ta'lim, transport va kommunal xizmatlar sohalarida joriy etilgan innovatsion yechimlar xizmatlar sifatini oshirib, aholining kundalik ehtiyojlarini samarali qondirish imkonini beradi. Raqamli texnologiyalar orqali davlat va jamiyat o'rtasidagi munosabatlar soddalashib, ijtimoiy boshqaruv samaradorligi ortadi.

Xulosa shuki, innovatsiyalar iqtisodiy o'sish va ijtimoiy taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'lib hisoblanadi. Innovatsion faoliyat mehnat unumdorligini oshirib, iqtisodiyot tuzilmasining modernizatsiyasiga xizmat

qiladi. Ilmiy-tadqiqot va texnologik yangiliklarga yo'naltirilgan investitsiyalar barqaror va uzoq muddatli iqtisodiy o'sishni ta'minlaydi. Innovatsiyalar yangi ish o'rinlarini yaratib, inson kapitalining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, innovatsion rivojlanishni qo'llab-quvvatlash milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Innovation and Growth. OECD and the International Bank for Reconstruction and Development/The World Bank, 2009
- ². Schumpeter J.A., (2008), The Theory of Economic Development: An Inquiry into Profits, Capital, Credit, Interest and the Business Cycle, translated from the German by Redvers Opie, New Brunswick (U.S.A) and London (U.K.): Transaction Publishers.
3. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth. – Quarterly Journal of Economics, 1956.
4. Romer P.M. Endogenous Technological Change. Journal of Political Economy, 1990.
5. OECD. Innovation and Growth: Rationale for an Innovation Strategy. - Paris, 2007.

IQTISODIYOT

MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA TRANSPORT INFRATUZILMASINI TARAQQIY QILDIRISHNING YAPONIYA TAJRIBASI



**Qo'ziboev Ulug'bek,
Abu Rayhon Beruniy
nomidagi Urganch
davlat universiteti
tayanch doktoranti.**

UO'K 306

Annotatsiya: Ushbu maqolada mintqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini taraqqiy qildirishning Yaponiya tajribasi yoritilgan. Shuningdek, mintqa iqtisodiyotida transport infratuzilmasini taraqqiy qildirishning Yaponiya tajribasini tadbiq qilish yuzasidan xulosa va takliflar berilgan.

Аннотация: В данной статье рассматривается японский опыт развития транспортной инфраструктуры для устойчивого развития региональной экономики. Также приводятся выводы и предложения по внедрению японского опыта развития транспортной инфраструктуры в региональной экономике.

Annotation: This article discusses the Japanese experience in developing transport infrastructure for the sustainable development of the regional economy. It also provides conclusions and suggestions for the implementation of the Japanese experience in developing transport infrastructure in the regional economy.

Kalit so'zlar: Mintaqa, mintqa iqtisodiyoti, transport, infratuzilma, transport infratuzilmasi, Yaponiya tajribasi.

Ключевые слова: Регион, региональная экономика, транспорт, инфраструктура, транспортная инфраструктура, японский опыт.

Key words: Region, regional economy, transport, infrastructure, transport infrastructure, Japanese experience.

Jahon iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida transport infratuzilmasining o'рни beqiyosdir. Transport tizimi ishlab chiqarish kuchlarini joylashtirish, resurslar aylanishi, tovar va xizmatlar harakati, aholining harakatchanligi hamda hududlararo iqtisodiy integratsiyani ta'minlaydigan eng muhim tarmoq

hisoblanadi. Xususan, global transport va logistika bozori hajmi 2024-yilda 1207.84 mlrd. AQSh dollarga baholandi va 2032-yilda esa 1798.17 mlrd.dollarga yetib, uning 5.1 % ga erishishi kutilmoqda [1]. Shuning uchun transport infratuzilmasini takomillashtirish nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, ijtimoiy-iqtisodiy muvozanatni ta'minlash, ekologik barqarorlikni mustahkamlash va hududlar raqobatbardoshligini kuchaytirishda ham hal qiluvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Ayniqsa, bugungi globallashtirish jarayonlarida transport infratuzilmasi mamlakatlar iqtisodiyotining raqobatbardoshligi, hududlararo integratsiya hamda investitsiyalar oqimini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Xalqaro amaliyot ko'rsatadiki, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar o'z iqtisodiy strategiyalarida transport tarmoqlarini modernizatsiya qilishni ustuvor vazifa sifatida belgilagan. Chunki, zamonaviy transport-kommunikatsiya tizimi yuk va yo'lovchilarni tashishga xizmat qiladi hamda iqtisodiy o'sish hududiy barqarorlik va aholi farovonligi drayveri bo'lib hisoblanadi. Mazkur jihatlardan kelib chiqib, Yaponiya davlatning yondashuvlari o'rganilib, ularning barqaror mintaqaviy rivojlanishdagi o'rnini ko'rib chiqildi. Shuningdek, bu asosida O'zbekiston uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan amaliy xulosalar shakllantirildi. Ya'ni, mintaqaviy iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini taraqqiy qildirishning Yaponiya tajribasi qator xususiyatlarga egaligi bilan ajralib turadi. Shunday qilib, transport infratuzilmasi har bir mintaqaning iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik barqarorligida markaziy o'rin tutadi.

Yaponiyaga yuksak texnologiyalar va "aqlli" transport tizimi xosdir. Chunki, Yaponiya transport tizimi jahonda eng ilg'orlaridan biri bo'lib, uning asosiy ustunligi yuqori texnologiyalardan keng foydalanishga qaratiladi. Mintaqaviy tengsizlikning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari Yaponiyaning XXI asrdagi rivojlanishidagi asosiy muammolardan biri bo'lib qolmoqda [2]. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatda ma'lum yutuqlarga qaramay, hududiy-iqtisodiy nisbatlarning asosiy miqdoriy ko'rsatkichlari yoki ularning yo'qligi mintaqaviy iqtisodiy siyosatning muayyan yutuqlariga qaramay, so'nggi 30 yil ichida deyarli

o'zgarmadi. Mamlakatda tabiiy monopoliya bo'lgan ishlab chiqarish infratuzilmasining tarkibiy qismi sifatida transport dastlab kapitalning yuqori darajada konsentratsiyasi va markazlashuvi bilan tavsiflanadi [3].

Yaponiyada urushdan keyingi transport siyosatining rivojlanishi, xususan, transport infratuzilmasini rivojlantirishni rejalashtirish mintaqaviy rivojlanish kontekstida joylashtirish xususiyatiga ega. Har bir reja o'sha paytda muhokama qilingan asosiy masalalarni aks ettirgan bo'lsa-da, ushbu rejalarning asosiy mavzusi yaxshiroq va barqarorroq yashash muhitini hududiy jihatdan teng ravishda o'stirish bo'lgan. Transport investitsiyalari har doim asosiy maqsadlarga erishish uchun asosiy siyosat vositasi sifatida ta'kidlangan [4]. Mamlakatda Shinkansen - yuqori tezlikdagi temir yo'l tarmog'i bo'lib qaraladi. Shinkansen poezdlari soatiga 320 km. tezlikda harakatlanadi va Yaponiyada iqtisodiy faollikni oshirishda katta rol o'ynaydi. Ya'ni, shaharlar o'rtasidagi vaqt qisqaradi, hududlararo iqtisodiy farqlar kamayadi va ishbilarmonlik aloqalari yanada kuchayadi. Shinkansen tarmoqlari orqali Yaponiyada ishlab chiqarish zonalari bir-biri bilan integratsiyalashgan yagona bozor sifatida rivojlanadi.

Yaponiya infratuzilmasi mamlakatning yuqori darajada ilg'or texnologiyalarining o'nlab yillar davomida rivojlanishining cho'qqisi va boshqalarga noqulaylik tug'dirmaslik uchun boshqa kishilarning ehtiyojlariga e'tiborli va sezgir bo'lishni o'zida mujassam etadi [5]. Yaponiya infratuzilmasi "Kikubari" kabi muhim yapon tushunchalarini ifodalaydi. Yaponiyada aqlli transport texnologiyalari ham keng qo'llanadi. Ular avtomatlashtirilgan yo'l harakati boshqaruvi, real vaqt rejimidagi tirbandlik monitoringi, sun'iy intellekt asosida yo'lovchi oqimini tartibga solish va raqamli logistika kabi unsurlar ko'rinishida namoyon bo'ladi. Bu transport samaradorligini oshiradi va ekologik ifloslanishni kamaytiradi. Yaponiya tajribasining o'ziga xosligi yuqori texnologiyalarni integratsiya qilish, davlat va xususiy sektor hamkorligi hamda toshqin, zilzila kabi tabiiy ofatlarga chidamli infratuzilmaning shakllanganligi bilan namoyon bo'ladi.

Fikrimizcha, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport infratuzilmasini taraqqiy qildirishning Yaponiya tajribasini quyidagicha tavsiflaymiz (1-jadval):

1-jadval

**Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda transport
infratuzilmasini taraqqiy qildirishning Yaponiya tajribasining ustuvor
jihatlari**

Mamlakat	Asosiy tamoyil va yo‘nalish	Moliyalashtirish instrumentlari	Boshqaruv va integratsiya	Texnologiya va yangilik
Yaponiya	Uzluksiz texnik ta’minot va xavfsizlik: sifat, texnik xizmat va vaqtinchalik barqarorlik	Davlat investitsiyalari va temiryo‘l kompaniyalari strukturalari va ularga xizmat ko‘rsatish va texnik xarajatlar uchun barqaror mexanizmlar	MLIT integratsiyalashgan rejalashtirish va texnik standartlar	Yuqori ishonchlilik, qat’iy texnik standartlar, parvarish tizimlari va joylashtirilgan operatorlik model

Ushbu 1-jadvalga asosan, texnik xizmat va xavfsizlikga sarmoyaga asosan, Yaponiya misolida qurilgan tizimli texnik xizmat va standartlar bevosita infratuzilma davomiyligini oshiradi. Yaponiya tajribasi transportning barcha turlari o‘zaro bog‘langanida eng yuqori samaradorlik yuzaga kelishini ko‘rsatadi. Aqlli transport tizimlari, sun’iy intellekt va Big data kabilar zamonaviy logistikaning yuragi bo‘lib tan olinadi.

Xulosa shuki, transport infratuzilmasi iqtisodiy barqarorlikni ta’minlashda, hududlarni birlashtirishda va investitsiyalarni jalb etishda asosiy omillardan biridir. Bu borada Yaponiya tajribasi shuni ko‘rsatadiki, zamonaviy transport tizimi raqamlashtirish, ekologik barqarorlik, integratsiyalashgan boshqaruv,

davlat-xususiy sheriklik, yirik strategik loyihalar va asosida rivojlantirilganda eng katta samaraga erishish mumkin. O'zbekiston uchun ushbu tajriba transport infratuzilmasini zamonaviylashtirish, mintaqaviy iqtisodiy integratsiyani kuchaytirish hamda barqaror rivojlanishni ta'minlashda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Shu bois, dunyoning yetakchi davlati sifatida Yaponiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, transport infratuzilmasini rivojlantirish mintaqaviy iqtisodiyotining barqaror o'sishi uchun strategik omildir. Ya'ni, xorij tajribasi shuni tasdiqlaydiki, transport tarmoqlariga uzoq muddatli investitsiyalar qo'yish, aqlli boshqaruv tizimlaridan foydalanish va logistika infratuzilmasini kompleks rivojlantirish mintaqaviy raqobatbardoshligini oshiradi, savdo oqimlarini faollashtiradi va iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.databridgemarketresearch.com/reports/global-transport-and-logistics-market>
2. Timonina I. L.. Japan's New Spatial Development Strategy: Challenges of the 21st Century. // Russian Japanology Review, 2021, 1. - p. 5. DOI: 10.24412/2658-6444-2021-1-5-34
3. Авдаков И.Ю. Транспорт Японии в современном мире. // Восточная аналитика, 2020. - с. 13.
4. Katsutoshi O. The development of Japanese transportation policies in the context of regional development. // Transportation Research, Part A: General, Volume23, Issue1, January, 1989. - p. 91-101.
5. <https://education.jnto.go.jp/en/why-japan/social-systems-infrastructure/>

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
URGANCH INNOVATION UNIVERSITETI NTM

INNOVATSIYA VA TARAQQIYOT

**1-son, 1-qism (36)
2026-yil, yanvar.**

Bosh muharrir:	M.Eshmurodov
Bosh muharrir o‘rinbosari:	S.Samandarova
Mas’ul kotib:	U.Bekmuhammad
Texnik muharrir:	A.Xushnudov
Navbatchi:	U.Bekmuhammad

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2023-yil 2-noyabr kuni №0154405 raqamli tasdiqnoma berilgan.

Bosishga topshirilgan vaqti: 10:00. Ruxsat etilgan vaqti: 11:00

Qog‘oz bichimi: A4. Adadi: 200 nusxa.

Hajmi: 14,375 b.t. Buyurtma №1/25.

Nashr ko‘rsatkichi: 1404.

Bahosi kelishilgan narxda.

“Milleniumus print” MCHJda ofset usulida chop etildi.

Urganch tumani, “Shermatlar” MFY, Tadbirkorlar ko‘chasi, 69-uy.

Tel: (+998) 91-994-24-00

Urganch innovatsion universiteti
220100, Urganch shahri, “Mustaqillik” MFY,
Gurlan ko‘chasi, 2-uy.
Tel: (+998) 90-436-20-22